

НАШРИЁТИМИЗ
«ХАЗИНАСИДАН»



ГУЛЛИВЕРНИНГ САЁҲАТЛАРИ

ЖОНАТАН СВИФТ



Jonatan Svift

Gulliverning Sayohatlari

Liliputiyaga sayohat



Brobbingnegga sayohat



Laputu, Balnibarbi,
Laggnegg, Glabbdobdrib
va Yaponiyaga sayohat



Guigngnmlar
mamlakatiga sayohat

84.4


S-37

Jonatan Svift. Gulliverning sayohatlari. — Toshkent: SMI-ASIA, 2009.

Buyuk ingliz yozuvchisi Jonatan Svift yozgan «Gulliverning sayohatlari» romani jahon bolalar adabiyotining durdonalaridan biri hisoblanadi. Uni kattalar ham, yosh kitobxonlar ham birdek sevib o'qiydilar.

Adib sarguzashtlar ishqibozi bo'lgan shifokor Gulliverning ajoyibg'aroyib sarguzashtlari vositasida o'z davridagi har xil urf-odatlarini, koloq odamlarni, ayniqsa, qirollik saroyidagi laganbardorlik, xushomad-go'ylik, hasadgo'ylik hamda mamlakatni boshqarishda avj olib ketgan turli nuqsonlarni, illatlarni qattiq tanqid qiladi.

Dunyodagi barcha xalqlar tillariga tarjima qilingan va millionlab nusxalarda qayta-qayta chop etilgan bu dilbar asar aziz hamrohingizga, yaqin do'stingizga aylanib qolishiga ishonamiz.



Mazkur kitob UNICEF va IKEA Ijtimoiy Tashabbusi tomonidan qo'llab-quvvatlangan loyiha doirasida nashr etildi.

Sotish uchun mo'ljallanmagan.

ISBN 978-9943-17-005-6

© Sotiboldi Yuldoshev (o'zbek tiliga tarjima)

© Anvar Mamadjanov (rasmlar)

© SMI-ASIA

LILIPUTIYAGA SAYOHAT

BIRINCHI BOB

MUALLIF O'ZI HAMDA O'Z OILASI HAQIDA BA'ZI BIR MA'LUMOTLARNI MA'LUM QILADI. SAYOHATGA BO'LGAN DASTLABKI MAYL. U KEMA HALOKATIGA DUCHI KELADI. SUZIB O'ZINI QUTQARADI VA LILIPUTLAR MAM-LAKATI SOHILIGA ESON-OMON YETIB OLADI. UNI ASIR QILIB MAMLAKAT ICHKARISIGA OLIB KETISHADI.

Men Nottingempshirda tug'ilganman, u yerda otamning uncha katta bo'lmagan mulki bor edi. Yoshim o'n to'rtga to'lganda otam meni Kembrij shahridagi Imanyuyel kollejiga o'qishga yubordi. U yerda uch yil bilimlarni zo'r hafsala bilan o'rgandim. Biroq, kollejda o'qishim uchun mablag' yetkazib berishga otamning qudrati yetmay qoldi, shuning uchun u meni u yerdan olib, Londondagi mashhur vrach Jems Betsga shogirdlikka berdi, undan to'rt yil ta'lim oldim. Otam har zamonda yuborgan pullarining hammasini navigasiya hamda matematikaning boshqa sohalarini o'rganishga sarfladim. Bu fanlar hammasi sayohatda qo'l kelishi mumkin, men esa, taqdir meni sayohatchi qiladi, degan fikrga qattiq ishongandim. Mister Betsnikidan ketib, uyga Nottingempshirga qaytib keldim. Otam, tog'am Jons hamda boshqa qarindosh-urug'larimizning qo'llab-quvvatlashi tufayli qirq funt to'plashga muvaffaq bo'ldim va ma'lumot olishni davom ettirish uchun Leydenga jo'nashga ahd qildim. Qarindosh-urug'larim menga har yili o'ttiz funtdan pul yuborishga va'da qilishdi. Leyden shahrida, uzoq sayohatlarda asqatib qolishini bilib, ikki yilu yetti oy tibbiyotni o'rgandim.

Leydendan qaytgach, saxovatli ustozim mister Betsning yordamida kapitan Eybregem Pennell qo'mondonlik qilayotgan «Qaldirg'och» kemasiga jarroh bo'lib ishga kirdim. Ana shu kemada uch yarim yil xizmat qildim. Levant va boshqa

mamlakatlarga sayohat qildim. Yurtimga qaytgach, Londonga ko'chib kelishga jazm etdim. Mister Bets bu fikrimni judayam ma'qulladi va meni bir qancha mijozlarga tavsiya etdi. Men Old-Juridagi uncha katta bo'lmagan uyning bir qismini ijaraga oldim. Nyugetstritda yashovchi paypoqfurush mister Edmond Berntoning qizi miss Meri Bertonga uylanib, to'rt yuz funt sep oldim.

Oradan ikki yil o'tgach, saxovatli ustozim Bets vafot etdi; maoshim keskin kamayib ketdi. Do'stlarim juda oz edi, ko'pgina hamkasblarimning bema'ni qiliqlariga taqlid qilishga esa vijdonim yo'l qo'ymadi. Shuning uchun ham xotinim, ba'zi tanish-bilishlarim bilan maslahatlashib, yana dengizchi bo'lishga ahd qildim. Olti yil mobaynida kema jarrohi bo'lib ishladim, ikkita kema almashtirdim, Ost hamda Vest-Indiyaga bir necha marta sayohat qildim. Ana shu xizmatda o'z ishlarimni ancha o'nglab oldim.

Safarga ketayotganda ko'plab kitob olar va bo'sh vaqtlarimni qadimiy hamda yangi eng yaxshi yozuvchilarning kitoblarini o'qishga bag'ishladim, qirg'oqqa chiqqanda esa yerli aholining urf-odatlarini kuzatardim, tillarini o'rganardim. Xotiramning yaxshiligi tufayli bularni osongina o'zlashtirib olardim.

Keyin sayohatim uncha muvaffaqiyatli bo'lmadi. Dengiz me'damga tegdi, xotinim, bola-chaqalarim bilan uyda qolmoqchi bo'ldim. Men dengizchilar orasida bo'lib ko'proq tajriba orttirish niyatida Old-Juridan Fegter-Leynga, u yerdan Uoppingga ko'chdim, lekin mo'ljalim amalga oshmadi. Uch yillik behuda kutishdan keyin «Ohu» kemasining egasi, kapitan Vilyam Prichardning naf keltiradigan taklifini qabul qildim, u bilan Janubiy dengizga¹ jo'nadim.

Biz Bristoldan 1699 yil 4 mayda yo'lga chiqdik. Avvaliga sayohatimiz juda muvaffaqiyatli bo'ldi. Hamroh shamol kemamizni oldinga yo'naltirdi. Ko'p o'tmay Ost-Indiya tomon yo'l oldik. Xuddi shu paytda dahshatli bo'ron ko'tarildi. Dovul bizni Vandimen Yeridan*² shimoli-g'arb tomonga qarab surib ketdi. Biz janubiy kenglikning 30° 2' ida edik. Ekipajimizdagi o'n ikki kishi o'ta charchash hamda maza-matrasiz ovqatdan vafot etdi, boshqalar ham haddan tashqari holdan toygandi. 5 noyabr kuni (o'sha yerlarda yozning boshlanishi) qattiq shamol kemamizni hamon oldinga haydab borishda davom etdi; hamma yoqni qalin tuman qoplagandi. To'satdan kemadan qandaydir yarim kabel³ uzoqroq masofada to'lqinlar urilib pishqirayotgan joy ko'rindi. Shiddatli shamol kemani o'z og'ushi-

1 Janubiy dengiz — Tinch okeanning janubiy qismi ilgari shunday atalardi.

2 Yulduzcha qo'yilgan so'zlarga izohni kitobning oxiridan o'qing.

3 Kabelt — ingliz dengiz o'lchovi. Bir kabelt 183 metrga teng.

ga olib, qoya sari surib boraverdi; biror chora ko'rish uchun vaqt o'tgan edi. Kema shitob bilan borib toshga urildi va bir zumda chil-chil bo'ldi.

Ekipajdan olti kishi, shu jumladan men ham, dengizga qayiq tushirishga, kema va qoyadan uzoqlashishga muvaffaq bo'lgandik. Mening hisobimga ko'ra, eshkak eshib faqat uch milya⁴ yurdik. Keyingi kunlarda kemada shunchalik qattiq ishlagan edikki, eshkak eshishga ham darmonimiz yetmay qoldi. Biz eshkaklarni uloqtirib, o'zimizni to'lqinlar ixtiyoriga topshirdik. Yarim soatdan keyin shimoldan esgan qattiq shamol qayigimizni ag'darib tashladi. Qayiqdagi hamrohlarimga ham, shuningdek, xalos bo'lish umidida qoyada yoki kemada qolganlarga ham nima bo'lganini bilmayman. Fikrimcha, ularning hammasi halok bo'lgan bo'lsa kerak.

O'zim esa suvga dumalab tushgach, shamol va oqim yo'nalishida boshim oqqan tomonga qarab suzaverdim. Bir necha marta suv tubini paypaslab ko'rdim. Nihoyat, juda holdan toyib, to'lqinlar bilan olishishga kuchim yetmay qolganda oyog'im yerga tekkanini sezdim.

Xuddi shu paytga kelib bo'ron ham ancha tindi. Suv tubi shunchalik qiyalik ekanki, sohilga yetguncha bir milya masofagacha suv kechib borishga to'g'ri keldi. Shunda kech soat sakkizlar bo'lsa kerak. Men mamlakat ichkarisiga yarim milyacha yurib bordim, biroq uy yoki u yerda yashovchilardan nom-nishon ham topolmadim. Charchashdan, issiqdan hamda kemani tark etish paytida yarim pint⁵ aroq ichib olganimdan qattiq uyququm keldi. Juda ham past hamda mayin ko'kat ustiga cho'zildim va qattiq uyquga ketdim, umrim bino bo'lib bunaqa qattiq uxlamagandim.

Mening hisobimga ko'ra uyququm to'qqiz soatdan oz davom etmagan bo'lsa kerak, chunki uyg'onganimga hamma yoq yon-yorug' edi. Men o'rnimdan turmoqchi bo'ldim, biroq qimirlay olmadim. Qo'l-oyoqlarim yerga mahkam chirmab tashlanibdi; o'zim osmonga qarab yotardim. Uzun va qalin sochlarim ham yerga bog'lab tashlangan edi. Ayni paytda butun gavdam — qo'ltig'imdan sonimgacha ingichka chilvirlar bilan tortib bog'langanligini sezdim. Men faqat osmonga qaray olardim, xolos; quyosh omonsiz kuydirar, ko'zlarimni qamashtirardi. Qu-log'imga allaqandan noaniq shovqin chalindi, lekin tepaga qarab yotganimdan hech narsani ko'ra olmadim.

4 Milya — Bu yerda 10 kabelga teng dengiz milyasi haqida gap boradi.

5 Pint — yarim litrga teng ingliz suyuqlik o'lchovi.

Ko'p o'tmay qandaydir bir jonli narsa chap oyog'imdan o'rmalab, asta-sekin ko'kragimga chiqqanini, iyagimga yaqinlashib kelganini sezdim. Ko'z qirimni tashlab, qo'liga o'q-yoy ushlagan, sadoq osgan, bo'yi bir qarich ham kelar-kelmas odamni ko'rdim. Uning orqasidan o'shanga o'xshash yana qirqta odam kelayotganini ham payqadim. Hayratdan qattiq baqirib yubordim, ustimdan yerga sakrab tushgan odamchalarning ba'zilari mayib bo'lishdi. Biroq ko'p o'tmay ular yana qaytishdi. Bitta botirroq'i yuzimga shu qadar yaqin keldiki, uni ro'y-rost ko'rdim. Hayron bo'lganini izhor qilib qo'lini ko'tardi. Ko'zlarini olaytirdi, aniq, lekin chinqiriq tovush bilan: *«Gekinadegul!»* — dedi boshqalar ham bu so'zni bir necha marta takrorlashdi, lekin men o'shanda uning ma'nosini bilmadim.

Kitobxon osongina tasavvur etayotgan shu muddat ichida juda noqulay ahvolda yotdim. Nihoyat, ozgina urinib, chap qo'limni chirmab turgan arqonni uzib, arqon bog'langan qoziqlarni yerdan sug'urib tashladim. Qo'limni ko'zimga olib bordim, shu payt meni bog'lab tashlashda naqadar ustalik qilinganini sezdim.

Boshimni keskin burib, menga behad azob berayotgan, chap tomondan sochimga bog'lab qo'yilgan chilvirlarni sal bo'shatdim. Endilikda boshimni o'ng tomonga sal burishga imkon tug'ildi. Biroq mitti odamchalar yana qochib ketishdi, ulardan birortasini ham ushlay olmadim.

Shundan so'ng quloqni teshib yuboradigan darajada qichqiriqlar yangradi. Shovqin tingach, kimningdir *«Tollgo fonak!»* deb xitob qilganini eshitdim. Shu zahotiyoy yuzlarcha yoy o'qlari chap qo'limga sanchilganini sezdim. O'qlar menga ignadek sanchilardi. Yangidan yapa o'q uzishdi. Endi ular, bizning Yevropa-pada bomba otganday, osmonga qarab o'q uzishardi. Tanamga (garchi buni uncha sezmasam-da) o'q yomg'iri yog'ildi. Bir necha o'q yuzimga kelib tegdi, yuzimni qo'lim bilan to'sib oldim. Diqqatpazlik va og'riqdan ingradim, bo'shalish uchun yana harakat qildim. Biroq bu odamchalar oldingisidan ham kuchliroq qilib yana o'q uzishdi; ulardan ba'zilari biqinimga nayza suqa boshladi, lekin baxtingma, nayzalar qo'tos terisidan tikilgan kamzulimni tesha olmadi.

Men to qorong'i tushgunga qadar qimirlamay yotgan ma'qul, deb o'yladim. Qorong'ida, chap qo'lim yordamida bo'shalib olishim uncha qiyin emas. Bordi-yu, bu mamlakat odamlarining hammasi ham shu ko'rib turganlarim singari mitti bo'lsa, menga qarshi qo'yiladigan har qanday armiyani bir yoqlik qilishga qudratim yetadi, deb o'ylashga to'liq asosim bor edi.

Ammo taqdir menga boshqacha boqdi. Jim yotganimga ishonch hosil qilgan odamlar o'q uzishni to'xtatishdi, lekin qulog'imga chalinayotgan shov-

qin-surondan ularning soni ancha ko'payganini bildim. O'ng tomonda, quloqimning naq ro'parasida qandaydir taqillash ovozlari eshitildi — nimadir qurishayotganga o'xshashardi. Ming mashaqqat bilan o'sha tomonga boshimni burdim va o'zimdan to'rt yard⁶ uzoqroqda bo'yi bir yarim fut keladigan minbarga ko'zim tushdi. Minbarga o'sha yerlik odamlardan to'rt-beshitasi bemalol sig'ardi. Ulardan biri, eng zodagoni bo'lsa kerak, uch mulozim kuzatuvida minbarga chiqdi, uzundan-uzoq nutq so'zlab menga murojaat qildi, lekin uning birorta ham so'zini tushunmadim.

Shuni eslatib o'tish kerakki, bu amaldor gapini boshlashdan oldin uch marta: «*Lengrodegil san!*» deb qichqirdi. Bu so'zlarni eshitgan zahotiyuq, ellikka yaqin odam menga yaqinlashib, sochimga bog'lab qo'yilgan chap tomondagi arqonlarni kesib tashlashdi. Bu boshimni o'ng tomonga burishga va gapirayotgan odamning tashqi qiyofasi hamda qo'l harakatlarini bemalol ko'rishga imkon berdi.

Ko'rinishdan u qirq yoshlarda bo'lib, bo'yi safdoshlarinikidan balandroq edi. Ulardan biri — mening o'rta barmog'imday keladigani, ehtimol, u mahram bo'lsa kerak — xo'jasining uzun etagini ushlab turar, qolgan ikkitasi esa ikki tomonda tik turishardi. U chinakam notiq singari gapirardi. Nutqda ba'zan do'q, ba'zan va'da, achinish, muruvvat ohanglari yangrardi. Men eng itoatkor qiyofada qisqa javob qaytardim, so'ng chap qo'limni ko'tardim, quyoshga boqdim, go'yo uni o'zimga guvoh ekanligini anglatdim. Men ochlikdan o'lar holatga yetgandim (oxirgi marta, halokatga uchramasimizdan bir necha soat avval, kemada ovqatlanman), shu vajdan sabrsizligimni bosa olmadim va odob qoidalariga zid bo'lsa-da, ovqat yegim kelayotganini bildirib, tez-tez barmog'imni og'zimga olib bordim.

Gurgo (keyin bilishimcha, amaldorlarni shunday deb atasharkan) meni yaxshi tushundi. U minbardan tushib, yon tomonlarimga bir necha narvon qo'yishni buyurdi. Turli xil noz-ne'matlar solingan savatlarni ko'targan yuzdan ortiq odam narvondan yuqoriga ko'tarilib, og'zim tomon ravona bo'lishdi.

Ovqatlar, mening haqimdagi xabar yetib borishi bilanoq, podshoning amri bilan bu yerga yetkazib kelingandi. Ne'matlar turli-tuman jonivor go'shtidan tayyorlangan edi, biroq ta'miga qarab, qaysisi qanday jonivor go'shti ekanligini ajrata olmadim. Bu yerda kurak, son, biqin go'shtlari bor edi, ular ko'rinishdan qo'y go'shtini eslatsa-da, kattaligi arang turna qanotiday kelardi. Men ulardan

6 Yard — 91,4 santimetrga teng.

ikki-uchtasini har biri miltiq o'qiday keladigan uchta nonga qo'shib birdaniga og'zimga solardim. Odamchalar menga juda chaqqonlik bilan xizmat qilishar va bo'yimdan, ishtahamning karnayligidan mamnun bo'lishib, ming xil imo-ishoralar qilishardi.

Qornim to'ygach, biror narsa ichgim kelganligiga ishora qildim. Bular juda ham ziyrak, kashfiyotchi xalq ekan. Yegan ovqatimga qarab, meni oz narsa bilan qondirib bo'lmasligini bilishib, odatdan tashqari ephillik bilan arqon yordamida bochkalardan eng kattasini ustimga tortib chiqarishdi, qo'limga yumalatib olib borishdi va og'zini ochishdi. Bochkada chorak litrecha vino bor edi, uni bir ko'tarishda ichib yubordim. U burgund vinosiga o'xshasa-da, mazasi ancha yaxshi edi. Ular ikkinchi bochkani ham olib kelishdi, buni ham oldingisi singari ichib, yana so'radim, lekin ularda boshqa vino topilmadi.

Men bu karomatlarni ko'rsatayotganimda odamchalar xursandlikdan qiyqirib yuborishdi va ko'ksimda ha deb: «*Gekina degul!*» degancha o'yinga tushishdi. Ular imo-ishora bilan har ikkala bochkani yerga tashlashni iltimos qilishdi, biroq bundan oldin pastda turganlarning chetlanishlari lozimligini ogohlantirib: «*Borach mivola!*» deb qattiq baqirishdi. Bochkalarni osmonda ko'rishgach, yana baravariga: «*Gekina degul!*» deb qichqirishdi.

Rostini aytсам, ular tanamda u yoq-bu yoqqa yurishayotganida dastavval qo'limga tushgan qirq yoki ellik kishini ushlab olib, yerga ulotqirish vasvasasi ham qo'zgaldi. Ammo ular meni ancha azobga qo'yishganini, boshimga bundan ham battar azoblarni solishlarni, ularga bo'ysunishga va'da berganimni o'ylab, bu fikrlarni miyamdan chiqarib tashladim. Bundan tashqari, o'zimni xarajatlarining yuziga qaramay meni bu qadar siylagan xalq mehmondo'st odamlar toifasidan bo'lmog'i kerak, deb hisobladim.

Har holda, bu mitti odamlarning qo'rqmasligidan ajablanmasdan ilojim yo'q edi. Men ularga qandaydir ulkan maxluq bo'lib ko'rinishim kerak edi, ular bo'lsa dadil ustimga chiqib, bitta qo'lim bo'shligini parvolariga ham keltirmay, bemalol o'ynab yurishardi.

Oradan bir oz vaqt o'tgach, qarshimda ulug' martabali zot — imperator hazratlarining elchisi paydo bo'ldi. Elchi janobi oliylari ko'pgina mulozimlari kuza-tuvida oyog'imdan chiqib, yuzim tomon yura boshladi. U imperatorning muhri bosilgan ishonch yorlig'ini ko'zimga yaqin olib kelib ko'rsatdi, menga qarab nutq so'zladi. Elchi qiyofasida g'azab alomati ko'rinmasdi. Ammo o'ta qat'iyatlilik bilan o'n daqiqacha gapirdi. Gap orasida qo'li bilan bir tomonni ko'rsataverdi.

Keyinroq bilishimcha, gap oliy hazratlari davlat kengashi bilan birgalikda meni bu yerdan yarim milya naridagi poytaxtga olib kelishga qaror berganligi ustida borgan ekan.

Uning nutqiga javoban men ham bir necha so'z aytdim, biroq, uni hech kim tushunmadi. Shunda men imo-ishora tiliga o'tdim. Men bo'sh qo'limni boshqa qo'limga, so'ng boshim va tanamga qo'ydim, bu bilan erkinlik olmoqchi ekanligimni bildirdim. Nazarimda, oliy janoblari bu xatti-harakatlarni yaxshi angladi shekilli, chunki yo'q degan ishorani bildirib bosh chayqadi, meni asir sifatida olib ketishlarini imo bilan uqdirdi. Ayni paytda, menga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishlarini ham pisanda qildi.

Shu payt, arqonlarni uzib tashlashga yana bir urinib ko'raymikan, deb o'yladim. Biroq terimga sanchilgan yoy o'qlari tufayli yaralar bilan qoplangan yuz va qo'llarimning achishib og'rishi meni bu niyatdan qaytardi. Buning ustiga, dushmanlarim tobora ko'payib borayotganligini sezdim. Shu sababli, menga nisbatan ko'ngillari xohlaganicha munosabatda bo'lishlari mumkinligini imo bilan tushuntirdim. Shundan keyin *gurgo* hamda uning mulozimlari menga odob bilan ta'zim qilishdi va ancha xursand bo'lishib, uzoqlashishdi.

Ko'p o'tmay quvnoq hayqiriqlar yangradi, «*Pepton selan*» so'zi tez-tez takrorlanib turdi. To'satdan, meni qo'riqlayotganlar o'ng yonboshimga ag'darilishga imkon beradigan qilib, chap tomondagi arqonni bo'shatishganini payqadim. Bundan ilgariroq qo'l va yuzlarimga qandaydir xushbo'y malham surtib chiqishgan va o'q tekkan joylardagi og'riq darhol qolgandi. Rohatlanib, uyqum kela boshladi. Keyin aytib berishlariga qaraganda, sakkiz soatga yaqin uxlabman. Buning ajablanadigan joyi yo'q edi, chunki do'xtirlar imperatorning buyrug'iga ko'ra vinoga uxlatadigan dori solib qo'yishgandi.

Aslida ahvol bunday bo'lgan ekan: imperator men haqidagi ma'lumotni olishi bilanoq, kengash bilan kelishib, meni darhol bog'lash haqida farmoyish beribdi (buyruq kechasi, men uxlayotganda bajarilgan). U yana, uyg'onishim bilanoq meni ovqatlantirish hamda poytaxtga olib ketish uchun arava yasashni ham buyurgan.

Bir qarashda bunday yo'l tutish ham o'ta xavfli, ham qahramonlik. Men ishonamanki, yevropalik hokimlardan birortasining ham bunday qilishga yuragi betlamas edi.

Biroq, mening fikrimcha, imperatorning buyrug'i adolatli edi. Darvoqe, bu odamlar uxlab yotganimda meni o'ldirishga urinishdi ham deylik. Dastlabki hu-

jumdanoq og'riqdan o'zimga kelishim va shunday g'azabga tushishim mumkin ediki, arqonlarni uzib yuborib, o'z navbatida ularga hamla qilishim turgan gap edi. Ular mendan rahm-shafqat kuta olmas edilar, bu aniq.

Bu odamlar ajoyib matematiklar ekan, ular bilimlarning mashhur homiysi imperatorning qo'llab-quvvatlashi va rag'batlantirish tufayli mexanika sohasida ulkan kamolotga erishishgandi. Podsho ixtiyorida xodalar va boshqa og'ir narsalarni tashiydigan g'ildirakli har xil mashina bor. Bu yerda, qurilishbop yog'och beradigan o'rmonzorlar bor joyda, uzunligi to'qqiz fut keladigan eng yirik harbiy kemalar qurish odat tusiga kirib qolgan ekan. Keyin kemalarni ana shu mashinalarga yuklab, dengizga olib borishar ekan.

Besh yuz duradgor va injenerga darhol ana shu mashinalardan eng kattasini yasash topshirilgan ekan. Buyruq juda qisqa bir muddatda bajarilgan. Qirg'oqqa chiqqanimga to'rt soat bo'lar-bo'lmas mashina orqamdan jo'natilgan. Men turgan joyga mashinaning yetib kelishini xalq shodon qiyqiriqlar bilan kutib oldi. Bu — balandligi uch dyuym, uzunligi yetti va eni to'rt futga yaqin, yigirma ikki g'ildirakli yog'och platforma edi. Uni mening gavdamga parallel ravishda qo'yishdi.

Eng mushkul narsa meni ko'tarib, platformaga yotqizish edi. Ular yerga har biri bir fut balandlikdagi saksonta xoda qoqishdi, keyin ishchilar bo'ynim, qo'lim, tanam va oyoqlarimga son-sanoqsiz ilmoqli bog'larni bog'lashdi; ilmoqlardan pishiq chilvir o'tqazib, ularni xodalar ustiga o'rnatilgan ehig'ir tepasidan olib o'tishdi. Eng baquvvat ishchilardan to'qqiz yuz kishi chilvirni torta boshladi, shunday qilib, uch soat o'tar-o'tmas meni aravaga olishdi va unga mahkamlab bog'lashdi.

Bularning hammasini menga keyin aytib berishdi. Uyqu dori sharofati bilan qattiq uyquga ketib, bu ishlarning birontasini ham sezmadim.

Ilgari aytganimdek, meni to'rt milya naridagi poytaxtga olib borish uchun saroy otxonasidan, har birining bo'yi yarim dyuym keladigan eng katta otlardan bir yarim mingtasi kerak bo'ldi.

Bir g'aroyib hodisa tufayli meni uyg'otishganda to'rt soat yo'l yurgan ekanmiz. Arava tuzatishga muhtoj bo'lib to'xtabdi. Bundan foydalangan mahalliy xalq yoshlaridan ikki-uchtasi uxlayotganimda aft-angorim qanaqaligini ko'rmoqchi bo'libdi. Ular arava ustiga chiqib, yuzim tomonga sekin yashirinib borishibdi. Ulardan biri, gvardiya zobiti, burnimning chap teshigiga qilichining uchini ancha kirgizibdi. Burnimga xas-xashak tekkanday qattiq aksirib yubordim, uyg'o-

nib ketdim. Botirlar o'zlarini menga sezdirmay yashirinishdi. Oradan uch hafta o'tgandan keyingina to'satdan uyg'onib ketganligim sababini bildim.

Butun kunni yo'l yurish bilan o'tkazdik. Tunaydigan joyda aravamning ikki tomoniga besh yuzga yaqin gvardiyachi qo'yildi. Ularning yarmi mash'ala, qolganlari esa, sal turishga intilsam o'q uzish uchun, o'q-yoyni shay qilib ushlab turardi.

Quyosh chiqishi bilan yana yo'lga tushdik, tush paytida shahar darvozasi-dan ikki yuz yard berida edik. Imperator saroydagi barcha arkoni davlati bilan bizga peshvoz chiqdi, lekin oliy tabaqa amaldorlar oliy hazratlarining ustimga chiqib, o'z hayotini xavf-xatar ostida qoldirishiga qat'iy qarshilik ko'rsatishdi.

Arava qirollik bo'yicha eng katta deb hisoblangan ibodatxona yonida to'xtadi. Bundan bir necha yil muqaddam ana shu ibodatxonada dahshatli qotillik yuz bergan. Mahalliy xalq o'ta xudojo'y bo'lganligidan ibodatxonani harom bo'ldi, deb unga kirmay qo'ygan. Ibodatxonani yopishib, u yerdagi ashyo va ziynatlarni olib chiqishgan, u ancha vaqtdan beri bo'm-bo'sh yotgan. Ana shu yerga meni joylashtirmoqchi bo'lishdi.

Ibodatxonaning shimolga qaragan eshiklarining balandligi to'rt futga, eni ikki futga yaqin bo'lib, osongina sig'ishim mumkin edi. Eshiklarning har ikki tomonida, yerdan bor-yo'g'i olti dyuym balandlikda ikkita deraza bor edi. Chap derazadan saroy temirchilari yevropalik xonimlar soatining zanjiri yo'g'onligidagi to'qson bitta zanjirni o'tkazib, ularning uchini chap oyog'imga o'ttiz oltita osma qulf bilan mahkamlab bog'lab qo'yishdi. Katta yo'lning boshqa tomonida, ibodatxona ro'parasida balandligi besh fut keladigan minora turardi. Imperator eng yaqin amaldorlari bilan, meni yaxshiroq ko'rish uchun, minora ustiga ko'tarildi. Meni ko'rish uchun, alohida hisobga ko'ra, ibodatxona yoniga yuz mingdan ortiq shaharlik to'plandi. Ularning o'n mingdan ortig'i menga chirmashib oldi, deb o'yladim. Biroq ko'p o'tmay, buni man etib, chirmashganlarga o'lim jazosi berilishi haqidagi buyruq chiqarildi.

Temirchilar o'z ishlarini tugallab, meni aravaga bog'lab turgan arqonlarni qirqishdi, umrimda hech qachon his etmagan chuqur qayg'uli kayfiyatda o'rnimdan turdim.

O'rnimdan turib, u yoq-bu yoqqa yurganimni kuzatib turgan xalqning shovqin va hayrati ta'rifga sig'maydi. Meni bog'lab qo'yilgan zanjirning uzunligi ikki yardga yaqin bo'lib, oldinga yoki orqaga yurish tugul, yarim doira yasab harakat qilish, emaklab ibodatxona ichiga kirish, u yerda uzala tushib yotish imkoniga ham ega edim.

IKKINCHI BOB

LILIPUTIYA IMPERATORI KO'PGINA AMALDORLARNI KUZATUVIDA MUALLIFNING HUZURIGA TASHRIF BUYURADI. IMPERATORNING TASHQIQIYOFASI VA KIYIMLARINING TAVSIFI. OLIMLARGA LILIPUTLAR TILINI MUALLIFGA O'RGATISH TOPSHIRILADI. U O'ZINING ODOBLILIGI BILAN IMPERATOR MARHAMATIGA MUYASSAR BO'LADI. MUALLIFNING CHO'NTAKLARINI TINTUV QILISHADI. UNING QILICH VA TO'PPONCHASINI OLIB QO'YISHADI.

O'rnimdan turib, atrofga nazar tashladim. E'tirof qilib aytamanki, umrim bino bo'lib bunaqa ajoyib va g'aroyib manzarani ko'rmaganman. Atrofim nuqul bog'ning o'zginasi; har biri qirq kvadrat fut keladigan, devor bilan qurshalgan dalalar gulzorga o'xshaydi. Bu dalalarning ba'zilari o'rmon bilan qoplangan bo'lib, daraxtlarning balandligi yetti futdan oshmasdi. Chapda esa teatr dekorasiyasini eslatuvchi shahar yastanib yotardi.

Bu odatdan tashqari go'zal manzarani tomosha qilarkanman, imperator minoradan pastga tushdi, otliq yonimga keldi. Bu jasorati uchun uni falakat bosishiga sal qoldi. Ot meni ko'rishi bilanoq hurkib, ikki oyog'ida tik turdi; chamas ustiga tog' yurib kelayotganday tuyulgan bo'lsa kerak. Imperator ajoyib chavandoz bo'lgani uchun egardan yiqilmay qoldi. Shu payt uning baxtiga mulozimlar yugurib kelishdi. Ular irg'ishlayotgan otning jilovidan tutib, oliy hazratlarining otdan tushib olishiga yordamlashishdi. Imperator o'zini bamaylixotir tutardi. U kiyim-boshlarining u yoq-bu yog'ini to'g'rilab, har tomonimdan o'tib, boshimdan oyog'imgacha ko'zdan kechira boshladi. U hoziru nozir bo'lib turgan oshpazlarga va saroy xizmatkorlariga menga ovqat hamda ichimlik berishni buyurdi. Ular ovqat va vino solingan aravani qo'lim yetadigan masofagacha g'ildiratib kelishdi. Men bu ne'matlarni pok-pokiza tushirdim. Aravalarning yigirmatasida taomlar, o'ntasida ichimliklar bor edi. Har bir aravadagi taom menga ikki-uch luqma bo'ldi, xolos, ichimlikni esa o'nta ko'zadagisini bitta aravaga qo'yib birdaniga ko'tardim; qolgan vinolarni ham ana shu alfozda ichdim.

Imperatorning xotini, yosh shahzoda va malikalar uzoqroqqa qo'yilgan kreslolarda saroydagi boshqa xonimlar bilan birga o'tirishardi, lekin ot hurkiganidan keyin hammalari o'rinlaridan turishib, imperatorga yaqinlashishdi.

Endi oliy hazratlarining tashqi qiyofasini ta'riflashga urinib ko'ray. Uning bo'yi saroy ahli bo'yidan tirnog'imcha baland, shu novchaligi ham atrofdagilarda hurmat va dahshat hissini tug'dirish uchun kifoya. Uning yuzida qat'iyat va jasorat ifodasi namoyon; lablari sal qimtilgan, qirg'iy burun, yuzi sariq, qomatdor, qo'l-oyoqlari chiroyli, yerni minnatdor bo'lsang bosaman deydigan, viqorli odam* edi u. Imperator uncha yosh emasdi — yigirma yoshu to'qqiz oylik, xolos*, u yetti yildan beri eson-omon podsholik qilib kelyapti. Oliy hazratlariga durustroq razm solish — yuzim u tikka turgan joyga ro'para bo'lishi uchun yonboshladim, u mendan bor-yo'g'i uch yard narida turardi. Keyinchalik uni bir necha bor qo'limga olishga to'g'ri keldi, shu sababli uning tashqi qiyofasini ta'rif-tavsif qilishda adashmadim.

Imperatorning kiyimi oddiy va kamtarona; andazasi ham yevropaliklar, ham osiyoliklarnikiga o'xshab ketadi; boshida qimmatbaho toshlar qadalgan, ukpar taqilgan, yengilgina oltin dubulg'a. U zanjirlarni uzib yuborishimdan hadiksirab, har ehtimolga qarshi qo'lida yalang'ochlangan shamshir ushlab turardi. Shamshirning uzunligi uch dyuym bo'lib, uning dastasi va qiniga olmoslar qadalgandi. Oliy hazratlarining ovozi o'tkir, ravon bo'lib, tik tursam ham bemalol eshitadigan darajada aniq edi.

Xonimlar va saroy amaldorlari juda yaxshi kiyinishgandi. Uzoqdan rang-barang kiyingan bu olomon, zarbof va kumush rang ip bilan tikilgan yubkani* yerga yozib qo'yilishini eslatardi.

Imperator oliy hazratlari menga tez-tez savol bilan murojaat qilib turdi. Men javob qaytarardim, biroq u ham, men ham bir-birimizning gapimizdan hech narsa tushuna olmasdik. Shunda u arkoni davlat ichidagi ruhoniylar va yuristlarga (kiyimlaridan shunday bo'lishsa kerak deb o'yladim) men bilan muloqotda bo'lishga amr qildi. Men, o'z navbatida, ular bilan o'zim bilgan hamma tillarda: nemischa, gollandcha, lotincha, fransuzcha, ispancha, italyancha gaplashdim, biroq bu urinishlar hech qanday natija bermadi.

Oradan ikki soat o'tgach saroy ahli jo'nab ketdi, men kuchaytirilgan soqchilar nazorati ostida qoldim — ular menga yaqinlashishga zo'r berib urinuvchi, hat-toki beodob avom xalqdan saqlashi lozim edi. Uyim eshigi oldida — yerda o'tirganimda menga qarab yoydan o'q uzishdek uyatsizlikka borib yetuvchilar ham topildi. O'qlardan biri chap ko'zimga sanchilishiga sal qoldi.

Bunday surbetlikdan jahli chiqqan polkovnik bemaza qiliq qiluvchilardan oltitasini ushlashga buyruq berdi. Jazolash uchun ularni mening qo'limga be-

rishga ahd qildi. Askarlar to'polonchilarni nayzalar halqasiga o'rab olib, men tomon haydab kelishdi. Men ularning hammasini birdaniga o'ng qo'lim bilan changalladim, beshtasini kamzulimning cho'ntagiga soldim, oltinchisini tiriklayin yeb qo'ymoqchiday og'zimga olib bordim. Bechora jon talvasasida chinqirdi, cho'ntagimdan qalamtarashimni olganimda esa polkovnik bilan zobitlar g'oyat tashvishda qolishdi. Biroq ko'p o'tmay ularning ko'ngli o'rniga tushdi. Men o'z asirimga mehr bilan boqib, uni bog'lab turgan arqonlarni kesdim-da, avaylabgina yerga qo'ydim; u bir zumda juftakni rostlab qochib qoldi. Qolganlarini ham birin-ketin cho'ntagimdan olib, xuddi shu yo'sinda qo'yib yubordim. Mening marhamatimdan qorovullar ham, olomon ham mamnun bo'lganligini payqadim. Ozor yetkazuvchilarga nisbatan tutgan yo'lim saroydagilarda men haqimda yaxshi taassurot tug'dirdi,

Tun boshlanishi bilan hech bir qiyinchiliksiz uyimga kirib oldim va quruq yerga cho'zildim. Imperatorning maxsus buyrug'i bilan men uchun ko'rpa-yostiq tikishgunga qadar ikki haftagacha shu alfozda hayot kechirdim. O'rtacha kattalikda olti yuzta ko'rpa keltirishdi, uyimda ish qizib ketdi. Bir yuz ellikta ko'rpani bitta qilib tikishdi, shunday qilib, uzunasiga ham, eniga ham menga to'g'ri keladigan to'shak hosil bo'ldi; ana shunaqangi to'rtta to'shakni ustma-ust qo'yishdi; biroq bundan tosh yotqizilgan yer yumshab qolmadi. Xuddi shu usulda ustimga yopinadigan ko'rpa, choyshablar ham tayyorlandi. Allaqachonlar muhtojlikka ko'nikib qolgan odam uchun bu ham harna edi.

Men haqidagi xabar qirolik bo'yicha yoyilishi bilanoq meni ko'rish uchun hamma yoqdan boyonlar, bekorchilar va har narsaga qiziquvchi odamlar daryoday oqib kela boshladi. Qishloqlar huvillab, dala ishlari to'xtab qoldi, uy ishlari izdan chiqdi. Agar oliy hazratlari oqilona yo'l tutmaganda buning oqibati voy bo'lardi. Imperator meni ko'rib bo'lganlarning hammasi darhol uyga qaytishi haqida buyruq berdi; ularga saroyning alohida ruxsatisiz ikkinchi marotaba uyimga ellik yard masofagacha yaqinlashish qat'iy man etildi. Bu farmoyish ba'zi vazirlar uchun yirik daromad manbaiga aylandi.

Huzurimdan ketgach, imperator kengash chaqirdi, unda menga qanday munosabatda bo'lish masalasi muhokama qilindi. Mening yaqin do'stlarimdan biriga aylangan saroy aslzodasidan keyinroq bilishimcha, davlat kengashi anchagacha bir fikrga kelolmapti. Bir tomondan zanjirlarni parchalab yuborishimdan qo'rqishibdi, boshqa tomondan esa meni boqish ancha qimmatga tushishi va mamlakatda ocharchilik boshlanishidan hadiksirashibdi.

Kengashning ba'zi a'zolari meni ochdan o'ldirishni yoki zaharli o'q otib, yo'q qilishni astoydil talab qilishibdi. Biroq bu taklif rad etilibdi. shunday ulkan jasad poytaxtda va butun qirollikda vabo tarqalishiga sababchi bo'ladi. deb ko'nishmabdi.

Kengash avjiga chiqib turgan paytda kengash zalining katta eshigi yonida bir necha zobit paydo bo'libdi; ulardan ikki nafari majlisga qo'yilibdi va ular mening jig'imga tekkan olti to'polonchiga nisbatan qanday yo'l tutganim xususida to'liq ma'lumot berishibdi. Bundan oliy hazratlari ham, davlat kengashi a'zolari ham juda ta'sirlanib ketishibdi. Imperator o'sha zahotiy oq farmon chiqarib, poytaxtdan to'qqiz yuz yard masofagacha bo'lgan joyda joylashgan qishloqlar zimmasiga har kuni ertalab mening dasturxonimga oltita novvos, qirqta qo'y va tegishli non hamda vino bilan birga boshqa yeguliklar keltirishni yukladi. Bularning hammasiga belgilangan narx bo'yicha oliy hazratlarining xazinasidan haq to'landi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu podsho asosan o'z mulkidan keladigan daromadlar hisobiga yashaydi, faqat do'ppi tor kelib qolgan paytlardagina yordam so'rab fuqarolariga murojaat qiladi.

Bundan tashqari huzurimda olti yuz odamdan iborat mulozimlar shtati ta'sis etildi. Imperator ularning maoshi uchun alohida mablag' ajratdi va uyimning har ikki tomoniga ular uchun qulay chodirlar tikishga buyruq berdi. Bundan tashqari, uch yuz chevarga shu yerning fasonida menga kostyum tikish va eng mashhur olimlardan oltitasiga mahalliy tilni o'rgatish amr qilindi. Eng oxirida, imperator o'ziga, saroy amaldorlariga va gvardiyaga qarashli otlar menga ko'nikishi uchun, ularni mening huzurimda mashq qildirish haqida farmoyish berdi.

Bu buyruqlarini hammasi bekami-ko'st bajarildi. Uch haftadan keyin liputlar tilini o'rganishda katta yutuqlarni qo'lga kiritdim. Shu muddat ichida imperator huzurimga tez-tez tashrif buyurib, menga ta'lim berayotgan ustozlarimga bajonu dil yordam qildi. Biz bir-birimiz bilan bemalol gaplashadigan bo'lib qoldik. Dastlabki o'rgangan so'zlarim oliy hazratlaridan meni ozod etishini so'rash istagi bo'ldi. Bu so'zlarni har kuni imperator oldida tiz cho'kib takrorlayverdim. Iltimosimga imperator sal mujmalroq javob qildi. Men uning gaplaridan, mening ozod qilinishim uchun davlat kengashining roziligi zarurligini va eng avvalo, men *«lyumoz kelmii pesso deyemarlou Empozo»*, ya'ni u va uning imperiyasi bilan urushmasligim, tinch-totuv yashashim haqida qasamyod qilishim lozimligini arang bilib oldim. Biroq, mening ozod etilishim sharoitga bog'liq ekanligini, shu vajdan sabr-qanoat qilishni, o'zining ham, fu-



qarolarining ham ko'z o'ngida yaxshi nom qozonish uchun xizmat qilishimni pisanda qilib qo'shib qo'ydi.

Kunlarning birida u, alohida amaldorlarga meni tintuv qilish uchun buyruq bersa buni haqorat deb bilmasligimni iltimos qildi. Ulkan gavdamga yarasha o'ta xavfli qurol taqib yurishimga uning ishonchi komilmish. Men oliy hazratlaridan bu xususda ko'ngli to'q bo'lishini iltimos qildim hamda uning ko'z oldida hamma cho'ntaklarimni ag'darib ko'rsatishga tayyor ekanligimni aytdim. O'z fikrimni qisman so'zlar, qisman imo-ishora bilan uqtirdim. Imperator imperiya qonuniga binoan tintuv ikkita amaldor tomonidan o'tkazilishini aytdi.

«Qonunning bu talabi sizning roziligingizsiz va yordamingizsiz bajo keltirilmaydi, albatta, — dedi u. — Lekin, sizni o'ta muruvvatli, adolatli kishi deb bilganim uchun manovi amaldorlarni bamaylixotir qo'lingizga topshiraman. Biz olib qo'ygan buyumlar mamlakatimizdan ketayotganiigizda qaytarilib beriladi yoki ularga qancha narx qo'ysangiz shuncha haq to'lanadi».

Men har ikkala amaldorni qo'limga oldim-da, kamzulimning cho'ntagiga solib qo'ydim. Ular bu cho'ntakni tekshirib bo'lishgach, boshqalariga soldim. Men ularga ikkita soat hamda o'zimdan boshqa hech kimga kerak bo'lmaydigan mayda-chuyda saqlanadigan yashirin cho'ntagimdan boshqa hammasini ko'rsatdim. Soat cho'ntaklarimdan birida kumush soat, boshqasida bir necha dona oltin tanga solingan hamyon bor edi. Amaldorlar qo'lga qog'oz, qalam va siyoh olib, nima topgan bo'lishsa hammasini ro'yxatga olishdi*. Ro'yxat tuzib bo'lingach, ular mendan pastga tushirib qo'yishni iltimos qilishdi. Ular o'z ro'yxatlarini imperatorga topshirishdi. Keyinroq bu hujjatni ingliz tiliga tarjima qildim. Uning so'zma-so'z mazmuni quyidagicha:

«Ulkan odam (*«Kuinbus Flestrin»*) so'zini shunday tarjima qildim) kamzulining o'ng cho'ntagidan bir bo'lak katta dag'al matoni topdik, uni oliy hazratlari saroyining kiraverishdagi zaliga gilam qilib to'shasha ham bo'ladi. Chap cho'ntakda juda katta kumush sandiq bor ekan, qopqog'i ham kumushdan. Uni o'rnidan qozg'ata olmadik. Bizning so'rovimizga ko'ra Ulkan Odam sandiqni ochdi. Bizning sandiq ichiga tushdik, u tizzasigacha allaqanday changga botib ketdi. Chang havoga ko'tarilib, ikkovimizni ham bir necha bor qattiq aksa urdirdi.

Nimchasining o'ng cho'ntagidan bitta qilib taxlangan, pishiq arqon bilan bog'langan bir dasta katta yupqa oq varaqlarni topdik. Varaqlar qandaydir qora belgilar bilan to'la. Bizning kamtarona taxminimizga ko'ra, bu belgilar yozuv bo'lsa kerak; har bir harf kattaligi kaftimiz yarmicha keladi. Nimchaning chap



choʻntagida maxsus bir asbob bor ekan. Asbobga uzun-uzun yigirmata qoziq oʻrnatilgan, ular oliy hazratlari saroyi qarshisidagi panjara devorni eslatadi. Fikrimizcha, Ulkan Odam bu asbob bilan sochlarini tarasa kerak, lekin bu bizning taxminimiz, xolos. Biz Ulkan Odamni savolga tutishdan qoʻchdik, chunki u bilan soʻzlashish biz uchun ancha qiyin.

Ulkan Odamning oʻrta yopigʻining (*«ranfulo»*) soʻzini shunday tarjima qildim, ular bu soʻz orqali «shim» demoqchi) oʻng tomonidagi katta choʻntagida odam boʻyi keladigan ichi kavak temir ustunni koʻrdik. Bu ustun oʻzidan ham yoʻgʻonroq qattiq yogʻoch parchasiga mahkamlab qoʻyilgan; ustunning bir tomonida gʻalati shakldagi katta temir parchasi tik turibdi, uning vazifasi nima ekanligini bilolmadik. Ana shunaqa mashina chap choʻntagidan ham topildi. Oʻng tomondagi kichkina choʻntakda oq va qizil metallardan yasalgan va kattaligi har xil bir necha sip-silliq gardishlar bor ekan. Oq gardishlarning baʼzilari shunaqayam katta va ogʻirki, ikkovimiz ularni arang koʻtardik. Bular kumushdan yasalgan boʻlsa kerak.

Chap choʻntakdan shakli notekis ikki qora kolonnani topdik. Choʻntak tubida turib qoʻl choʻzganimizda, uning uchiga arang yetdi. Har bir kolonnaga juda katta poʻlat taxta qoʻyilgan. Bu juda xavfli qurol boʻlsa kerak deb oʻylab, uni qanday ishlatilishini Ulkan Odamdan talab qildik. U har ikkala qurolni gʻilofdan chiqarib, oʻz mamlakatida bularning birida soqol qirishlarini, boshqasida esa goʻsht kesishlarini aytdi.

Bundan tashqari, Ulkan Odamda yana ikkita choʻntak bor ekan, ularning ichiga kira olmadik. Ulkan Odam ularni soat choʻntak deb aytdi. Bular uning oʻrta yopigʻining yuqori qismiga joylashgan, kesib hosil qilingan keng yoriqlar boʻlib, qornining qisuvida yopilib qolibdi. Chap choʻntakdan katta kumush zanjir pastga osilib turibdi; u choʻntak tubidagi ajib bir mashinaga ulangan. Biz mashinani bu yoqqa olishni buyurdik; u sharsimon bir narsa ekan; uning yarmi kumushdan, boshqa tomoni qandaydir tiniq metallardan yasalgan. Sharning shu tomonidagi qandaydir gʻalati belgilarni koʻrib, ularni ushlab koʻrmoqchi boʻldik; barmoqlarimiz oʻsha tiniq narsaga tirilib qoldi. Ulkan Odam mashinani quloqlarimizga tutdi, biz suv tegirmonning parragi ovozi eslatuvchi uzluksiz shovqinini eshitdik. Fikrimizcha, bu yo bizga nomaʼlum bir hayvon yoki ular sigʻinadigan xudo boʻlsa kerak. Biz shaxsan keyingi fikrga koʻproq ishonamiz, chunki Ulkan Odam bizga biron narsani uning maslahatisiz qilmasligini (agar uning soʻzlarini toʻgʻri tushungan boʻlsak) aytdi. Bu narsani u oʻzining folnomasi deb atab, u oʻz

umrining har bir daqiqasini ko'rsatib bera olishini aytdi. Ulkan Odam chap tomondagi soat cho'ntagidan kattakon to'r oldi. Hajmi jihatidan baliqchilar to'riday keladi, lekin u shunday narsaki, hamyon singari ochilaveradi ham, yopilaveradi ham. To'r ichidan bir nechta yaxlit sariq metall bo'laklarini topdik. Bordi-yu, u sof oltin bo'lsa, bahosi juda yuqori bo'ladi.

Ulkan Odamning hamma cho'ntaklarida tintuv o'tkazgach, ulkan hayvonning terisidan yasalgan kamarini ko'zdan kechirishga tushdik. Kamarning chap tomonida o'rtacha odam bo'yidan besh baravar uzunroq qilich osig'liq, o'ng tomonida sumka yoki ikki xonali qop bor. Qopning har bir xonasiga mamlakati-miz fuqarosidan uchtasini joylashtirish mumkin. Qop xonalaridan birida har biri bizning boshimizday keladigan ko'pgina sharlarni topdik. Ularning hammasi haddan tashqari og'ir metallardan yasalgan. Qopning boshqa xonasida qandaydir juda mayda va yengil donachalar bor. Ana shunday donachalarning elliktasi kaf-timizga joy bo'ldi.

Ulkan Odamni tintuv qilganimizda undan topilgan narsalarning ro'yxati ana shunday. Tintuv vaqtida u o'zini odobli tutdi va oliy hazratlarining farmoyishlarini bajaruvchilarga o'ta itoatkor ekanligini amalda isbot etdi.

Ushbu ro'yxatga oliy hazratlarining podsholigi gullab-yashnab turgan sakson to'qqizinchi qamar oyining to'rtinchi kuni imzo chekildi va muhr bosildi.

*Klefrin Frelok
Marsi Frelok».*

Mana shu ro'yxat imperatorga o'qib berilganda, oliy hazratlari unda ko'rsatilgan ba'zi bir buyumlarni berishimni nazokat bilan taklif qildi. Eng avvalo u qilichimga ishora qildi. Men o'sha zahoti qilichni yechib, qin-pini bilan topshirdim. Bu orada imperator uch ming saralangan askarga (o'sha kuni ular oliy hazratlarini qo'riqlashardi) yoylarni shay tutgan holda meni qurshashni buyurdi. Lekin men buni payqamadim, chunki ko'zim oliy hazratlarida edi.

Imperator qilichni yalang'ochlashimni iltimos qildi. Men iltimosni bajo keltirdim, qilichni boshim uzra bir necha bor aylantirdim. Soldatlar hayrat va dahshatga tushib, baqirib yuborishdan o'zlarini tiya olishmadi. Qilich dengiz suvidan sal zanglab qolgan bo'lsa-da, har holda durust yaraqlardi. Qilichga tushgan quyosh nurlari charaqlab, atrofdagilarning ko'zini qamashtirib yubordi. Barcha podsholardan ham botirroq oliy hazratlari men kutgandan ko'ra ozroq qo'rqdi.

U menga qilichni qiniga solishni va o'zim bog'langan zanjirdan olti fut nariroqqa imkoni boricha sekinroq tashlashni amr etdi.

Keyin u, ular ichi kovak ustun, deb atagan to'pponchalarimni ko'rsatishni talab qildi. Men to'pponchani chiqardim, imperatorniig iltimosiga ko'ra uni qanday ishlatilishini qo'limdan kelganicha tushuntirdim. Keyin uni porox bilan o'qladim (porox xalta zich berkitilgani uchun u qup-quruqligicha qolgan ekan), imperatorni qo'rqmang deb ogohlantirdim-da, osmonga qarab o'q uzdim. Bu safar qilichdan qo'rqqandan ko'ra battarroq qo'rqib ketishdi. Yuzlarcha odamlar o'q yeb o'lganday yerga yiqildi. Hatto imperator, oyoqda tik turgan bo'lsa-da, anchagacha o'ziga kelolmadi. Men ikkala to'pponchamni ham, o'q-dori solingan xaltachani ham topshirdim. Oliy hazratlariga o'q-dorini olovdan uzoqroq saqlashni tayinladim, u sal uchqun tegsa alanga olib, imperator saroyini portlatib yuborishini aytdim.

Soatimni ham berdim. Imperator uni zo'r qiziqish bilan tomosha qildi, so'ng ikkita eng kuchli gvardiyachisiga soatni halqasidan yog'och o'tkazib olib ketishni buyurdi. Gvardiyachilar soat halqasidan yog'och o'tkazib, Angliyada el solingan bochkani ko'targanday, yelkalarida ko'tarib ketishdi. Hammasidan ham imperatorni soat mexanizmlarining uzluksiz shovqini va daqiqa milining harakati hayratga soldi. Liliputlar bizdan ko'ra ancha ravshan va yaxshi ko'rishadi: oliy hazratlari milning doimiy harakatda ekanligini bir zumda payqadi. U bu mashina nima uchun xizmat qilishini aniqlashni olimlarga topshirdi. Biroq, olimlar hech qanday xulosaga kelolmasligini kitobxon shundog'am tushunib turgan bo'lsa kerak. Ularning hamma taxminlari haqiqatdan ancha yiroq edi.

Keyin kumush va mis tangalarimni, o'nta yirik hamda mayda oltin tangalar solingan hamyonimni, pichoq, ustara, taroq, kumush tamakidon, ro'molcha va yon daftarlarimni ham topshirdim. Qilich, to'pponchalar, o'q va porox solingan sumka aravaga yuklandi va oliy hazratlarining qurolxonasiga jo'natildi. Imperator boshqa buyumlarni menga qaytarib berishni amr qildi.

Amaldorlarga yashirin cho'ntagimni ko'rsatmaganimni oldin aytgandim. Unda ko'zoynak, cho'ntakda olib yuriladigan durbin va yana bir qancha maydachuyda narsalar bor edi. Bu narsalar imperatorda hech qanday qiziqish tug'dirmasdi, buning ustiga ularni tashiyotganda buzish, sindirish yoki ishdan chiqarib qo'yish mumkin, shu vajdan, o'z va'damni buzmasdan, ularni imperator amaldorlaridan yashirishni ma'qul ko'rdim.

UCHINCHI BOB

MUALLIF USTALIK BILAN IMPERATOR, SAROY XONIMLARI VA KAVALERLARNING KO'NGILLARINI OVLAYDI. LILIPUTIYA SAROYIDAGI KO'NGIL OCHISHNING TA'RIFI. MUALLIFGA MA'LUM VAQTLARDA OZODLIK BERILADI.

Ozimni mo'min-qobil tutishim imperator, saroy, armiya hamda butun xalq oldida e'tiborimni oshirib yubordi, endi ozod etilishimga umid bog'lasam ham bo'ladi. Men o'z haqimdagi maqbul fikrlarni mustahkamlashga jon-jahdim bilan intildim. Ba'zida yerga yotib, besh-olti liliputning kaftimda raqsga tushishiga ham yo'l berdim. Bora-bora bolalar sochlari orasida berkinmahoq o'ynashga ham botina oladigan bo'lib qolishdi. Men ularning tilida bermalol gaplashadigan va ularni tushunadigan bo'ldim.

Bir kuni imperatorning miyasiga akrobatik tomosha ko'rsatish bilan mening ko'nglimni xushnud etish fikri kelib qoldi. Liliputlar bunaqa tomosha ko'rsatishda o'zlarining ephchil-chaqqonliklari bilan men bilgan hamma xalqlardan ustun turishadi. Ayniqsa, ularning dorbozlik san'ati meni hayratga soldi. Dorbozlik yerdan o'n ikki dyuym balandlikda tortilgan, uzunligi ikki fut keladigan ingichka, oq ip ustida namoyish etilar ekan. Bu tomosha xususida batafsilroq to'xtalib o'taman, kitobxonlardan sabr-qanoat qilishlarini o'tinib so'rayman.

Arqon ustidagi o'yinlarni faqat yuqori lavozimga nomzodi ko'rsatilgan va saroydan muruvvat kutayotgan shaxslargina ijro etishadi. Ular yoshlikdanoq dorbozlik san'atini o'rganishadi, lekin hammalari ham oliy nasl-nasabli, ma'lumotli odamlar bo'lmaydi. Birorta amaldor vafot etsa yoki imperatorning g'azabiga uchrasa (bu tez-tez bo'lib turadi), yuqori lavozimga da'vogar bo'lganlardan besh-olti kishi oliy hazratlari va butun saroy ahlini xushnud etib dor o'ynab berish uchun imperatoridan izn so'rashadi. Kimki arqondan qulamay, hammadan balandga sakrasa, bo'sh o'rin o'shaniki bo'ladi. Hatto vazirlar ham o'z ephchilliklarini, ayni paytda dor o'ynashga bo'lgan o'z qobiliyatlarini yo'qotmaganliklarini namoyish etish uchun tez-tez imperatoridan buyruq olib turadi. Xazinaxona kansleri Flimnap sakrashda alohida dovrug' taratgan*. U tarang tortilgan arqon ustida imperiya amaldorlariga nisbatan bir dyuym yuqoriga sakragan. Men uni qalinligi ingliz kanopidek dor arqoniga bog'lab qo'yilgan kichkinagina taxta ustida boshi bilan bir necha bor umbalog' oshganini ko'rdim. Mening do'stim, maxfiy

kengashning bosh kotibi Reldresel — bordi-yu, unga ko'ngil bog'lashim meni esankirاتب qo'ymasa — xazinaxona kansleridan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Boshqa amaldorlar o'z epcilliklari bilan bir-birlaridan uncha farq qilmaydilar.

Bu tomoshalar ko'pincha baxtsiz hodisalar bilan tugaydi. Yuqori lavozimga umidvorlardan ikki-uchtasining mayib bo'lganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Vazirlar o'z epcilligini ko'rsatishi uchun imperatordan buyruq olganda xavf battar kuchayib ketadi. Ular o'zlarini ko'rsatish uchun shunaqayam jon kuydirishadiki, natijada dordan kamdan-kam odam yiqilmay qoladi. Menga, bu yerga kelishimdan bir yoki ikki yil ilgari Flimnap bo'ynini sindirib olishiga sal qolganligini uqtirishdi. Baxtiga, kimdir yerga qo'yib qo'ygan yostiqlik ustiga yiqilibdi, shu vajdan o'lmay qolibdi.

Ba'zan saroyda alohida tomoshalar ham bo'ladi, unda faqat imperator, uning xotini va bosh vazir qatnashadi. Imperator stol ustiga moviy, qizil, yashil — har birining uzunligi olti dyuymli uchta ingichka ipak ip qo'yadi. Imperator bu iplarni o'z iltifotini qozonishda alohida namuna ko'rsatgan kishilarga mukofot tariqasida beradi. Marosim oliy hazratlarining taxti qo'yilgan katta zalda o'tkaziladi. Bu yerda mukofotlablar epcillikda alohida sinovlardan o'tkaziladi, bunaqa chaqqonlikni eski dunyoyu yangi dunyo mamlakatlarida ham ko'rilgan. Imperator qo'lidagi tayoqni gorizontol holatda ushlab turadi, epcilligini namoyish qiluvchilar navbatma-navbat tayoqlik ustidan irg'ishishadi, tayoqlikni baland yo past tutib turilganiga qarab, uning ostidan emaklab ham o'tishadi. Gohida tayoqlikni boshqa uchini birinchi vazir, ba'zan esa tayoqlikni vazirning o'zi ushlab turadi. Ana shu mashqlarni eng yaxshi bajargan chaqqonga moviy ip, ikkinchi o'rindagisiga qizil, uchinchisiga yashil ip beriladi*. Taqdim etilgan iplarni bellaridan ikki marta aylantirib, belbog' qilib bog'lab yurishadi. Saroyda ana shunday belbog' bog'laganlar juda ko'p.

Otboqarlar har kuni tegrandan polk hamda qirol otxonalaridagi otlarni aylantira boshlashdi. Shuning uchun ham otlar mendan hurkimaydigan, hatto oyog'imning tagigacha keladigan bo'lib qolishdi. Ko'pincha qo'limni yerga qo'yardim, chavandozlar esa otlarini qo'lim ustidan sakrab o'tishga majbur qilishadi, bir safar imperatorning shikor begi savlatlikkina otda kovushli oyog'im ustidan sakrab o'tdi. Bu chinakam, tom ma'nodagi sakrash bo'ldi.

Men imperatorning ko'nglini xushnud qiladigan ajoyib narsa o'ylab topdim. Men undan uzunligi ikki fut, yo'g'onligi oddiy qamish poyaday keladigan bir necha dona tayoqlik topib berishini iltimos qildim. Oliqlik hazratlari bosh o'rmonchiga

tegishli ko'rsatmalar berishni amr etdi, ertasi kuni ertalab yetti o'rmonchi men talab qilgan xodachalarni sakkiz ot qo'shilgan olti aravada yetkazib keldi.

Men to'qqizta kaltakni olib, yerga to'rt burchak shaklida mahkam qilib qoqdim, har bir tomonning uzunligi ikki yarim fut bo'ldi; ana shu to'qqizta kaltakka ro'molchamni tarang qilib tortdim, ustidan to'rtta kaltakni yerga parallel qilib, to'rt burchak chetiga mahkamlab bog'ladim. Bu kaltaklar, ro'molcha ustidan besh dyuymcha ko'tarilib, to'rtburchakning to'rttala tomonidan o'ziga xos to'siq hosil qildi.

Bu ishlarni tugatgach, o'zim qurgan maydon ustida mashq qilish uchun yigirma to'rtta eng yaxshi otliq askarlardan otryad tuzishni imperatordan iltimos qildim. Oliy hazratlari taklifimni quvvatladi. Chavandozlar kelishganda ularni birin-ketin ko'tarib, ro'molcha ustiga qo'ydim. Safga tizilishgach, ular ikkita otryadga bo'linishdi va manevrlarni boshlab yuborishdi: bir-birlariga to'mtoq o'qlar otishdi, qilich yalang'ochlab bir-birlariga hamla qilishdi; goh qochishdi, goh bir-birlarini ta'qib etishdi, goh hujumga o'tib, goh chekinishdi. Shu bilan ular eng yaxshi harbiy ta'lim olishganini namoyish qilishdi. To'siq qilib qo'yilgan kaltaklar chavandozlarni ham, otlarni ham pastga yiqilib tushishidan saqlab turdi. Imperator shunaqayam suyunib ketdiki, ana shunday ko'ngil ochishlarni bir necha kungacha surunkasiga takrorlashga meni majbur etdi, bir kuni o'zi ham maydonga ko'tarilib, manevrlarga shaxsan rahbarlik qildi. Imperator xotining tomoshani yaxshiroq ko'rishi uchun yopiq kreslodan maydondan ikki yard tepada ushlab turishga meni arang ko'ndirdi. Baxtinga bu mashqlarning hammasi yaxshi o'tdi. Faqat bir safar zobitlardan birining o'ynoqi oti tuyog'i bilan ro'molchamni teshib qo'ydi, ot qoqilib, yiqildi, egasini ko'tarib urdi. Men darhol ularga yordamga shoshildim. Bir qo'lim bilan teshikni berkitib, hamma otliqlarni yerga tushirdim. Yiqilgan otning oldingi oyog'i chiqqan bo'lsa-da, chavandoz shikastlanmagan edi. Ro'molchani hafsala bilan yamadim, lekin o'shandan beri bunaqa xavfli mashqlar paytida ro'molchanning pishiqligiga ishonmay qo'ydim.

Bir kuni — bu voqea ozod qilinishimga ikki-uch kun qolganda yuz berdi — saroy ahlini turli g'alati o'yinlar bilan dimog'ini chog' qilib turgandim. To'satdan oliy hazratlarining huzuriga chopar xabar olib keldi; meni topib olishgan joyda bir necha kishi ajib nusxali ulkan qop-qora narsa turganini ko'rishibdi. Uning o'rtasi odam bo'yi kelarmish, chetlari ancha past va keng emish. U oliy hazratlarining yotoqxonasi kengligidagi joyni egallab turganmish. Avvaliga ular, bu ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan bir hayvon bo'lsa kerak, deb o'ylashibdi. Lekin ko'p o'tmay bu fikrlaridan qaytishibdi. U narsa o't-o'lan ustida mutlaqo qimirla-

may turaveribdi, uning atrofidan bir necha bor aylanishibdi. Ular bir-birlarining yelkalariga chiqishib, g'alati narsaning tepasiga ko'tarilishibdi; tepasi sip-silliq-mish. Oyoqlari bilan rosa tepkilashib, uning ichi g'ovak ekanligiga ishonch hosil qilishibdi. Oxirida xabar keltiruvchilar odob bilan, bu narsa Ulkan Odamniki emasmikan, degan taxminni aytishdi, uni faqat beshta ot yordamida bu yerga keltirishga tayyor ekanliklarini izhor etishdi.

Men gap nima haqida ketayotganligini darhol fahmladim va bu xabardan juda sevinib ketdim. Chamasi, kema halokatidan keyin sohilga chiqib olgach, ko'n-glim vayron bo'lib ketganidan, shlyapam qayoqqa uchib ketganini payqamagan ekanman. Qayiqda o'tirganimdayoq shlyapa bog'ini iyagimga tang'ib bog'lagan, suvga ag'darilib tushganimda esa bostirib kiyib olgandim. Sohilga chiqqanimda shunaqayam charchagan edimki, shlyapani butunlay unutib qo'ygandim. Bog'yechilib, shlyapa boshimdan tushib ketgan, men esa uni to'lqinlar ichida qolgan, deb o'ylagandim.

Oliy hazratlariga uning nima ekanligini uqtirdim, shlyapani darhol poytaxtga keltirish haqida farmoyish berishini iltimos qildim. Ertasi kuni shlyapani keltirishdi. Biroq olib keluvchilar shlyapamga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lishibdi. Ular uning ayvonidan teshib, arqon o'tkazishibdi, uning bir uchini otlarning abzaliga bog'lashibdi, shu alfozda yarim milyagacha sudrab kelishibdi.

Baxtinga, bu mamlakat yeri nihoyatda tekis, silliq bo'lganidan, shlyapam kutganimdan ko'ra ozroq shikastlanibdi.

Bayon qilingan voqeadan keyin ikki hafta o'tgach, imperator poytaxt va uning atrofiga joylashgan armiyalarga otlanish haqida buyruq berdi. Oliy hazratlari antiqa ko'ngil ochishni tusab qoldi. U iloji boricha oyoqlarimni keng kerib, Koloss Rodoskiy* holatida turishimni istadi. Keyin oliy bosh qo'mondonga (eng kekxa, tajribali harbiy sarkarda, mening zo'r homiyimga) qo'shinlarni zich holda safga tizish va oyoqlarim orasidan tantanali marshlar bilan, barabanlarni chilib, bayroqlarni baland ko'tarib, piyodalarni yigirma to'rt, kavaleriyani o'n olti qatordan qilib o'tkazish haqida buyruq berdi. Armiya uch ming piyoda, ming kavaleriyadan iborat edi. Parad juda chiroyli o'tdi, oliy hazratlari rosa huzur qildi.

Imperatorga menga ozodlik berishini so'rab bir necha marta iltimosnoma hamda yozishmalar berdim, nihoyat, oliy hazratlari bu masalani oldin vazirlar, keyin davlat kengashi muhokamasiga qo'ydi. Kengashda mening ozod bo'lishimga faqat bitta raqib — Skayresh Bolgolam qarshi chiqdi. men tomonimdan hech qanday xusumat bo'lmasa-da, u ashaddiy dushmanimga aylandi. Ammo, uning

oyoq tirashiga qaramay, masala mening foydamga hal bo'ldi. Bolgolam *galbeta*, ya'ni qirol flotining admirali lavozimini egallagan bo'lib, imperator oldida katta ishonchga ega edi: u o'z ishining zo'r bilimdoni, lekin qahri qattiq va ushlagan joyidan kesadigan kishi edi. Oxiri uni rozilik bildirishga ko'ndirishdi, biroq u menga beriladigan ozodlik shartlarini o'zi tuzajagini qattiq turib talab qildi. Skayresh Bolgolamning shaxsan o'zi shartlarni menga ikki kotib hamda bir necha amaldor kuzatuvida olib keldi. Uni o'qib bo'lishgach, shartlarni buzmaslik haqida menga ont ichdirishdi. Qasamyod avvalo o'z yurtim udumiga, keyin esa mahalliy qonun-qoidalarga ko'ra amalga oshirildi. Qasamyod qilayotganda o'ng oyog'imni chap qo'lim bilan ushlab turishim, bir vaqtning o'zida o'ng qo'lim o'rta barmog'ini miyamga, boshmaldog'imni esa o'ng qulog'im uchiga qo'yib turishim kerak edi. O'z zimmamga olgan majburiyatlarim bilan tanishish, ehtimol, kitobxon uchun ancha qiziq tuyular. Shuning uchun ushbu hujjatni to'la va aniq tarjimai bilan keltiraman.

«Liliputiyaning qudratli imperatori, mulki yer kurrasining chetigacha besh ming blestreg (aylanasiga o'n ikki milyaga yaqin) ni egallagan, jahonning quvonchi va dahshati, podsholarning podshosi, insoniyatning eng ulug' farzandi, boshi quyoshga yetgan, bir imosi bilan jahon shohlarining tizzasi qaltiragan, bahorday so'lim, yozday himmatli, kuz singari to'kin, qish singari qahrli *Golbasto Momaren Evlem Gerdaplo Shefin Mollu Olli Gu* Oliy hazratlari yaqinda samoviy mamlakatimizga kelgan Ulkan Odamga quyidagi shartlarni qo'yadi, Ulkan Odam ularni bajarish uchun tantanali qasamyod qiladi.

1. Katta muhr bosilgan ijozat yorlig'imizsiz mamlakatimizdan ketishga Ulkan Odamning haqqi yo'q.
2. U bizning alohida farmoyishimizsiz poytaxtdan chiqmaydi, bordi-yu, chiqadigan bo'lsa, aholi uylariga yashirilib olishi uchun ikki soat ilgari ogohlantirilishi kerak.
3. Ulkan Odam deb nomlanuvchi faqat katta yo'llardagina sayr qilish bilan kifoyalanishi zarur. Uning o'tloq va dalalarda aylanishga hamda yonboshlashga haqqi yo'q.
4. U sayr qilayotganda marhamatli fuqarolarimizni yoki ularning ot-ulovlarini bosib olmaslik uchun oyog'i ostiga diqqat bilan qarashi, fuqarolarni ularning rozilgisiz qo'lga olmasligi lozim.
5. Bordi-yu, imperiyaning biror uzoqroq shahariga choparni tezroq yetkazish lozim bo'lib qolsa, Ulkan Odam — har qamar yilida faqat bir marta — choparni

- ot-poti bilan ko'tarib, olti kunlik yo'lga eltib qo'yishga majbur; agar talab qilinsa, o'sha choparni imperator hazratlari yoniga sog'-salomat olib keladi ham.
6. U bizga dushman bo'lgan Belefusku oroli bilan urush olib borishimizda itti-foqdosh bo'lishi, bizga hujum qilish uchun hozir qurollanayotgan* dushman flotini yakson etishda butun kuch-g'ayratini sarflashi lozim.
 7. Yuqorida nomi zikr qilingan Ulkan Odam bo'sh vaqtlarida ishchilarimizga katta park devorlarini tiklashda, shuningdek, boshqa binolarni qurishda yordam beradi.
 8. Yuqorida nomi zikr qilingan Ulkan Odam ikki qamar yili ichida mamlakatimizni aylanasiga aniq o'lchab chiqishi, hamma sohillarni aylanishi, qo'yilgan qadamning qanchaligini sanashi lozim.
 9. Ulkan Odam deb nomlanuvchi belgilangan shartlarga qattiq rioya qilishi haqida tantanali ravishda qasamyod qilishi zarur. Buning evaziga Ulkan Odam har kuni fuqarolarimizdan 1728 kishiga yetadigan ovqat va ichimlik oladi, arkoni davlatimiz huzuriga erkin kirishiga va boshqa marhamatlarimizga ega bo'ladi. Ushbuni Belsraborakeda, saroyimizda, podshohligimizning to'qson birinchi qamar yili, o'n ikkinchi kunida berildi».

Men zo'r mamnuniyat bilan qasamyod qildim, garchi bu shartlarning ba'zilarini unchalik obro'li bo'lmasa-da, ostiga imzo chekdim. Bularning hammasi oldin admiral, Skayresh Bolgolamning qora niyati bilan yozilgan edi. Qasamyod qilib bo'lishim bilanoq, oyog'imni zanjirlardan bo'shatishdi, men to'liq ozodlik oldim.

Imperator shunaqayam marhamatli ediki, u ozod bo'lishim marosimida shaxsan qatnashdi. Men minnatdorlik izhor qilib, oliy hazratlari oyoqlari ostiga yuz tuban yiqildim, biroq imperator o'rnimdan turishga buyurdi. U menga qarata rahm-shafqat, marhamatga to'la nutq so'zladi va gapining oxirida naf keltiruvchi xizmatkor bo'lishimga, hozirgacha ko'rsatgan va bundan keyin ham ko'rsatadigan marhamatiga loyiq odam bo'lishimga katta ishonech bildirdi.

Kitobxon shartning oxirgi bandida imperator menga har kuni 1728 liliputga yetadigan ovqat va ichimlik berishga va'da qilganligiga e'tiborni qaratsin. Meni bunaqa aniq raqam qanday qilib belgilangani qiziqtirib qoldi va bir kuni saroy amaldori bo'lmish do'stimdan bu haqda so'radim. U oliy hazratlarining matematiklari kvadrant⁷ yordamida mening bo'yimni aniqlab, liliputlardan o'n ikki baravar baland ekanli-

7 Kvadrant-samoviy jismlarning (asosan Quyoshning) balandligini belgilaydigan qadimiy astronomik asbob.

gimni bilib, tanam hajmi 1728 liliput tanasi hajmiga tengligini, u shuncha ko'p ovqat talab qilishini hisoblab chiqishganini aytdi. Bu misol liliputlarning o'ta topqirligidan, ularning podsholari esa donishmand hisobdon ekanligidan dalolat berib turibdi.

TO'RTINCHI BOB

LILIPUTIYA POYTaxTI MILDENDO VA IMPERATOR SAROYINING TA'RIFI. MUALLIFNING BOSH KOTIB BILAN DAVLAT ISHLARI XUSUSIDA SUHBAT-LASHUVI. MUALLIF IMPERATORGA UNING OLIB BORAYOTGAN URUSHIDA O'Z XIZMATINI TAKLIF QILADI.

Ozodlik olgach, eng avvalo mamlakat poytaxti Mildendoni tomosha qilish uchun ijozat so'radim. Imperator paysalga solmay darhol ijozat berdi, lekin aholiga ham, ularning uylariga ham hech qanday ziyon-zahmat yetkazmasligimni qattiq tayinladi. Shahar aylanish niyatim borligi haqida varaqa tarqatilib, aholini xabardor qilindi.

Poytaxt balandligi ikki yarim fut, eni kamida o'n bir dyuym keladigan devor bilan qurshalgan. Devor ustidan ikkita ot qo'shilgan kareta bemalol yurishi mumkin. Biri ikkinchisidan o'n fut masofada joylashgan. ko'kka bo'y cho'zgan mustahkam minoralar shahar ostonalari mudofaa qiladi.

G'arbiy darvoza ustidan hatlab o'tib, ikkita katta ko'chadan yonlab, sekin-sekin yurdim. Etagim uylarning tom va bo'g'otlariga ziyon yetkazishidan qo'rqib, kaftanimni ilgariroq yechib qo'ydim. Uylarga yashirinib olish va hech qayoqqa chiqmaslik haqida farmon berilganiga qaramay, aholi ko'chalarda bemalol aylanib yurardi. Shuning uchun juda ehtiyotkorlik bilan yurib, ulardan birortasini bosib olmasman, deb oyog'im ostidan ko'z uzmadim. Yuqori qavat derazalari va uylarning tomiga odam to'lib ketgandi. Umrim bino bo'lib bunchalik ko'p odam to'planganini ko'rmagan bo'lsam kerak.

Shahar to'g'ri to'rt burchak shaklida, shahar devorining har tomoni besh yuz fut. Har birining eni besh fut keladigan ikki katta ko'cha to'g'ri burchak hosil qilib kesishadi va shaharni to'rtta kvartalga bo'ladi.

Yon ko'cha va tor ko'chalarga kirolmadim, ularni tepa tomonidan ko'rdim. Ularning eni o'n ikkidan o'n sakkiz dyuymgacha.

Shahar o'ziga besh yuz ming kishini sig'dira olishi mumkin. Uylar uch va besh qavatli. Do'kon va bozorlar mollarga to'la.

Imperator saroyi shahar markazida, katta ko'chalar kesishgan joyda. Ikkita ichkari hovlisi bor katta bino keng maydon o'rtasida qad ko'targan, devorlarining balandligi ikki fut. Maydon shu qadar kengki, oliy hazratlarining ijozati bilan, unga bemalol hatlab o'tdim hamda saroyini hamma tomondan tomosha qildim. Imperatorning xonalari ikkinchi ichki hovlida ekan. Men ularni juda ko'rgim keldi-yu, biroq bu istagimni ro'yobga chiqarish qiyin bo'ldi, chunki bir hovlini ikkinchisi bilan tutashtiradigan katta darvozalarning bo'yi o'n sakkiz, eni esa yetti dyuym ekan, xolos.

Tashqari hovli devorlarining balandligi boshqa tomondan kamida besh fut keladi, shu sababli, garchi devorlar qalinligi to'rt dyuymli toshlardan urilgan va mustahkam bo'lishiga qaramay, ulardan imoratlariga ziyon yetkazmasdan hatlab o'tolmasdim. Ayni paytda, imperator hashamatli saroyini menga juda ko'rsatgisi kelardi.

Biroq oradan uch kun o'tgach — tayyorgarlik ishlarini tugatgach, umumiy istagimizni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldim.

Shahardan yuz yard yiroqdagi imperator xiyobonida qalamtaroshim bilan bir necha eng yo'g'on daraxtlarni kesdim va ulardan balandligi uch fut keladigan, meni bemalol ko'tara oladigan ikkita kursi yasadim. So'ng, aholi yana ogohlantirilgach, qo'limga ikkita kursini ushlab, shahar ichidan saroy tomon yo'l oldim. Saroyga maydon tomondan yaqinlashib, kursilardan biri ustiga chiqdim, boshqasini tomdan oshirib, kengligi sakkiz fut keladigan birinchi ichki hovliga astagina qo'ydim. Keyin bir kursidan ikkinchi bino osha osongina hatlab o'tdim-da, birinchi kursini uchi ilmoqli tayoqcha bilan ichkariga oldim. Xuddi ana shunday hiyla bilan ikkinchi ichki hovliga ham kirdim.

Usha yerda yonboshlab, yuzimni o'rta qavat derazalariga yaqinlashtirdim; shunday qilib, faqat tasavvur qilish mumkin bo'lgan o'ta hashamatli qasrlarni tomosha qilish imkoniyatiga ega bo'ldim. Men malikani va yosh shahzodalarni mulozimlar qurshovida ko'rdim. Hazrati oliyalari menga shirin tabassum qilib, nazokat bilan qo'lini uzatdi, men uning qo'lini o'pdim.

Saroyni rosa aylanib, haligi kursilar yordamida saroy maydoniga chiqib oldim va eson-omon uyimga qaytdim.

Bir kuni ertalab, ozod bo'lganimga ikki hafta bo'lganida, huzurimga maxfiy ishlar bo'yicha bosh kotib (uni shunday unvon bilan chaqirishadi) Reldresel keldi. U kucheriga chetroqqa borib turishni buyurib, o'zini qabul qilishimni iltimos

qildi. Men uning lavozimi va shaxsiy obro'yiga hurmat bilan qaraganim uchun bunga bajonu dil rozi bo'ldim. Bundan tashqari, u saroyda menga ko'pgina yaxshiliklar ham qilgan. Men yerga yotishga shay ekanligimni aytdim, lekin u suhbatlashayotganimizda o'zini kaftimda turishini afzal deb bildi.

Avvalo, u meni ozod bo'lishim bilan tabrikladi, albatta, uning aralashuvisiz bunga erisholmasdim. Biroq, uning gaplariga qaraganda, ozod bo'lganim uchun voqealar oqimidan mamnun bo'lishim kerak ekan.

«Mamlakatimizdagi umumiy ahvol, — dedi u, — xorijiy odamga juda yaxshiga o'xshab ko'rinadi. Lekin bu tasavvur xato. Vatanimiz boshiga ikkita zo'r, dahshatli musibat tushib turibdi. Yetmish qamar yil muqaddam imperiyada bir-biriga dushman *Tremeksenlar va Slemeksenlar* degan nom bilan mashhur bo'lgan ikkita partiya vujudga kelgan. Birinchilari baland poshna tarafdorlari, ikkinchilari past poshna tarafdorlari*.

Tremeksenlar, baland poshnalar qadimiy davlatimiz tuzilishiga mos keladi, deb ta'kidlashadi, biroq oliy hazratlari past poshna tarafdori, u barcha hukumat va saroy mahkamalari xizmatchilari faqat past poshnali poyafzalda yurishsin, deb farmoyish chiqardi. Siz bu narsaga e'tibor bergan bo'lsangiz kerak. Ehtimol, oliy hazratlari kovushining poshnasi boshqa hamma saroy amaldorlarinikidan bir drerr past ekanligini ham sezgandirsiz (drerr dyuymning o'n to'rt dan biriga teng).

Har ikkala partiya o'rtasidagi adovat va dushmanlik shu darajaga yetib boradiki, bir partiyaning a'zolari boshqa partiya a'zolari bilan birgalikda yemaydi ham, ichmaydi ham, gaplashmaydi ham. *Tremeksenlar* yoki Baland Poshnalar son jihatdan bizdan ancha ko'p deb hisoblaymiz, lekin hokimiyat butunlay o'z qo'limizda. Ammo xavfsirashga asosimiz bor, toju-taxt vorisi imperator oliy hazratlarinng Baland Poshnalarga ancha moyilligi bor. Uning bir poshnasi sal baland, shu vajdan oliy hazratlari bir oz oqsaydi*.

Davlatimizni ana shunday nizolar qiynab turgan bir paytda, oliy hazratlarining imperiyasidek zo'r va qudratli Blefuskuy buyuk imperiyasi bizga hujum qilmoqchi. To'g'ri, siz dunyoning boshqa joylarida o'zingizga o'xshash ulkan odamlar yashaydigan davlat va qirolliklar borligini aytdingiz. Biroq, faylasuflarimiz bunga hech ishongilari kelmayapti. Ular sizni oy yoki qandaydir bir yulduzdan tushganingizga ko'proq ishonishadi. Sizday odamlardan yuztasi qisqa muddat ichida oliy hazratlari qo'li ostidagi mamlakatning meva-cheva va hayvonlarini yeb qo'yishiga hech qanday shak-shubha yo'q. Bundan tashqari, bizda yilnoma bor. Yilnomada olti ming qamar yil vaqt ichida yuz bergan voqealar vasf qilin-

gan, lekin unda Liliputiya va Blefusku singari buyuk imperiyadan boshqa hech qanaqa mamlakat haqida gap yuritilmaydi.

Mana, o'ttiz olti qamar yildan beri bu buyuk davlatlar o'zaro qattiq urush olib boradi. Bunga quyidagi voqea sababchi bo'lgan. Hammaga ma'lumki, qadim zamonlardan beri pishgan tuxumlarni poynak tomonidan sindirish rasm bo'lib qolgan. Nima bo'ladi-yu, hozirgi imperatorimizning bobosi hali go'dak paytida uning nonushtasiga pishgan tuxum berishadi. Bola tuxumni qadimiy odatga ko'ra sindirayotib, barmog'ini kesib oladi. O'shanda uning otasi — imperator o'z fuqarolariga, aks holda qattiq jazo berajagini eslatib, tuxumni uch tomonidan sindirish haqida farmon beradi*.

Bu farmon aholining shunaqayam g'azabini qo'zgatganki, yilnomalarda yozilishicha, yetti marta qo'zg'olon ko'tarilgan, natijada bir imperator o'lgan, boshqasi tojidan mahrum bo'lgan. Blefusku hukmdorlari bu qo'zg'olonlarni avj oldirishgan, qo'zg'olon qatnashchilarini o'z mamlakatlarda yashirishgan*. Tuxumni uchidan sindirishdan bosh tortganligi uchun o'n bir ming fanatik o'lim jazosiga hukm qilingan. Mana shu masalaga bag'ishlab, yuzlarcha tom kitoblar yozilgan. Biroq poynakchilar tarafdorlarining kitoblari allaqachonlar man etilgan, partiya esa davlat lavozimlarini egallashdan mahrum etilgan.

Blefusku imperatorlari o'z elchilari orqali bizni bir necha bor ogohlantirishdi. Ular bizni cherkov sohasida parchalanishda, ulug' payg'ambarimiz Lyustrogning Blundekralning (bu asar liliputlarning muqaddas kitobi) ellik to'rtinchi bobida bayon qilingan asosiy aqidalarini buzishda ayblashadi. Lekin ularning bu da'vosi aqlga sig'maydi. Aqidaning asl matnida: «Barcha haqiqiy dindorlar tuxumni o'ziga qulay tomonidan sindiradilar» deyiladi. Tuxumning qaysi tomoni qulay — uch yoki poynak tomonimi — bu, menimcha, har bir dindorning o'z shaxsiy ishi*. Hech bo'lmaganda bu masalani hal etishni imperatorning oliy sudiga oshirish mumkin.

Nima bo'lsa ham, surgun qilingan poynakchilar Blefusku imperiyasida ishonchli boshpana topishdi. Bora-bora ular imperatorga shunday ta'sir o'tkazishdiki, u bizning davlatimizga urush e'lon qilishgacha borib yetdi. Urush o'ttiz olti qamar yildan beri davom etmoqda, ammo bir-biriga dushman tomonlardan biron-tasi ham uzil-kesil g'alaba bilan maqtana olmaydi. Shu muddat ichida biz qirqta katta harbiy kema va o'ttiz ming eng yaxshi dengizchilari bilan juda ko'p mayda kemalarni yo'qotdik. Aytishlaricha, dushman bizdan ham ko'ra ko'proq talofat ko'rgan. Biroq, shunga qaramay, dushman yangi flotni shayladi, bizning territo-

riyamizga desant tushirishga hozirlik ko'rmoqda. Shuning uchun ham oliy hazratlari, sizning kuch va jasoringizga to'liq ishongan holda, mamlakatimizdagi haqiqiy ahvolni sizga bayon qilishni menga topshirdi».

Garchi men xorijiy kishi sifatida mahalliy partiyalar o'rtasidagi nizolarga aralashmasligim kerak bo'lsa-da, xalos bo'lishim va ozod etilishimda imperator oldida o'ta qarzdorligim vajidan, uning davlatini dushman hujumidan jonimni ayamay himoya qilishga tayyor ekanligimni imperator hazratlariga ma'lum qilib qo'yishini kotibdan o'tinib so'radim.

BESHINCHI BOB

MUALLIF O'TA ANTIQA O'YI TUFAYLI DUSHMAN HUJUMINING OLDINI OLADI. UNGA YUKSAK UNVON BERISHADI. BLEFUSKU IMPERATORINING ELCHILARI KELIB, SULH TUZISHNI SO'RASHADI.

Blefusku imperiyasi Liliputiyaning shimoli-sharqidagi orollarga joylashgan. Har ikkala davlatni uncha chuqur bo'lmagan va eni sakson yard keladigan bo'g'oz bir-biridan ajratib turadi.

O'sha orollar ko'rinib turgan sohilda hech ham bo'lmaganman. Endilikda esa o'sha joylarda bo'lishni o'zimga ep ko'rmadim.

Urush e'lon qilingan paytdan boshlab har ikkala imperiya o'rtasidagi aloqalar man etilgandi, aloqa qilgan kishini o'lim jazosi kutardi. Bizning imperator bunga ham qanoat hosil qilmay, Liliputiya gavanidan barcha kemalarning chiqishini to'xtatib qo'ydi. Shuning uchun ham blefuskuliklar mening liliputlar orasida ekinligimni xayol-xotirlariga ham keltirishmasdi. Bu dushman flotini qo'qqisdan egallab olishdek rejamga judayam mos tushardi, shu sababli, dushmanlar meni ko'rib qolishi mumkin bo'lgan sohilda ko'rinmaslikka harakat qildim.

Razvedkachilar Blefusku floti bo'g'ozdagi gavanlardan birida turganligini, yo'ldosh shamol esishi bilanoq yelkanlarni ko'tarishga shay ekanligini xabar qilishdi. Men imperator bilan kengashib, o'z niyatlarimni amalga oshirishga ahd qildim.

Avvalo, dengizchilardan bo'g'ozning chuqurligini so'rab oldim. Ular suv ko'payganda ham bo'g'ozning chuqurligi yetmish *glyugleff* (yevropacha olti fut) dan oshmasligini ma'lum qilishdi. Shundan keyin Blefuskuning ro'parasiga joylash-

gan shimoli-sharqiy sohilga ehtiyotkorlik bilan borib, tepalik orqasiga yonboshladim, durbinimni langarda turgan dushman floti tomoniga qaratdim. Ellikta jangovar kema va ko'pgina boshqa transportlarni ko'rdim.

Uyga qaytgach, eng yo'g'on arqon va ko'pgina temir to'sinlar topib berishlarini iltimos qildim. Chilvir yo'g'onligida arqonlar, yo'g'onligi to'quv ignasiday keladigan to'sinlar topildi. Arqonlar pishiq bo'lishi uchun ularning uchtasini bitta qilib eshdim, to'sinlarning ham uchtasini bir qilib, uchlarini qarmoq singari qayirib qo'ydim. Ellikta ilgakni arqonlarga bog'lab, shimoli-sharqiy sohilga qaytib keldim, egnimdagi kaftanimni, oyog'imdagi kovush va paypoqlarimni yechdim, suv ko'payishidan yarim soat oldinroq charm kamzuldagina suvga tushdim. Avvalo suvni kechib bordim, keyin to sayoz joyga yetgunga qadar o'ttiz yardcha joydan suzib o'tdim. Bu ishlarni juda tez bajardim, yarim soat o'tmay dushman kemalari turgan gavanga yetib bordim.

Dushmanlar meni ko'rib, shunaqayam qo'rqib ketishdiki, o'zlarini suvga shop-shop tashlab, o'ttiz mingdan ortiq odam to'planib turgan sohil tomonga qarab suzishdi. Men esa o'zim tayyorlagan ilmoqlarni har bir kema tumshug'iga ilib, arqonlarning uchini bitta qilib tugdim. Bu ishlarni qilayotganimda dushman ustimga o'q yomg'iri yog'dirdi; o'qlarning ko'pi qo'l va yuzlarimga sanchildi. O'q sanchilgan joylar juda qattiq azob berdi, ishlashga qo'ymadi. Hammasidan ham ko'zimdan qo'rqdim. Agar himoya vositasini o'ylab qo'ymaganimda ko'zimdan ajralib qolishim hech gap emasdi. Zarur buyumlar qatorida yashirin cho'ntagimda ko'zoynagimni ham saqlardim. Men ko'zoynagimni taqib, mahkamlab bog'lab qo'ydim. Endi bemalol ishni davom ettirishim mumkin. O'qlar ko'zoynakka tez-tez tegib turdi, lekin menga ziyon yetkazmadi.

Hamma ilgaklar kemalarga ilib bo'lingandan keyin arqonlarning uchidan ushlab, kemalarni sudradim, lekin bitta ham kema o'rnidan qimirlamadi: ular langarda mahkam turardi. O'ta xavfli ishga qo'l urishga to'g'ri keldi. Kemalarni aylanib o'tib, pichoq bilan langar arqonlarini kesib yubordim; bu paytda yuz va qo'llarimga ikki yuztacha o'q qadaldi. So'ng yana ilmoqlarga bog'langan arqonlarni ushlab, dushmanning eng yirik ellikta harbiy kemasini sudrab ketdim.

Sarosimaga tushgan blefuskuliklar anchagacha niyatimga tushunib yetishmadi. Langar arqonlarini kesayotganimda, u kemalarni shamol ixtiyoriga qo'yib yuborsa kerak yoki bir-biri bilan urishtirsa kerak, deb o'ylashdi. Biroq butun flotni sudrab ketayotganimni ko'rishib, ular ta'rifga sig'mas iztirobga tushishdi, borliq ayanchli oh-vohlarga to'lib ketdi. Ularning uzgan o'qlari mengacha yetmaydi-

gan masofaga borib olib, qo'l va yuzlarimga sanchilgan o'qlarni sug'urib tashladim, yaralangan joylarimga malham qo'ydim. Keyin ko'zoynagimni yechib, suv pasayishini biror soatcha kutdim, bo'g'ozni kechib o'tib, o'z yuklarim bilan Liliputiyaning imperator portiga eson-omon yetib oldim.

Imperator va barcha saroy amaldorlari, bu buyuk tashabbusning oqibati nima bilan tugarkin deb, kutib turishgan ekan. Bo'g'oz o'rtasida suv bo'g'zimgacha yetganidan ular meni ko'risha olmabdi. Faqat, keng yarim doira yasab qirg'oqqa yaqinlashayoggan kemalarni ko'rishibdi. Imperator meni cho'kib ketgan, dushman floti esa yovuz niyat bilan yaqinlashib kelyapti, deb o'ylabdi. Biroq ko'p o'tmay uning shubhalari tumanday tarqalib ketdi. Qadam-baqadam bo'g'oz sayozlashib bordi, men esa suvda ro'yrost ko'rina boshladim. Qirg'oqqa ovozim eshitiladigan darajadagi masofaga kelgach, kemalar bog'langan arqonlar uchini baland ko'tardim hamda: «Yashasin Liliputiyaning qudratli imperatori!» — deb qichqirdim. Sohilga chiqqanimda ulug' shahanshoh meni maqtovlarga ko'mib tashladi va shu zahotiyiq menga ushbu davlatdagi eng yuksak unvon — nardak unvonini berdi.

Biroq podsholarning shuhratparastligiga ta'rif yo'q. Oliy hazratlari dushmanning qolgan kemalarini ham egallashimni xohlab qoldi. Chamamda, u Blefuskuni imperiyasini butunlay zabt qilib olmoqchi edi shekilli. Blefuskuni o'z hokimi orqali idora qilib, u yerda o'z tartibotini o'rnatishi: yashirinib yurgan poynakchilarni qirib tashlab, barcha blefuskularni tuxumni uch tomonidan chaqishga majbur qilishi mumkin. Ana o'shanda u dunyoning hokimi mutloqi bo'lib qoladi*. Lekin men imperatorni bu niyatidan qo'lmdan kelganicha qaytardim. Siyosiy mulohazalarim hamda adolatliligimga tayanib, juda ko'p dalillar keltirdim. Gapimning oxirida jasur va ozod xalqni qullikka solish quroli bo'lishga aslo rozi bo'lmasligimni qat'iy qilib aytdim.

Mening dadil va oshkora fikrim imperator hazratlarining shuhratparastlik orzulariga tamoman zid edi. U o'z rejalarining amalga oshuviga hamkor bo'lmaganimni hech qachon kechirolmasdi. Imperator davlat kengashi yig'ilishida ham buni chiroyli qilib eslatib o'tdi. Kengash a'zolarining eng donishmandlari, garchi indamasalar-da, men tomonimda edilar. Lekin mening yashirin dushmanlarim qulay fursatdan foydalanishga oshiqishdi, menga qarshi qaratilgan bir qancha mulohazalarni izhor qilishdi. Shundan boshlab oliy hazratlari va menga dushman bo'lgan vazirlar menga qarshi yovuz fitna uyushtira boshladilar. Oradan ikki oy o'tar-o'tmas esa, o'z nayranglari bilan meni halok etishlariga sal qoldi. Ana

shunaqa, hatto hukmdorlarga qilingan ulug' xizmatlar ham ularning havas-ishqi-vozligiga zid erkalik qilib qo'ysangiz tosh bosmay qoladi.

Yuqorida bayon etilgan jasorat yuz berganidan uch hafta o'tgach, Blefusku imperatoridan sulh tuzishni taklif etib, dabdabali elchilar kelishdi. Elchilar har qanday shartlarga rozi bo'lishdi, bir necha kundan keyin imperatorimiz uchun haddan tashqari foydali sulh shartnomasi tuzildi.

Elchixonada olti elchi va besh yuzga yaqin mulozimlardan iborat edi. Ularning kelishi o'ta dabdabaliligi bilan ajralib turardi, hukmdorning ulug'vorligi va missiyaning muhimligiga mos tushardi. Men sulh muzokaralarida qisman qatnashdim. Chindanmi yoki menga shunday tuyuldimi, har qalay, saroydagi ta'sirim sharofati bilan elchilarga ko'pgina xizmat ko'rsatishga muayassar bo'ldim. Elchilar muzokaralar tamom bo'lgandan keyin, ularga yon bosganim vajidan, mening huzurimga ham tashrif buyurishdi. Ular ko'rsatgan jasoratim va olijanobligim xususida anchagina yoqimli gaplarni aytishdi, ularning mamlakatiga tashrif buyurishim uchun o'z imperatorlarining taklifini topshirishdi. Gapning oxirida, juda ko'p hikoyalarda tilga olinayotgan mening zo'r kuch-qudratimdan ayrim namunalar namoyish etishimni iltimos qilishdi. Men ularning xohishini bajarishga bajonu dil rozi bo'ldim, bir necha ajoyib fokuslar ko'rsatdim, bundan ular judayam hayratga tushishdi.

Xayrlashayotganda, jasorati haqli ravishda olamga mashhur bo'lgan hukmdorlari — oliy hazratlariga mening unga bo'lgan chuqur izzat-ehtiromimni ma'lum qilishlarini, o'z yurtimga qaytish oldidan uning huzurida bo'lishga qat'iy va'da berganligimni aytib qo'yishlarini elchilardan iltimos qildim.

Imperatorimiz bilan bo'lgan dastlabki alohida suhbatdayoq Blefusku hukmdori huzuriga borib kelishga ruxsat so'radim. Imperator ruxsat berdi-yu, lekin menga nisbatan o'ta sovuq munosabatda bo'ldi. Gap nimadaligini e'tiborli zotlardan biri uqdirmaguncha, bu sovuq munosabat sababini tushunmadim. Ma'lum bo'lishicha, Flimnap hamda Bolgolem elchilarga nisbatan bo'lgan munosabatimni imperatorga men uchun rasvo tomonga burib chaqishipti. Ularning g'irt yolg'on gaplarni chaqishganligi o'z-o'zidan ravshan. Imperator oldida mening vijdonim pok edi.* Men xuddi shu lahzada, garchi to'liq bo'lmasa-da, vazirlar va saroy hayotini tushuna boshladim.

Shuni ta'kidlash lozimki, elchilar men bilan tarjimon yordamida gaplashishgan edi. Yevropalik ikki xalq tili bir-biridan qanchalik farq qilsa, blefuskuliklar tili liliputlar tilidan shuncha farq qiladi. Lekin har ikkala millat o'z tillarining qadimiyligi, go'zalligi, burroligi bilan faxrlanishadi, qo'shnilarining tiliga oshkora nafrat bilan qarashadi. Imperatorimiz dushman flotini egallab, qulay vaziyatga

ega bo'lib qolganimizdan foydalanib, ishonch yorliqlari va muzokaralar liliput tilida bo'lishiga Blefusku elchixonasini majbur qildi.

Yana shuni ham aytish kerakki, har ikkala davlat o'rtasidagi qizg'in savdo munosabatlari, Liliputiya ham, Blefuskuda ham surgun qilinganlarga ko'rsatiladigan mehmondo'stlik, shuningdek aslzoda yosh boyvachchalarni dunyo kezib, kishilarning hayoti va urf-odatlari bilan tanishish uchun safarga yuborilishi tufayli bu yerda har ikki tilni bilmaydigan ma'lumotli dvoryanni, dengizchi yoki dengiz ortidan kelgan savdogarni juda oz uchratasiz. Bir necha haftadan so'ng Blefusku imperatoriga hurmat-ehtiromimni izhor qilish uchun uning huzuriga borganimda bunga ishonch hosil qildim.

Bir necha vaqtdan keyin ma'lum bo'lishicha, dushmanlarim menga juda katta ayblarni qo'yib turgan bir paytda o'sha mamlakatga tashrif buyurishim menga zo'r naf keltirdi. Lekin bu haqda keyinroq gapiraman.

OLTINCHI BOB

LILIPUTIYANING AHOLISI, ULARNING FANI, QONUNLARI, URF-ODATLARI HAQIDA; ULARDAGI BOLA TARBIYALASH TIZIMI. MUALLIFNING SHU MAMLAKATDA KECHIRGAN HAYOTI ASLZODA BIR XONIMNING MUALLIFNI OQLASHI.

Liliputiyaning to'liq ta'rifiga alohida tadqiqot yozish niyatidaman. Lekin ushbu mamlakat va u yerda yashovchilar haqida ba'zi ma'lumotlarni xabar qilishni zarur deb hisoblayman.

Mahalliy xalqning o'rtacha bo'yi olti dyuymdan oshmaydi. Hayvonlar va o'simliklarning kattaligi ham xalqning bo'y-bastiga munosib: masalan, ho'kiz va otlarning bo'yi to'rt yoki besh dyuymdan oshmaydi, qo'ylarning bo'yi bir yarim dyuym; g'ozlar bizning chumchug'imizday keladi. Mayda hayvonlar, qush va hasharotlar ko'zimga ilashmadi ham. Biroq tabiat liliputlarni atrofdagi mavjudotlarni ko'rish qobiliyatiga ega qilib yaratgan: ular juda yaxshi ko'rishadi, lekin yaqindan ko'rishadi, xolos. Ularning ko'rish qobiliyati naqadar o'tkirligiga bir misol: kattaligi bizning pashshamizday keladigan turna patini yulayotgan oshpazning, ko'zga ko'rinmas igna teshigidan ipakli ip o'tkazgan qizning ishini kuzatib juda zavqlandim. Liliputiya'dagi eng baland daraxtlar ham yetti futdan oshmaydi: men qirol

parkidagi ulkan daraxtlarni nazarda tutyapman, uning uchiga qo'limni uzatsam arang yetdi. Qolgan o'simliklarning bo'yi ham o'ziga yarasha; lekin ularning katta-kichikligini hisob-kitob qilishni kitobxonning o'ziga havola qilaman.

Endi bu xalqning barcha sohaga oid ilg'or fani haqida qisqacha to'xtalib o'taman. Ularning antiqa yozuvlariga diqqatni jalb etaman; liliputlar yevropaliklar singari chapdan o'ngga qarab ham:

Inmuablement, Incomparablement

arablar singari o'ngdan chapga qarab ham:

لو سلم الذن كنوا حن لا تكفون عن وجرهم النار ولا عن
ظهورم ولام بمسرون

xitoylarga o'xshab:

頭 西
內 城
屬 司
史 艾
嗣 志

pastga qaratib ham emas, balki ingliz hokimlariday, sahifaning bir burchagidan boshqa burchagiga qaratib yozishadi.

Liliputlar o'lganlarni boshini pastga qilib ko'mishadi. Ular o'n bir ming qamar yil o'tgandan keyin marhumlarning qayta tirilishiga qattiq ishonishadi, chunki bungacha liliputlar tep-tekis deb o'ylagan yer to'ntariladi, shunda o'lgan-

lar oyoqda tik turgan holda tirilishadi. Olimlar bu aqidaning bema'niligini e'tirof etishmoqda. Lekin oddiy xalq orasida bu urf-odat hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Bu imperiyada o'ta o'ziga xos qonun va urf-odatlar bor. Agar ular mening sevikli vatanim qonun-qoidalarini va urf-odatlariga zid kelmaganda edi, ularni himoya qilishga tayyor edim. Ishda ularga qat'iy amal qilinsa ayni muddao bo'lardi. Eng avvalo chaqimchilar haqidagi qonunni gapiray. Davlatga qarshi barcha jinoyatlar odatdan tashqari qattiq jazolanadi; bordi-yu, ayblanuvchi sudda o'zining aybsiz ekanligini isbot qila olsa, ayblovchini darhol sharmandali jazoga mahkum etiladi, undan aybsiz odam foydasiga jarima undirib beriladi. Bu jarima yo'qotilgan vaqt, xavf-xatarga muhtalo bo'lgani, qamoqda yotgan paytida hamma narsadan mahrum bo'lgani, o'zini himoya qilishga sarflangan xarajatlar uchun undiriladi. Jarima to'rt baravar ortig'i bilan olinadi. Bordi-yu, da'vogarning mol-mulki jarima to'lash uchun yetmasa, yetmay qolgan summani davlat xazinasidan beriladi. Bundan tashqari, imperator ozod bo'lgan kishini tumonat odam oldida o'z marhamatidan bahramand etadi, butun mamlakat bo'yicha uning aybsiz ekanligi e'lon qilinadi.

Liliputlar o'g'rilikdan ko'ra qalloblikni ko'proq ta'qib qilishadi. Shuning uchun ba'zi hollardagina qalloblikka o'lim jazosi berilmaydi. Kishi cheytotkor, hushyor, ozmi-ko'pmi — bir chindim aqli bo'lsa, deb fikr yuritishadi ular, o'z mol-mulkini o'g'ridan qo'riqlab olishi mumkin. Lekin epchil qallobdan qutulib bo'lmaydi. Buning ustiga tijorat savdo qiluvchilarning o'zaro ishonchiga asoslangan. Shuning uchun ham qonun aldamchilik va savdo ishlaridagi har qanday qalloblikni ta'qib qilishi kerak. Aks holda halol savdogar hamisha zarar ko'radi, qallob bilan tovlamachi esa foydani urib ketadi.

Bir kuni hukmdordan bir jinoyatchining gunohidan o'tishini so'radim. U xo'jayinidan ishonch qog'ozi orqali kattagina pul olib, uni o'zlashtirishda va qochib ketishda ayblanardi. Uning qismatini yumshatishni so'ray turib, imperatorga bu o'rinda faqat ishonch suiiste'mol qilinganini ko'rsatib o'tdim. Imperator, ishonchni yo'qotishdek o'ta og'ir jinoyat sodir bo'lib turgan bir paytda aybdorni himoya qilishimni aqlga sig'mas narsa deb bildi. Iqror bo'lishim kerak, bunga qarshi hech qanday e'tiroz bildira olmadim, turli xalqlarda turlicha urf-odatlar bor, deyish bilan kifoyalandim, xolos. Shunday dedim-u, juda xijolat tortdim.

Garchi biz oddiy mukofotlash va jazolashni hukumat mashinasini harakatga keltiruvchi asosiy kuch desak-da, bu narsa faqat Liliputiya dagina qat'iy amalga oshiriladi. Kimki yetti qamar yil mobaynida mamlakat qonunlarini aniq bajarganligini isbot qila olsa, u ma'lum imtiyozlarga ega bo'ladi. Davlat mablag'laridan unga pul muko-

foti to'lanadi. Buning ustiga *snilpela*, ya'ni qonunlar noziri unvonini oladi. Bu unvon uning familiyasiga qo'shib aytiladi, lekin avlodiga o'tmaydi. Men liliputlarga bizda fuqarolar tomonidan qonunlar faqat jazo olish xavfi tufayligina bajarilishini, qonunlarga qat'iy rioya qilganlik uchun mukofot berilmasligini aytganimda, ular buni bizning davlatni idora qilish usulimizdagi juda katta nuqson deb atashdi. Shuning uchun ham bu yerdagi sud muassasalarida adolatli sudni olti ko'zli ayol sifatida tasvirlashadi: ayolning ikki ko'zi oldida, ikkitasi orqasida va ikki chekkasida bittadan. Uning o'ng qo'lida oltin to'la og'zi ochiq qop, chap qo'lida esa qinli qilich — bu jazolashdan ko'ra mukofotlash maqbulroq degan ma'noni bildiradi*.

Har qanday lavozimga nomzod ko'rsatishda aqliy iste'doddan ko'ra ko'proq axloq sifatlariga e'tibor beriladi. O'rtacha aqliy rivojlanishga ega bo'lgan kishilar, deb ta'kidlaydi liliputlar, u yoki bu lavozimga layoqatli bo'lishadi. Axir oldindan ko'ra bilish jamiyat ishlarini boshqarishni, qandaydir, har asrda nari borsa uchtagina tug'iladigan dohilarninggina aqli yetuvchi o'ta teran va murakkab bir sirga aylantirishni nazarda tutmaydi. Aksincha, liliputlarning fikricha, to'g'rilik, bir me'yorda ish ko'rish va boshqa oddiy saxovatliklar tajriba hamda yaxshi niyatlar bilan qo'shilib, har bir kishini o'z vatani uchun xizmat etishga yaroqli qilib qo'yadi. Bunday odam, maxsus bilimlarni bilishni taqozo etadigan lavozimdan tashqari istagan lavozimini egallashi mumkin. Ularning fikricha, eng yuksak aqliy iste'dodlar ham axloqiy fazilatlar o'rnini bosa olmaydi. «Muhim lavozimlarni iste'dodli odamlarga ishonib topshirishdan ham xavfliroq narsa yo'q. — deyishadi ular. — Yaxshi niyatlarni amalga oshirish uchun nodonlik qilib, xatoga yo'l qo'yilsa, uni hamma vaqt to'g'rilash mumkin. Lekin yomon odatlari bor, o'z qusurlarini yashira oladigan hamda ularga hirs qo'yadigan kishilar jamiyat farovonligi uchun juda katta xavf-xatar tug'diradi».

Ushbu bayonimda o'ta qadimiy, azaldan yashab kelayotgan urf-odatlar va mamlakat qonunlarini nazarda tutyapman. Ularning ko'pchiligi hozirgi paytda unutilgan. Boshqa ko'pgina davlatlardagi kabi Liliputiya ham hozirgi paytda urf-odatlar aynab ketyapti — bu esa, axloqiy tomondan tubanlashuv nishonasidir. Masalan, dor ustida mohirlik bilan raqs tushadigan kishilarni eng yuqori davlat lavozimlariga ko'tarish yoki yog'och ustidan chaqqonlik bilan sakraydigan, yoki uning ostidan o'tadiganlarga ordenlar berish kabi sharmandali odatlarni olaylik, bu urf-odatlarni hozir hukmdorlik qilib turgan imperatorning bobosi joriy etgan.

Liliputlar noshukurchilikni hayotga va mol-mulkka nisbatan qilingan jinoyat deb bilishadi. Liliputlar: «Hatto yaxshilik qilgan kishiga yomonlikni ravo ko'ra-

digan odam, o'ziga iltifot ko'rsatmagan boshqa odamlarni dushmanim deb biladi. Shuning uchun unday odam o'limga mahkum», — deyishadi.

Ularning oilaga, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan qarashlari ham biznikidan tubdan farq qiladi. Liliputlar bola tarbiyasi jamiyat va davlat zimmasiga yuklatilishi lozim, deb hisoblashadi. Shuning uchun har bir shaharda alohida tarbiyaxonalar qurilgan, hamma ham, bolasi yigirma qamar yoshiga yetishi bilanoq shu yerga berishi kerak.

Bu maktablarda tarbiya va o'qitish ishlari o'quvchilar tarkibiga qarab turlicha olib boriladi. Bolalar va qizlar maktabi bor, boy-badavlat odamlarning bolalari uchun hamda hunarmand va kambag'al shaharliklar bolalari uchun maktablar bor. Maktablarga tajribali va ma'lumotli kishilar mudirlik qilishadi. Ular bolalarni ularning ota-onalari jamiyatda egallab turgan mavqeiga hamda bolalarning o'z qobiliyati va moyilligiga yarasha faoliyatga tayyorlashadi.

Avvalo men o'g'il bolalar tarbiyaxonalari, keyin qizlar tarbiyaxonalari haqida bir necha og'iz gapiraman.

Zodagon va nasl-nasabli kishilar bolasi o'qiydigan o'g'il bolalar tarbiyaxonalariga nufuzli hamda ma'lumotli pedagoglar rahbarlik qilishadi. Bolalarning kiyimi va ovqati kamtaronaligi bilan ajralib turadi. Ular or-nomusli, adolatli, botir qilib tarbiyalanadi; ularda kamtarlik, shafqatlilik, ilohiy sezgilar va vatanga muhabbat tuyg'ulari rivojlaniriladi. Ular hamisha band bo'lishadi: ovqatlanish va uxlash uchun ularga juda oz vaqt ajratiladi; dam olish va badan tarbiya uchun bir kunda atigi ikki soat vaqt beriladi. Qolgan vaqt faqat o'qishga sarflanadi. To'rt yoshgacha bolalarni kiyintirish va yechintirish xizmatkorlar zimmasida, shu yoshdan boshlab bu ishlarni ularning o'zlari bajarishadi. Dam olish paytlarida ular hamisha tarbiyachi yoki uning yordamchisi nazoratida bo'lishadi. Shunday qilib, ular har qanday g'iybat, ahmoqona uydirmalar, bema'ni ta'sir ko'rsatishlardan ajratib qo'yilgan. Ota-onalarga bir yilda bir marta o'z bolalarini ko'rishga ruxsat beriladi; har bir uchrashuv bir soatdan oshmaydi. Bolalarni o'pishga uchrashganda va xayrlashgandagina ruxsat etiladi. Uchrashuv paytida tarbiyachi hozir bo'ladi. Ular ota-onalarning bolalar bilan shivirlashmasligini, ularga shirin-shakar so'zlarni aytmasligini, o'yinchoqlar, shirinliklar va boshqa narsalar bermasligini nazorat qilib turishadi.

O'rta dvoryanlar, savdogar va hunarmandlarning bolalari uchun ochilgan tarbiyaxonalarda ham ish yuritish yuqoridagida tartibda. Farq shundaki, hunarmand bo'lishi lozim bo'lgan bolalarga o'n yoshidan boshlab hunar o'rgatiladi, zodagonlarning bolalari esa umumiy ma'lumot egallashni o'n besh yoshga kiringuncha da-

vom ettiraveradi. Shuni ta'kidlash kerakki, katta yoshdagi tarbiyalanuvchilarga qattiq maktab rejimi bir oz yumshatiladi.

Nasl-nasabli odamlarning qizlari uchun ochilgan tarbiyaxonalarda ham tarbiya o'g'il bolalar tarbiyaxonalaridagi singari olib boriladi, faqat ularni xizmatkorlar emas, balki xush axloqli enagalar kiyintirishadi va yechintirishadi. Bunday paytda tarbiyachi ayol yoki uning yordamchisi albatta bo'ladi. Qizlarga qandaydir vahimali yoki bema'ni ertaklar aytib berish, yo ularni ahmoqona qiliqlar bilan erkalatish enagalarga qat'iy man etilgan. Ana shu man etilgan qoidani kimda-kim buzsa, u ko'pchilik oldida uch marta qamchi bilan savalanadi, bir yil qamab qo'yiladi, keyin mamlakatning kimsasiz joyiga surgun qilinadi. Mana shunday tarbiya tizimi sharofati bilan Liliputiyadagi yosh xonimlar erkaklar qatori qo'rqqoqlik va bema'nilik qilishdan uyalishadi, har qanday bezaklarga nafrat bilan qarashadi, lekin odoblilik va pokizalikka qattiq amal qilishadi. Men o'g'il bolalar va qizlar tarbiyasi o'rtasida hech qanday farq yo'qligini fahmladim. Faqat qizlar uchun badan tarbiya mashqlari ancha yengilroq, bilim egallash kursi ham uncha keng emas, biroq ularga uy-ro'zg'or ishlari o'rgatiladi. Chunki Liliputiyada, oliy tabaqadagi ayol erkak kishining dono va yoqimli umr yo'ldoshi bo'lishi kerak, deyishadi. Qizlar o'n ikki yoshga kirganda, o'sha yerliklarning hisobiga ko'ra, u kuyovga chiqish yoshiga yetadi, ota-onalari yoki vasiylar uni uyga olib ketishadi, yosh qiz dugonalari bilan xayrlashayotganda ko'z yoshi to'kilmaydi.

Quyi tabaqa qizlari uchun ochilgan tarbiyaxonalarda qizlarni turli ishlarga o'rgatiladi. Hunar bilan shug'ullanadigan qizlar yetti yoshgacha, qolganlari esa o'n bir yoshgacha tarbiyaxonada saqlanadi.

Dehqonlar va qishloq ishchilari o'z bolalarini uyda tarbiyalashadi. Ular yerga ishlov berishga mashg'ul bo'lganliklari uchun davlat ularning ma'lumot olishlariga uncha e'tibor bermaydi. Bemor va qariyalar xudoyixonalarda yashashadi, gadoylar imperiyada yo'q.

Mening bu mamlakatda qanday yashaganim, nima bilan shug'ullanganimga, ehtimol, kitobxon qiziqar. Axir bu yerda to'qqiz oyu o'n uch kun bo'ldim-da.

Men hamisha qo'l mehnatiga mehr qo'ydim. Duradgorlik sohasidagi ko'nikmalarim endilikda xizmatni kattalashtirib yubordi: qirol xiyobonidagi ulkan daraxtlardan o'zimga qulaygina stol va stullar yasab oldim.

Ikki yuz chevar mamlakatdagi eng pishiq va dag'al matodan menga ko'ylak, ko'rpa-yostiqlik tikib berish uchun buyurtma oldi. Biroq bu mato eng yupqa dokadan ham yupqa bo'lib chiqdi. Shu sababli, chevarlar zarur matoni hosil qilish uchun

ulardan bir qanchasini bir-biriga ulab tikishdi. Matoning eng katta parchasi uzunligi uch fut, eni esa uch dyuym kelardi. Chevarlar mendan o'lchov olishi uchun yerga yotdim. Tarang tortilgan arqon uchini ushlab, chevarlardan biri bo'yning oldida, boshqasi tizzam ustida turdi; uchinchi chevar esa bir dyuym keladigan jazvar bilan arqonni o'lchadi. Keyin ular o'ng qo'limning bosh barmog'ini o'lchashdi. Qo'l panjasi aylanasi bosh barmoq aylanasidan ikki baravar, bo'yning aylanasi panja aylanasidan ikki marta kattaligini bilgan holda, ular bo'yimga yarasha ko'ylak-lozim tikishdi. Yerga yaxshilab yoyib qo'yilgan eski ko'yilgim andaza vazifasini o'tadi.

Shundan keyin uch yuz chevar men uchun kostyum tikishga buyruq oldi. Men cho'kkalab turdim. Chevarlar tanamga narvon qo'yishdi; ulardan biri narvon orqali yelkamga chiqdi va yoqamdan etagimga reja tushirdi, kaftanimning uzunligini aniqlamoqchi bo'ldi. Yeng va bellarimni o'zim o'lchab berdim. Shaharda kostyumim laxtagi yozilsa bo'ladigan birorta ham uy topilmadi. Shuning uchun ham chevarlar men yashayotgan qasrda ishlaydigan bo'lishdi. Kostyum tashqi ko'rinishidan ingliz xonimlari quroqlardan tayyorlaydigan ko'rpaga o'xshardi. Lekin bu yerda quroqlar rangi bir xil edi.

Menga uch yuz oshpaz ovqat pishirardi. Ular oila a'zolari bilan uyim ro'parasiga qurilgan kichkinagina, qulay baraklarda istiqomat qilishar va nonushtam, tushligim hamda kechki ovqatim uchun ikki xil taom pishirib berishga majbur edilar. Men yigirmata malayni ko'tarib, stol ustiga qo'yardim; ularning yuzlab o'rtog'i pastda xizmat qilardi: biri taom, boshqasi yelkasida vino to'la bochka va boshqa ichimliklarni tashib keltirardi. Stol ustidagi malaylar bularning hammasini, Yevropada paqirni quduqdan chiqarganday, epchillik bilan yuqoriga tortib olishardi; har bir taomni og'zimga bir marta olib yutardim, har bochka vinoni bir ho'plashda tamomlar edim. Bu yerdagi qo'y go'shti biznikichalik mazali emas, lekin mol go'shtining ta'rifi beqiyos. Bir safar judayam katta biqin go'shti ro'para kelib qoldi, uni uch bo'lakka ajratib yedim, ammo bu kamdan-kam uchraydigan hodisa edi. Mulozimlar mol go'shtini, to'rg'ay go'shtini yeganday, suyagiga qo'shib yeyishimni ko'rib hayratga tushishardi. Bu yerning g'ozi va kurkasini bir yamlab yutib yuboraverardim. Shunisiga tan berish kerakki, bu yerning qushlari biznikidan ancha mazaliroq. Mayda qushlarning yigirma-o'ttiztasini pichog'imning uchiga sanchib olaverardim.

Imperator hazratlari mening hayot kechirishimni eshitib, bir kuni o'zi, xotini, shahzoda va malikalar bilan birgalikda tushlik ovqatni baham ko'rsa behad baxtiyor (shunday deyish unga ancha qulay edi) bo'lajagini aytdi. Kelishganda ularni ro'paramga — hashamatli kursilarga o'tqazdim, yon tomonlariga soqchilarini

qo'ydim. Mehmonlar orasida qo'lga oq hassa ushlagan xazinaxona lord-kansleri⁸ Flimnap ham bor edi. U menga yov qarash qildi, lekin men buni sezmaganday o'tiraverdim, jonajon yurtim shuhrati hamda saroy ahlini hayratga solish uchun odatdagidek bemalol ovqatlana berdim. Oliy hazratlarining bu tashrifi Flimnapga imperatorning ko'z oldida mening obro'yimni to'kishga bahona bo'ldi, deb o'ylashga asosim bor. Flimnapdan har baloni kutish mumkin edi, ammo u, garchi doimiy dushmanim bo'lsa-da, men bilan muomalasi yaxshi edi. U davlat xazinasida ahvol tangligini imperatorga yaqqol ko'rsatib qo'ydi. «Biz, — dedi u, — katta foizlar evaziga qarz olishga majbur bo'lmoqdamiz. Bizning banknotlarimiz juda arzon baholanyapti. Ulkan odamni boqish oliy hazratlariga bir yarim million sprugga (liputlardagi eng yirik oltin tanga — kichkina pistonday keladi) tushdi». U so'zining oxirida, agar qulay fursat tug'ilishi bilan, imperator meni imperiyadan tashqariga chiqarib yuborsa ancha oqilona ish qilgan bo'lardi, deb qo'shib qo'ydi.

Zimmamda men tufayli azobga muhtalo bo'lgan tamomila begunoh muhtaram bir xonimning sha'nini oqlash vazifasi turadi. Xazinaxona kansleri miyasiga o'z xotinini mendan rashk qilishdek xom xayol kelib qoldi. Ig'vogarlar uning go'zal muhtaramasi meni aqldan begona bo'lguday darajada yaxshi ko'rib qolganligi haqida gap tarqatishdi. Ayolning huzurimga yashirincha kelib-ketishi haqidagi mish-mish saroyda katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Lekin bu uchiga chiqqan ig'vo ekanligini tantanali ravishda ma'lum qilaman. Chindan ham u muhtaram ayolning menga iltifoti zo'r edi, bir necha bor huzurimga ham kelgan. Lekin u oshkora kelib-ketgan, kareta — uning yonida uchta xonim: singlisi, qizi va dugonasi bo'lgan. Boshqa saroy xonimlari ham mening huzurimga ana shunday tashrif buyurishgan. Bunga o'z xizmatkorlarim ham guvoh: mayli, ulardan birortasi eshigim oldida ichida kim borligi noma'lum bo'lgan karetni ko'rdimi-yo'qmi, aytsin. Kareta men yashayotgan uya yaqinlashganda xizmatkorim kim kelganligini darhol menga ma'lum qilardi. Men o'sha zahoti tashqariga chiqardim. Kelgan odam bilan uning izzat-hurmatini joyiga qo'yib so'rashar, qo'sh otli karetni stol ustiga qo'yardim. Bordi-yu, karetaga olti ot qo'shilgan bo'lsa, foreytor undan to'rtta otini chiqarardi. Baxtsiz hodisa yuz bermasligi uchun darhol stol chetlariga balandligi besh dyuymli ko'chma panjaralar o'rnatardim. Ko'pincha stolim ustida bashang kiyingan xonimlar o'tirgan to'rtta kareta turardi. O'zim kresloga o'tirib, ularga engashardim. Bir kareta o'tirgan xonimlar bilan

8 Xazinaxona lord-kansleri — moliya vaziri.

suhbatlashayotganimda boshqa karetlar stolim ustida aylanib yurardi. Tushlik ovqatdan keyingi vaqtni xonimlar bilan shirin suhbatda o'tkazardim. Flimnap ham, uning ikkita ayg'oqchisi Klestril va Drenlolar ham (qo'llaridan kelganini qilishsin, ularning nomini aytaveraman) hech kim huzurimga *inkognito* kelganligini isbot etisha olmaydi. Faqat bir marta davlat kotibi Reldpesel huzurimga yashirincha tashrif buyurgan. Lekin, yuqorida bayon etganimdek, u imperator oliy hazratlarining maxsus topshirig'i bo'yicha harakat qilgan.

Ehtimol, bu behuda epizod ustida ezilib o'tirishning hojati yo'q edi. Lekin bu ishga oliy nasabli bir xonimning nomusi masalasi aralashib qoldi. Buning ustiga, yaxshi nomimni pok tutish ham aziz narsa. Axir, men hatto xazinaxona kansleri ham ega bo'lmagan *nardak* unvoniga egaman. Hammaga ma'lumki, u faqat *glyum-glyum*; markiz unvoni gersog unvonidan qancha past bo'lsa, bu unvon ham menikidan shuncha past. Ammo u egallagan lavozim uni mendan ancha yuqori qo'yishini tan olaman. Nima bo'lsa ham, bu ig'volarning hammasi Flimnapning qulog'iga borib yetdi, vaqtincha er-xotin o'rtasida gap qochdi, menga nisbatan bo'lgan undagi adovat kuchaydi. U ko'p o'tmay xotini bilan yarashib ketdi, chunki mish-mishlarning yolg'onligiga ishonch hosil qildi, lekin men uning iltifotidan butunlay mahrum bo'ldim. Ko'p o'tmay, imperatorning ham menga munosabati juda yomonlashganligini sezdim. Buning ajablanadigan joyi yo'q edi, chunki oliy hazratlari o'z arzandasining ta'siriga juda berilib ketgandi.

YETTINCHI BOB

MUALLIF O'ZINI DAVLATGA XIYONAT QILISHDA AYBLASHGA SHAYLANAYOTGANLARINI BILADI. U BLEFUSKUGA QOCHIB KETADI. U YOQDA UNING KUTIB OLINISHI.

Endi bu mamlakatni qanday tark etganimni hikoya qilaman. Lekin men, avvalo, ikki oy mobaynida menga qarshi olib borilgan maxfiy fitnalarni o'quvchiga ma'lum qilishni o'rinli deb hisoblayman.

Liliputiya kelib qolmasimdan ilgari menday kamtarin, faqir bir kishi qirollar saroyida hech qachon bo'lmagan. To'g'ri, ulug' hukmdorlarning fe'l-atvorlari haqida ko'p eshitganman, o'qiganman. Buning ustiga, mana shun-

day yiroq bir mamlakatda hukmdorlar fe'l-atvori davlat ishlarining borishiga bunchalik zo'r ta'sir ko'rsatadi, deb o'ylamagandim. Nazarimda, mamlakatda Yevropadagiga mutlaqo o'xshamagan boshqarish usullari hokimday edi.

Men Blefusku imperatori huzuriga jo'nashga hozirlik ko'rardim. To'satdan oqshom paytida saroydagi e'tiborli amaldorlardan biri kelib qoldi. Bir vaqtlar imperator huzurida uning yonini olib, unga katta yaxshilik qilgandim. U yopiq portshezda⁹ yashirin kelib, nomini aytmasdan, o'zini qabul qilishimni iltimos qildi. Men zambil ko'tarib kelganlarni qaytarib yubordim, portshezni oliy janoblari bilan birga cho'ntagimga soldim, sadoqatli xizmatkorlarimdan biriga tobim qochib qolganini hammaga ma'lum qilishini tayinladim. So'ng eshikni mahkam berkitdim, portshezni stol ustiga qo'ydim-da, o'zim uning ro'parisidagi stulga o'tirdim. Oliy janoblari portshezni ochdi, biz salom-alik qilishdik. Mundoq qarasam, mehmonimning juda ham ta'bi tirriq, darhol buning sababini so'radim. Oliy janoblari sabr qilishimni, nima gapirsa diqqat bilan quloq solishimni iltimos qildi. Uning gaplariga qaraganda, gap mening or-nomusim, hayotim haqida borarkan. O'z-o'zidan ma'lumki, men u gapirib bo'lguncha lom-mim demadim, u huzurimdan ketishi bilanoq, gaplarini yon daftarimga yozib qo'ydim. U shunday degandi:

«Shuni sizga aytib qo'yishim kerak, — deb gap boshladi u, — keyingi kunlarda kengashning maxsus komissiyalari o'ta maxfiy kengashlar o'tkazdi*, ularda sizning taqdiringiz masalasi muhokama qilindi. Bundan ikki kun muqaddam oliy hazratlari uzil-kesil qarorga keldi. Bu yerga kelgan dastlabki kunlaringiz-dayoq galbert Skayresh Bolgolam ashaddiy dushmaningizga aylanganligi sizga ma'lum bo'lsa kerak. Bu dushmanlik qanday, nega paydo bo'lganligini bilmayman, lekin Blefusku ustidan qozongan ulkan g'alabangizdan keyin undagi nafrat yanada kuchayib ketganligini bilaman. O'z jasoringiz bilan admiralning shuhratini so'ndirdingiz. Bu amaldor xotini tufayli Sizga nisbatan xusumati bor xazinaxona kansleri Flimnap, general Limtok, obergofmestr Lelkin va oliy sudya Belmaf bilan birgalikda sizni davlatga xiyonat qilishda va boshqa og'ir jinoyatlarida ayblaydigan ma'ruza tayyorladi...»

Bu gaplar meni hayajonga soldi. Men to'liq aybsizligimni, xizmatlarimni chuqur his etardim. G'azablanganimdan uning gapini bo'lib qo'yishimga sal qoldi. Lekin u jim o'tirishimni iltimos qildi va gapda davom etdi:

9 Portshez — zodagonlarni ko'tarib yuriladigan yopiq zambil.

«Menga ko'p yaxshiliklar qildingiz, shu sababli hayotimni tahlika ostida qoldirib bo'lsa-da, aybnomaning ikkinchi nusxasini qo'lga kiritishni o'z burchim deb bildim. Uni sizga topshiraman».

KUINBUS FLESTRINGA —
ULKAN ODAMGA QO'YILGAN
AYBNOMA

§ 1.

Yuqorida nomi zikr qilingan Kuinbus Flestrin Blefusku imperatori flotini asirga olib, imperator portiga yetkazib kelgach, oliy hazratlaridan mazkur Blefusku imperiyasining qolgan kemalarini ham egallash haqida farmoyish oldi. Farmoyish oliy darajadagi davlat manfaat-maqсадlarini, ya'ni: bu imperiyani bizning hokimimiz idora qiladigan viloyatga aylantirishni, yashirib yurgan poynakchilarni jazolashni, umuman poynakchilar bid'atini tamomila yo'q qilishni nazarda tutardi. Biroq yuqorida nomi zikr etilgan Flestrin, ashaddiy xoin singari, marhamatli va shavkatli imperator oliy hazratlaridan mazkur farmoyishini bajarishdan uni — Flestrinni xalos etishni iltimos qildi. Vijdonga zid o'laroq zo'ravonlik qilish va gunohsiz xalq erkini poymol etishni istamasligini aytdi.

§ 2.

Blefusku saroyidan oliy hazratlarining saroyiga sulh so'rab elchixonaga kelganida yuqorida nomi zikr etilgan Flestrin, ashaddiy xoin singari, ular yaqindagina oliy hazratlarining oshkora dushmani bo'lganini va shu imperiya bilan oshkora urush olib borganini bila-ko'ra turib, mazkur elchilarga yordamlashdi, ularni qo'llab-quvvatladi, ruhlantirdi, ko'nglini ko'tardi.

§ 3.

Endilikda yuqorida nomi zikr etilgan Kuinbus Flestrip o'zining sodiq fuqarolik burchiga zid o'laroq, Blefusku imperiyasi va uning saroyiga sayohat qilishga hozirlik ko'rmoqda. Ana shu sayohatga u imperator oliy hazratlarining faqat og'zaki ruxsatini olgan, xolos. Lekin Flestrin, oldin hazratlarining ruxsatini pesh

qilib, yaqindagina imperator hazratlarining sobiq dushmani bo'lgan va u bilan oshkora urush olib borgan Blefuskus imperatorini ruhlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun darhol yo'lga ravona bo'lish niyatida».

Men aybnomadagi eng asosiy moddalarni keltirdim, xolos. Unda yana ko'pgina muhim narsalar bor edi*.

«Shuni e'tirof etish kerakki, — deb gapini davom ettirdi amaldor, — mana shu aybнома xususida boshlangan uzundan-uzoq muzokaralarda oliy hazratlari sizga nisbatan katta muruvvat ko'rsatdi. U xizmatlaringizni ko'p marta tilga oldi va jinoyatingizni yengillashtirishga intildi. Xazinaxona kansleri bilan admiral sizni sharmandalarcha qiynab o'ldirish fikriga yopishib olishdi. Ular kechasi uyingizni yondirib yuborishni, qo'shinlar qo'mondoniga uy atrofini yigirma ming kishilik qo'shin bilan qurshab olib, qo'lingiz va yuzingizga zaharli o'q-lar uzishga buyruq berishni taklif qilishdi. Boshqacha taklif ham bo'ldi: ko'ylak va choyshabllaringizni sizga sezdirmay zaharli shira bilan namlab qo'yishni xizmatkorlaringizga buyurishmoqchi bo'lishdi. Ana shu zahar ta'sirida siz o'z tanangizni azoblab, dahshatli azob-uqubatda o'lib ketgan bo'lardingiz.

Qo'shinlar qo'mondoni bu taklifga qo'shildi. Kengashdagilar anchagacha sizga qarshi turishdi. Lekin oliy hazratlari iloji boricha hayotingizni saqlab qolishga intildi. Nihoyat u o'z tomoniga ober-gormeystrni og'dirib oldi.

Muzokaralar avjiga chiqqan bir paytda, o'zini sizga haqiqiy do'st deb bilib yurgan maxfiy ishlar bo'yicha bosh kotib Reldresel o'z nuqtai nazarini bayon qilish uchun imperator hazratlaridan izn so'radi. Reldresel oliy hazratlari haqidagi yaxshi fikrlaringizni isbotlab berdi. U jinsyatlaringiz juda og'irligini e'tirof etdi. Lekin ular hukmdorlar marhamati va saxovatidan bebahra qoldirishni taqozo etmasligini, bu fazilat esa oliy hazratlariga husn bo'lib tushishini aytdi. «Flestrin bilan do'stligim, — dedi u, — hammaga ma'lum: shuning uchun ham oliy martabali anjuman bu fikrimni, ehtimol, tarafkashlik deb bilar. Biroq men, oliy hazratlarining farmoyishlariga itoat etgan holda, o'z fikrimni oshkora aytishni o'z burchim deb bilaman. Agar oliy hazratlari ma'qul deb topsa, Kuinbus Flestrinning xizmatlarini inobatga olib, o'ziga xos yumshoq ko'ngillik bilan uning hayotini saqlab qoladi va uning har ikkala ko'zini o'yishga farmon berish bilan kifoyalanadi, — dedi Reldresel, — menimcha, bunday jazodan ozmi-ko'pmi odil sud ham qanoat hosil qiladi. Shunday qilinsa butun olam qoyil qoladi. Hamma hukmdorimizning mehru shafqatligini, uning yonidagi maslahatchilarning olijanobligini zo'r xursandlik bilan ta'rif-tavsif qiladi». Shuni ham

e'tiborga olish kerakki, ko'zdan mahrum bo'lish jismoniy kuchingizga — oliy hazratlariga yana darkor bo'lishingiz mumkin — hech qanday xalal yetkazmaydi: ko'r kishiga xavf-xatar ko'rinmaydi, botirligingizga botirlik qo'shiladi: dushman flotini egallab olishingizda ham ko'zdan mahrum bo'lib qolish xavfi asosiy to'siq bo'ldi; keyin hamma narsaga vazirlar ko'zi bilan qarasangiz ham bo'laveradi, chunki, hatto eng ulug' hukmdorlar ham bu bilan kifoyalanadi-ku.

Bu taklif oliy martabali anjumanga mutloq maqbul bo'lmadi. Admiral Bolgolem sovuqqonligini saqlay olmadi. U quturib, o'rnidan irg'ib turdi, kotibning xoin hayotini saqlab qolish haqida dam urganligidan hayron ekanligini, siz tomoningizdan ko'rsatilgan xizmatlar jinoyatingizni yanada qo'rqinchli va xavfli qilib yuborishini aytdi. Axir, dushman flotini egallab olishga imkon bergan o'sha kuch-qudrat, o'zingizni ozor chekkan yoki xo'rlangan deb his etishingiz bilan oq. shu flotni orqaga qaytarib olib ketishga imkon beradi-da. Buning ustiga, siz yurak-yuragingizdan poynakchisiz — shunday deyishga asos bor. Xoinlik amalda qilinguniga qadar kishining ko'nglida paydo bo'ladi, shu vajdan, Bolgolem sizni xoinlikda aybladi va qatl etilishingizni qattiq talab qildi.

Xazinaxona kansleri ham shu fikrda bo'ldi. U yig'ilganlarga sizni boqish xazinaga juda qimmatga tushayotganini, ha demay xazina bo'shab qolishini ma'lum qildi. Kotibning ko'zingizni o'yib olish haqidagi taklifi oliy hazratlarini bu balodan saqlab qololmaydi, balki buni battar gazak oldiradi. Tajribadan ma'lumki, ba'zi uy qushlari ko'r bo'lib qolgach, ko'p ovqat yeydi va darhol semirib ketadi.

Shunday qilib, agar oliy hazratlari va kengash a'zolari o'z vijdonlariga nazar tashlab, sizni aybdor deb topishadigan bo'lsa, bas, shuning o'zi yetarli — qonun talab etganday, rasmiy dalillarni axtarib, qiynalib o'tirmay sizni o'limga hukm qilish mumkin.

Biroq imperator oliy hazratlari o'lim jazosiga qat'iy qarshi chiqdi. U o'ta nazokat bilan, agar kengashning fikricha ko'z o'yish juda yengil jazo bo'lsa, hamma vaqt boshqa og'irroq hukm chiqarishga ham fursat bo'ladi, deb gap qistirdi. Shunda kotib do'stingiz odob bilan imperatordan xazina kanslerining sizni boqish uchun haddan ziyod ko'p xarajat qilinayotgani haqidagi e'tirozlariga javob berishga ijozat so'radi. U oliy hazratlarining daromadlari butunlay kansler ixtiyorida ekanligini aytdi. Shu tufayli, u sizni boqish uchun xarajatlarni sekin-asta kamaytirish tadbirlarini ko'rishi mumkin. Ovqatni oz olgan saringiz darmonsizlanib, ozasiz, ishtahangiz bo'g'iladi, bir necha oy ichida tarashadek qotib qolasiz. Bunday yo'l tutishning yana bir nafi bor. Jasadningizning sasishi unchalik xavfli bo'lmaydi, chunki gavgangiz ikki baravar kichrayib ketadi. Shu tufayli, siz

o'lishingiz bilanoq, oliy hazratlarining besh yoki olti ming fuqarosi ikki yo uch kun ichida etingizni suyagingizdan ajratishadi, uni aravalarga yuklab, shahardan tashqariga olib chiqishadi va kasallik tarqalmasligi uchun ko'mib tashlashadi, skeletingiz esa avlodlarni hayratga solish uchun saqlab qo'yiladi.

Shunday qilib, har ikki tomonni mamnun etadigan fikr topilgani uchun, kotibning do'stona iltifoti oldida qarzdorsiz. Sizni sekin-asta och qoldirib o'ldirish rejasini sir tutish buyurilgan; ko'zingizni o'yish haqidagi hukm esa allaqachon kitobga qayd etilgan. Bu qaror bir ovozdan qabul qilindi. Faqat malikaning gumashtasi admiral Bolgolamgina o'z fikrida qoldi. Hazrati oliyalarining astoydil qutqusi ta'siri ostida u, sizni o'ldirilsin, deb oyog'ini tirab turib oldi. Hazrati oliyalari esa saroyda tarqalgan har xil g'iybatlar vajidan sizni yomon ko'rib qolgan: saroy xonimlaridan ba'zi birlari, ularga nisbatan e'tiborli bo'lmaganingiz uchun, allaqachon malikaga sizni yomonlashgan.

Yana uch kundan keyin, oliy hazratlarining buyrug'iga binoan, aybnomani o'qib berish uchun kotib do'stingiz keladi. U oliy hazratlari va davlat kengashining sizga iltifot va marhamati qanchalik zo'rligini uqtiradi. Bor-yo'g'i sizni ko'r qilishga ahd qilingan, xolos. Shuning uchun ham oliy hazratlarining bu hukmga sizning g'oyat itoatkorlik, mamnuniyat bilan bo'ysunishingizga ishonchi komil. Oliy hazratlarining yigirmata jarrohi bu operasiyaning ijro etilishini kuzatib turadi. Siz yerga yotasiz, eng mohir merganlar ko'z kosangizga yoylardan judayam ingichka o'qlar otishadi.

Shu bilan ma'lumotim tamom. Ayni paytda, qanday yo'l tutishni o'zingizga havola qilaman. Men esa, shubha tug'dirmaslik uchun, darhol ketishim kerak».

Shu gaplarni aytdi-yu, oliy janoblari huzurimdan ketdi, men esa azob beruvchi shubha va ikkilanishlar ichida yolg'iz qoldim.

Menga aytishlaricha, hozirgi imperator va uning vazirlari liliputlar orasida ilgari hech qachon bo'lmagan urf-odatlarni joriy etishibdi. Har safar, seviklisining g'azabiga uchragan kishini kekchi hukmdor yoki sud qattiq jazoga hukm qilsa, imperator davlat kengashi yig'ilishida albatta nutq so'zlaydi. Ana shu nutqda oliy hazratlarining iltifot va marhamati bo'rttirib ko'rsatiladi. Nutq darhol butun imperiya bo'yicha e'lon qilinadi. Hech narsa xalqni imperator marhamatini maqtab so'zlangan nutqchalik dahshatga sololmaydi, chunki u qanchalik uzun va dabdabali bo'lsa, jazo ham shunchalik vahshiyona va qurbon shunchalik begunoh bo'ladi*. Bu xususda o'ta xom sudya ekanligimni tan olaman. Tug'ilishda ham, tarbiya olishda ham saroy amaldori rolini bajarish peshanamga yozilmagan. Shuning uchun ham menga chiqarilgan hukmdan hech qanday shafqat va marhamat nishonasini ko'r-

madim. Masalan, men (garchi adolatsiz bo'lsa ham) bu jazoni yumshoq emas, balki shafqatsiz jazo deb hisoblayman. Miyamga sudga borib, o'zimni himoya qilish fikri ham keldi. To'g'ri, aybnomada bayon qilingan faktlarni rad etolmayman, lekin ular men uchun ancha foydali izoh berishsa kerak, deb umid qilardim. Ammo men juda ko'p siyosiy sud proseslari ta'rifini o'qiganman, ularning hammasi ham sud-yalar qanday xohlasa shunday hal qilingan. Shu sababli o'z qismatimni mana shunday qudratli dushmanlar qo'liga ishonib topshirishga jur'at etolmadim. Qarshilik ko'rsatish niyati ham yuragimni bir jizillatib qo'ydi. Ozodlikda ekanman, imperiyaning butun kuch-qudrati meni yenga olmasligini yaxshi tushunardim. Men poytaxtni toshbo'ron qilib, vayronaga aylantirishim juda oson. Biroq imperatorga qasamyod qilganimni, uning menga iltifot ko'rsatib, nardak unvonini berganini xotirlab, bu niyatimdan jirkanib, undan voz kechdim.

Minnatdorchilikka saroy ahliga xos qarash menga yot edi, oliy hazratlarining hozirgi shafqatsizligi meni unga nisbatan har qanday majburiyatdan ozod etadi, degan fikrga hech o'zimni ishontira olmasdim.

Va nihoyat, meni hamma qoralashga arziydigan bir to'xtamga keldim. Haq gapni aytib qo'ya qolay: ko'zimni, ozodligimni saqlab qolganligim uchun shoshma-shosharligim va tajribasizligimdan minnatdor bo'lishim kerak. Chindan ham, agar o'shanda men, boshqa davlatlar hayotini keyinchalik kuzatib bilib olganimdek, hukmdor va vazirlar odatini yaxshi bilganimda edi, bunday yengil jazoga zo'r xursandlik bilan, bajonu dil ko'ngan bo'lardim. Lekin men yosh, qiziqqon edim. Oliy hazratlari Blefuskus imperatori huzuriga borib kelishga ruxsat ham bergan edi. Shuning uchun uch kunlik muhlatni kutib o'tirmay, do'stim bo'lmish kotibga maktub yo'lladim: xatimda imperatorning ruxsati bilan Blefuskuga jo'natganimni ma'lum qildim.

Javob kelishini kutmay, o'sha tongdayoq, flotimiz langar tashlab turgan dengiz sohiliga jo'nadim. U yerda katta bir harbiy kemani egallab, tumshug'iga arqon bog'ladim, langarni ko'tardim. So'ng yechinib ko'ylagimni, orqalab olgan ko'rpa-yostig'imni kemaga yukladim-da, uni sudraganimcha yo'lga ravona bo'ldim. Gohida suzib, gohida suv kechib, aholi allaqachonlardan beri meni orziqib kutayotgan joyga* — Blefuskuning qirol portiga yetib keldim. Menga ikkita yo'l boshlovchi qo'shib berishdi va Blefuskus poytaxtiga yo'llashdi, poytaxt ham davlat nomi bilan atalar ekan. Yo'l boshchilarni qo'limda ko'tarib ketdim. Shahar darvozasiga ikki yuz yard qolganda ularni yerga qo'ydim, kelganimni ma'lum qilishni va uning farmoyishini mushtiq bo'lib kutayotganimni oliy hazratlariga aytishni davlat kotiblaridan biriga iltimos qildim.



Oradan bir soat o'tgach, oliy hazratlari go'zal muhtaramasi va oliy nasabli saroy amaldorlari bilan huzurimga peshvoz chiqish uchun otlangani haqida xabar keldi. Men yuz yardga yaqin yerga yaqinlashib bordim. Imperator va uning arkoni davlati otlardan sakrab tushishdi, malika va saroy xonimlari karetalardan chiqishdi, ularda qo'rqish yoki sarosimaga tushishdan zarracha nishon yo'q edi. Men imperator va malikaning qo'lini o'pish uchun yerga yotdim. Men oliy hazratlariga va'damga binoan hamda hukmdorim imperatorning ruxsati bilan, qudrati olamga mashhur imperator bilan diydor ko'rishgani, unga o'z xizmatimni — agar u Liliputiya sadoqatli bo'lishdek burchimga zid bo'lmasa — taklif qilgani kelganimni aytdim. Menga nisbatan ko'rsatilgan shafqatsizlik haqida lom-mim demadim. Kengash qarori haqida bildirish qog'ozi olmasdan turib, menga qarshi qanday g'arazli niyat borligini bilmayman-da. Ikkinchi tomondan, imperator uning fuqaroligidan chiqib ketganligimni eshitib, mening jazolanishimni oshkora qilmaydi, degan o'yda edim. Biroq ko'p o'tmay taxminlarim mutlaqo xato ekanligiga ishonдим.

Blefusku imperatori saroyida qanday kutib olinganimni barcha tafsiloti bilan bayon qilib, kitobxonni toliqtirmayman. Qabul marosimi bu qudratli hukmdorning saxiyiligiga yarasha bo'ldi. O'zimga munosib bino va ko'rpa-yostiq bo'lmagani tufayli, noqulay ahvolda qolganligim xususida ham gapirib o'tirmayman: ko'rpani yopingancha quruq yerga yotib uxladim.

SAKKIZINCHI BOB

MUALLIF QULAY FURSAT SHAROFATI BILAN BLEFUSKUNI TARK ETISH IMKONIGA EGA BO'LADI VA BIR QANCHA QIYINCHILIKLARDAN KEYIN ESONOMON O'Z VATANIGA QAYTIB KELADI.

Blefuskuga kelganimning uchinchi kuni orolning shimoli-sharq tomonini tomosha qilishga jo'nadim. Sayoz joylarda sayr qilib yurib, yarim liga¹⁰ naridagi to'ntarilgan qayiqqa o'xshash narsaga ko'zim tushib qoldi. Men kovush va paypoqlarimni yechib, ikki yoki uch yuz yard masofani kechib o'tdim, qarasam, ko'tarilgan suv haligi narsani sohil tomonga

10 Liga — 4,83 kilometr ga teng uzunlik o'lchovi.

surib kelyapti. Oradan bir necha daqiqa o'tgach, u dovul paytida allaqanday kemadan uzilib qolgan kattagina eshkakli qayiq ekanligiga ishonch hosil qildim.

Men o'sha zahoti shaharga qaytib keldim, imperator oliy hazratlaridan menga eng katta kemalardan yigirmata, shuningdek, uch ming matros va juda ko'p miqdorda arqonlar berishni iltimos qildim. Arqonlar pishiq bo'lishi uchun uchtasini bitta qilib eshdim. Flot orol aylanasi bilan yo'lga chiqdi, men esa qayiq turgan joyga oshiqdim.

Ko'tarilgan suv qayiqni sohilga yaqin keltirib qo'yibdi. Kemalar yaqinlashgach, yechinib, qayiq tomon bordim. Oldin suvni kechib bordim, yuz yardcha masofani esa suzib o'tdim. Kemalardan biridagi matroslar menga arqon tashlashdi. Men uni qayiqning tumshuq tomonidagi halqaga bog'ladim; arqonning boshqa uchi kemanding quyrug'iga bog'langandi, u qayiqni qyrg'oq tomon sudray boshladi. Lekin bundan uncha ish chiqmadi. Shundan keyin qayiqning quyruq tomoniga o'tib, uni bir qo'lim bilan itara boshladim. Suv ko'tarilishi ancha qo'l keldi, rosa charchab, nihoyat oyoqda tikka turadigan sayoz joyga yetib oldim. Suv tomog'imdan kelardi. Bir necha daqiqa nafasimni rostlab olgach, suv qo'ltig'imga tushguncha yana qayiqni itara boshladim. Ishning eng qiyin qismi tugallandi. Kemalardan biriga taxlab qo'yilgan boshqa arqonlarni ham oldim, ularni qayiqning tumshug'iga bog'lab, boshqa uchini kuzatib kelayotgan to'qqizta kemaga uladim. Hamroh shamol esa boshladi, matroslar qayiqni sudrashdi, men orqasidan itardim, ko'p o'tmay qirg'oqqa qirq yard yaqinlashib keldik. Xuddi shu yerda suv kamayishini kutib to'xtadim. Suv orqaga qaytganda, qayiq sohilning sayoz joyida turardi. Arqon va chig'iriqlar bilan qurollangan ikki ming kishi yordamida qayiqni to'ntarib, uning suv osti qismini ko'zdan kechirdim. Unchalik ziyon-zahmat yetmabdi.

Eng dastlabki ishim eshkak yasash bo'ldi. Bu ishga o'n kun vaqtim ketdi. Keyin qayiqni eshkaklar yordamida Blefuskuning imperator portiga keltirish ham ancha qiyin bo'ldi. Bu yerda esa, umrida ko'rmagan bunaqa bahaybat kemani tomosha qilish uchun tumonat odam yig'ildi. Men imperatorga vatanimga qaytish uchun bu kemani tasodifiy omad yuborganini aytdim. Oliy hazratlaridan kemani uskunalash uchun menga zarur materiallar berishni hamda yurtimga ketishga ruxsat etishini iltimos qildim. Avvaliga imperator, shu yerda qol deb meni rosa qistadi, lekin bu urinishidan hech narsa chiqmasligini bilib, oxiri javob berdi.

Meni hayratga solgan narsa shu bo'ldiki, shu o'tgan muddat ichida Blefusku saroyiga bizning imperatorimizdan meni so'roqlagan hech qanday xat-xabar kelmadi. Nega shunday bo'lganligini keyinroq tushuntirib berishdi. Imperator oliy

hazratlari o'zining niyati menga ma'lum ekanligiga zarracha shak-shubha qilmagan ekan, shuning uchun ham Blefusku jo'nashimni elchilarga bergan va'damni bajarish, deb tushunibdi. Qabul qilib olishga aloqador izzat-ikromlar tugagach, uyga qaytishimga uning ishonchi komil ekan. Xullas, uzoq bedarak ketganim uni tashvishga sola boshlabdi. Xazinaxona kansleri va menga dushman bo'lgan to'da a'zolari bilan kengashib, Blefusu saroyiga amaldorlardan birini aybnomaning ikkinchi nusxasi bilan yuboribdi. Bu elchi Blefusu hukmdoriga o'z podshosining menga ko'rsatgan ulug' iltifotini, og'ir jinoyatim uchun yengil jazoga hukm etilganimni ma'lum qilish haqida buyruq olgan ekan. Bundan tashqari, unga men adolatli suddan qochib ketganligimni, agar ikki soat ichida qaytib bormasam nardak unvonidan mahrum etilishimni va xoin deb e'lon qilinishimni aytish ham topshirilgan ekan. Oliy hazratlari, deb gapini davom ettiripti elchi, og'asi — Blefusu imperatori — xoinligim evaziga jazoga mahkum etish uchun qo'l-oyog'imni bog'lab, meni Liliputiya yuborishga buyruq beradi, deb umid bildiradi.

Blefusu imperatori uch kun kengashgandan keyin, son-sanoqsiz uzrlar so'rab, chiroyligina javob maktubi yo'lladi. Maktubda mening qo'l-oyog'imni bog'lab Liliputiya yuborishning hech iloji yo'qligini; buning ustiga sulh tuzish muzokaralarida unga ancha nafim tekkanligini pisanda qildi. Xatda ha demay ikkala hukmdorning erkin nafas olishi — sohilda ulkan bir kemani topib olganim, unda o'z yurtimga jo'nashim xususida, u o'z fuqarolariga kemani jihozlashga buyruq berganligi, bir necha haftadan keyin har ikkala imperiya ham nihoyat bunday og'ir kulfatdan* xalos bo'lishi haqida ham yozildi.

Elchi ana shu xat bilan Liliputiya qaytdi, Blefusu podshosi bu haqda menga ma'lum qildi. U nihoyatda maxfiy ravishda, agar uning xizmatida qolsam, zo'r homiylik va iltifot ko'rsatishini aytdi. Garchi imperatorning taklifi sidqidildan ekanligini his etsam-da, podsholarga ortiq ishonmaslikka ahd qildim, axir ularsiz ham kun ko'rish mumkin-ku. Shu vajdan menga ko'rsatgan iltifoti uchun minnatdorchilik bildirdim, oliy hazratlari meni afv etishini iltimos qildim. So'ng baxtimgami yo sho'r peshanaligim uchunmi taqdir menga anovi kemani nasib etganini, ikki qudratli podsho o'rtasidagi nizoga sababchi bo'lgandan ko'ra, o'zimni okean ixtiyoriga topshirganim ma'qul ekanligini aytdim. Nazarimda, javobimdan imperatorning hafsalasi pir bo'lmadi. aksincha, o'zining boshqa ko'pchilik vazirlari singari mening azmu qarorimdan mamnun bo'ldi; buni tasodifan fahmlab qoldim.

Bu hol meni tezroq jo'nashga undadi. Mamlakatlarini tezroq tark etishim uchun saroy ahli qayiqni tuzatishga har tomonlama ko'maklashishdi. Besh

yuz odam mening rahbarligimda pishiq-puxta matolarni o'ttiz qavat qilib tikib, ikkita yelkan tayyorladi. Turli uskuna va arqonlar tayyorlashni o'z zimmamga oldim. Eng yo'g'on, pishiq arqonlarning o'nta, yigirmata va o'ttiztasini bir qilib eshdim. Sohildan topib olgan kattakon tosh langar vazifasini o'tadi. Qayiqni yog'lash va boshqa maqsadlar uchun menga uch yuz sigirning yog'ini berishdi. Machta yasash uchun, zo'r qiyinchilik bilan, bir nechta baland, qurilishbop daraxtlarni kesdim; machta yasashda oliy hazratlarining kemasoz ustalari katta yordam berishdi, ular men sal-pal tekislab ketgan xodalarni randalab, silliqlashdi.

Bir oy muddat ichida hamma ishlar bitdi. Shunda oliy hazratlarining buyrug'ini olish va xayrlashish uchun poytaxtga jo'nadim. Imperator go'zal muhtaramasi bilan saroydan chiqdi; uning nazokat bilan uzatilgan qo'lini o'pish uchun yerga yotdim; malika va shahzodalar ham qo'llarini tutishdi. Oliy hazratlari har biriga ikki yuz sprugdan solingan ellikta hamyon hamda o'zining bo'yi baravar tushgan portretini sovg'a qildi; men portretni ehtiyotlab asrash uchun o'sha zahotiy qo'lqopim ichiga yashirib qo'ydim.

Qayiqqa yuzta ho'kiz va uch yuzta qo'y go'shti, tegishli miqdorda non, ichimlik hamda to'rt yuzta oshpaz qovurishga ulgurgan go'shtlarni yukladim. Bundan tashqari, yurtimga keltirish va ko'paytirish uchun o'zim bilan birga oltita tirik sigir, ikkita buqa hamda shuncha qo'y va qo'chqorlarni oldim. Hayvonlarni boqish uchun ancha-muncha xashak, bir qop don oldim. O'zim bilan birga bir necha o'nlab mahalliy aholidan ham olib ketgim bor edi-yu. lekin bunga imperator rozi bo'lmadi. Cho'ntaklarimni yaxshilab ko'rib chiqish bilan ham kifoyalanmay, oliy hazratlari, garchi fuqarolari rozi bo'lgan taqdirda ham, ularni olib ketmaslik uchun mendan chin va'da oldi.

Shunday qilib, sayohatga hozirlik ko'rdim va 1701 yil 24 sentabr kuni ertalab soat 6 da yo'lga chiqdim. Janubi-sharqiy shamol bilan to'rt ligaga yaqin yo'l yurganimdan keyin, kechqurun soat oltalarda shimoli-g'arb tomonda, yarim liga masofa narida, uncha katta bo'lmagan orolga ko'zim tushdi. Orol tomon yo'l oldim, shamol esadigan tomonga langar tashladim. U, kishi oyog'i yetmagan orol ekan. Ozingina ovqatlanib, dam olish uchun yonboshladim. O'z taxminiy hisobimga ko'ra, olti soat shiringina uxladim, chunki uyqudan turganimda tong otishiga ikki soat qolgan ekan. Tun yop-yorug' edi. Nonushta qildim, tong otmasdan langarni ko'tardim, cho'ntak kompasimdan foydalangan holda, kechagi yo'lim bo'yicha ravona bo'ldim. Hamroh shamol esib turardi. Niyatim, o'z taxminim bo'yicha, Vandimen Yeriniig shimoli-sharq tomoniga joylashgan orollardan biriga chiqib olish

edi. Shu kuni diqqatga sazovor hech qanday voqea ro'y bermadi. Biroq ertasi kuni peshinlarda — soat uchlarga yaqin janubi-sharq tomon ketayotgan yelkanni ko'rib qoldim. Men esa to'g'ri sharq tomonga ketayotgan va, o'z hisobimga ko'ra, Blefusudan yigirma to'rt milya uzoqda edim. Men kemaga qarab bor ovozim bilan qichqirdim, ammo javob eshitmadim. Ko'p o'tmay shamol tindi, qarasam, kemaga yetib olishning iloji bor. Hamma yelkanlarni ko'tardim, oradan yarim soat o'tgach, kedadagilar meni ko'rishdi, bayroq ko'tarishib, to'plardan o'q uzishdi.

Kutilmaganda jonajon yurtim va yuragimga yaqin qadrdonlarim bilan yana diydor ko'rishish umidi tug'ilganidan qanchalik terimga sig'may sevinganimni ta'riflash amri mahol. Kema yelkanlarini kamaytirdi, 26 sentyabr kuni kech soat oltida kemaga yetib oldim. Ingliz bayrog'ini ko'rib, sevinchdan yuragim tars yorilay dedi. Sigir va qo'ylarni cho'ntaklarimga solib, uncha katta bo'lmagan yuklarim bilan kemaga chiqdim.

Bu ingliz savdo kemasi edi. U Yaponiyadan qaytib kelayotgandi. Uning kapitani mister Jon Bidl Deptforddan bo'lib, o'ta iltifotli va ajoyib dengizchi ekan. Bu paytda biz janubiy kenglikning 30° da edik. Kema ekipaji ellik kishidan iborat ekan. Ularning orasida eski qadrdonim Piter Vilyamsni uchratib qoldim, u kapitanga men haqimda yaxshi gaplarni aytdi. Kapitan menga zo'r iltifot ko'rsatdi va qayerdan kelayotganim, qayoqqa ketayotganimni so'radi.

Men sarguzashtlarimni qisqacha hikoya qilib berganimda u, boshiga tushgan kulfatlar tufayli bu odam aqldan ozib qolgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Shunda cho'ntagimdan sigir va qo'ylarni oldim. Ularni ko'rib juda hayron qoldi, gaplarimning rostligiga ishondi. Keyin unga Blefusku imperatori bergan oltinlarni, oliy hazratlarining portretini va boshqa antiqa narsalarni ko'rsatdim. Men har biriga ikki yuz sprug solingan ikkita hamyonni kapitanga berdim, Angliyaga yetib borganimizdan keyin unga bittadan bo'g'oz sigir va qo'y berishga va'da qildim.

Sayohat tafsilotini bayon qilib, kitobxonni toliqtirib o'tirmayman, safar yaxshi o'tdi. Biz 1702 yil 13 aprel kuni Daunsga yetib keldik. Yo'lda men uchun bitta ko'ngilsiz hodisa yuz berdi: kema kalamushlari qo'ylardan birini yeb qo'ydi. Men kalamush inini, kemirilgan qo'y suyaklarini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Qolgan hayvonlarni sog'-salomat qirg'oqqa yetkazib keldim, ularni Grinviçhda o'tloqqa qo'yib yubordim: mayin maysa men kutgandan ham yaxshiroq ozuqa bo'ldi. Agar kapitan uzoq safar paytida menga qotgan nonlarni bermaganida, ularni saqlab qololmasdim. Men bu qotgan nonlarni talqon qilib, suvga ivitib, o'z hayvonlarimni boqdim. Angliyada bo'lgan qisqa muddatlik paytimda ana shu hayvonlarni

odamlarga ko'rsatib anchagina pul ishlab oldim. Ikkinchi sayohatim oldidan ana shu jajji hayvonlarni olti funtga sotdim. Keyingi safardan Angliyaga qaytib kel-sam, ular ancha ko'payib ketishibdi: ayniqsa qo'ylar juda ko'payibdi, umid qila-manki, ular o'zlarining mayin junlari bilan* movut sanoatiga katta naf keltiradi.

Men xotinim va bola-chaqalarim bilan ikki oycha birga yashadim. Keyin ortiq uyda o'tirolmay qoldim: o'zga mamlakatlarni ko'rishga bo'lgan havas-orzuim menga tinchlik bermasdi. Xotinimga bir yarim ming funt pul qoldirdim, Redrif shahridan unga yaxshigina bir uyni ijaraga olib berdim. Qolgan mol-mulkimni bir qismini pul, boshqa qismini mol sifatida, o'z boyligimni orttirish maqsadida olib ketdim. Katta tog'am Jon har yili o'ttiz funt daromad beradigan Uopping yaqinidagi mulkini menga vasiyat qilib qoldirdi, uzoq muddatga ijaraga olgan Fetter — Leyndagi sobiq «*Qora buqa*» nomli oshxonamdan ham shuncha daromad qilardim. Shunday qilib, oilam daromad vajidan qiynalishidan uncha qo'r-qmasdim. O'g'lim Jon — unga tog'amning nomini qo'yganmiz — grammatika maktabiga qatnar, u eng yaxshi o'quvchilardan biri hisoblanardi. Qizim Betti (hozir u kuyovga chiqqan, bola-chaqasi bor) chevarlik hunarini o'rganardi. Xotini-m, qizim, o'g'lim bilan xayrlashdim, ikkala tomon ozginadan ko'z yoshi ham qilib oldik; uch yuz tonna yuk ko'taradigan «*Advencher*» savdo kemasiga o'tir-dim. Kema Surat tomon yo'l oldi, uning kapitani Jon Nikoles Liverpool shahridan. Bu sayohatning tafsiloti kitobning ikkinchi qismidagi yozishmalarimda.

BROBDINGNEGA SAYOHAT

BIRINCHI BOB

KUCHLI DOVUL TAFSILOTI ICHIMLIK SUV KELITIRISH UCHUN KATTA QAYIQNING JO'NATILISHI. MUALLIF ANA SHU QAYIQDA MAMLAKATNI TEKSHIRISH UCHUN JO'NAYDI. UNI SOHILDA QOLDIRIB KETISHADI; UNI O'SHA YERLIK BIR ODAM OLIB KETADI VA FERMERGA ELTIB BERADI. MUALLIFNING FERMADA QABUL QILINISHI VA U YERDA YUZ BERGAN TURLI HODISALAR. MAHALLIY AHOLINING TA'RIFI.

Shunday qilib, tabiatan va taqdiri azaldan tinib-tinchimas, besaranjom hayot kechirishga odatlanganimdan, yaqin qadrdonlarimni qoldirib, yana dengiz safariga otlandim.

Yaxshi Umid burunigacha hamroh shamol bilan bordik. Bu yerda toza suv g'amlab olish uchun langar tashladik. Biroq kemamiz teshilib qoldi. Yuklarni tushirib, kemanding teshik yoriqlarini yamashga to'g'ri keldi. Bu orada kapitan bezgakka muhtalo bo'ldi. Yaxshi Umid burunida qishlab qoldik. Faqat mart oyining oxirlarida yelkanlarni ko'tarib, Madagaskar bo'g'ozidan¹¹ eson-omon o'tdik. Biz shimolga yo'l oldik, taxminan janubiy kenglikning 5° da bir me'yordagi shimol va g'arb shamollari bizga hamroh bo'ldi, odatda bunday shamollar dekabrning oxiridan, may oyining boshlarigacha esadi. Lekin 19 aprelda havo aynidi: g'arb tomondan haddan tashqari kuchli, dovulsimon shamol esdi, u yigirma kungacha tinmadi. Bu muddat ichida shamol bizni Molukk orollaridan sharq tomonga va ekvatoridan uch daraja shimolga surib ketdi. 2 may kunida-gi kapitanning hisob-kitobi ana shunday edi. O'sha kuni shamol tindi va meni

¹¹ Madagaskar bo'g'ozini — Madagaskar orolini Afrikaning janubi-shimol sohilidan ajratib turadigan Mozambik bo'g'ozini.

nihoyatda xursand qilgan to'liq sukunat boshlandi. Biroq bu dengizlarda suzib, issiq-sovuqni boshidan kechirgan kapitan hammani bo'ronga shay bo'lib turishga buyurdi. Chindan ham ertasi kuni musson deb nomlanadigan judayam kuchli janub shamoli ko'tarildi. Bora-bora u dovulga aylandi.

Shamol kuchayayotganini ko'rib, darhol blindni yig'ishtirdik. git fok-zeylga olishga hozirladik. Biroq havo battarlashgandan battarlashdi. Zambaraklarning yaxshigina bog'lab qo'yilganini ko'zdan kechirib, bizanni ham olib qo'ydik. Kema shamol ostida qoldi, biz hamma yelkanlarni yig'ishtirib dreyfda turgandan ko'ra, shamol kuchi bilan yo'lda davom etishni ma'qul ko'rdik. Biz fok yelkanlarini kichraytirdik va ko'tarib qo'ydik; fokashkotni kema tumshug'iga mahkamlab bog'ladik. Rul shamolga to'g'rilab qo'yildi. Kema rul boshqaruvchiga yuvvoshgina bo'ysundi. Fokaniraldagi rifni tortdik, baribir yelkanlar yirtildi. Shunda reyani tushirib, undan yelkanlarni va boshqa asbob-uskunalarni oldik. Bo'ron juda dahshatli bo'lib, to'lqinlar terak bo'yicha ko'tarilardi. Rul boshqaruvchiga oson bo'lishi uchun rumpelni talya bilan mahkamladik. Stengani tushirmay, hamma uskunalarni qoldirdik, chunki kema shamol bilan harakat qilar, qarshimizda esa ochiq dengiz yastanib yotardi. Bo'ron pasaya boshlaganda grot va foklarni ko'tardik, kema dreyfga tushdi. Sal fursat o'tgach, bizanni, katta va kichik marsellarni ko'tardik. Biz shimoli-sharq tomon borardik; shamol janubi-g'arbdan esardi. Galslarni shtirbort bo'yicha cho'ktirdik, shamol urayotgan tomondagi bras va tonenatlarni bo'shatdik, shamolga teskari tomondagilarni esa tortib qo'ydik. Bu linyani tortib, mahkamladik. Kemani harakat qildirish bizan yordamida bo'ldi; hamma vaqt shamolni saqlab turishga va kema machtalari qancha yelkanga bardosh bersa*, o'shancha yelkanni ushlashga intildik.

Mening hisobimga ko'ra, ana shu bo'ron paytida kemamiz hech bo'lmaganda sharqqa besh yuz liga siljidi. Eng keksa va tajribali dengizchilar ham dunyoning qayerida ekanligimizni aytib berisholmadi. Oziq-ovqatimiz mo'l-ko'l, kemamiz binoyidek, ekipaj sog'-salomat edi. Faqat ichimlik suvning tanqisligi bizni tashvishlantirardi. Biz eski yo'limizdan borishni va shimolga burilmaslikni ma'qul ko'rdik. Agar shimolga yuradigan bo'lsak Buyuk Tatariyaning¹² shimoli-g'arbiy viloyatlariga yoki Muz dengiziga borib qolardik.

1703 yil 16 iyun kuni kemada navbatchilik qilib turgan yosh matros yerni ko'rib qoldi. 17 iyunda unga yaqinlashdik. Bu yerning orolmi, qit'ami ekanligi-

12 Buyuk Tatariya — Osiyo qit'asining Mo'g'uliston va Xitoy joylashgan qismining qadimiy nomi.

ni bilmadik. Janub tomondan dengizga til chiqqan bo'lib, qo'ltiq ham ko'rinib turardi, biroq u juda kichkina edi, unga yuz tonna yuk ko'taradigan kema arang sig'ardi. Biz ana shu qo'ltiqdan bir liga beriroqda langar tashladik, kapitan sohilga o'nta yaxshi qurollangan odam bilan katta qayiq yubordi. Ular suv topilsa olib kelarmiz, degan umidda bochka ham olishdi. Kapitandan ular bilan birga borishga ijozat so'radim. Men hozirgacha notanish bo'lgan ana shu yerni imkoni boricha tekshirgim keldi.

Qirg'oqqa chiqqan joyimiz yaqinida daryo ham, buloq ham uchratmadik. O'lka sahroga o'xshardi; tirik jondan nom-nishon yo'q edi. Matroslar ichimlik suv topish ilinjida sohil bo'ylab tarqalishdi, yolg'iz o'zim boshqa tomonga yo'l oldim. Bir milyacha yurib, qiziqtiradigan hech narsani ko'rmadim. Chor atrof hamon giyohsiz, nuqul toshlardan iborat sahro edi.

Charchaganimni sezib, orqaga qaytdim, asta-sekin qo'ltiq tomon yura boshladim. Qarshimda bepoyon dengiz namoyon bo'ldi. To'satdan matroslarimiz qayiqqa o'tirishib, jon-jahdlari bilan kema tomonga eshkak eshib ketishayotganini ko'rib qoldim. Ularni chaqirmoqchi bo'lgan ham edimki, birdan ularni judayam bahaybat, haddan tashqari baland bo'yli bir odam quvayotganini payqadim. Dengiz suvi uning tizzasidan arang kelardi, u juda katta qadam tashlardi. Ammo qayiq undan yarim liga uzoqlashib ketgandi. Dengiz katta-katta o'tkir qoyalarga to'la bo'lganligi uchun, ulkan maxluq qayiqni quvib yetolmadi. Buning hammasini menga keyin aytib berishdi. Bu ta'qibning oxiri nima bilan tugashini ko'rishga menda yurak yo'q edi. Men hozirgina ko'rfazga qaytayotgan yo'limdan, jonimni hovuchlab, orqamga qochdim. Nafasim tiqilib, atrofni kuzatsa bo'ladigan bir tepalik ustiga tarmashib chiqdim. Atrofdagi hamma yerlar haydalgandi, ammo meni o't-o'lanlarning balandligi hayratga soldi: ularning bo'yi yigirma futcha kelardi.

Arpazorning o'rtasidan kesib o'tgan katta yo'lga chiqdim, ehtimol, bu yo'l shu yerliklar uchun so'qmoqdir. Ancha vaqtgacha ikki tomonimdan hech narsa ko'rmadim, chunki o'rim vaqti yaqinlashib qolganidan arpalarining bo'yi qirq futcha o'sib ketgandi. Oradan bir soat o'tgach, shu dalaning chetiga chiqdim, u balandligi yuz yigirma fut keladigan devor bilan o'ralgandi. Daraxtlar shunaqayam ulkanki, ularning balandligini aniqlay o'tmadim. Bir daladan boshqasiga o'tish uchun to'rtta zinadan ko'tarilib, yana juda katta toshdan ham hatlab o'tish kerak edi. Bunga qurbim yetmasdi. Har bir zinaning balandligi olti, haligi katta toshning balandligi yigirma fut kelardi.

Narigi dalaga o'tish uchun biror yerda teshik-meshik yo'qmikan deb izlab yurib, qayig'imizni quvlagan odamga o'xshash yana bir ulkan kishining zina-ga yaqinlashayotganini ko'rib qoldim. Uning bo'yi butxona balandligicha, har qadami, taxminimcha, o'n yardga teng kelardi*. Men hayrat va qo'rquv ichida o'zimni arpazorga urdim. Yashirib yotgan joyimdan ulkan odamning zinadan tepadagi tosh ustiga chiqqanini, atrofga nazar tashlaganini, rupordan chiqqan ovozdanda ham vahimaliroq, balandroq tovush bilan allakimni chaqirganini kuzatdim. Tovush shunchalik balanddan eshitildiki, avvaliga bu momaqaldiroqmikan, deb o'yladim. Uning chaqirishiga shu zahotiyog, qo'lga biznikiga qaraganda olti baravar katta o'roq ushlagan, o'ziga o'xshash yetti ulkan odam paydo bo'ldi. Bu odamlar oldingisiga qaraganda faqirona kiyingan edi; chamasi ular buning xizmatkorlari yoki xodimlari bo'lsa kerak. Xo'jayin ularga bir nima degan edi, men yashirib olgan dala arpasini o'rishga tushishdi.

Men ulardan uzoqroqqa qochishga intildim, biroq oldinga yurish ming mashaqqat edi, arpa juda qalin bo'lib, ularning poyasi orasidan zo'rg'a qisilib o'tardim. Dalaning shamol va yomg'ir arpani ag'atanib yuborgan qismiga borib qolib to'xtashga majbur bo'ldim: arpapoyalar bir-biriga shunday kirishib ketiptiki, ularning orasidan o'tishning hech iloji yo'q, yiqilgan boshloqlarning qiltirig'i shunaqayam qattiq va o'tkir ediki, kiyimimni teshib o'tib, badanimga sanchilardi.

Butunlay holdan toyib, umidsizlikka tushib, egat ichiga yotdim, butun vujudim bilan hayotdan ko'z yumgim keldi. Tul qolgan xotinim, yetim bolalarimni o'ylab yig'ladim. Qarindosh-urug' va do'stlarimning maslahatiga zid o'laroq meni ikkinchi marta sayohat qilishga undagan aqlsizligimdan achchiq-achchiq nolidim.

Yuragimni g'am bosdi. Beixtiyor Liliputiyanini xotirladim. O'sha mamlakat aholisi menga dunyoning mo'jizasi deb qarardi. U yerda bir qo'lim bilan butun imperator flotini sudrashim, boshqa bir qancha qahramonliklar ko'rsatishim mumkin edi. Jasoratlarim o'sha imperiya yilnomalarida abadiylashtirilgan bo'lur edi. Shu lahzadayoq, bu yerlik xalq o'rtasida ko'radigan xo'rlik-zorliklarimni tasavvur qildim. Oramizga tushib qolgan har qanday liliput qanchalik o'jiz va ahamiyatsiz bo'lsa, bu yerda men ham ana shunday bo'laman-da. Hozirgi baxtsizlik holva bo'lib, eng dahshatli ko'rgiliklar hali oldinda ekanligiga shubhalanmasdim. Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, kishining bo'yi o'sishi bilan undagi shafqatsizlik va qo'rslik ortib boradi. Bo'yi terakdan ham baland bu vahshiyatlardan nima ham kutardim? Kimki meni birinchi bo'lib tutib olsa, o'sha zahoti yeb qo'ysa

kerak. Faylasuflar, ulkan odam bilan kichik odam tushunchasi — nisbiy tushuncha. deb haq gapni aytishadi. Ehtimol, menga nisbatan liliputlar qancha kichkina bo'lsa, ular ham o'zlaridan shuncha kichkina odamni uchratsalar taqdir to'g'ri ish qilgan bo'lardi. Kim bilsin, balki dunyoning biror bir burchagida anovi ulkanlardan ham baland odamlar bordir.

Men ana shu o'y-xayollarga berilib o'tirarkanman, o'roqchilar bora-bora menga yaqinlashib kelishardi. To'satdan ulardan biri men yotgan egatga o'n yard yaqinlashdi. Yana bir qadam yursa yo o'roq solsa, meni bosib olishi yoki o'roq bilan ikkiga bo'lib yuborishi turgan gap edi. Men dahshat ichida, jon-jahdim bilan baqirib yubordim. Ulkan odam to'xtadi, egilib, oyog'ining tagiga uzoq tikildi va nihoyat meni ko'rdi. Notanish yirtqichni ko'rib qolib, timdalab yoki tishlab olmasin, deb hadiksiragan paytimizda qanday qiyofaga tushsak, u ham xuddi shunday jur'atsizlik bilan bir daqiqa menga tikilib qoldi. Nihoyat, ulkan odam dadillanib, meni orqa tomonimdan bosh va ko'rsatkich barmog'i bilan ushladi. Meni yaxshiroq ko'rish uchun ko'ziga yaqinroq olib bordi. Qo'lidan sirg'anib tushib ketishimdan qo'rqib, qovurg'alarimni qattiq og'ritib, mahkam ushlab oldi. Baxtinga, uning niyatini darhol fahmladim, farosatimni ishlatdim, meni yerdan oltmish fut yuqorida ushlab turganida ham hech qanday qarshilik ko'rsatmadim. Men jur'at etgan narsa quyoshga boqish, qo'limni yalingannamo qovushtirib, jiddiy va g'amgin ohangda bir necha so'z aytish bo'ldi.

Jirkanch mayda jonivorni oyog'imiz bilan ezg'ilab tashlashga chog'lanib, uni yerga tashlaganday, ulkan odam ham meni oyoq ostiga uloqtirib yuborarmikan, deb juda qo'rqdim. Biroq, — baxtimdan o'rgilay — chamasi ovozim, imo-ishoralarim ulkan odamga yoqib qoldi. U menga diqqat bilan tikildi, ma'nosi tushunarli bo'lmasa-da, aniq gaplarimdan hayratga tushdi. Lekin, uning barmoqlari menga chidab bo'lmas darajada azob berardi, ingrash va yig'lashdan o'zimni tiya olmadim. Qobirg'alarimni juda qisib yuborganini turli imo-ishoralar bilan uqtirdim. U buni tushundi shekilli, kamzulining etagini qayirib, unga meni avaylab qo'ydi-da, dalada birinchi ko'rgan kishim — xo'jayini — fermerning oldiga chopib ketdi.

Fermer xodimidan meni qayerdan topib olganini batafsil so'rab olgach, bizing qamish yo'g'onligidagi somon cho'pi bilan kaftanim etaklarini ko'tara boshladi: u kiyim-kechagim tabiat in'om qilgan junli teri bo'lsa kerak. deb o'yladi shekilli. Keyin yuzimni durustroq ko'rish uchun sochlarimni pufladi. U batraklarini chaqirib, dalada menga o'xshagan boshqa jonivorchalarni ko'rgan-ko'rmaganlik-

larini surishtirdi — buni keyinroq bilib oldim. Keyin u meni yerga ikki qo'l, ikki tizzam bilan avaylabgina qo'ydi. Men o'sha zahoti o'rnimdan turib ketdim, zaracha bo'lsin qochish niyatim yo'qligini bu odamlarga ko'rsatish uchun u yoq-bu yoqqa yura boshladim.

Xatti-harakatlarimni durustroq ko'rish uchun ular davra qurib o'tirishdi. Men shlyapamni olib, fermerga tavoze bilan ta'zim qildim. Keyin tiz cho'kib turib, osmonga qaradim, qo'limni og'zimga karnay qilib, imkoni boricha baland tovush chiqarib, bir necha so'z aytdim. Cho'ntagimdan oltin to'la hamyonni chiqarib, itoatkorlik bilan xo'jayinga uzatdim. U hamyonni kaftiga qo'yib ko'ziga yaqin olib bordi. Keyin yonidan to'g'nag'ich olib, hamyonga bir necha marta suqdi. Lekin bundan hech narsa chiqmadi: bari bir u buning nima ekanligini bilmadi. Shunda undan kaftini yerga qo'yishni imo bilan iltimos qildim, hamyonni olib ochib, uning kaftiga hamma oltin tangalarni to'kdim. Hamyonda har biri to'rt pistolli oltita ispan tillasi, yigirma yo o'ttizta mayda tangalar bor edi. U jimjilog'ining uchini ho'llab, katta tangalardan birini, keyin boshqasini ko'tardi, bari bir bularning nima ekanligini bilolmadi. U imo-ishora bilan tangalarni hamyonga, hamyonni esa cho'ntakka solishni buyurdi. Hamyonni unga sovg'a qilayotganimni uqtirish uchun bir qancha muvaffaqiyatsiz urinishlar qilib, oxiri uning buyrug'ini bajarishga majbur bo'ldim.

Bora-bora fermer aqli raso jonivorcha bilan muomala qilayotganiga ishondi. U men bilan tez-tez muloqotda bo'ldi, lekin uning ovozi, garchi ming'illab gapirsa-da, suv tegirmonning shovqinidan ham o'tib tushar, qulog'imni batangga keltirardi. Men unga turli tillarda iloji boricha baland tovush bilan javob qaytarardim, u ko'pincha meni qulog'iga ikki yardga yaqin keltirar, ammo bundan hech ish chiqmasdi: biz bir-birimizni mutloq tushunmasdik. Nihoyat fermer xodimlarini ishga tushishga buyurdi, o'zi esa o'tirib, kaftini tepaga qilib chap qo'lini yerga qo'ydi, kaftiga ro'molchasini taxlab, ustiga chiqishga imo qildi. Chiqish uncha qiyin emasdi. Chunki barmog'ining yo'g'onligi bir futdan oshmasdi. Bo'ysunishni oqilona ish deb bildim, yiqilib ketmaslik uchun ro'molcha ustiga yotdim. Fermer ehtiyot yuzasidan meni ko'rpaga o'raganday ro'molchaga o'rardi, shu alfozda uyiga olib ketdi. Uyga kelgach, xotinini chaqirdi va meni unga ko'rsatdi. U bo'lsa, baqa yoki o'rgimchakni ko'rib qolgan ingliz xonimlariday chinqirib, o'zini orqaga tashladi. Biroq mening odobim, fermerning hamma imo-ishoralariga to'liq itoat etishim ko'p o'tmay uy bekasiga taskin berdi, menga mehribonchiliklar ko'rsata boshladi.

Tush payti edi; xizmatkor tushlik ovqat keltirdi: u diametri yigirma to'rt fut keladigan idishdagi kattagina mol go'shti bo'lagi edi. Dasturxon atrofiga fermer, uning xotini, uchta bolasi va kampir buvisi o'tirdi. Fermer meni o'z oldiga — balandligi yerdan o'ttiz fut baland stol ustiga qo'ydi. Shunchalik baland joydan yiqilib tushmay deb, o'r taroqqa surildim. Fermerning xotini bir kesim go'sht kesdi, likopga non maydalab, oldimga qo'ydi. Men unga ta'zim qildim, yonimdan vilka va pichoq chiqarib, ovqatni tushira ketdim, bundan ular judayam mamnun bo'lishdi. Uy bekasi xizmatkor xotina ikki gallon¹³ sig'adigan likyor ryumkasi keltirishni buyurdi, unga allaqanday ichimlik quydi. Men ryumkani ikki qo'llab arang oldim, uni uy bekasining salomatligi uchun nazokat bilan ichdim. Bu qilg'im o'tirganlarning shunaqayam zavqini keltirdiki, qah-qah urib kulib qulog'imni kar qilib qo'yishlariga sal qoldi. Ichimlik olma vinosiga o'xshagan bo'lib, mazasi juda shirin edi.

Xo'jayin meni o'z tarelkasi tomon imlab chaqirdi. Stol ustida ketayotib non uvog'iga qoqilib, yiqilib tushdim. Baxtinga hech qayerim lat yemadi. Men darhol o'rnimdan turdim; yiqilib tushganim bu saxovatli odamlarni tashvishga solganini ko'rib, shlyapamni qo'limga oldim (tarbiyali odamlarga xos bo'lgandek, shlyapamni qo'ltig'imga qisib yurardim) uni boshim uzra silkitib, hamma ish joyida degan ma'noni bildirish uchun uchmarta «ura» deb qichqirdim. Lekin xo'jayinga (bundan bu yog'iga uni shunday deb atayman) yaqinlashganimda uning yonida o'tirgan o'n yoshli sho'xi jaf o'g'li shartta oyog'imdan ushlab, balandga ko'tardi, qo'rquvdan yuragim orqamga tortib ketdi. Baxtinga otasi meni o'g'lining qo'lidan tortib oldi va unga shunaqayam tarsaki tushirdiki, bu tarsaki Yevropaning butun bir kavaleriya eskadronini otdan qulatgan bo'lardi. Uning juda jahli chiqib ketdi, o'g'lini dasturxon yonidan turishga buyurdi. Lekin men bolaning dili og'rimasligining, menga nisbatan kek saqlamasligining tarafdori edim. Shu payt bolalarimizning ko'pincha chumchuq, quyon, mushuk va kuchuk bolalarni qanday qiynashlarini xotirladim. Men tiz cho'kdim, barmog'im bilan bolani ko'rsatib, o'g'lini avf etishini so'rayotganimni tushuntira boshladim. Otaning ko'ngli yumshadi, bola yana o'z joyiga kelib o'tirdi. Men unga yaqinlashib, qo'lidan o'pdim. Xo'jayin kulib, o'g'lining qo'lini ushladi va u bilan meni silay boshladi.

Tushlik ovqat paytida uy bekasining tizzasiga uning yaxshi ko'rgan mu-shugi irg'ib chiqdi. Orqamda stanoklarda o'nlarcha to'quvchilar ishlayotganga

13 Gallon — 4,5 litrga teng.

o'xshagan shovqin eshitdim. Orqamga o'grilib, uy bekasi qornini to'yg'azib, orqasini silab o'tirgan — hurillayotgan mushukka ko'zim tushdi. Kallasi va panjalariga qaraganda mushuk bizning ho'kizlarimizdan uch marta katta edi. Men stolning narigi chetida, mushukdan ellik fut yiroqda edim. Uy bekasi mushuk menga tashlanib qolishidan qo'rqib, uni mahkam ushlab o'tirardi. Har holda bu yirtqich maxluqni ko'rgan zahoti o'zimni butunlay yo'qotib qo'ydim. Lekin hadiksirashlarim o'rinsiz edi: xo'jayin meni mushukka uch yard yaqin olib bordi, u menga zarracha bo'lsin e'tibor bermadi. Sayohatlarim paytida, yirtqich hayvondan qochish yoki uning oldida qo'rquvdan titrab-qaqshab turish uning hujumga tashlanishiga yo'l ochib berishini ko'p marta boshimdan kechirganman. Shu vajdan miq etmay turaverdim. Men besh-olti marta mushukning naq tumshug'i oldiga keldim, u o'zini orqaga tashladi, chamasi, mendan ko'ra ortiqroq qo'rqdi, shekilli. Tushlik ovqat oxirlab qolganda xona ichiga uchtami-to'rtta it chopib kirdi. Lekin ulardan unchalik qo'rqmadim. Ularning biri ovchi it bo'lib, kattaligi bizning to'rtta filimizga teng kelardi, yana biri tozi bo'lib, oldingisidan bo'yi balandroq, ingichkaroq edi.

Bir ozdan keyin bir yashar bolani ko'tarib enaga kirdi. Go'dak meni ko'rishi bilanoq, bolalarga xos notiqlik qoidasini ishlatib, shunaqayam osmonni boshiga ko'tarib yig'ladiki, agar u Cheslida bo'lganida London ko'prigida turganlar ham uning ovozini eshitardi; u meni o'yinchoq deb o'yladi. Uy bekasi onaga xos mehribonlik bilan meni qo'lga oldi va bolaning oldiga qo'ydi. U esa shartta belimdan changallab, boshimni og'ziga olib bordi. Men jon achchig'ida dodladim, bola esa qo'rqqanidan meni tashlab yubordi. Baxtinga uy bekasi fartug'ini tutishga ulgurdi. Bo'lmasa pachog'im chiqib, o'lishim hech gap emasdi.

Bolani yupatish uchun enaga shiqildoqni shiqillata boshladi. Bu shiqildoq ichiga tosh solingan bochkani eslatardi, uning beliga arqon bilan bog'lab qo'yilgandi. Enaga bolani yupatarkan, menga yaqinroqdagi pastakkina kursiga o'tirdi, uning yuzini bemalol kuzatish imkoniga ega bo'ldim. Uning yuzi nihoyatda xunuk edi. Terisi qandaydir g'adir-budir, o'ydim-chuquqlarga, dog' va yo'g'on-yo'g'on junlarga to'la edi. Lekin u uzoqdan ko'zimga ancha istarasi issiq ko'ringandi. Bu o'rinda ingliz xonimlari yuzining silliqligi va tiniqligi xususida o'y-xayollarga berilib ketdim. Ular ko'zimizga, bo'y-bastimiz teng bo'lgani uchun ham chiroyli ko'rinadi, ularning yuzidagi mayda nuqsonlarni payqamaymiz. Har qanday muloyim, tiniq yuzdagi nuqsonni, unga qalin qilib upa-elik surkalganligini lupa ko'rsatib beradi, xolos.

Liliputiya da bo'lgan paytlarimda, menga mana shu mitti odamlar yuzi rangini tabiat nihoyatda chiroyli qilib yaratganday tuyulardi. Men mana shu mavzuda eng yaqin do'stim bo'lmish liliput olimiga gap ochgandim, u yuzim unga uzoqdan ancha chiroyli ko'rinishini aytgandi. Uni dastavval qo'limga olib, yuzimga yaqinlashtirganimda juda qo'rqib ketganini ochiq oshkora tan olgandi. Uning gaplariga qaraganda, yuzimdagi g'adir-budirlarni bemalol ko'rish mumkin emish; rangi boshqa ranglar bilan aralash-quralash bo'lib ko'rimsiz ko'rinarimish, soqol tolalarim esa to'ng'izning junidan o'n baravar yo'g'onmish. Shuni ta'kidlashim lozimki, husnim vatandoshlarimnikidan qolishmaydi, sayohatlarda ko'p yurishimga qaramay yuzim deyarli qoraygani yo'q. Boshqa tomondan esa, olim suhbatni davom ettirib, anovi xonimning yuzi sepkilli, anavisining esa og'zi haddan tashqari katta, boshqasining burni beso'naqay derdi, lekin men buning birontasini payqamasdim. Albatta, bu mulohazalar yangilik emas. Men bu gaplarni shuning uchun ham eslatib o'tyapmanki, kitobxonlar ulkan odamlarni juda badbashara deb o'ylashmasin. Aksincha, haq gapni aytganda, ular juda chiroyli irqdan ekan.

Tushlikdan keyin xo'jayin ishchilar yoniga jo'nadi, ketayotib xotiniga allanarasalarni uqtirdi. uning gapi va qo'l harakatlari menga g'amxo'rlik ko'rsatilishi lozimligidan dalolat berib turardi. Men juda charchagandim, uyqum kelayotgandi. Buni payqagan uy bekasi meni o'z o'rniga yotqizdi va ustimga top-toza ro'molchasini yopib qo'ydi, u harbiy kema yelkanidan ham katta va qalin edi.

Men ikki soatcha uxladim; tushimda uyimda, oila a'zolarim orasida yurganmishman. Uyqudan uyg'ongach, o'zimni eni ikki yo uch yuz fut, balandligi ikki yuz fut keladigan hayhotday xona ichida, eni yigirma yard keladigan karavotda yotgan holda ko'rib, ko'nglim battar vayron bo'lib ketdi. Xo'jayinimning xotini ish bilan bir yoqqa ketibdi, o'zimni yolg'iz qamab qo'yibdi. Karavot yerdan sakkiz yard baland edi. Hojat chiqarish ilinjida pastga tushmoqchi bo'ldim. Odam chaqirgani istihola qildim. Bari bir, buning foydasi yo'q edi: oshxonada o'tirgan oila a'zolari mening o'jiz ovozimni qayoqdan eshitishsin! Nima qilsam ekan. deb turgandim, pardaga tarmashib, ko'rpa ustiga ikkita kalamush chiqdi, ular meni iskey boshlashdi. Ulardan biri tumshug'imga yaqin keldi. Men dahshat ichida o'rnimdan sapchib turdim va xanjarimni yalang'ochladim. Bu yaramas hayvonlar menga ikki tomondan hujumga o'tishdi. Biri oldingi oyoqlari bilan yoqamga tarmashdi. Yaxshiyamki, u menga ziyon-zahmat yetkazmay turib, uning qornini chavoqlab tashladim. U oyog'im ostiga yiqildi, boshqasi esa

sherigining ahvoli voyligini ko'rib, juftakni rostlab qoldi. Ketayotganida uning yelkasiga xanjar suqishga ulgurdim, u orqasidan qonli iz qoldirib qochib ketdi. Ana shu jasoratdan keyin, nafasimni rostlab olish uchun, karavot ustida u yoq-bu yoqqa yura boshladim. Kalamushlar ko'ppak itday kelardi-yu, ammo ular o'ta epchil va battarin edi. Bordi-yu, yotish oldidan xanjarimni yechib yotganimda edi, ular meni chavaqlab yeb qo'yishardi. Men o'ldirilgan kalamushning dumini o'lchadim, u bir dyuyumi kam ikki yard ekan. Biroq kalamushni ko'rpa ustidan pastga uloqtirgani yuragim betlamadi.

Ko'p o'tmay xonaga uy bekasi kirdi. Mendagi qon dog'larini ko'rib, shoshapisha meni qo'lga oldi. Men o'lib yotgan kalamushga ishora qilib, o'zim yarador emasligimni uqtirishga intildim. Uy bekasi bu ishimdan juda sevinib ketdi. U xizmatkor chaqirib, kalamushni otashkurak bilan qisib, derazadan uloqtirib yuborishni buyurdi. o'zi esa meni stol ustiga qo'ydi. Shunda qonga bo'yalgan xanjarni unga ko'rsatdim, kaftanim peshiga qonni artib, xanjarni qiniga soldim. Hojat chiqarish zarurati meni qiynay boshladi. Shuning uchun ham uy bekasiga pastga tushishim juda zarurligini turli yo'llar bilan uqtirdim. Istagim bajo keltirilgandan keyin esa, pastga tushishim sababini tushuntirishga uyat yo'l qo'ymadi, eshik tomonni qo'lim bilan ko'rsatib, bir necha bor ta'zim qilish bilan kifoyalandim. Ayol gap nimadaligini arang tushundi. U meni qo'lga oldi, boqqa eltib, yerga qo'yib yubordi. Ikki yuz yardcha nariga borgach, men tomonga qaramang degan ma'noda ishora qildim, ikki dona shovil yaprog'i orasiga kirib, hojatimni chiqardim.

Ana shu xildagi tafsilotlarga berilib ketganim uchun iltifotli kitobxonlar meni avf etishadi, degan umiddaman. Aqli noraso kishilargina buni o'rinsiz va arzi-mas narsa deb bilishadi. Lekin haqiqiy faylasuf bundan jamiyat ravnaqi haqida o'ylash uchun ancha oziq topadi. Hozirgi va bundan keyingi sayohatlarimni chop etishdan birdan-bir maqsadim, ana shu ravnaqqa g'amxo'rlik etishning bir namunasidir. Men yo ma'lumotim, yo gapga chechanligimni ko'rsatishga emas, haq gapni ko'proq aytishga intildim. Ushbu sayohat paytidagi sarguzashtlarim menda shunchalik chuqur taassurot, xotiramda shunchalik o'chmas iz qoldirdiki, bo'lgan voqealarni qog'ozga qayd qilarkanman, birorta tafsilotni ham qoldirib ketolmadim. Lekin qo'lyozmamni diqqat bilan ko'zdan kechirayotganimda, kitob zerikarli va bachkana bo'lib qolishidan qo'rqib, undagi ko'pgina mayda-chuyda narsalarni o'chirib tashladim. Ana shu mayda-chuydalar uchun ham kitobxonlar sayyohlarni ko'pincha asossiz ayblasalar kerak.

IKKINCHI BOB

FERMERNING QIZI. MUALLIFNI QO'SHNI SHAHARGA, SO'NG POYTXTGA
OLIB KETISHADI. SAYOHAT TAFSILOTI.

Bekamning to'qqiz yashar qizi bor edi. Qizcha bichish-tikish ishlariga epchil bo'lib, qo'g'irchog'ini juda bezab tashlagandi. U kun sayin ulg'ayib, kamolga yetib borardi. U har kuni yotar paytda onasi bilan birgalikda menga qo'g'irchoqning beshigiga o'rin solib berardi. Beshikni quticha ichiga solishar, qutichani esa, meni kalamushlardan himoya qilish maqsadida, shipga ilib qo'yishardi. Fermernikida yashagan paytlarimda nuqul shu quti ichida uxladim. Lekin ularning tilini tushunib, menga nima zarurligini tushuntira olganim sayin, yotadigan o'rnim tobora qulaylashib bordi. Qizcha juda topqir, dono chiqib qoldi, yechinayotganimni bir-ikki marta kuzatiboq, meni o'zi kiyintirib, o'zi yechintiradigan bo'ldi. Biroq men hech qachon uning xizmatiga qarab qolmadim, hamma ishni o'zim qilishni afzal ko'rdim, bunga qizchani ham ko'ndirdim. U eng yupqa matolardan — mubolag'asiz aytganda, ular bizning eng dag'al matodan ham qalin edi — menga ko'ylaklar va boshqa narsalar tikib berdi, u hamisha bu kiyimlarni o'z qo'li bilan yuvib berardi. Qizcha mening muallimim ham edi, u menga o'z tilini o'rgatdi. Men qo'lim bilan biror narsani ko'rsatardim, u esa uning nomini aytardi, oradan bir necha kun o'tgach, o'zimga kerak narsalarni so'ray oladigan bo'lib qoldim. U ajoyib fe'l-atvor egasi edi, o'z yoshiga qaraganda bo'yi unchalik baland emasdi — bo'yi arang qirq fut kelardi. U menga *Grildrig* deb nom qo'ydi. Bu «odamcha», «pakana» ma'nosini bildirardi.

Ushbu mamlakatda boshimga tushgan sinovlar tufayli o'lib qolmaganim uchun ana shu qizchadan minnatdorman. Men o'sha yerda bo'lganimda undan hech ajralmadim. Men uni o'zimning *Glyumdalklichim*, ya'ni enagam deb atadim. Glyumdalklichning menga ko'rsatgan g'amxo'rliklarini hamda menga juda suyanib qolganligini bu yerda eslab o'tmasam nonko'rlik bo'lur edi. Men uning xizmatlari uchun yaxshilik qaytarishni yurak-yuragimdan istardim. Buning o'rniga, uni qirol g'azabiga duchor qilishda beixtiyor aybdor bo'lib qoldim.

Men paydo bo'lganimdan keyin ko'p o'tmay qo'ni-qo'shnilar orasida xo'jayinim daladan kattaligi spleknok (uzunligi olti fut keladigan shu yerning

chiroylikkina hayvonchasi) day keladigan, biroq odamga juda o'xshab ketadigan g'alati hayvoncha topib olgani haqida mish-mishlar tarqaldi. Ularning aytishicha, bu hayvoncha odamlarning hamma qiliqlariga taqlid qilarmish, hatto o'z tiliga ham egamish, mahalliy tildan ham bir necha so'zni o'rganib olganmish. U ikki oyoqda yurarmish, qo'lga o'rgatilganmish, unga nima buyurishsa hammasini bajararmish, itoatkormish. Chaqirsa yugurib borarmish, uning tana tuzilishi juda nozikmish, yuzi bo'lsa uch yashar dvoryan qizchani kidan ham muloyimmish.

Xo'jayinimning eng yaqin qo'shnisi va qadrdonlaridan biri bo'lmish fermer mish-mishlarning rost-yolg'onligini bilish uchun keldi. Meni darhol olib chiqishib, stol ustiga qo'yishdi; men oldinga, orqaga yurdim, komanda bo'yicha xanjarimni yalang'ochladim va yana qiniga joyladim, xo'jayinimning mehmoniga ta'zim qildim, undan hol-ahvol so'radim, uni ko'rganimdan behad xursand ekanligimni aytdim, xullas, enagam nimalarni o'rgatgan bo'lsa, hammasini bajo keltirdim.

Meni yaxshiroq ko'rish uchun, keksayib, ko'zi ojizlanib qolgan fermer ko'zoynagini taqdi. Unga qarab turib, o'zimni kulgidan tiya olmadim, chunki uning ko'zoynak orasidan boqib turgan ko'zlari tunda ikkita derazadan xonaga nur taratayotgan to'lin oyga o'xshardi. Uy ichidagilar nega kulayotganimni payqab, jilmayishdi. Chol esa shu qadar befarosat ekanki, ularning kulganidan ancha ranjidi.

U dong taratgan xasis ekan; baxtga qarshi, bu nom uning ismi-jismiga loyiq ekan. U o'sha zahoti xo'jayinimga meni yaqinroqdagi shahar odamlariga antiqa bir narsa sifatida ko'rsatishdek o'larcha bema'ni maslahatni berdi. Biz turgan uydan o'sha shahargacha yarim soatlik, ya'ni yigirma ikki milyaga yaqin yo'l ekan. Chol meni ko'rsatib, xo'jayinimga allanarsalarni shivirlyay boshlaganda, uning yomon bir niyati borligini fahmlab qoldim. Shunchalik dahshatga tushdimki, hatto bir necha so'zning ma'nosini ham uqqanday bo'ldim. Enagam Glyumdalklich onasidan gap o'g'irlabdi, ertasi kuni ertalab nima gap o'tganini menga aytib berdi. Bechora qizcha meni bag'riga bosgani-cha uyat va alamdand yig'lab yubordi. U qo'pol, to'nkamijoz odamlar menga ziyon-zahmat yetkazishidan qo'rqardi. Axir, ular meni qo'llariga olib, bo'g'ib qo'yishlari yo mayib qilishlari hech gap emas-da. Boshqa tomondan, qizcha mendagi tabiiy kamtarlikni hamda or-nomus bobida o'ta nozik tabiatliligimni bilardi, odamlarni kuldirish uchun meni pulga ko'rsatishsalar, buni o'zim uchun or deb bilishimdan hadiksirardi.

«Oyim bilan dadam, — dedi qiz, — Grildrigni menga sovg'a qilishga va'da berishgandi, endi bilsam, o'tgan yildagi singari yo'l tutishyapti, o'shanda menga qo'zichoq hadya qilishgandi, u semirishi bilanoq qassobga sotib yuborishgan».

To'g'risini aytsam, bu xabarni enagam singari ko'nglimga uncha yaqin olmadim. Bir kun emas bir kuni ozodlikka chiqishga umidim zo'r edi, ana shu umid hamisha menga hamroh bo'ldi. Albatta, hammaga ko'z-ko'z qilib ko'rsatiladigan antiqa bir narsaning rolini bajarish ancha erish tuyuladi. Lekin men bu mamlakatda o'zimni mutloq begona deb bildim, bordi-yu Angliyaga qaytib borgunday bo'lsam, boshimga tushgan bu baxtsizlik uchun hech kimning menga ta'na qilishga haqqi yo'q, deb o'yladim. Hatto Buyuk Britaniyaning qiroli ham mening o'rnimda bo'lsa, mana shunday tahqirlanishga majbur bo'lardi.

O'z do'stining maslahatiga amal qilgan xo'jayinim bozor kunlarining birida meni qutiga solib, qo'shni shaharga olib bordi. U enagamni ham egarning orqasiga o'tqazib, o'zi bilan olib ketdi. Qutining hamma tomoni berk edi; unda mening kirib-chiqishim uchun uncha katta bo'lmagan eshik, havo kiradigan teshiklar bor edi. Qizcha shunchalik mehribon ediki, quti ichiga cho'zilib yotsam bo'ladigan qilib, qo'g'irchog'i karavotidan olingan qavilgan ko'rpachani ham to'shab qo'yibdi. Safarimiz yarim soatga cho'zilsa-da, silkinishlar enka-tinkamni quritdi. Otning har bir qadami taxminan qirq futga teng edi. U yo'rg'alab borardi, uning harakati dovul paytida goh tepaga ko'tarilib, goh pastga sho'ng'ib tebralayotgan kema harakatiga o'xshardi. Biz bosib o'tgan yo'l London bilan Sent-Olbans oralig'idagi masofaga teng kelardi. Xo'jayin har safar to'xtaydigan joyida — mehmonxona oldida otdan tushdi. U mehmonxona egasi bilan maslahatlashib, *grultrud*, ya'ni jarchi yolladi. Bu jarchi barcha shahar ahliga mehmonxonada: «*Spleknok* odamga juda o'xshaydi, bir necha so'zni talaffuz eta oladi va turli ermaklar ko'rsatadi», — degan yozuv ostida odatdan tashqari g'alati jonivor ko'rsatilishini e'lon qilishi kerak edi.

Meni mehmonxonadagi eng katta — kattaligi uch yuz kvadrat fut keladigan xona ichidagi stol ustiga qo'yishdi. Enagam meni qo'riqlash va menga turli ko'rsatmalar berish uchun stol yonidagi kursi ustida turdi. Tiqilinch bo'lmasligi uchun xo'jayin xona ichiga o'ttiztadan ortiq odam qo'ymadi. Qizchanning komandasiga ko'ra men stol ustida oldinga, orqaga yurib turdim; u menga savollar berar, men esa baland ovoz bilan javob qaytarardim. Men

goh izzat-ikrom ko'rsatib, goh ularni yana ko'rish ishtiyoqini bildirib, to'planganlarga bir necha bor murojaat qildim. Men Glyumdalklich uzatgan, ichiga vino to'ldirilgan, qadah xizmatini o'tagan angishvonani oldim, to'planganlarning salomatligi uchun ichdim. Qo'limga xanjarimni olib, uni Angliyadagi qilichbozlar ustози singari silkitdim. Enagam qo'limga somon cho'pi berdi, men u bilan nayzabozlardek mashq qildim. Yoshligimda meni nayzabozlikka durustgina o'rgatishgandi. Har kuni huzurimga o'n ikki to'p odamlar tomoshaga kirishdi, har safar oldingi ermaklarni takrorlashga to'g'ri keldi. Bu ishlar nihoyatda me'damga tegdi va o'larcha holdan toydirdi. Tomoshani ko'rib chiqqanlar men haqimda shunaqayam ajoyib narsalarni to'qishdiki, xaloyiq mehmonxonaga daryoday oqib kela boshladi. Xo'jayinim o'z nafini ko'zlab, qizidan boshqa hech kimning menga qo'l tegizishiga yo'l qo'ymadi; ehtiyot shartdan men turgan stol tomoshabinlardan ancha uzoqqa qo'yilgandi. Shunday bo'lsa ham maktab o'quvchilaridan biri menga yong'oq otdi. Yong'oq bizning oshqovoqday kelardi. Baxtinga, bola mo'ljalni to'g'ri ololmadi, bo'lmasa naq boshimni majaqlardi. Sho'x bolani do'pposlashib, zaldan haydab chiqarishdi, xo'b ko'nglimdagiday ishni qilishdi.

Xo'jayinim kelgusi bozor kuni meni yana ko'rsatajagini butun shaharga e'lon qildi. Bu orada u men uchun ancha qulay safarbop uycha tayyorladi. Men ana shunaqa uyga juda muhtoj edim. Dastlabki sayohat va sakkiz soatlik tomosha ko'rsatish meni o'lguday charchatdi. Men oyog'imda arang turardim, bir og'iz gap aytishga ham darmonim yetmasdi. Dam olib, o'zimga kelish uchun uch kun vaqt kerak bo'ldi, buning ustiga uyda ham bir lahza orom nimaligini bilmadim. Mening daragimni eshitgan qo'shni dvoryanlar, xo'jayinimning huzuriga antiqa jonivorni ko'rish uchun beto'xtov kelib turishdi. Har kuni kamida o'ttiz kishi xotin va bola-chaqasi bilan huzurimda bo'ldi. Xo'jayinim shu yo'l bilan ancha pul ishlab oldi, garchi meni bir oila tomosha qilsa ham, xo'jayinim ulardan bir zal odamning tomosha haqini talab qilardi. Shunday qilib, keyingi bir necha hafta ichida (ularning yakshanbasi-chorshanbadan tashqari) meni shaharga olib borishmasa ham hordiq nimaligini bilmadim.

Xo'jayinim unga katta naf keltirishimni ko'rgach, meni qirollikning eng yirik shaharlariga olib borishga jazm etdi. Uzoq safar uchun kerakli barcha narsani hozirlab, o'z xo'jaligidagilarga ba'zi topshiriqlarni berib, xotini bilan xayrlashdi. 1703 yilning 17 avgust kuni, ya'ni men bu yerga kelganimdan ikki

oy o'tgach, uyimizdan uch ming milya naridagi — mamlakatning deyarli qoq o'rtasiga joylashgan poytaxt sari yo'l oldik. Xo'jayin qizi Glyumdalklichni orqasiga mingashtirdi. Qiz meni tizzasiga o'rnashtirib, ushlab ketdi. Men quti ichiga joylangan edim, quti esa qizning beliga bog'lab qo'yilgandi. Qizcha quti devorlariga iloji boricha yumshoq matolarni qopladi, tagiga kigiz soldi, uning ustiga men uchun mo'ljallangan qo'g'irchog'ining karavotini qo'ydi, meni zarur choyshab, ko'rpa-to'shaklar bilan ta'minladi, ishqilib, menga qulay bo'lishi uchun jon kuydirdi. Bizni otiga lash-lushlar ortgan bir xodim kuzatib bordi.

Xo'jayinim meni yo'limizdagi barcha shahar aholisiga ko'rsatdi. Ba'zan u asosiy yo'ldan ellik, hatto yuz milya chetdagi qandaydir qishloqqa yoki ko'proq pul ishlab olish imkoni bo'ladigan biror zodagon odamning mulkiga ham burilib ketaverdi. Biz har kuni bir yuz qirq yo bir yuz oltmish milyadan yo'l bosdik, chunki Glyumdalklich, menga g'amxo'rlik qilib, ha deb o'tliq yuraversak charchab qolishimni pesh qilib zorlandi. U istagimga ko'ra, meni sof havodan nafas oldirish uchun qutidan tashqariga olar va atrofini tomosha qildirardi. Bunday paytlarda u yelkamdan oshirilgan tasmadan mahkam ushlab olardi. Biz Nil va Gang daryolaridan ham bir necha barobar keng va chuqur besh yo oltita daryodan kechib o'tdik. Io'lda London ko'prigi ostidan o'tadigan Temzachelik birorta daryochani uchratmadik. Yo'lda o'n hafta bo'ldik. Shu muddat ichida son-sanoqsiz qishloqlar va xususiy uylardan tashqari, o'n sakkizta katta shaharga tashrif buyurdik.

25-oktabr kuni Lorbrulgrud yoki Jahonning Faxri deb nomlanadigan poytaxtga yetib keldik. Xo'jayinim qirol saroyidan uncha uzoq bo'lmagan katta ko'chada to'xtadi va mening ta'rif-tavsifim hamda iste'dodimni o'zida aniq aks ettiruvchi afishalar tarqatdi. U eni uch yuz yoki to'rt yuz fut keladigan katta zalni ijaraga oldi, zalga diametri oltmish futli stol qo'ydi; stolning atrofini, meni qulashdan saqlash maqsadida, balandligi uch futli panjara bilan o'radi. Men stol ustida turli mashqlarni namoyish qilishim kerak edi. Kishilar mamnun bo'lishi hamda qoyil qolishi uchun meni har kuni o'n martadan ko'rsatishdi. Bu muddat ichida ularning tilida ancha durust gapiradigan va berilayotgan savollarni yaxshi tushunadigan bo'lib qoldim. Buning ustiga alifbeni ham o'rganib, uncha-muncha jummalarni o'qiydigan bo'ldim. Buning uchun Glyumdalklichdan o'ta minnatdorman, u uyda, safarda menga savod o'rgatdi. U o'zi bilan qizlar uchun xristian diniy aqidalari savol-javob tarzida qisqa bayon qilingan kitobchani ham olib olgan edi. U ana shu kitob bo'yicha menga alifbeni va o'qishni o'rgatdi.

UCHINCHI BOB

MUALLIFNI SAROYGA TALAB QILISHADI. MALIKA UNI FERMERDAN SOTIB OLADI VA QIROLGA KO'RSATADI. MUALLIF OLIY HAZRATLARINING ENG MASHHUR OLIMLARI BILAN MUNOZARA QILADI. UNI SAROYDAGI BIR XONAGA JOYLASHTIRISHADI. U MALIKANING JUDA KATTA ILTIFOTIGA SAZOVOR BO'LADI. U O'Z VATANINING SHARAFINI HIMOYA QILADI. UNING MALIKANING PAKANASI BILAN JANJALLASHUVI.

Qatorasiga bir necha haftaga cho'ziladigan, har kuni namoyish qilinadigan tomoshalar salomatligimga putur yetkazdi. Xo'jayinim foydani ko'p ko'rgan sari xasisligi oshib bordi. Ishtaham bo'g'ilib, etim suyagimga yopishib ketdi. Ko'p o'tmay o'lib qolishimga aqli yetgan fermer mendan imkoni boricha foydalanib qolishga ahd qildi. Xuddi shu kunlarda biznikiga *stardal* — qirol ad'yutanti kelib, malika hamda saroy xonimlarini xursand qilish uchun meni darhol saroyga yetkazib borishni talab qildi. Saroy xonimlaridan ba'zilari meni ko'rishga muyassar bo'lishgan va mening g'oyat go'zalligim, chiroyli muomalalarim va ziyrakligim haqida ajoyib mish-mishlar tarqatishga ulgurishgan edi. Saroyga kelishim hazrati oliyalari va uning mulozimlarining zo'r xursandchiligiga sabab bo'ldi. Men tiz cho'kib, malikaning oyoqlaridan o'pishga izn so'radim, lekin u iltifot bilan jimjilog'ini uzatdi, men uni ikkala qo'lim bilan quchoqlab, tavoze bilan labimga olib bordim. Malika menga o'z mamlakatim va sayohatimga talluqli bir necha savollar berdi. Savollarga aniq va qisqa javob qaytardim. Keyin u, saroyda olib qolsak xursand bo'lasanmi, deb so'radi. Men malikaga ta'zim qilib turib, odob bilan, o'z xo'jayinimning quli ekanligimni, o'z taqdirimni o'zim hal qiladigan erkin odam bo'lganimda butun umrimni hazrati oliyalari xizmatiga sarflashga bajonu dil rozi bo'lishimni aytdim. Shunda malika xo'jayinimdan, meni mo'maygina pulga sotishga rozi bo'lish-bo'lmasligini so'radi. Xo'jayinim mendan qutulishiga imkon tug'ilganidan juda sevinib ketdi. Chunki u, meni bir oy ham umr ko'rmaydi, deb qo'rqardi. U mening uchun ming tilla so'radi, bu pulni o'sha zahoti unga to'lashdi. Buni ingliz puliga chaqqanimizda, u bir ming gineyga teng keladi. Bitim tuzilgach, malikaga iltimos bilan murojaat qildim.

«Endilikda, — dedim, — siz hazrati oliyalarining sodiq vassalingiz sifatida, menga alohida iltifot ko'rsatilishini sizdan iltimos qilishga jur'at etaman. Ena-

gam Glyumdalklich hamisha menga rahmdil, g'amxo'r edi. U fe'l-atvorimni yaxshi biladi, meni yaxshi parvarish qiladi. Shuning uchun ham siz hazrati oliyalardan uni saroyga xizmatga olishingizni iltimos qilaman, u avvalgiday mening enagam hamda murabbiyam bo'lib qolaversin».

Malika iltimosimga rozi bo'ldi. Qizchaning otasi farzandining saroyga ishga joylashganidan mamnun bo'ldi, Glyumdalklichning esa sevinchi ichiga sig'may ketdi. Shundan so'ng, avvalgi xo'jayinim menga muvaffaqiyat tilab jo'nab qoldi. U meni ajoyib xizmatga qoldirayotganini ham aytdi. Men unga javoban lom-mim demadim, faqat salgina ta'zim bilan kifoyalandim.

Malika munosabatimdagi sovuqlikni payqadi, fermer hashamatli uyni tark etgandan keyin, buning sababini so'radi. Hazrati oliyalariga batafsil javob qaytarishga yuragim dov berdi.

«Menday ojiz maxluqni dalada topib olishganda boshimni yanchib tashlashmaganligi uchun bu odam oldida umrbod qarzdorman, — dedim. — Lekin fermer bu xayrli ishi uchun rosa ishlab oldi. U men tufayli shunaqayam ko'p pul topdiki, juda boy odam bo'lib ketdi. Ammo uning qo'lida juda xarob yashadim. Bunday hayot kechirishga har qanday hayvon ham bardosh berolmasdi. U erta tongdan to qorong'i tungacha meni bekorchilarga tomosha ko'rsatishga majbur qildi. Bundan salomatligimning mazasi shunaqayam qochdiki, fermer sog' qolishimga shubha bilan qaray boshladi. Shuning uchun ham meni arzon-garovga sotib yubordi. Biroq, men ishonamanki, uning shubhalari o'rinsiz. Sizday ulug' va marhamatli, tabiatning bezagi, jahon-olamning mehru muhabbati, o'z fuqarolarining huzur-halovati, feniks* mo'jizasi bo'lmish xonimning rahnamoligida hech kim menga yomon munosabatda bo'lmaydi, ha demay tuzalib ketishimga esa shubha qilmayman. Hazrati oliyalarini ko'riboq, o'zimni ancha bardam va yaxshi his etyapman».

Gapimning mazmuni, umuman, ana shunday edi. Nutqim ancha to'mtoq edi, uni ancha duduqlana-duduqlana izhor etdim. So'zimning oxirida bu yerdagi muhtarama xonimlarga aytiladigan bir necha gaplarni ham qistirib o'tdim. Bularni menga Glyumdalklich o'rgatgan edi.

Malika til bilmasligimni kechirdi. Menday kichkina bir maxluqda shunchalik aql, sog'lom fikr borligiga juda hayron qoldi. U meni qo'lida ko'targanicha, qirol kabinetiga olib ketdi. Podsho oliy hazratlari ancha qat'iyatli, viqorli ekan, u menga ko'z qirini tashlab, malikadan sovuqqina qilib, qachondan beri spleknoklarga ko'ngil qo'yib qolganligini so'radi. Men malikaning o'ng qo'lida mukka tushib

yotardim, nazarimda, u meni birorta jonivor deb o'ylabdi. Aql-zakovatli va xushchaqchaq tabiatli malika meni yozuv stoli ustiga qo'ydi-da, sarguzashtlarimni oliy hazratlariga aytib berishimni buyurdi. Men yuz bergan voqealarni qisqacha bayon qildim. Ichkariga kirishga ijozat olgan Glyumdalklich ham gaplarimni tasdiqladi.

Qirol mamlakatdagi peshqadam olimlardan biri bo'lib, falsafani, ayniqsa matematika fanini chuqur egallagandi. U meni diqqat bilan ko'zdan kechirdi. Ikki oyoqda tik yurishimni ko'rib, avvaliga meni allaqanday kashfiyotchi usta tomondan yasalgan, soat mexanizmlari bilan harakat qiladigan qo'g'irchoq odam, deb o'yladi. Lekin gaplarimni eshitib, so'zlarim mantiqan to'g'riligiga ishonch hosil qilgach, hayratini yashira olmadi. U hikoyamning hech bir so'ziga ishonmadi. Chamasi, bu hikoyalarni Glyumdalklich va uning otasi meni kattaroq pulga sotish uchun majburan o'rgatgan, deb o'yladi. Shu munosabat bilan u menga bir necha savollar berdi, savollariga oqilona javoblar oldi. Nutqidagi birdan-bir nuqson g'aliz talaffuz, til bilmaganlikdan dalolat beruvchi noo'rin jumlar tuzishim edi. Bundan tashqari, men saroyda fermer oilasida eshitib yurgan bir necha o'rinsiz xalq iboralarini ham aytib yubordim.

Bu mamlakat udumiga ko'ra, saroyda hamisha olimlar navbatchilik qilishar, har haftada bir-birlarini almashtirishar ekan. Oliy hazratlari darhol ularni o'z huzuriga chaqirdi.

Bu janoblar tashqi qiyofamni uzoq va sinchiklab o'rganishdi, bir-biriga zid xulosalarga kelishdi. Ular faqat bir xususda hamfikir edilar. Ularning fikricha, menday bir maxluq tabiatning oddiy qonunlariga ko'ra dunyoga kelmasligim kerak, chunki men o'z-o'zimni himoya qilish qobiliyatidan mahrumman: tez chopa olmayman, daraxtga chiqolmayman yo yer kovlab in qurolmayman. Olimlar tishlarimni rosa tekshirib, meni go'shtxo'r hayvon degan xulosaga kelishdi. Lekin o'zimga qanday qilib ovqat topishimga tushunib yetishmadi, chunki to'rt oyoqlilarning ko'pchiligi mendan ancha kuchliroq, dala sichqoni va boshqa jonivorlar o'zlarining ephil-chaqqonligi bilan ajralib turishadi. Avvaliga ular meni shilliq qurt, turli hasharotlarni yeydi degan fikrda bo'lishdi, lekin juda ko'p olimona mulohazalar va tortishuvlardan keyin bu taxminlar butunlay rad etildi.

Donishmandlardan biri, meni endigina paydo bo'layotgan yoki chala pusht, degan fikrni aytdi. Lekin qolgan ikki olim tanamdagi barcha a'zolar yaxshi taraqqiy qilganligini, ko'p yillardan beri yashayotganligimni, bunga lupa orqali ko'rishayotgan soqollarim guvohlik berayotganligini ro'kach qilib, bu fikrni rad etdi. Ular meni oddiy pakana odamlar toifasiga ham qo'shisha olmasdi, chunki

jussam juda kichkina edi. Mamlakatning eng kichkina odami, malikaning erka-toy pakanasining bo'yi ham o'ttiz fut kelardi.

Ko'pgina tortishuvlardan keyin meni *relplyum skolkats*, ya'ni lusu naturae (tabiat o'yini) degan xulosaga kelishdi. Bu ta'rif hozirgi zamon Yevropa falsafasiga juda mos tushadi. Ma'lumki, faylasuflarimiz tabiatda uchraydigan qiyinchiliklarni hal etishda ana shu ajoyib, biroq mujmal hodisaga ko'proq tayanishadi. Bunda, shubhasiz, insoniyat bilimining ulug' taraqqiyoti o'z ifodasini topgan*.

Ana shu oqilona xulosani eshitgach, bir necha og'iz gapirishga ijizat so'radim. Men qirolga murojaat qilib, oliy hazratlariga millionlarcha bo'yi bo'yimga teng odamlar yashaydigan mamlakatdan kelganligimni, undagi hayvonlar, daraxtlar, binolar bu yerdagiga qaraganda ancha kichik ekanligini aytdim. Shuning uchun, oliy hazratlari fuqarolari singari, o'z yurtimda men ham o'zimni himoya qilishga va ovqat topishga qodir ekanligimni ham pisanda qildim. Shu vajdan olimlarning fikri asossiz, dedim.

Bu fikrimga qarshi ular zaharxandalik bilan: fermer uni rosa o'qitibdi-da, deyishdi. Bu olimlardan ancha bilimdon bo'lgan qirol ularning ketishiga ruxsat berdi va fermerni aytib kelishga odam yubordi. Baxtimga u hali shahardan jo'nab ketmagan ekan. Oliy hazratlari avvalo yolg'iz gaplashib, undan u-bu narsani so'radi, keyin meni fermer va uning qizi bilan yuzlashtirdi, men gapirgan gaplarning hammasi haqiqatga, to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qila boshladi. U malikaning menga alohida g'amxo'rlik ko'rsatishini istadi. Glyumdalklichning ham saroyda qolishiga rozilik bildirdi, chunki har ikkalamizning o'rtamizdagi yaqinlikni darhol fahmladi.

Saroyda qiz uchun alohida uy ajratishdi; unga, faqat uni tarbiya qilish bilan shug'ullanadigan ikkita murabbiya, uni kiyintiradigan oqsoch xotin, boshqa xizmatlarni bajaradigan yana ikkita cho'ri tayinlashdi. Menga qarash esa butunlay Glyumdalklichning zimmasiga yuklandi.

Malika saroy duradgoriga menga yotoqxonaga vazifasini o'taydigan quti yasashni buyurdi. Duradgor qo'li gul usta edi: u uch hafta ichida mening ko'rsatmalarim bo'yicha uzunligi o'n olti fut, eni va balandligi o'n ikki fut keladigan, pastga tushiriladigan derazali, eshik va ikkita shkafli yog'och uy qurib berdi. U naq Angliyadagi yotoqxonalarning o'zi bo'ldi-qoldi. Uyning shipini ham ochib-yopiladigan qilib qurildi. Bu Glyumdalklichga har kuni xonani shamollatish va yig'ishtirish imkonini berardi.

Qirolning mebel qoplovchisi menga ajoyib karavot yasab berdi, enagam har kuni ertalab uni tashqariga olib chiqar, ko'rpa-yostiqlarni yig'ishtirar, kechqurun yana

o'z joyiga qo'yib qo'yardi. Mayda-chuyda bejirim bezaklar yasaydigan boshqa bir usta fil suyagiga o'xshagan narsadan orqa va yon suyanchigi bor ikkita kreslo, ikkita stol va pastakkina javon yasadi. Xonamning devorlari, shipi, poli kigiz bilan qoplandi. Bularning hammasi uyimni boshqa yoqqa ko'chirganda baxtsiz hodisa yuz bermasligi, faytonda ketayotganda silkinish quvvatini pasaytirishi uchun qilindi.

Men xonamga kalamush va sichqonlar kirmasligi uchun eshikka qulf yasab berishni iltimos qildim. Usta ancha uringandan keyin, bu yerda eng kichkina deb hisoblangan, ammo men Angliyadagi zodagonlarning biri darvozasida bir martagina ko'rgan ulkan qulfday keladigan jajjigina qulfcha yasadi. Glyumdalklich kalitni yo'qotib qo'yishidan cho'chib, uni hamisha o'zimning yonimda olib yurdim.

Malika, iloji boricha eng yupqa va nafis ipak matodan menga kostyum tikishga buyurdi. Lekin bu material ingliz adyolidan qalinroq chiqib qoldi, to ko'nikkunimga qadar kostyum meni ancha bezovta qildi. Kostyum ham eron, ham xitoy kiyimiga o'xshagan mahalliy modada tikildi: u ancha odmi va chiroyli edi.

Malika men bilan bo'lishini shunaqayam yoqtirib qoldiki, mensiz tomog'idan hech luqma o'tmasdi. Hazrati oliyalari stolga o'tirganda, uning chap tirsagi yoniga mening stol va stulimni qo'yishardi. Glyumdalklich esa yonginamda kursi ustida tik turardi: u ovqatlanishimga ko'maklashar, ovqatdan keyin stolimni yig'ishtirardi.

Mening tovoq, likop va boshqa idishlardan to'la-to'kis kumush servizim bor edi; malikaning idish-tovoqlariga taqqoslaganda, menikini bemalol Londonning o'yinchoq magazinlaridagi bolalarning qo'g'irchoq servizi deyish mumkin edi. Enagam servizimni kumush qutichaga joylab, cho'ntagida olib yurardi; tushlik ovqat paytida nima lozim bo'lsa, shuni stol ustiga qo'yar, tushlikdan keyin esa ularni yuvib, tozalardi.

Malikadan tashqari, uning stoli yonida ikkita qizi — yosh malikalar o'tirishib, ovqatlanishardi; ularning to'ng'ichi o'n olti yoshda, kenjasi esa o'n uch yoshu bir oylik edi. Hazrati oliyalari mol go'shti bo'laklarini idishimga solib qo'yardi; ularni o'zim kesib, maydalardim. Ovqat yeyishim hamda zig'irday ovqat ulushimni tomosha qilib o'tirish unga behad xursandchilik baxsh etardi. Malika og'ziga bir marta solgan go'sht parchasiga ingliz fermerlaridan bir to'dasi bemalol to'yadi.

Dastlabki paytlarda uning ovqatlanishidan jirkanib yurdim. U kattaligi bizning kurkamizday keladigan turna go'shtini suyagiyu qanotlari bilan birga yamlamay yutardi, uning bir tishlam noni bizning har biri o'n ikki penni keladigan ikkita katta dumaloq nonimizday kelardi. Bizning bochkamizday keladigan oltin qadahdagi vinoni esa bir ko'tarishda sipqorardi. Ovqat mahalida ishlatadigan pichog'i, chalg'i

o'rog'imizni to'g'rilasak, o'shandan ikki barobar uzun edi. Qoshiq va vilkalar ham shunga yarasha kattalikda edi. Bir kuni Glyumdalklich, ana shunday qoshiq va vilkalardan o'n-o'n ikkitasini ko'rsatish uchun meni oshxonaga olib bordi. Nazarimda men bunday vahimali manzarani hech qachon ko'rmaganman.

Har chorshanba kuni (bu yerda chorshanba bayram kuni hisoblanarkan) qirol, malika va ularning bolalari — hammalari jam bo'lib, oliy hazratlarining xonasi-da ovqatlanishardi. Bunday ziyofatlarda mening stol va stulimni oliy hazratlarining chap qo'l tomoniga qo'yishardi, chunki men u kishining arzandasiga aylanib qolgandim.

Podsho men bilan bajonu dil suhbat qurardi. U mendan Yevropa, mahalliy qonun-qoidalar, din, tanish-bilishlar, maorif va boshqa narsalar haqida so'radi, men esa qo'limdan kelganicha bu xususda batafsil ma'lumot berardim. Qirol aql-zakovatining ravshanligi, mushohadasining aniq va teranligi bilan ajralib turardi, men aytdan ma'lumotlar xususida o'ta oqilona, chuqur ma'noli e'tirozlarni ham bildirardi. Bir safar qirol o'zini tuta olmadi. Men o'zimning jonajon yurtim, savdo-sotig'imiz, quruqlik va dengizda olib boriladigan urushlar, diniy parokandalik va siyosiy partiyalar haqida to'lib-toshib uzoq gapirdim. Qirol diqqat bilan quloq soldi, nihoyat undagi tarbiyaga oid bid'at uyg'ondi. U meni o'ng qo'lga oldi, chap qo'li bilan silab-siypab, xandon tashlab kulganicha, mendan kimsan, vigmisan yo tori, deb so'radi. Keyin qirol shu yerda turgan, uzunligi ingliz kemasini «Monarx»ning grot machtasiday keladigan oq hasa ushlagan birinchi vaziriga murojaat qilib, men singari mayda hasharotlar unga taqlid qilib o'rganadigan bo'lsa, inson ulug'vorligi naqadar bachkanalashib ketishini aytdi. «Garov boylab aytamanki, — deb davom etdi u, — bu mavjudotlarning unvon va ordenlari ham bor, ular kiyim-kechaklari, safarlari bilan kerilishadi, uyacha hamda inlarni qurib olishib, uni uy va shahar deb aytishdan ham toyishmaydi; ular ham sevishadi, jang qilishadi, munozaralar olib borishadi, ig'vo tarqatishadi. xoinlik qilishadi».

U ana shu mavzuda ancha gapirdi, yuzlarim g'azablanganimdan juda qizarib ketdi. Ilm va san'at makoni bo'lgan, janglarda g'olib, Yevropadagi hakamlar sudida Fransiyaning ofati, saxovat va pokdomonlik, sharaf va haqiqat koni, jahonning faxri va orzu-umidi bo'lmish olijanob vatanim haqida aytilgan ana shu jirkanch gaplarni eshitib, alamdand o'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim.

Biroq durustroq mulohaza yuritib, o'zimni xafa bo'lgan deb hisoblash to'g'rimi, deb shubhalana boshladim, hozirgi ahvolimda esa xafa qilishga xafa qilish bilan javob berolmayman. Bu mamlakatda bir necha oy bo'lib, ularning tashqi

ko'rinishlari va suhbatlariga ko'nikib qoldim. Buning ustiga atrofdagi hamma narsa ularning ulkan bo'y-bastiga mos tushardi. Bora-bora ular menda dahshat tug'dirmaydigan bo'lib qoldi. Nazarimda o'zimni bayram kiyimlariga burkangan ingliz lordlari va xonimlari, ularning viqorli yurish-turishlari, ta'zim bajo keltirishlari va bema'ni safsatabozliklari orasida yurganday his eta boshladim. Gapning to'g'risi ba'zan qirol va uning amaldorlari menga qarab turib qanday kulishsa, men ham ulardan shunday kulgim kelib ketardi. Malika meni tik tosh oyna oldiga olib borib, unda ikkovimiz bor bo'yimiz bilan ko'ringanimizda ham o'zimni kulgidan tiya olmasdim. Ba'zan esa, go'yo ular ulkan odamlar emas, balki o'zim bir necha baravarga kichrayib ketgan bo'lsam kerak deb o'ylardim.

Boshqalardan ko'ra malikaning pakanasi meni ko'proq xo'rlar va azoblar edi. Uning bo'yi o'ttiz futga ham yetmasdi. Men bu yerda paydo bo'lmasimdan ilgari butun mamlakatda eng kichkina odam shu edi. O'zining bo'yidan bir necha barobar past jonivorni ko'rib, uning viqor bilan gerdayishiga hamda malika oldida men bilan uchrashganda surbetlarcha baqrayib turishiga ajablanmasa ham bo'ladi.

Stol ustida tik turib, saroy mulozimlari bilan suhbatlashayotganimda pakana ko'pincha bo'yim va tashqi ko'rinishimdan kulib, albatta, hazil bilan chandib olardi. Undan o'ch olish maqsadida uni o'zimning akam deb atardim yoki uni yakkama-yakka bahslashuvga undardim; xullas, saroy mahramlari orasidagi barcha hiyla-nayranglarni ishlatardim.

Bir kuni tushlik ovqat mahalida ana shu yovuz itvachcha mening qandaydir tanbehimga shunaqayam achchiqlandiki, asti qo'yavering, oliy hazratlari kreslosining oyog'idan tarmashib yuqoriga chiqdi va belimdan ushlab, qaymoq to'la kumush kosa ichiga tashlab yubordi. Qaymoqqa boshim bilan sho'ng'ib tushdim. Yaxshiyamki, suzishni durust bilaman. Bo'lmasam holimga voy edi. Bu payt Glyumdalklich xonaning narigi burchagida edi, malika o'zini shunchalik yo'qotib qo'yidiki, menga yordam ham berolmadi. Nihoyat, enagam chopib kelib, meni kosa ichidan oldi. Lekin men ikki pintcha qaymoqni yutishga ulgurgan edim. Meni o'ringa yotqizishdi. Baxtinga hamma ish bexatar bo'ldi. Ammo kiyim-kechagim ishdan chiqdi, uni tashlab yuborishga to'g'ri keldi. Pakanani rosa savalashdi, boz ustiga uni men cho'milib chiqqan kosadagi hamma qaymoqni ichishga majbur qilishdi. O'shandan boshlab pakana malikaning iltifotidan butunlay mahrum bo'ldi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, malika uni aslzoda xonimlardan biriga hadya qilib yubordi, u bilan boshqa diydor ko'rishmadim. Bunga benihoya suyundim. Bu yovuz maxluq yana nimalarni o'ylab chiqarardiykan, buni aytish qiyin.

Ilgari ham u menga qo'pol hazil qilgan edi. Kunlarning birida, tushlik ovqat paytida hazrati oliyalari suyakdagi ilikni qoqib oldida, uni yana tovoqqa qo'ydi. Glyumdalklich bufetga ketishi bilanoq pakana payt poylab turib, enagam mening ovqatlanishimni tik turib kuzatadigan kursi ustiga irg'ib chiqdi-da, meni ikkala qo'li bilan mahkam ushladi, oyoqlarimni qisib, yarim belimgacha iligi qoqilgan suyak ichiga tiqdi. Birovni yordamga chaqirishni o'zim uchun or deb bildim, bu bema'nigarchilik yuz berganidan keyin hech qancha vaqt o'tmay buni payqab qolishdi va meni asirlikdan ozod qilishdi. Chamasi, juda kulgili ahvolga tushib qolgan bo'lsam kerak. Saroyda issiq taomlarni kamdan-kam tortiladi. Shu vajdan suyak ichiga tiqilgan oyoqlarim kuymay qoldi, lekin paypoqlarim va shimim rasvo bo'ldi. Garchi malika ahvolimni ko'rib, o'zini kulgidan tiya olmagan bo'lsa-da, pakananing bu qiligi'dan qattiq achchiqlandi. Faqat mening homiyligim sharofati bilangina pakana saroydan quvilmay qoldi.

Malika ko'pincha qo'rqqoqligimdan kular va vatandoshlarning ham shunaqa qo'rqqoqmi, deb so'rardi. Malikaning kulishlariga mana bu voqea sabab bo'lgan edi. Yozda bu yerda pashsha juda ko'payib ketadi. Bu la'nati hasharotlarning har biri eng yirik turnaday keladi, ovqat mahalida ular menga hech tinchlik berishmas edi. Ular ko'pincha ovqatimga qo'nishar, o'zlarining jirkanch najaslari yo tuxumlarini qoldirishar, bularni men o'z ko'zim bilan bemalol ko'rar edim. Ba'zan esa pashshalar burnim yo peshonamga qo'nib, qon chiqquncha so'rishardi. Ulardan ko'ngil aynatuvchi hid kelib turardi. Ularning oyoqlarida, naturalistlarimiz aytgandek, hasharotlarning ship bo'ylab bemalol o'ynab yurishlariga imkon beradigan yopishqoq moddani izlarini ko'rdim. Bu yaramas maxluqlardan o'zimni himoya qilish ancha qiyin edi. Pakananing eng sevgan ermagi, maktab o'quvchilari qilganidek, hovuchiga bir necha pashshani qamab olish va ularni be-xosdan tumshug'im tagidan qo'yib yuborib, meni qo'rqitish edi. Pashshalardan o'zimni himoya qiladigan birdan-bir qurolim uzun xanjarim edi, pashshalar men tomon uchib kelganida ularni xanjar bilan bo'lib tashlayverardim. Chaqqon harakatim bilan hammaning zavqini keltirardim.

Havo ochiq kunlarda Glyumdalklich har kuni ertalab sof havodan nafas olishim uchun qutimni deraza tokchasiga qo'yardi. Shuni ta'kidlab o'tishim kerakki, men qutimni Angliyadagi qush qafaslari singari deraza tashqarisiga osib qo'yishlariga hech qachon rozi bo'lmadim. Bir kuni ertalab u qutini qo'yib, o'zi bir yoqqa ketgani hamon esimda. Men derazani ochib, stolga o'tirdim, shirin pirog bilan nonushta qila boshladim. To'satdan shira hidini sezgan yigirmatacha ari xona ichiga yopirilib



uchib kirdi. Xona ichi, birvarakayiga yigirmata volinka chalinganday, g'ong'illagan ovozga to'lib ketdi. Arilarning ba'zilari pirogimga tashlanib, uni uqalab tashlay boshlashdi, boshqalari esa qulog'imni qomatga keltiradigan darajada g'ong'illab charx urar, nayzalari bilan menga dahshat solardi. Men xanjarimni yalang'ochlab, ularga qarshi dadil jangga kirishdim. Ularning to'rttasini o'ldirdim, qolganlari uchib ketishdi, men darhol derazani yopib oldim. O'ldirilgan arilarning nayzasini sug'urdim. Ularning uzunligi naq bir yarim dyuym bo'lib, ignaday o'tkir edi. Har to'rttala nayzani ehtiyotlab saqladim va keyinroq Yevropada boshqa nodir narsalar bilan birga ularni odamlarga ko'rsatdim. Angliyaga qaytganimdan keyin nayzalarining uchtasini Greshem-kollejga berdim, bittasini o'zimdagi qoldim.

TO'RTINCHI BOB

MAMLAKAT TA'RIFI. MUALLIF TAKLIFI BO'YICHA GEOGRAFIYA XARITASIGA TUZATISH KIRITISH. QIROL SAROYI. POYTAXT HAQIDA BIR-IKKI OG'IZ SO'Z. MUALLIFNING QANDAY SAYOHAT QILGANI. BOSH IBODATXONA TA'RIFI.

Endi men mamlakatning, to'g'rirog'i, o'z safarlarim paytida ko'rishga muyassar bo'lgan qirollik poytaxti Lorbrulgrud atrofidagi ikki ming milya masofani egallagan qismining ta'rifini bayon etmoqchiman. Bu safarlar malikaning hamrohligida o'tdi, chunki u poytaxtdan uzoqroqqa hech qachon qadam ranjida qilmagan; hatto qirol sayohatga chiqqanda ham uni kuzatib borib, u bilan uzoqroqqa ketmagan, o'sha joyda to'xtab, oliy hazratlarining qaytishini kutgan. Bu hukmdor mamlakatining uzunligi olti ming milya, eni esa uch mingdan besh ming milyacha keladi. Shu vajdan, menimcha, geograflarimiz Yaponiya bilan Kaliforniya o'rtalig'ida okean bor*, degan taxminni aytishib katta xato qilishadi. Men hamisha, bu yerda ulkan Tatariya qit'asiga qarama-qarshi turgan yer bor, degan fikrda bo'lganman. Menimcha, ular o'z xaritalariga o'zgartish kiritishlari va unda mana shu ulkan mamlakatni ko'rsatishlari lozim. Men esa ularga bajonu dil ko'maklashaman.

Men ta'rif qilayotgan mamlakat shimoli-sharq tomonidan balandligi o'ttiz milya keladigan tog' tizmalari bilan qurshalgan yarim oroldan iborat. Bu tizmalardan mutlaqo o'tib bo'lmaydi, chunki uning hamma cho'qqilari yonib turgan

vulqonning o'zi. Tog'ning narigi tomonida kimlar yashashini va yashash mumkin yo mumkin emasligini eng mashhur olimlar ham bilmaydi. Mamlakatning boshqa uch tomoni okean bilan qurshalgan. Lekin mamlakatning hech qayerida port uchun qulay joy yo'q. Daryolar dengizga quyiladigan joylardagi sohillarda o'tkir qoyalar serob. Qoyalar oralig'ida hamisha to'lqinlar o'kirib quturadi. Xullas, dengiz sohiliga eng kichkina qayiqning yaqinlashuvi ham amri mahol. Ammo daryolar son-sanoqsiz kemalarga va baliqlarga boy. Ular dengiz balig'ini kamdan-kam tutishadi, chunki ularning kattaligi Yevropadagi baliqlarday keladi, shuning uchun ham bu baliqlar ularga kichiklik qiladi.

Tabiati hayvonlar va o'simliklarni shunchalik katta qilib yaratgani bilan, ularning faqat shu qit'ada yoyilishinagina ta'minlanganini kitobxon ko'rib turibdi. Bu hodisaning sababini izlab topishni faylasuflarimizga havola qilaman. Ba'zida dovullar ham kitlarni sohil qoyalariga uloqtirib turadi; bu yerliklar kit ovlab, ularning go'shtini jon-jon deb yeyishadi. Bir kuni bir odam yelkasida arang ko'tarib ketayotgan kitni ham ko'rdim, Ba'zida kitlarni antiqa narsadek savatga solishib, Lorbrulgrudga ham olib kelishadi. Bir kun qirol dasturxon ustida bahaybat bir kitni ko'rib qoldim; uni nodir taom sifatida tortishdi, lekin uning qirolga yoqqanini sezmadim. Nazarimda, kit avlodidan bo'lgan bu ulkan narsaga u jirkanib qaradi.

Mamlakat aholisi zich. Mamlakatda ellik bitta katta shahar, toshdan qurilgan yuzga yaqin qal'a, juda ko'p miqdorda qishloqlar bor. Shaharlari qanaqa bo'lar-kan degan kitobxonlarning qiziqishlariga Lorbrulgrud shahrini ta'riflab o'tish bilan kifoyalanaman. Shahar uni teng ikkiga bo'lib turgan daryoning ikki sohiliga joylashgan. Shaharda sakson mingdan ortiq uy va olti yuz mingga yaqin aholi bor. Uzunligi uch *glyunglyunga* (besh yuz ingliz milyasiga yaqin), eni esa ikki yarim *glyunglyunga*. Buni men qirolning farmoyishiga binoan tuzilgan, ellik kvadrat fut keladigan plandan o'lchab bildim. Planni men uchun ataylab yerga yoyishdi. Men kovushimni yechib, plan ichiga kirdim, uning diametri va aylanasini bir necha bor qadamlab o'lchadim. Shundan keyin masshtab bo'yicha shaharning aniq hajmini osonlikcha aniqlab oldim.

Qirol saroyi tartibsiz qurilgan, aylanasini yetti milya masofani egallagan binolar gruppasidan iborat. Ko'cha tomondan kiriladigan zallarning balandligi ikki yuz qirq fut, uzunligi va eni ham bo'yiga yarasha.

Men va enagam uchun kareta berilgandi. Glyumdalklich murabbiya kuzatuvida tez-tez shahar aylanganini yoki xarid qilgani borardi. Ana shu sayr-tomoshalarda

men ham birga bo'lardim, qutimda o'ttirardim. Iltimosimga ko'ra, qiz ko'pincha meni quti ichidan olar, ko'chalardan o'tib borayotganimizda uylar va odamlarni yaxshiroq ko'rishim uchun qo'lida ushlab ketardi. Nazarimda, karetamiz Vestminster Gollday¹⁴ kelar, lekin unchalik baland emas edi. Bir kuni murabbiya kareteni do'kon oldida to'xtatishni buyurdi. Bundan foydalangan gadoylar karetaning ikki tomonini qurshab olishdi. Bu o'rganmagan yevropaliklarga xos ko'zim uchun dahshatli manzara edi. Gadoylar orasida ko'kragiga yara toshgan bir ayol ham bo'lib yaralari ko'zi shu qadar katta ediki, uning ichiga g'orga kirganday bemalol sig'ish va yashirinish mumkin edi. Boshqa bir gadoyning kattaligi beshta jun toyday keladigan buqog'i bor edi. Yana biri balandligi yigirma fut keladigan qo'ltiq tayoqqa suyanib turardi. Biroq eng jirkantiradigan narsa ularda o'rmalab yurgan bitlar edi. Bu bitlarni o'z ko'zim bilan Yevropa bitlarini mikroskopda ko'rganimizdan ham ko'ra yaxshiroq ko'rdim. Hatto bechoralarning terilarini cho'chqalarday kovlashtirayotgan tumshuqlarini ham ravshan ko'rdim. Bunaqa antiqa jonivorlarni umrim bino bo'lib endi ko'rishim edi. Garchi ko'nglimni juda aynitsa ham, ulardan birini zo'r hafsala bilan yorib ko'rgim keldi. Biroq menda jarrohlik asboblari yo'q edi: baxtga qarshi, ular kemada qolgandi.

Men istiqomat qilayotgan katta quti safar uchun ancha noqulay edi, u Glyumdalklichning tizzasiga arang joylashar, karetaning ancha joyini egallardi. Shuning uchun ham malika oldingisidan kichikroq, uzunligi o'n ikki fut keladigan maxsus safar quti yasashga buyurtma berdi. Keyingi — ikkinchi quti mening ko'rsatmam bo'yicha, oldingi usta tomonidan yasaldi. U kvadrat shaklida bo'lib, uch tomondagi devorlariga bittadan deraza qo'yilgandi; safar vaqtidagi har xil ko'ngilsiz hodisalardan saqlanish uchun derazalarga ichkaridan temir sim tutilgandi. To'rtinchi tomonga esa ikkita mustahkam halqa o'rnatilgandi; bordi-yu, otda sayr qilmoqchi bo'lsam, ot mingan kishi halqalardan qayish o'tkazib, qutini beliga bog'lab olardi. Bunaqa sayrlarda tez-tez bo'lib turardim. Ba'zan qirol bilan malikani safarga kuzatib qo'yardim, ba'zida esa xiyobon va bog'larni aylanib kelgani borardim, hatto saroy xonimlari va vazirlar huzuriga ham tashrif buyurardim. Shuni ta'kidlash lozimki, qisqa vaqt ichida eng oliy martabali amaldorlar bilan tanishib oldim. Ularning hammasi menga zo'r izzat-ehtirom bilan munosabatda bo'lishardi, albat, bu ehtiromlar mening shaxsiy fazilatim uchun emas, balki, oliy hazratlarining iltifotiga musharraf bo'lganim uchun ham ko'rsatilardi.

14 Vestminster-Goll — oliy sud majlis o'tkazadigan Londondagi bino.

Agar uzoq sayohatlarda kareta yurish meni toliqtirib qo'ysa, ot minib ketayotgan mulozim qutimni beliga qayish bilan bog'lab olar va uni old tomonidagi yostiqlik ustiga qo'yardi. Shunday qilib, derazadan tashqarini tomosha qilib borish imkoniga ega bo'lardim. Qutida mening safarbob ko'rpa-yostiqlarim, ashyolarim — shipga ilingan belanchagim, polga mahkamlab qo'yilgan stol va stulim bor edi, ot yoki kareta harakat qilayotganda ular qimirlamasdi. Mendek keksa dengizchini yo'ldagi silkitishlar — ba'zan bular juda kuchli bo'ladi — unchalik qattiq bezovta qilmasdi.

Qachon menda shaharni ko'rish istagi tug'ilsa, kabinetimga kirardim, Glyumdalklich uyimni tizzasiga qo'yar, o'zi ochiq portshezga o'ttirar va bizni, shu mamlakat urf-odatiga binoan, to'rt kishi malikaning ikki kamer-malayi kuzatuvida ko'tarib ketishardi. Mening daragimni eshitgan xaloyiq hamisha portshez atrofida kuymalanishardi. Shunda qizcha bizni ko'tarib borayotganlarga to'xtashni buyurar va qiziqsinuvchilar yaxshiroq ko'rishi uchun meni qo'liga olardi.

Men bosh ibodatxonani, ayniqsa, qirollikda eng baland hisoblangan uning ustidagi minorani borib ko'rgim keldi. Kunlarning birida enagam bilan birga eng yuqoriga ko'tarildik. Lekin shuni ochiq e'tirof etishim kerakki, uyga hafsalam pir bo'lib qaytdim. Minora poydevoridan to uchigacha arang uch ming fut keldi. Bordi-yu, Yevropadagi va shu yerdagi minoralarni taqqoslaydigan bo'lsak, uning balandligiga ajablanmasa ham bo'ladi. Kamtarona qilib aytganda, bu minora Solsberidagi sobor qo'ng'iroqxonasidan ham past edi* — albatta, bu yerda u yoki bu binoning balandligi quruvchilar bo'yiga mutanosib ekanligini nazarda tutiladi. Biroq men o'zim o'ta minnatdor bo'lgan millat iste'dodini kamsitishni istamayman. Shuning uchun ham quvonch bilan ayta olamanki, bu minoraning pastkligini uning g'oyat chiroyliligi va mustahkamligi yuvib ketadi. Uning devorlari taroshlangan toshlardan urilgan, qalinligi yuz futga yetadi. Devorlarda tokchalar bor, tokchalarga esa xudolar va imperatorlarning haykallari qo'yilgan. Minora oldida uyulgan axlat ichidan haykallardan birining sinib tushgan jimjilog'ini topib oldim. Uni o'lchab ko'rsak uzunligi to'rt fut-u bir dyuym ekan. Glyumdalklich jimjiloqni ro'molchasiga o'rab, cho'ntagiga solib qo'ydi. Boshqa bolalar singari u ham har xil mayda-chuyda bezaklarni yaxshi ko'rar va havas bilan to'plar edi.

Qirol oshxonasi — gumbazining balandligi olti yuz futcha keladigan bahaybat bino edi. Katta o'chog'ining uzunligi avliyo Pavel gumbazi* enidan

o'n qadam kam xolos, buni Angliyaga qaytayotganimda ataylab o'lehab ko'rdim. Biroq men rashper¹⁵ larni, bahaybat ko'za va qozonlari, boshqa ulkan oshxona ashylolarini ta'rif-tavsif qilsam hech kim menga ishonmasa kerak, deb o'ylayman. Talabchan tanqidchilar meni boshqa sayohatchilarday ko'p narsalari ko'pirtiryapti, deyishlari mumkin. Shuning bilan birga, ko'pirtirishdan qochib, boshqa bir mushkul ahvolga tushib qolmasam, deb qo'rqaman. Ehtimol, bu yozayotgan kitobim qachonlardir brobdingneg (Brobdingneg shu qirollikiing nomi) tiliga tarjima qilinar, men qirol va uning fuqarolari o'z mamlakatlari haqida yolg'on va kamaytirib ko'rsatilgan tasavvurlar berganim uchun mendan xafa bo'lishlarini aslo istamayman.

Oliy hazratlari o'z otxonalarida olti yuzdan ortiq otni kamdan-kam ushlab tutradi. Otlarning bo'yi ellik to'rt futdan oltmish futcha. Tantanali yurish paytlarida qirolni olti yuz chavandozdan iborat gvardiya kuzatib boradi. Ancha vaqtgacha, mana shu tantanali yurishdan ham ulug'vor va hashamatli narsa bo'lmasa kerak, deb yurdim. Biroq qirol armiyasini to'liq jangovar holda ko'rganimda, oldingi fikrlarim puchligiga ishonch hosil qildim.

BESHINCHI BOB

MUALLIFNING TURLI SARGUZASHTLARI. MUALLIF O'ZINING DENGIZDA SUZISH BO'YICHA MAHORATINI NAMOYISH QILADI.

Agar bo'yim tufayli turli kulgili ahvolga tushmasam va alam qiladigan sarguzashtlarni boshimdan kechirmasam, o'ta baxtiyor hayot kechirgan bo'lar edim. Ana shu sarguzashtlardan ba'zilarini kitobxonga hikoya qilishni o'zimga ep ko'raman.

Glyumdalklich safar qutisida meni tez-tez boqqa olib chiqardi. Ba'zan u meni qutidan olib, qo'lida ushlab turar yoki yerga qo'yib yuborar edi. Hali pakana saroyda yashayotgan paytlarda sayrga chiqqanimizda, u orqamizdan izma-iz borardi. Enagam meni pastakkina olma daraxti oldida yerga qo'ydi. Shu yerda pakana ham to'xtadi. Buni payqadim-u, unga daraxt bilan uning bo'yi teng ekanligini pi-

¹⁵ Rashper — go'sht pishiriladigan otashdon.

sanda qilib, hazil gap otishdan o'zimni tiya olmadim. Yovuz masxaraboz mendan o'ch olish maqsadida poylab turib, olma daraxti tagidan o'tib ketayotganimda uni silkitib yubordi. Har biri bochkaday keladigan o'nlarcha olma ustimga to'kildi; olmalardan biri yelkamga kelib tushdi va meni yerga qulatdi. Yerga chalpak bo'lib yotib qoldim. Yaxshiyamki, hech qanday lat yemadim. Pakananing bu sho'xligi jazosiz qoldi. Men birinchi bo'lib uning jig'iga tegdim, shuning uchun ham uni avf etishlarini iltimos qildim.

Boshqa bir safar Glyumdalklich murabbiyasi bilan qayoqqadir ketdi, meni esa bog'dagi o'tloqda qoldirdi. Shunda to'satdan qattiq do'l yog'ib qoldi. Men o'sha zahoti yerga yiqilib tushdim, chunki har biri tuxumday keladigan do'l meni savalardi. Men emaklab yurib, arang zira ekilgan egatga yetib oldim va boshpana topdim. Lekin, do'lda shunaqayam dabdalam chiqqan ediki, o'n kungacha ko'ropa-yostiqliq qilib yotdim, bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Axir, bu yerdagi har bir dona do'l Yevropadagiga qaraganda bir ming sakkiz yuz marta katta-da. Buni o'zim o'tkazgan tajrabaga asoslanib tasdiqlayman, chunki qiziqsinib do'l donalaridan birini tarozida tortib ko'rganman.

Xuddi shu bog'da bundan ham dahshatliroq sarguzasht bo'lib o'tdi. Ko'pincha, o'z o'ylarim va xotiralarimga bemalol berilib, yolg'iz yurishni yoqitrib qoldim. Shunday paytlarda enagamdan meni bog'ning tinch, bexatar joyida yolg'iz qoldirishini iltimos qilardim. Bir kuni Glyumdalklich meni boqqa olib chiqdi, menga to'liq erkinlik berib, murabbiyasi va boshqa tanish xonimlar bilan bog'ning ovozim yetmaydigan boshqa bir burchagiga qarab ketdi. U yo'qligida bog'bonlardan biriga qarashli oq spanel¹⁶ to'satdan boqqa yugurib kirdi va men yotgan joy yaqinidan o'tib qoldi. Hidimni bilib, it men tomon yaqinlashdi, meni tishlab, egasining oldiga olib bordi, dumini likillatib, avaylab yerga qo'ydi. Yaxshiki, it o'rgatilgan bo'lib, meni juda ehtiyotlab olib ketdi, etimga tishi o'tish u yoqda tursin, hatto kiyimlarimni ham yirtmadi. Bechora bog'bon meni yaxshi tanirdi, ahvolni ko'rib, qo'rquvdan o'takasi yorilib ketdi. U meni avaylab qo'lga oldi, mendan hol-ahvol so'radi. Biroq, kutilmagan hodisadan nafasim ichimga tushib ketganidan, bir og'iz ham gapirolmadim. Oradan bir necha daqiqa o'tgach, o'zimga keldim, bog'bon meni sog'-salomat enagamga eltib berdi. Enagam bo'lsa haligi joyga qaytib kelib, zo'r tashvishda meni axtarayotgan va ha deb chaqirayotgan ekan. U it boqqani uchun bog'bonni rosa koyidi. Lekin bu voqea

16 Spanel — ovchi it zotlaridan biri.

haqida hech kimga indamadik. Glyumdalklich malikaning g'azabidan qo'rqdi, men bo'lsa, ochig'ini aysam, saroyda ancha shov-shuvga sababchi bo'ladigan hodisani yoygim kelmadi.

Ana shu voqeadan keyin Glyumdalklich meni sayr paytlarida bir lahza ham yolg'iz qoldirmaslikka qattiq ahd qildi. Men, u shunday qilsa kerak, deb anchadan beri hadiksirab yurardim, shu vajdan u yo'qligida yuz bergan ba'zi arzimas sarguzashtlarimni undan yashirardim. Bir kuni bog' ustida uchib yurgan kalxat menga tashlanib qoldi. U meni changallaganicha olib ketishi mumkin edi. Biroq xanjarimni dadil sug'urib, o'zimni mudofaa qilgancha, quyuq o'sgan daraxtlar ostiga kirib oldim. Boshqa bir safar ko'rsichqon uygan tuproq ustiga chiqib, uning iniga yiqilib tushdim. Kiyimimning nega bir holatda ekanligini uqtirish uchun, hozir takrorlashga arzimaydigan bir bahonani aytdim. Bir kuni bog' yo'l-kasida sho'rlik Angliyamni o'ylab ketayotib, shilliq qurt chig'anog'iga qoqilib ketdim va o'ng oyog'imni sindirib oldim.

Bog' ichida yolg'iz sayr qilib yurgan paytlarimda qanoat hosil qildimmi yo tahqirlandimmi — buni aytolmayman. Hatto eng mitti qushchalar ham meni ko'rganda qo'rqish nimaligini bilishmasdi. Ular mendan bir yardcha narida bemalol o'ynoqlab, yaqinlarida hech kim yo'qday, qurt-qumursqalarni terib yeb yurishaverardi. Bir safar sayroqi o'rmon qushchasi judayam insofsizlik qildi. Glyumdalklich nonushta o'rnida qo'limga bergan pirogni tortib oldi. Birorta qushni ushlamoqchi bo'lsam, ular dadil menga o'girilishar va barmoqlarimni cho'qishga hozirlanishar edi, keyin esa hech narsa bo'lmaganday qurt-qumursqa terib, yeyishda davom etishardi. Biroq kunlarning birida qo'limga katta tayoqni oldim-da, bor kuchim bilan tog' chumchuqqa qarab otdim. Mo'ljal yaxshi olingandi, qush o'sha zahoti til tortmay o'ldi. Shunda ikkala qo'lim bilan uning bo'ynidan ushladim-da, tantanavor suratda enagam tomon chopdim. Ammo qush o'lmagan, balki hushidan ketgan ekan, u o'ziga kelib, qo'limda jon-jahdi bilan tipirchilay boshladi. U boshim va tanamga qanotlari bilan shunaqayam qattiq urdiki, uni qo'limdan chiqarib yuborishimga sal qoldi. Bir xizmatkor yordamga yetib keldi va qushning bo'ynini qayirdi. Ertasi kuni malikaning buyrug'i bilan ana shu tog' chumchuqni menga tushlikka pishirib berishdi. Agar xotiram xato qilmasa, u bizing oqqushdan kattaroq edi.

Malika, vatanini juda sog'inib qolmadimikan, degan o'yda tashvish tortib, har bir qulay paytda biror ermak topib, meni yupatardi. Dengiz sayohatlari

haqidagi hikoyalarni eshitgan malika bir kuni mendan yelkan va eshkaklar bilan muomala qilishni bilish-bilmasligimni, eshkak eshish salomatligimga ziyon keltirish-keltirmasligini so'rab qoldi. Men yelkanlarni boplab boshqara olaman, yaxshi eshkak eshaman, deb javob qaytardim. Yana, eng xatarli daqiqalarda kemada kibrlanish yaramaydi, garchi kasbim do'xtir bo'lsa-da, oddiy matros burchini ham o'taganman, dedim. Lekin malikaning istagi qanday bajarilar ekan, deb juda hayratda edim. Bu mamlakatdagi eng kichik qayiq ham bizning birinchi darajali kemamizdan kattaroq. Bunaqa qayiqni boshqarish men uchun mushkul, bu yerdagi har qanday daryo uni oqim kuchi bilan oqizib ketadi. Biroq, hazrati oliyalari, mening rahbarligimda saroy duradgori menbop qayiq yasab berishi mumkinligini, qayiq suzishi uchun esa alohida hovuz qurdirajagini aytdi. Qo'li gul duradgor, mening ko'rsatmalarimga binoan, o'n kun ichida barcha asbob-anjomlari bilan mitti qayiq yasadi. Bu qayiqqa yevropaliklardan sakkiz kishi bemalol sig'ishi mumkin edi. Qayiq bitgach, malikaning sevinchiga chek bo'lmadi, o'sha zahotiyiq qayiqni qirolga ko'rsatgani olib ketdi. Qirol sinash uchun uni tog'ora to'la suvga tushirdi. Biroq tog'ora sal torlik qildi, eshkak eshishim qiyin bo'ldi. Lekin malikaning miyasida boshqacha o'y bor edi. U duradgorga uzunligi uch yuz, eni ellik va chuqurligi sakkiz fut keladigan tog'ora yasashni buyurdi. Undan suv sizib chiqmasligi uchun tubiga yaxshilab saqich surtishdi va uni saroydagi xonalardan birining devori yoniga qo'yishdi. Tog'oraning tubida turib qolgan suvni oqizib yuborish uchun jo'mrak ham qo'yildi, ikki xizmatkor yarim soat ichida uni yana to'ldirishi mumkin edi. Ana shu tog'ora ichida ham o'zimni ovutib, ham qobiliyatim va ephilligimga tasanno o'qiyotgan malika hamda boshqa xonimlarni xushnud etib suzib yuraverdim. Ba'zan yelkanni ko'tarardim, xonimlar esa yelpig'ichlarini yelpib, shamol hosil qilishardi. Ular charchab qolishganda yelkanlarni mahramlar puflashardi, men haqiqiy dengizchilarday shamolga qarshi yurardim yoki yon shamol bilan harakat qilardim. Sayr-tomoshadan keyin Glyumdalklich qayiqni xonasiga olib ketar va quritish uchun uni qoziqqa ilib qo'yardi.

Ana shunday mashqlardan birida hayotimni tahlika ostida qoldirgan bir hodisa yuz berdi. Mahram qayiqni tog'oraga tushirganda, Glyumdalklichning murabbiyasi meni qayiqqa o'tqazish uchun nazokat bilan avaylab ko'tardi. Lekin men uning barmoqlaridan negadir sirg'anib ketdim; qirq fut balandlikdan yerga shaloplab tushardim-u, ammo omadim yurishib, tirik qoldim.

Tepadan qulayotib, ana shu xonimning korsajiga qadalgan to'g'nag'ichga ilinib qoldim. To'g'nag'ichning uchi ko'yilagim va shimimning kamarini teshib o'tdi, men osmonda osilib qoldim. Shu zahotiyiq Glyumdalklich menga yordamga yetib keldi.

Boshqa bir safar, har uch kunda tog'ora suvini almashtirib turadigan xizmatkor paqirdagi suv bilan kattagina bir baqa tog'oraga tushib qolganini sez-mabdi. Baqa tog'oraning tubiga yashirinib olibdi. Men qayig'im bilan suvning o'rtasiga borishim bilanoq u qayiqqa tarmashib chiqdi, qayiq bir tomonga qiyshayib ketdi.

Qayiq to'ntarilib ketmasligi uchun baqaning qarshi tomonidagi bortga og'irligimni soldim. Baqa boshim uzra u skameykadan bu skameykaga sakrab, yuz va kiyimlarimga sassiq shilliq zarralarni sachrata boshladi. U ko'zimga dunyodagi eng badbashara maxluqqa o'xshab ko'rinib ketdi. Uni bir yoqlik qilishni o'zimga qo'yib berishni Glyumdalklichdan iltimos qildim. Uni eshakk bilan bir necha marta yaxshigina tushirgan edim, qayiqdan quladi.

Qirolikda eng dahshatli sarguzashtlarimdan biri qiroi oshxonasiga qarashli maymun bilan o'tgan sarguzasht bo'ldi.

Glyumdalklich meni o'z xonasida qoldirib, mehmonga yo boshqa ish bilan biror yoqqa ketgandi. Kun nihoyatda issiq edi, katta uy-qutimning eshik va derazalari kabi xonaning ham derazalari ochiq edi. Men o'yga tolганиmcha stolda o'tirardim, kimdir deraza orqali Glyumdalklichning xonasiga shipillaganicha kirib olganini payqab qoldim. Juda qo'rqib ketdim, lekin derazam orqali qarashga jur'at etdim.

Maymunga ko'zim tushdi: u xona ichida irg'ishlab, sho'xlik qilib aylanib yurardi. U qutim oldiga keldi-da, uning eshik va derazalarini zo'r qiziqish bilan ko'zdan kechira boshladi. Bu qo'rqinchlik maxluqqa ko'zim tushgach, qo'rqanimdan xonamning eng uzoq burchagiga qisilib oldim. O'zimni shu qadar yo'qotib qo'yibmanki, hatto karavot ostiga yashirinib olish ham xayolimga kel-mabdi. Ha demay maymun meni payqab qoldi. U aftini bujmaptirib, xur-xur ovoz chiqarib, qo'lini eshikka tiqdi va meni ushlab olmoqchi bo'ldi. Men undan qutulish uchun u burchakdan-bu burchakka behuda qochardim. U pishiq ipak matodan tikilgan kaftanimdan darrovgina ushlab, meni tashqariga oldi. U o'ng qo'li bilan enaga singari meni bag'riga bosdi. O'z yurtimda maymunlar mushuklarni xuddi shunday alfozda bag'riga bosganini ko'rganman. Men qarshilik ko'rsata boshlagan edim, shunaqayam mahkam qisdiki, itoat etish eng

oqilona ish ekanligiga fahmim yetib qoldi. U meni maymun bolasi deb o'yladi shekilli, shu vajdan bo'sh qo'li bilan yuzlarimni silay boshladi. Eshikning sharaqlab ochilishi bu mehribonchilikka barham berdi. Maymun o'zini darhol derazaga urdi, u yerdan tarnovga tarmashib, qo'shni bino tomiga chiqib oldi. Maymun meni olib ketayotgan paytda Glyumdalklichning baqirganini eshitib qoldim. Bechora qizning aqlan ozishiga sal qoldi; butun saroy oyoqqa turdi, xizmatkorlar narvon olib kelish uchun chopib ketishdi. Bu yerga har tomondan yuzlarcha odamlar kelishdi, tomning qirg'og'iga o'tirib olgan maymunni tomosha qila boshlashdi. Maymun bir qo'lida xuddi bolani ushlaganday, meni ushlab turar, bo'sh qo'li bilan qoplardan turli taomlarni olib og'zimga tiqardi. Bordiyu, ovqatni yemasam, u meni boplab tarsakilardi. Pastdagilar esa buni ko'rib, ichaklari uzilgunday kulishardi. Menimcha, ularning kulganiga xafa bo'lish o'rinsiz. Bu tomosha mendan boshqa hammani chindan ham kuldiradigan tomosha edi. Olomon ichidan ba'zilar maymunni tomdan haydash maqsadida unga tosh ota boshlashdi. Biroq saroy polisiyasi toshlardan birortasi menga tegib ketishidan hadiksirab, bunga yo'l qo'ymadi.

Tomga narvonlar qo'yildi, bir necha odam yuqoriga chiqa boshladi. Maymun o'zining qurshab olinganini ko'rib, meni tom chetiga ziynat uchun qo'yilgan otchaga mindirib, o'zi juftakni rostlab qoldi. Men har lahzada o'zimni shamol uchi-rib ketishini yoki otcha ustidan o'mbaloq oshib qulab tushishimni kutib, yerdan uch yuz yard tepada muallaq turib qoldim.

Baxtimga enagamning qo'rqmas bir xizmatkori tomga chiqdi, meni shimin-ning cho'ntagiga solib, eson-omon pastga olib tushdi.

Maymun og'zimga tiqib yuborgan har xil harom-xarish narsalardan o'lar holatga keldim. Enagam igna bilan og'zimni tozalab tashladi, qayd qilib tashlaganimdan keyingina o'zimni ancha yengil his qildim. Ammo jirkanch hayvon meni shunchalik ezgilagan ediki, o'n besh kungacha ko'rpa-yostiq qilib kasal bo'lib yotdim.

Qiro, malika va saroy ahli har kuni salomatligimdan boxabar bo'lib turishdi. Kasal yotgan kunlarim oliy hazratlari meni bir necha bor ko'rib ketdi. Maymunni o'ldirishdi, saroyda ana shunday hayvonlarni boqishni man etib farmoyish berildi. Tuzalishim bilanoq qiro, huzuriga kelib, zo'r iltifot ko'rsatganligi uchun minnatdorchilik bildirdim. Oliy hazratlari boshimga tushgan sarguzashtni pesh qilib, ko'p hazillashdi. U mendan maymunning qo'lga tushib qolganimda miyamga qanday fikrlar kelganini, maymunning

taomlari va mehmon qilishi yoqqan-yoqmaganligini, tom-dagi sof havо ishtahamga qanday ta'sir qilganini so'radi. Oliy hazratlari, bordi-yu, o'z yurtimda ham boshimga shunday kulfat tushsa qanday yo'l tutishimni ham so'radi. Oliy hazratlarining bu savollariga: maymunlar Yevropada bo'lmaydi, ularni antiqa narsa sifatida boshqa mamlakatlardan olib kelinadi, ular juda mayda bo'lishadi, mabodo ular menga hujum qilguday bo'lishsa, bir to'dasini ham saranjom qilishga qurbim yetadi, deb javob berdim. Agar dahshatga tushmaganimda va o'zimni yo'qotmaganimda yaqinda menga hujum qilgan maxluqni (maymun fildek kelardi) ham bir yoqlik qilardim. Bu dahshatli narsa qo'lini xonam ichiga suqqanda xanjar bilan shunday yaralar edimki, u tezroq qochib qolganiga xursand bo'lardi. Men ana shu gaplarni aytib bo'lgach, harbiylar-day g'oz turdim va mardlik ko'rsatishiga shubha tug'dirmaydigan kishi holatiga kirib, xanjarimning sopidan tutdim. Bu gaplarim saroydagilarning gurros kulgusiga sabab bo'ldi. Oliy hazratlarini chuqur hurmatlashsa-da, ular o'zlarini tuta olmadilar. Bu hol menda, o'zimizdan ancha yuqori turgan odamlar oldida hurmat orttirishga bo'lgan hamma intilishlar behuda, degan g'amgin fikrni tug'dirdi. Biroq, Angliyaga qaytganimdan keyin, xulq-atvori ulkanlar mamlakatida yurgan paytimdagi fe'l-atvorimga o'xshab ketadigan odamlarni ko'plab uchratdim. Hech qanday xizmat ko'rsatmagan, na aqli va na ravshan fikri bo'lmagan qandaydir bachkana, muttaham odamlar burnilarini ko'tarishadi, o'zlarini davlatning ulug' odamlari bilan tenglashtiradilar.

Har kuni saroydagilarni kuldirib turdim. Glyumdalklich menga juda ham suyanib qolishiga qaramay, oliy hazratlarini kuldiradigan birorta qiliq qiladigan bo'lsam darhol bu haqda malikaga ma'lum qilardi. Bir kuni qizchanning tobi qochib qoldi, murabbiyasi uni saroydan o'ttiz milya naridagi joyga sof havodan nafas olishi uchun olib ketdi. Kareta dalani kesib o'tgan so'qmoqda to'xtadi. Glyumdalklich safar uychamni yerga qo'yib, sayr qilgani ketdi. Yo'l o'rtasida sigir tezagi turgan ekan, men o'zimning epchil va chaqqonligimni namoyish qilish uchun undan irg'ib o'tmoqchi bo'ldim. Yugurib kelib sakradim, ammo baxtga qarshi bu qisqa sakrash bo'lganidan tezakning o'rtasiga tushib, tizzam-gacha botib qoldim. U yerdan arang chiqib oldim. Malaylardan biri ro'molchasi bilan kiyimlarimni yaxshilab tozaladi, Glyumdalklich to uyga qaytgunimizga qadar meni uychamdan chiqarmadi.

Malika darhol bu hodisadan xabardor qilindi, malaylar esa saroy bo'yicha gap tarqatishdi, bir necha kungacha hammaga kulgi bo'lib yurdim.

OLTINCHI BOB

QIROL VA MALIKANING KO'NGLINI XUSHNUD ETISH UCHUN MUALLIFNING TURLI ERMAKLARNI O'YLAB TOPISHI. U O'ZINING MUSIQA CHALISHDAGI QOBILİYATINI NAMOIYISH ETADI. QIROL YEVROPANING IJTIMOYIY TUZILISHI BILAN QIZIQADI. MUALLIFNING AYTGANLARIGA QIROLNING E'TIROZLARI.

Qirolning o'ziga oro berishini va sartarosh uning soch-soqollarini qanday qirishini haftada bir yoki ikki marta tomosha qilardim. Avvaliga bu menda katta qo'rquv tug'dirdi, chunki uning ustarasining uzunligi bizning o'roqlarga qaraganda ikki marta katta edi. Bir kuni sartaroshdan sovun ko'piklarini to'plab berishni iltimos qildim, ko'pik ichidan qirq-ellikta eng yo'g'on mo'ylarni tortib oldim. Keyin yuqqagina payraxa topdim, Glyumdalklichdan olgan eng ingichka igna bilan uning bir necha joyidan teshdim. Mo'y tolalarining uchlarini qalamtaroshim bilan qirqib, taroshlab, ingichkalashtirib haligi teshiklarga o'rnashtirdim. Qarabsizki, ajoyib, pishiq-puxta taroq tayyor bo'ldi. Bu kashfiyotim ish berib qoldi, chunki tarog'imning tishlari to'kilib ketgandi, bu yerdagi ustalarning qo'lidan esa taroq yasab berish kelmasdi.

Shu munosabat bilan miyamga ajoyib bir fikr keldi. Uni ro'yobga chiqarish uchun ko'p mehnat va vaqtim ketdi. Men malikaning oqsochidan oliy hazratlarining mo'ylarini saqlab qo'yishni iltimos qildim. Bora-bora menda anchagina mo'y to'planib qoldi. Shunda mening har qanday mayda-chuyda buyurtmalarimni so'zsiz bajarish uchun tayinlangan duradgor og'aynimdan yotoqxonamda turgan stullarimday keladigan ikkita stul yasab, suyanchig'i hamda o'tiradigan joylaridan ingichka bigiz bilan teshikchalar ochib berishini iltimos qildim. Ana shu teshikchalardan eng yo'g'on mo'ylarni o'tkazdim, qamish stullarning yasagandagi singari ularni eshdim. Ishni tugallab, stullarni Malikaga hadya qildim. Malika ularni buduari ustiga qo'ydi va uni hammaga nodir narsa sifatida ko'rsata boshladi. Malika stullardan birida o'tirishimni iltimos qilib qoldi, biroq men bu iltimosni qat'iy rad etdim. O'lsam o'lamanki, ammo bir vaqtlar oliy hazratlarining muborak boshining ko'rk-chiroyi bo'lib turgan qimmatbaho sochlarga o'tirmayman, dedim. Xuddi ana shu sochlardan uzunligi besh futga yaqin va hazrati oliyalarining venzeli oltin harflar bilan tikilgan kichkina, chiroylikkina hamyon ham to'qidim. Malikaning roziligi bilan uni Glyumdalklichga

sovg'a qildim. Rostini aytsam, hamyon xo'ja ko'rsinga yasalgan edi. Uni ishlatib bo'lmasdi, chunki u tangalarning og'irligiga chidash berolmasdi. Shuning uchun Glyumdalklich uning ichiga faqat qizchalarga yoqadigan mayda-chuyda bezaklarnigina solardi.

Qirol musiqani yaxshi ko'rardi, saroyda tez-tez konsertlar ham bo'lib turardi. Quti uychamni konsert zaliga keltirib, stol ustiga qo'yishardi. Biroq orkestr shunaqayam quloqni qomatga keltirib gumburlardiki, kuypi arang farqlab olardim. Men shunga aminmanki, bordi-yu, Angliya armiyasidagi hamma nog'orachilar va karnaychilar baravariga muzika chalganda ham bunchalik shovqin hosil qila olmasdilar. Konsert mahalida ijrochilardan ancha nariga joylashishga intilardim, uyimning deraza va eshiklarini yopib, deraza pardalarini tushirardim. Ana shundagina ularning musiqasidan bir oz bahra olardim.

Yoshligimda spinet chalishni o'rgangandim. Xuddi shunga o'xshash musiqa asbobi Glyumdalklichning xonasida ham turardi.

Haftada ikki marta, musiqa o'rgatish uchun, uning huzuriga o'qituvchi kelardi. Bu musiqa asbobi xuddi spinetni chalgandek chalinadi, shuning uchun ham uni spinet deb nomlayapman. Miyamga ana shu musiqa asbobida ingliz kuylaridan chalib, qirol va malikani xursand qilish fikri keldi. Biroq bu juda og'ir va qiyin bo'ldi. Musiqa asbobining uzunligi oltmish fut, har bir klavishining eni bir fut kelardi. Har ikkala qo'limni yoyganimda ham arang besh-ta klavishini qamrab olardim, klavishni bosish uchun esa uni jon-jahdim bilan mushtlashim kerak edi, Bunday sharoitda nihoyatda charchashdan boshqa hech qanday natijaga erisha olmasligim ravshan. Shunga aql yugurtirib, uchlari yo'g'on ikkita tayoq tayyorladim; klavishlarga tekkanda chiqadigai tayoq ovozi yo'qotish va klavishlarga ziyon yetkazmaslik maqsadida ularning uchlariiga sichqon terisini qopladim. Spinete oldiga klaviaturadan to'rt fut pastroq skameyka qo'yib berishdi. Men ana shu skameyka ustida u yoqqa-bu yoqqa yugurib, klavishlarga tayoq bilan urardim. Shunday qilib, oliy hazratlarini nihoyatda xushnud etib, jigani¹⁷ chalib berdim. Biroq bu boshimga tushgan eng toliqtiruvchi jismoniy mashqlardan biri edi. Har qancha chiransam ham arang o'n oltita klavishni chaloldim, xolos. Bir vaqtning o'zida har ikkala sarpardada, bas va diskantda o'ynash ancha mushkul edi, bu hol musiqani qoyillatib ijro etishimga xalaqit berardi.

17 Jiga —ingliz matrosi raqsi.

Ilgari qayd etib o'tganimdek, qirol o'ta aqli, bilimga qiziquvchi kishi edi. U meni tez-tez huzuriga yo'qlab turardi. Keyin u menga uychamdan stul olishni buyurardi, o'zidan uch yard naridagi bo'yi tenggi komod ustiga o'tqizardi va men bilan suhbatlashardi. Bir kuni oliy hazratlariga, uning Yevropa va boshqa olamdagilarga nafrat bilan qarashi qirolniig olijanob aqliga soya tashlandi, deyishga ham yuragim dov berdi. Axir, aqliy qobiliyat tana hajmiga qarab mutanosib rivojlanmaydi-da. Aksincha, bizning mamlakatimizda eng novcha odamlar boshqalardan uncha aqli emas, dedim. So'zimda davom etib, asalari va chumolilar kashfiyotchiliklari, mohir va ziyrakliklari bilan mashhur, vaholanki, ular uncha yirik mavjudotlar emas. Menga kelganda esa, qirolning nazarida qanchalik kichik yo ojiz bo'lsam ham, ertami yo kechmi oliy hazratlariga muhimroq bir xizmat ko'rsataman degan umiddaman, deb aytdim. Qirol gaplarimni e'tibor bilan tingladi. Umuman, ana shunday suhbatlardan keyin oliy hazratlarining men haqidagi fikri yaxshi tomonga o'zgardi. Kunlarning birida u, Angliya qanday qonunlar asosida boshqarilishini batafsilroq aytib berishimni iltimos qilib qoldi. «Garchi podshohlar o'z mamlakatlarining urf-odatlariga qattiq amal qilsa-da, — deb davom etdi u. — boshqa davlatlardan taqlid qilishga arziydigan narsalarni topib olsam o'zimni baxtiyor deb bilaman».

O, shu paytda menga aziz, qadrdon bo'lgan vatanimni, uning o'ziga xos ulug'vorligini va qudratini ulug'lash uchun Demosfen yoki Siseron* singari gapga usta notiq bo'lgim kelib ketdi!

Avvalo oliy hazratlariga davlatimiz ikkita orolga joylashganini, u bitta qirolga bo'ysunadigan uchta qudratli qirollikdan¹⁸ iborat ekanligini, buning ustiga Amerikada mustamlakalarimiz ham borligini aytdim. Men yerlarimizning serunumliligi va iqlimimiz mo'tadil ekanligi haqida uzoq gapirdim. Keyin ikki palatadan iborat parlamentimiz tuzilishi borasida batafsil to'xtalib o'tdim.

Shavkatli perlar palatasida* kelib chiqishi oliy nasabdan bo'lgan shaxslar, qadimiy va bepoyon ota meros mulk egalari kengashadi. Qirol va qirollikning tug'ma maslahatchilari bo'lmish bo'lg'usi perlarni, qonun chiqarishda qatnashuvchilarni, hukmi ustidan ariza berilmaydigan oliy sud a'zolarini, o'z podshosi hamda vatani himoyasi uchun birinchi bo'lib otilib chiqadigan olijanob va sadoqatli harbiylarni tarbiyalash hamda o'qitishga juda zo'r e'tibor berilishini tavsifladim.

18 Angliya, Shotlandiya va Irlandiya.

Bu odamlar, deb davom etdim, qirollikning bezagi va tayanchi. Ular o'z otabobolarining munosib merosxo'rlari, ota-bobolari o'z jasoratlari bilan qanday hurmat va ehtiromga ega bo'lishgan bo'lsa, bular ham bundan bahramanddirlar. Ana shu oliy kengash tarkibiga yepiskop unvonidagi ruhoniy zotlar ham kiradi. Ularning vazifasi dinga putur yetkazmaslik va xalqqa dinni targ'ib qiluvchilar ishini kuzatishdan iborat. Qirol va uning maslahatchilari yepiskoplikka avliyolikda tanilgan, o'ta olim ruhoniy shaxslarni saylashadi: shuning uchun ham ular hamma ruhoniylar va xalqning padari buzrukvorlari hisoblanishadi.

Parlamentni boshqa bir qismi, — deb davom etdim, — vakillar palatasi deb ataladigan majlisni tashkil etadi. Bu birinchi darajali jentelmenlar majlisi bo'lib, ular xalq tomonidan ana shu e'tiborli va badavlat tabaqadan erkin ravishda saylanadi.

Xalq ularni katta qobiliyatlari va jonajon yurtlariga mehri beqiyosligi uchun o'zlarida butun millatning donishmandligini namoyon etadi, degan umidda saylashi o'z-o'zidan ma'lum. Shuning uchun ham har ikkala palata Yevropada eng ulug' majlis hisoblanadi. Ularga qirol bilan birgalikda qonun chiqarish ishi topshirilgan.

Keyin haqiqiy donishmand va qonunlarni tushuntiruvchi, zimmalariga mushkul ishlarni hal etish, illatlarni bartaraf qilib, aybsizlikni himoya qilish vazifasi yuklangan muhtaram sudyalarimiz rahbarlik qilayotgan sud palatalarimiz ishini tushuntirishga o'tdim. Men moliyaviy mablag'larni tejab-tergab sarflash va qo'shinlarimizning ham dengizda, ham quruqlikdagi jasoratlari haqida hikoya qildim. Har bir diniy mazhabda va har bir siyosiy partiyada necha milliondan odam borligini eslab turib, mamlakatimiz umumiy aholisi sonini ham hisoblab chiqdim. Shuningdek, inglizlarning o'yinlari, ko'ngil ochishlari haqida ham eslatib o'tdim, umuman, vatanimning obro'yini ko'taradigan biror narsani e'tibordan qochirmay gapirib berdim. O'z hikoyamni keyingi yuz yil ichidagi Angliya tarixini qisqacha sharhlab berish bilan yakunladim.

Ushbu hikoyalarimni oliy hazratlariga beshta suhbatda aytib tugatdim, har bir suhbat bir necha soatga cho'zildi. Qirol gaplarimga diqqat bilan quloq soldi, ko'p narsalarni yozib oldi. Menga bermoqchi bo'lgan savollarini belgilab qo'ydi.

Uzundan-uzoq hikoyamni tugallaganimdan keyin, oliy hazratlari oltinchi suhbatimizda men tilga olib o'tgan mavzular bo'yicha o'zining ayrim narsalarga ishonchsizlik bilan qaraganini aytdi va bir qancha savollar berdi. Ular quyidagilar: aslzoda yoshlarni ham jismoniy, ham ma'naviy tomondan kamolga yetkazish uchun nimalar qilinadi, yoshlar maktabda o'qigan yillarini qanday o'tkazishadi, turli ta'sir

va o'gitlarga kishilar qachon osonroq beriladi? Aslzoda nasablar vakilidan oxirgisi vafot etsa lordlar palatasida uning o'rni qanday to'ldiriladi? Kimlarga va qanday xizmatlari uchun lord unvoni beriladi? Lord unvonini berishda qirol injiqlik qilganmi yoki qandaydir saroy vazirlari va xonimlariga o'z vaqtda epcillik bilan pul qistirilganmi, va nihoyat, umumdavlat zararini ko'zlab ma'lum bir partiya manfaatlarini kuchaytirishga intilish bo'lganmi? Ana shu lordlarning o'z mamlakati qonunlarini yaxshi bilishlari va muhim davlat ishlarini bajarish qobiliyatiga ega bo'lishlari rostmi? Ularning hammasi ham pora, xushomad, tor partiyaviy mulohazalar oldida o'zini tutib turishda mustaqilmi, xolismi va beg'arazmi? Lord-yepiskoplar oliy martabaga erishganlari uchun diniy ta'limotni chuqur bilishlaridan va ruhoniychasiga hayot kechirishdan doimo mamnunmi? Nahotki ular orasidan birorta ham, aytaylik, oddiy ruhoniylilik paytida, osoyishta umr kechiruvchi aslzodalarning bekorchi hayoti manfaatlari yo'lida ish tutmagan kishi bo'lmasa?

So'ng qirol, men vakillar palatasi a'zolari, deb nomlagan deputatlarni saylashda qanday tizim qo'llanishini bilgisi keldi. Mahalliy manfaatlarga befarq bo'lgan kelgindi bir odam pul to'la hamyon yordamida o'sha yerlik aholidan munosib nomzod o'rniga o'zini saylashga ishontira olmaydimi? Bu unvon shunchalik katta xarajatlarni talab qilib, butunlay xonavayron bo'lishga olib kelsa, na moyana, na pensiya bilan taqdirlanmasa, nima uchun parlament a'zosi bo'lishga jon-jahdlari bilan intilishadi? Bunday xolisonalik kishidan juda katta fuqarolik jasorati talab qilishini nazarda tutib, oliy hazratlari buning samimiyligiga shubha bilan qaradi. U quyidagi narsalarni aniqlab olmoqchi bo'ldi: xalq vakili bo'lishning ana shu ashaddiy muxlislari bo'lgan kishilarda tortgan tashvishlari va sarflagan xarajatlari uchun jamiyat manfaatlariga zidligini bila-ko'ra turib, bo'shang va yaramas hukmdorning hamda uning razolatga botgan vazirlarining xohishiga qarab, o'zini mukofotlash umidi yo'qmi? Qirol ana shu savollarni menga berarkan, yo'l-yo'lakay bir qator tanbehtar ham berdi, bu tanbehtlarni takrorlashni o'rinsiz hamda nomaqbul deb hisoblayman*.

Shundan keyin oliy hazratlari sudlarimiz faoliyati haqida to'liq ma'lumot olmoqchi bo'ldi. Bu masalada uning qiziqishini qondirish men uchun uncha qiyin emasdi. Bir vaqtlar oliy sud majlisining cho'zilib ketishi tufayli xonavayron bo'lishimga sal qolgan. Yaxshiyamki, o'shanda yutib chiqqanman, sud paytidagi xarajatlar menga qaytarilgan. Qirol quyidagilarni so'radi: kim haq, kim aybdorligini aniqlash uchun sudga qancha vaqt kerak bo'ladi, u qanaqa xarajatlarni talab qiladi? Adolatsiz hamda qonunsiz ishlar bo'yicha advokatga va ro'zg'or ishlarini olib

boruvchi xodimga himoyachi bo'lish uchun yo'l qo'yiladimi? Sudlanuvchilarning diniy mazhab va siyosiy partiyalarga mansubligi sud qarorlariga ta'sir ko'rsatadimi? Advokatlarning maxsus yuridik bilim olishi shartmi yoki ularning o'sha yerning mahalliy va milliy urf-odatlar bilan tanishuvi yetarli? Ana shu advokatlarning shuningdek sudyalarning o'zlari izohlaydigan, sharhlab berish o'zlariga topshirilgan qonunlarni tuzishga qatnashadilarmi? Bir ish jarayonining o'zida, avval qoralovchi bo'lib qatnashgan shaxslarning keyin himoyachi bo'lish hollari ham yuz berganmi? Ular bergan maslahatlari va sudda olib borgan ishlari uchun qanday taqdirlandilar? Ana shu odamlar quyi palata a'zolari bo'la oladimi?*

Keyin qirol moliyaviy ishlarimizga e'tiborini qaratdi. Davlat daromadlari va xarajatlari bo'yicha tilga olgan raqamlarimni xato deb topdi. Chunki men daromad yiliga besh yo'lti million bo'ladi degandim, uning fikricha, mening gapimga ko'ra, daromad ikki baravardan ham ziyod oshib ketarmish. Qirol moliyaviy ishlarimiz bo'yicha aytganlarimni hafsala bilan yozib oldi, chunki u moliya tizimimiz bilan tanishib, o'z foydasiga biror narsa chiqarib olmoqchi bo'ldi. Shuning uchun yozib borayotgan narsalarining noaniq bo'lishiga yo'l qo'ymadi. Lekin, modomiki, aytgan raqamlarim to'g'ri ekan, davlatning xususiy odamday ortiqcha xarajatlarga bunchalik ko'p yo'l qo'yishiga qirol hech tushunolmasdi. U, qo'shimcha mablag'lar va qarzlarni to'lash uchun pulni qayerdan olinadi, deb so'radi. U uzluksiz hamda juda qimmatga tushadigan urushlar haqidagi hikoyalarni tinglab, juda hayron qoldi. Uning nazarida biz yo' o'zi janjalkash, yo atrofimizni bema'ni qo'shnilar qurshab olgan odamlarday edik. U, generallarning qirolidan ham boy bo'lsa kerak, dedi. U orollarimizdan tashqarida savdodan, diplomatik aloqa va sohillarimizni flot yordamida himoya qilishdan tashqari yana qanday ishlar borligini so'radi. Ayniqsa, bizday erkin xalq uchun kurash bo'lmagan tinch paytlarda yollanma armiyaning zarur bo'lishi qirolni hayratga soldi. Qirol, sizlarda o'z-o'zini idora qilish bor ekan, yana kimlardan qo'rqqasiz va kim bilan jang qilasiz, deb hayron bo'ldi. U mendan: xo'jayin bola-chaqalari va uy ichlari bilan o'z uyini ko'chadan yollangan bir to'da tovlamachilardan ko'ra yaxshiroq himoya qilolmaydimi? — deb so'radi.

Bizdagi mavjud diniy mazhablar va siyosiy partiyalarga ergashuvchilarning miqdorini jamlab turib, aholining miqdorini hisoblab chiqarsam, bu g'alati arifmetika (shunday deyish unga qulayroq bo'ldi) ustidan rosa kuldi.

Zodagonlarimiz va dvoryanlarimizning ko'ngil ochadigan o'yinlaridan biri qimor ekanligi qirolni ajablantirdi. Bu mashg'ulot qaysi yoshdan boshlanib, qa-

chongacha davom etishini u juda bilgisi keldi. O'ta qiziqib qimor o'ynash mol-mulkdan ajralishga olib kelmaydimi, deb so'radi. Uningcha insofsiz odamlar bu o'yinlarning eng nozik tomonlarini bilib olib, buning yordamida ko'p boylik to'playdilar va jamiyatda nufuzli o'ringa ega bo'ladilar. Zodagon va e'tiborli odamlar esa qimorbozlar orasiga kirib, asta-sekin yomon yo'lga kirishadi va yut-qiziqklarini qoplash yoki yutib olish uchun turli xil aldanchilik yo'lga o'tishadi.

Mamlakatimizning keyingi yuz yillik tarixiy ocherki haqida aytganlarim qirolni juda hayratda qoldirdi. Uning fikricha, bu tarix ochko'zlik, ikkiyuzlamachilik, vahshiylik, zulm, quturish, tentaklik, nafrat, hasad tug'dirgan fitna-fasod, g'alayon, qotillik, kaltaklashlar, qo'rslik va shuhratparastlik yig'indisidan boshqa narsa emas.

Oliy hazratlari gapining oxirida mendan eshitganlarining hammasini qisqacha ifodalab o'tdi. Keyin meni qo'lga oldi, asta erkatalib turib, menga quyidagilarni aytdi, men bu gaplarni hech qachon unutmayman:

«Jajji do'stim Grildrig, o'z vataningizni xo'b maqtadingiz. Johillik, yalqovlik va illatlar qonun chiqaruvchilar uchun naf keltiruvchi fazilat ekanligini ochiq-oshkor isbot etdingiz; kimki qonunlarni buzish, chalkashtirish va chetlab o'tish qobiliyatiga ega va undan manfaatdor bo'lsa, qonunlarni yaxshiroq tushuntiradi, ma'nisini aytib beradi va amalda qo'llay oladi. Sizlarning urf-odat va qonunlaringizdagi ba'zi narsalarni ozmi-ko'pmi oqilona va maqsadga muvofiq deyish mumkin. Biroq bularning hammasi shunaqayam buzilgan, bulg'angan, va nihoyat kishini g'azabini keltiruvchi tushuntirish va uydirmalar bilan ifloslanganki, undan hatto nom-nishon ham qolmagan. Aytganlaringizdan shu narsa ma'lumki, yuqori martabaga erishuvingiz uchun qandaydir obro'ning bo'lishi shart emas. Kishilar o'z qobiliyatlari va jasoratlari uchun yuksak unvonga ega bo'lganliklaridan shikoyat qilishgani sezilmaydi, shuningdek, ruhoniylar taqvodorligi va olimligi uchun harbiylar mardligi va olijanob xulq-atvorlari uchun, sudyalar poraga uchmasligi senatorlar vataniga sadoqati uchun, davlat maslahatchilari esa donishmandligi uchun yuqori martabaga erishgani ham ko'rinmaydi. O'zingizga kelsak, — deb davom etdi qirol, — siz umringizning anchasini sayohatlarida o'tkazgansiz. Menimcha, siz mamlakatingizdagi anchagina illatlardan nari-da yuribsiz. Siz aytganlardan hamda sizdan arang sug'urib olingan javoblardan aniqlagan faktlarim, vatandoshlaringizning ko'pchiligi qachonlardir yerda o'r-malab yurgan, eng zararlilardan ham zararli bo'lgan judayam mayda, jirkanch qabih turkumga kiradi, degan xulosaga olib keladi».

YETTINCHI BOB

MUALLIFNING O'Z VATANIGA BO'LGAN MEHRI. U QIROLGA FOYDALI BIR TAKLIFNI QILADI, LEKIN QIROL UNI RAD ETADI. QIROLNING SIYOSAT SOHASIDAN MUTLAQO XABARSIZLIGI. BU MAMLAKATDAGI ILM-MA'RIFAT. UNING QONUNLARI, HARBIY TA'LIM VA PARTIYALAR.

Haqiqatga bo'lgan qizg'in muhabbatimgina hayotimdagi ana shu voqeani yashirishimga xalaqit berdi. G'azablanish va qahrulanish o'rinsiz edi: mening g'azablanishim faqat ularning kulgisini qistatardi, xolos. Shuning uchun ham olijanob, buyuk muhabbat bilan sevgan vatanim haqida tahqirlovchi gaplarni xotirjamlik, sabr-qanoat bilan eshitishga majbur bo'ldim. Boshimga ana shunday rolni bajarish tushganiga chinakamiga achinaman. Biroq bu hukmdor shunaqayam har narsaga qiziquvchan ediki, davlatimiz hayotiga doir tafsilotlarni mendan bilib olishga chunonan intilardiki, minnatdorchiligim ham, odobliligim ham uning qiziquvchanligini qondirishdan bosh tortishga imkon bermasdi. O'zimni oqlash uchun shu narsani e'tirof etishim kerakki, qirolning ko'pgina savollarini ustalik bilan javobsiz qoldirdim, har holda, o'z javoblarimda haqiqat talablariga to'g'ri kelishiga qarab, olamdagi hamma narsani ancha foydali deb ko'rsatishga intildim. Men hamisha o'z yurtimni shavq-zavq bilan ta'rifladim. Vatanim hayotidagi salbiy va yaramas hodisalarni yashirgim, uning go'zalligi va saxovatini olamda hamma narsadan chiroyli qilib ko'rsatgim kelardi. Xuddi ana shu niyat bu qudratli hukmdor bilan qilgan suhbatlarimda har doim hamroh, madadkor bo'ldi, ammo intilishlarimning zoye ketganligi mening aybim emas.

Xo'sh, boshqa olamlardan butunlay uzilgan, boshqa xalqlarning urf-odatlarini haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan qiroldan nimani ham umid qilish mumkin? Ana shunday bexabarlik hamisha fikr doirasining torligiga olib keladi, anchagina bid'atlarni tug'diradi, ma'rifatga erishgan biz yevropaliklar esa bundan mutloq xolismiz. Mana shunday qoloq hukmdorning yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarini insoniyatga namuna qilib ko'rsatsak bema'ni ish bo'lur edi.

Aytganlarimni tasdiqlash hamda ma'lumotning yetarli bo'lmasligi nimalarga olib kelishini ko'rsatish uchun bir voqeani eslatib o'taman. Qirolning minnatdorchiligiga sazovor bo'lish umidida, bundan uch yo'to'rt asr muqaddam ixtiro qilingan maxsus poroshok (porox) haqida hikoya qildim. Qirolga shunday deb

bayon qildim: bu poroshok sal-pal uchqundan ham bir zumda alanga oladi, mo-maqaldiroq singari guldurab, hamma yoqni larzaga keltiradi. Agar mis yoki temir truba ichiga ana shu poroshokdan solinsa, o't olish jarayonida u trubadan temir yoki qo'rg'oshin sharlarni ham uloqtirishga qodir. Bu shar shunaqayam tez va kuch bilan uchadiki, hech narsa uning zarbasiga bardosh bera olmaydi. Ana shunaqa sharlardan eng kattalari bir saf askarni halok qiladi, eng mustahkam devorlarni ham poydevori bilan ko'tarib tashlaydi, minglab kishi tushgan kemalarni suv tubiga cho'ktiradi, machta va uskunalarni pachoqlaydi, kishi tanasining dabalasini chiqaradi, hamma yoqni qiyratib, vayron qiladi. Ba'zida biz ana shu poroshok bilan ulkan temir sharlar ichini to'ldiramiz, maxsus asboblari vositasida mazkur sharlarni qamal qilingan shaharlarga otamiz. Sharlar shaharni vayron qiladi, ko'priklarni buzadi, uylarning kulini ko'kka sovuradi, yondiradi, portlatib, har yoqqa parchalarini uloqtiradi, bu parchalar yaqinroqda turgan odamlarning peshanasini ham pachoqlashi mumkin. Gapimda davom etib, menga ana shu poroshokning tarkibi ma'lum, uni tayyorlash uchun zarur moddalar uncha qimmat emas, ularni hamma yoqdan topsa bo'ladi, dedim. Oliy hazratlarining ustalarini shar uloqtiradigan metall trubalar yasashga o'rgatishni taklif qildim. Ana shunday trubalardan yigirma yoki o'ttiztasi bir necha soat ichida, agar aholisi qarshilik ko'rsatsa, uning mamlakatidagi eng katta shaharning qal'a devorlarini yakson qilish va poytaxtni xarobazorga aylantirish qudratiga ega. Men oliy hazratlarining ko'rsatgan behad iltifot va marhamatlari evaziga unga bu sohadagi o'z arzimas xizmatimni ayamasligimni aytdim.

Qirol gaplarimni eshitib dahshatga tushdi. U menday ojiz va kichkina hasharot (u meni shunday deb atardi) o'zida bu qadar insonga xos bo'lmagan fikrlarni yashirib qolmasdan, balki ularni oqilona va tabiiy deb hisoblaganidan juda hayron qoldi. Mana shu yakson qiluvchi mashina vositasida yuz beradigan qon to'kish va vayrongarchiliklarning dahshatli manzarasini bamaylixtir tasvirlab berishimdan u qattiq g'azablendi. Qirol, bunday narsalarni inson zotining dushmani bo'lgan yovuz bir dohiy kashf etishi mumkin, dedi. U yana ilmiy kashfiyotlardan o'ta mamnun bo'lishini aytib, sen aytgan kashfiyotni bilgandan ko'ra qirolligimning yarmidan voz kechganim ma'qul, dedi. Gapining oxirida, agar hayotingdan umiding bo'lsa, minba'd bu haqda gap ochma, deb maslahat berdi.

Kaltafahmlilik va ma'lumotning chegaralangan bo'lishining ta'siri ana shunaqa bo'ladi! Bu hukmdor o'z fuqarolarining mehrini, hurmat va e'tiborini qozonish uchun barcha fazilatlariga ega. U g'oyat aql-zakovatli, olim, davlatni bosh-

qarishda zo'r iste'dodga ega. Ammo yevropaliklarga ma'lum bo'lmagan haddan tashqari injiqligi tufayli, bu donishmand hukmdor o'z xalqining hayoti, erkinligi va mol-mulki ustidan to'liq huquqli xo'jayin bo'lish imkoniyatini qo'ldan boy beriyapti. Shunday deyish bilan, bu ajoyib qirolning saxovatlilikini yerga urmoqchi emasman, biroq mazkur hikoyam ingliz kitobxonini nazarida uning qadrini ancha pastga tushirib yuborishini sezib turibman. Men bu xildagi o'zilik siyosat bizdagi singari fan darajasiga ko'tarilmagan mamlakatdagi xalqning johilligi tufayli bo'lsa kerak, deb hisoblayman.

Bir kuni qirol bilan suhbatlashib o'tirib, mamlakatni boshqarish to'g'risida minglarcha kitoblar yozilganini aytdim. Biroq men kutgan natijaga zid o'laroq, bu aytganim qirolda bizning aqliy qobiliyatimiz haqida bo'lmag'ur fikrlar uyg'otdi. U siyosatchilarimizning barcha ustaliklari va hiyla-nayranglaridan ham, davlat ishlaridagi maxfiylik va fitnalardan ham qattiq nafratlanadi. Davlat siri dushman yoki dushman millatga taalluqli bo'lmagan narsa ekanligini u hech ham tushunib yetmadi. Uning fikricha, davlatni durustroq boshqarish uchun sog'lom aql, adolat, beg'arazlik va yaxshilik kifoya qilarmish. U kimki bir dalada bitta boshqoq yoki bitta poya o'rniga ikkita boshqoq yo poya yetishtira olsa, unday odam siyosatdonlarga qaraganda insoniyatga va o'z vataniga katta xizmat qilgan bo'ladi, deb hisoblaydi.

Bu xalqning aqliy talablari ancha chegaralangan. Bu yerda faqat axloq, tarix, she'riyat va matematikani o'rganishadi. Ammo shu fanlar sohasida katta kamolotga erishganliklarini tan olaman. Bu yerda matematika chinakam amaliy xarakterga ega. Uning asosiy vazifasi dehqonchilik hamda texnikaning turli tarmoqlarini takomillashtirishdan iborat. U bizda yuksak baho olmasligi o'z-o'zidan ayon. Mavhum g'oyalar va turli falsafiy nozik fikrlarga kelsak, bular haqida sal-pal ma'lumot berishga bo'lgan intilishim ham behudaga ketdi.

Bu mamlakatda har bir qonun alifbedagi harflar sonidan ortiq so'zga ega bo'lmaydi. alifbelarida esa atigi yigirma ikkita harf bor, xolos. Biroq bunchalik uzundan-uzun qonunlarni kamdan-kam uchratasiz. Har bir qonun eng aniq va sodda iboralardan tuzilgan. Yana shuni ham aytishim kerakki, bu odamlar qonundan bir qancha ma'nolar chiqarish kabi o'tkir aqlga ham ega emas, qonunni izohlash ularda jinoyat hisoblanadi.

Kitob bosish bu yerda, xitoylardagi singari, azaldan bor ekan. Ammo ularning kutubxonalari unchalik katta emas. Masalan, mamlakatda eng katta hisoblangan qiro'l kutubxonasida uzunligi bir yuz yigirma fut keladigan galereyaga joylashgan

ming jilddan ortiqroq kitob bor. Menga ana shu kutubxona kitoblaridan bemaol foydalanish huquqi berildi. Malikaning duradgori Glyumdalklichning xonalaridan birida balandligi yigirma besh fut keladigan yeg'och stanok yasab berdi. Bu stanok har bir zinasining uzunligi ellik fut keladigan narvonga o'xshardi. Stanok shunday o'rnatirilardiki, uning quyi zinasi xona devoridan o'n fut narida turardi. O'qimoqchi bo'lgan kitobimni devorga suyab qo'yishardi; men narvonning eng yuqori pog'onasiga chiqib kitobga qaragancha, zining o'ng tomonidan chap tomoniga surilib, tepadan pastgacha o'qib tushardim. Ko'zim ro'parasidagi satrgacha o'qib kelgach bir zina pastga tushardim, sahifani o'qib tugatgunimcha shunday qilaverrardim. So'ng narvondan yana yuqoriga ko'tarilib, navbatdagi sahifani o'qishga boshlardim. Kitob varaqalarini ikkala qo'lim bilan ochardim. Bu unchalik qiyin emasdi, chunki uning qog'ozi bizning kartondan qalin emasdi, eng katta kitobning uzunligi o'n sakkiz futdan yigirma futgacha borardi.

Bu odamlarning gap uslubi aniqligi, dadilligi va oddiyligi bilan alohida ajralib turadi. Ular ortiqcha ibora va dabdabali so'zlardan qochishadi. Men tarix va axloqqa oid ko'pgina kitoblarni o'qib chiqdim. Ayniqsa menga axloqiy va diniy mavzularda ko'p kitob o'qigan, yoshi bir joyga borib qolgan murabbiya xonimning Glyumdalklichning yotoqxonasidagi qadimiy jajjigiia traktati juda yoqib qoldi. Olimlar bu kitobni uncha qadrlashmaydi. Biroq inson zotining kamolga yetmaganligi haqidagi bu kitob ayollar va oddiy xalq o'rtasida katta shuhrat qozongan. Ana shu mavzu xususida mahalliy yozuvchi qanday fikrdaligi meni qiziqtirib qoldi. U yevropalik odob o'rgatuvchilarning odatdagi fikrlarini takrorladi, inson o'z tabiati bilan jirkanch, ojiz hayvon ekanligini, u shafqatsiz iqlimning ta'siri hamda yirtqich hayvonlarning hujumidan o'zini himoya qilish qobiliyatidan mahrumligi; bu hayvonlarning o'ndan birlari kuchliligi bilan, boshqalari epcilligi, uchinchilari ehtiyotkorligi, to'rtinchilari zahmatkashligi bilan ustun turishini ko'rsatib o'tdi. U keyingi yuz yil ichida tabiat qadimiy zamonlarda yashagan odamlarga nisbatan chala, noyetuk mavjudotlarni yetishtirishi mumkinligini isbotlaydi. Uning fikricha, qadim zamonlarda ulkan odamlar yashagan, deb o'ylashga asos bor. Bu haqda tarix ham, xalq afsonalari ham guvohlik berib turibdi; buni qirollikning turli yerlaridan topilayotgan juda ulkan suyaklar va bosh suyaklari ham tasdiqlab turibdi: ular o'z hajmi bo'yicha hozirgi o'ta maydalashib ketgan odamlardan ancha katta. Muallif ana shu fikrlardan kundalik hayotda nafi tegadigan bir necha axloqiy qoidalarni chiqaradi, ularni bu yerda takrorlash arzimaydi.

Ana shu kitobni o'qib chiqqach, nega odamlar axloqiy mavzularda o'g'itnomalar yozishga berilib ketgan, stixiya bilan kurashishda nega o'z o'jizligidan zorlanadi va shikoyat qiladi, degan fikrlar ustida beixtiyor o'ylanib qoldim. Menimcha, bu masalani chuqur o'rganish o'zimizdagi singari mazkur xalq shikoyatlari ham butunlay xato ekanligini isbot etadi.

Bu yerliklar qirol armiyasining miqdori bilan faxrlanishadi, qirol armiyasida bir yuz yetmish olti ming piyoda askar va o'ttiz ikki ming otliq askar bor edi. Shaharlarda savdogarlardan, qishloqlarda esa fermerlardan tuzilgan xalq lashkarlarini ham armiya deyish kerakmi-yo'qmi — bilmadim. Bu lashkarlarga amaldorlar yoki mayda dvoryanlar qo'mondonlik qiladi. Lekin qirol armiyasi yetarli darajada yaxshi ta'lim olgan, o'ta intizomliligi bilan ajralib turadi. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, har bir fermer o'z pomeschigini, har bir shaharlik esa shahardagi eng boobro' odam qo'mondonligi ostida. Buning ustiga hamma boshliqlar, Venesiyadagi singari, ovozga qo'yish orqali saylanadi.

Men shahardan uncha uzoq bo'lmagan, kattaligi yigirma milya kvadrat keladigan maydonda harbiylarning mashq o'tkazishini bir necha marta tomosha qildim. Garchi maydonda yigirma besh ming piyoda askar va olti ming suvoriy mashq qilsa-da, men ularni hech sanay olmadim, axir armiya haddan tashqari keng masofani egallagandi-da. Ot ustida o'tirgan har bir suvoriy balandligi yuz futga yaqin keladigan kolonnani eslatardi. Suvoriylarning bir vaqtning o'zida qilich yalang'ochlashganini va havoda o'ynatishganini ko'p ko'rdim. Bundan ham ulug'vor, kishini hayratga soladigan tasavvurni o'ylab topish qiyin. Nazarimda, bu paytda osmon chekkasida birdaniga o'n mingta yashin chaqnaganday bo'lardi.

Podsho qanday qilib armiya tashkil etgani va o'z xalqini harbiy intizomga o'rgatgani meni qiziqitirib qoldi. Axir, uning mamlakati boshqa hech qanday davlat bilan chegaradosh emas-ku. Birovlarning hikoyalaridan, tarixiy kitoblardan esa quyidagilarni bilib oldim.

Mamlakat bir necha asrlardan buyon boshqa ko'pgina davlatlar muhtalo bo'lgan kasallikka duchor ekan. Dvoryanlar hokimiyatni qo'lga olish uchun intilgan, xalq esa o'z ozodligini himoya qilgan, qirol esa mutloq hokimlik uchun kurashgan. Ana shu zaminda yuz bergan bosh-boshdoqliklar grajdan urushini keltirib chiqargan. Ana shunday urushlardan so'nggisi hozir podsholik qilayotgan hukmdorning bobosi zamonida silliqqina tamomlangan, hamma partiyalarning bir bitimga va o'zaro bir-birlariga yo'l berishiga olib kelgan. Shunda hammaning roziligi bilan hamisha tartibotni saqlab turadigan xalq lashkarlari tuzilgan.

SAKKIZINCHI BOB

QIROL BILAN MALIKA DAVLAT CHEGARASI TOMON SAYOHATGA OTLANI-
SHADI. MUALLIF ULARNI KUZATIB BORADI. MUALLIF MAMLAKATNI QAN-
DAY TARK ETGANINING BATAFSIL BAYONI. U ANGLIYAGA QAYTIB KELADI.

Ertami-kechmi ozodlikka chiqishimni oldindan ko'nglim sezib yurardi. Biroq bu qanday ro'y berishini ham, o'zimni ozod etishning durustroq rejasini tuzishni ham bilmasdim. Meni bu yerlarga keltirib tashlagan kema shu sohillarda ko'ringan eng dastlabki kema edi. Qirol qo'riqchilarga yana biror kema paydo bo'lgunday bo'lsa uni albatta egallab olish va butun ekipaji bilan birga aravaga solib, Lorbrulgrudga keltirishni qattiq tayinlagan edi. Qirol menga mos keladigan birorta ayol topishni juda-juda istardi. U bizdan bola-chaqalar tarqalishini orzu qilardi. Biroq men bolalarim kanareyka singari qafaslarda saqlanishini, vaqti kelib ularni oliy tabaqa odamlarning ko'nglini xushlash uchun nodir jonvorlarday sotilishini ko'z oldimga keltirganimda g'azabdan titrab ketardim. To'g'ri, menga katta iltifot ko'rsatishardi: men qudratli qirol va malikaning arzandasi, butun saroy ahlining nazarida edim, biroq ularning menga nisbatan muomalasida insonlik qadr-qimmatimni yerga uradigan qandaydir narsa bor edi. Men o'z yurtimda qolgan oila a'zolarimni unuta olmasdim. O'z tengim bo'lgan odamlar bilan birga o'lishga tashna edim. Men baqa yoki kichkina kuchuk bola singari oyoq ostida toptalishdan qo'rqmay ko'cha va dalalarda kezib yurgim kelardi.

Mening ozodlikka chiqishim esa, o'zim kutganimdan ancha ertaroq odatdan tashqari bir vaziyatda yuz berdi. Men bu ajoyib voqeani butun tafsiloti bilan bayon qilaman.

Bu mamlakatga kelib qolganimdan beri ikki yil o'tdi. Uchinchi yilning boshlarida Glyumdalklich bilan birgalikda qirol hamda malikani qirollikning janubiy sohillariga sayohatga kuzatib borishga to'g'ri keldi. Meni har safargidek safar qutisida olib yurishdi. Quti men uchun juda ham qulay xona bo'lib, eni o'n ikki fut kelardi. Xona ichiga pishiq-puxta ipak arqondan o'zimga kattagina belanchak osishni buyurgandim. Belanchak meni silkinishlardan saqlar, sayohat paytlarida esa men anchagina mizg'ib olardim. Qutining tomidan, belanchakning qoq tepasidan, mening xohishimga ko'ra, duradgor jazirama kunlarda toza havo kirishi uchun bir fut

kvadrat kenglikda qopqoq ochib bergan edi. Men istagan paytimda tirqish bo'ylab harakat qiladigan taxta vositasida qopqoqni ochib-yopib qo'yardim.

Sayohat qiladigan joyga yetganimizda, qirol dengiz sohilidan o'n sakkiz ingliz milyasi berida joylashgan Flenflasnik shahri yaqinidagi o'ziga qarashli qal'ada bir necha kun turmoqchi bo'ldi. Glyumdalklich ikkovimiz uzoq sayohat tufayli ancha toliqdik. Men sal tumovga chalindim, bechora qizcha esa qattiq betob bo'lib qolganidan o'z xonasidan chiqolmasdi. Men okeanni judayam ko'rgim keldi. Qachonlardir erkinlikka chiqish menga nasib qilsa, bu erkinlikni faqat okeangina berishi mumkin edi. Men o'zimni oldingidan ham battarroq kasallikka soldi, musaffo dengiz havosidan nafas olishim uchun meni mahram bilan tashqariga chiqarishlarini iltimos qildim. Mahramni juda yaxshi ko'rardim, meni u bilan bir necha marta sayr qilib kelishga chiqarishgan. Lekin Glyumdalklich bunga istar-istamas rozi bo'lganligini hech qachon unutmayman. U nima yuz berishini oldindan bilganday ko'z yoshi qilib, mahramdan meni ko'z qorachig'iday ehtiyotlashni uzoq iltimos qildi.

Men ichidagi belanchakda yotgan qutini mahram ko'tarib oldi, yarim soatlardan keyin qoyali dengiz sohiliga yetdik. Unga qutini shu yerga qo'yishni buyurdim, derazamni ochib okean suvlariga qayg'u bilan tikildim. O'zimni noxush sezdim, mahramga bir oz uxlab olmoqchi ekanligimni aytdim. Shunday qilsam yengil tortaman, deb o'yladim. Men yotdim, mahram shamol kirmasligi uchun derazalarni zichlab yopdi. Ko'p o'tinay uyquga ketdim. Keyin nima bo'lganini bilmayman. Mahram meni uzoq vaqt poylab o'tirmagan bo'lsa kerak. Ehtimol, uxlab yotganimda menga hech narsa bo'lmaydi deb, qush uyalarini izlab topish uchun qoyalar tomonga ketgan bo'lsa kerak. Uning qoya yoriqlaridan qush uyalarini topib, tuxumlarini olganini deraza orqali ko'p marta kuzatganman. Nima bo'lgan bo'lsa ham, men to'satdan qattiq silkinishdan uyg'onib ketdim, kimdir qutim qopqog'iga qoqib qo'yilgan halqani kuch bilan tortdi. Qutim osmonu falakka ko'tarilganini, yurakni orziqitiruvchi tezlikda uchib borayotganini payqadim. Dastlabki silkinishda belanchakdan tushib ketishimga sal qoldi, biroq keyinchalik harakat ancha silliqlashdi. Men bor ovozim bilan bir necha bor baqirdim, lekin foydasi bo'lmadi. Derazadan qarab, bulut va osmondan boshqa hech narsani ko'rmadim. Boshim ustida qush qanotining shovqiniga o'xshash tovush eshitdim, bora-bora ahvolimnin naqadar xavfli ekanligini tushuna boshladim. Aftidan, burgut qutim halqasidan tumshug'i bilan tishlab olib osmonga ko'tarilganga, u yerdan meni qoyalarga tashlab, taxtalar orasidan jasadimni ol-

moqchiga o'xshaydi. Bu ziyrak qushlar toshbaqalarning kosasini sindirish, so'ng ularning go'shtini yeyish uchun ana shunday yo'l tutishadi.

Oradan bir necha daqiqa o'tdi, shovqin zo'rayganini, qanot qoqish tezlashganini sezib qoldim. Birdan qutim, shamol kuchayganda simyog'ochdagi viveska qanday chayqalsa, xuddi shunday chayqala boshladi. Boshim uzra dahshatli qur-qurlash va qandaydir zarba ovozlari eshitdim. To'satdan shuvillaganimcha pastga qulayotganligimni bilib qoldim, yuragim orziqib ketdi. Vahimali shovillash yuz berdi. Shovillash ovozi Niagar shalolasining shovillashidan ham kuchli bo'lib, qulog'imni batangga keltirdi. Bir zum qorong'i o'pqonga cho'kib ketdim; so'ng qutim asta-sekin yuqoriga ko'tarila boshladi, derazaning yuqori tomonidan nur tushdi. Shunda o'zimning dengizda ekanligimni payqadim. Chamasi, meni olib ketayotgan burgutga uning o'ljasini tortib olish uchun ikki-uchta burgut tashlangan. Olishuv paytida burgut qutimni tushirib yuborgan. Quti tubiga qoqilgan vazmin temir taxtalar u pastga qulayotganda muvozanatni ham, uni suv ustida pachoqlanib ketishdan ham saqlab qoldi. Qutining devorlari taxtasi bir-biriga zich kiritilgan, eshiklari esa oshiq-moshiqli bo'lmay, balki ko'tarma derazalar singari ko'tarilar va tushirilar edi. Xullas, xonam zich berkitilgandi, undan suv sal-pal sizib o'tardi. Men belanchakdan zo'rg'a tushib, toza havo kirishi uchun tomdagi qopqoqni o'zgina siljitishga jazm etdim, chunki havo yetishmayotganidan nafasim bo'g'ilayotgan edi.

Xuddi shu lahzalarda azizim Glyumdalklich yonida bo'lish xohishi bir necha bor tug'yon qildi! Undan judo bo'lganimga atigi bir soat bo'ldi, ammo oramizda go'yo katta jarlik paydo bo'lganday edi. Har tomondan menga tahdid qilayotgan xavf-xatar butun diqqat-e'tiborimni qamrab oldi. Shundan bo'lsa-da, bechora enagamni, bu judolik tufayli uning boshiga tushadigan g'am-g'ussani, orzularining chippakka chiqishini, malikaning noroziligini o'ylaganimda ko'z yoshlarimni tiya olmadim. Sayohatchilardan hech kim men singari qiyin va umidsiz ahvolga tushmagandir. Har lahzada qutimning pachoq bo'lishini hamda uni shamol ag'darib yuborishini kutish mumkin edi. Deraza oynalaridan biri sinib qolsa ham o'lishim muqarrar edi. Deraza oynalari esa yengil-yelpi temir panjaralar bilan to'sib qo'yilgan, xolos. Kichik tirqishlardan suv sizib kirayotganinya ko'rib, qo'limdan kelganicha o'sha joylari berkitdim. Qutim qopqog'ini ko'tarishga kuchim yetmasdi, bo'lmasa ochib, tashqariga chiqib olgan bo'lur edim. Tashqarida mana bu kema tubida (agar shunday deyish joiz bo'lsa) o'tirgandan ko'ra bir necha soat ko'proq jon saqlardim. Baribir qutim dengizda bir-ikki kun shikastlan-

may yurganda ham, ochlikdan va sovuqdan o'lishim muqarrar edi. Har daqiqada halokatni kutib, hatto xohlab, to'rt soatcha vaqtni o'tkazdim.

Ilgari aytganimdek, qutimning yalang devoriga ikkita mustahkam halqa o'rnatilgandi, meni otda ko'tarib yuradigan xizmatkor ana shu halqalardan qayish o'tkazib, beliga bog'lab olardi. Qo'qqisidan ana shu halqalar atrofida qitir-qitir ovoz eshitildi, shundan keyin qutim dengiz bo'ylab sudrab ketilayotganday bo'ldi. Goh-goh qutini siltab tortilganini ham payqadim. U suv tubiga botib ketdi, xonam ichiga qorong'ilik tushdi. Bularning hammasi, yordam qayerdan kelishini bilmasam ham, yuragimda qutulish umidini tug'dirdi. Polga mahkamlangan stullarimdan birini chiqarib olishga jazm etdim, uni yaqindagina sal siljilgan tepadagi qopqoq ostiga bir amallab o'rnatdim. Stul ustiga chiqib, bor ovozim bilan yordamga chaqira boshladim. Keyin yog'och uchiga ro'molchamni bog'ladim, uni qopqoqdan chiqardim-da, kema yoki qayiqlar shu o'rtada bo'lsa, ularning diqqatini jalb etish, matrosarga esa shu quti ichida bir bechora odam qamalib yotganini bildirish uchun ro'molchani hilpirata boshladim.

Ammo bu signallarga hech qanday javob ololmadim. Qutining esa hamon oldinga ketayotganini sezib turardim. Oradan bir soatcha o'tdi. Birdan qutining halqa o'rnatilgan devori qattiq bir narsaga urildi. Men bu qoya emasmikan, deb qo'rqib ketdim, chunki quti oldingidan ancha qattiq chayqalardi. Xonam tomida tepadan tushirilgan arqon va yengilgina g'ijillash ovozi eshitildi, halqadan arqon o'tkazilganday bo'ldi. Shundan keyin qutini tepaga ko'tarishayotganini sezib qoldim. Men uchiga ro'molcha bog'langan tayoqni yana ko'tardim, to ovozim xirillab qolguncha baqiraverdim. Bunga javoban uch marta baland xitob ovozi eshitdim. Boshidan menikiday mudhish sarguzashtni kechirgan odamgina o'sha paytdagi sevinchimni tushuna oladi. Boshim uzra oyoq tovushlarini, kimningdir ingliz tilida: «Pastda kim bo'lsa, biror narsa desin!» deganini eshitdim. Men o'zimning ingliz ekanimni, yovuz taqdir boshimga zo'r musibatlarini solganini, bunday kulfatlar hech bir tirik zot boshiga tushmaganini aytib, zindon xonamdan meni qutqarib olishlarini yalinib so'radim. Bunga javoban, men xavfsizlikda ekanligimni, qutim kemaga bog'lab qo'yilganini, ha demay duradgor qutim tomidan meni sug'urib oladigan kattagina teshik ochishini aytishdi. Men esa, bu behudaga vaqt o'tkazish, xolos, ekipaj a'zolaridan birortasi quti halqasiga barmog'ini solib, suvdan ko'tarib olsin hamda kapitan kayutasiga qo'ysin, dedim. Bu gaplarimni eshitgan ba'zi bir matroslar meni jinni deb o'ylashdi, boshqalari esa xandon tashlab kula boshlashdi. Men bo'lsa kuchda va bo'yda o'zim bilan

teng odamlar orasida ekanligimni butunlay unutib qo'yibman, Duradgor kelib bir necha daqiqada to'rt kvadrat fut keladigan teshik ochdi; xonam ichiga uncha katta bo'lmagan narvon tushirishdi, undan yuqoriga chiqdim. Chiqdim-u, butun vujudim bo'shshib ketdi, palubaga meni qo'llarida ko'tarib borishdi.

Hayratga tushgan matroslar menga savol yog'dirishdi, lekin ularga javob qaytarishga juda qiynalдим. Men bir to'da mitti odamlarni ko'rib, o'zimni butunlay yo'qotib qo'ygandim. Chunki men ulkan odamlar va buyumlar orasida yurishga o'rganib qolganimdan jussasi pakana odamlar ko'zimga allaqanday ko'rimsiz maxluqlarga o'xshab ko'rinardi.

Nihoyat kema kapitani, propshirlik, muhtaram mister Tomas Vilkoks hushdan ketadigan ahvolda ekanligimni ko'rib, meni o'z kayutasiga olib kirdi, menga quvvatlantiruvchi dori ichkizib, yotib dam olishni maslahat berdi. Bu men uchun juda zarur edi. Uyquga yotishdan oldin kapitanga qutimda yo'qotish alam qiladigan qimmatbaho buyumlar borligini aytdim. U yerda ajoyib belanchak, safar ko'rpa-to'shagi, ikkita stul, stol va komod bor edi. Xona ichidagi devorlar ipak va qog'oz gazlamalar bilan qoplangandi. Kapitandan qutini matroslardan birontasi uning kayutasiga olib kirib qo'yishini iltimos qildim. Shu yerda qutini ochib, o'z bisotimni unga ko'rsatajagimni aytdim. Bu bema'ni gapni eshitgan kapitan meni alahlayapti, deb o'yladi. Lekin u meni ovuntirish uchun aytganlarimni bajarishga va'da berdi. Shundan so'ng u palubaga chiqib, bir necha matrosga xonam ichiga tushishni buyurdi. Ular u yerdan buyumlarimni olib chiqishdi, devorlardagi gazlamalarni sildirib olishdi. Afsuski, stullar, komod va ko'rpa-yostiqlik — to'shagimga ancha ziyon yetipti: ular polga qadalganini payqab, matroslar ularni sug'urib olishibdi. Qutidan o'zlarini qiziqtirgan hamma narsani olishib, kemada ish beradigan bir qancha taxtalarni sug'urishib, uning tag qismini dengizga uloqtirishibdi. Quti bir zumda suvga to'lib, cho'kib ketipti. Bu voqea yuz bergan paytda o'zim bo'lmaganimdan juda mamnunman. Chunki, bu manzara ta'bimni tirriq qilishiga ishonchim komil edi, keyingi yillarda tortgan azoblarimni esimga solardi.

Men bir necha soat uxladim. Biroq uyququm besaranjom bo'ldi: tushimga yaqinda bo'lgan voqealar va xavf-xatarlar kirdi. Har holda damimni olib, o'zimni ancha bardam sezdim. Kech soat sakkizlar edi. Kapitan meni anchadan beri och bo'lsa kerak deb o'ylab, darhol kechki ovqatni keltirishni buyurdi. Ko'zimda ma'nosiz ifodadan iz ham qolmaganiga va gaplarim ham ma'noliligiga ishonch hosil qilgach, meni zavq bilan siylay boshladi. Yo'lg'iz qolganimizda sarguzash-tlarimni va qanday qilib anovi antiqa qutiga tushib qolganimni aytib berishni

iltimos qildi. U qutini tush paytida durbin orqali ko'ribdi. Avvaliga, bu yelkan bo'lsa kerak, deb o'ylabdi. Yelkan kemasi yurib borayotgan yo'l tomonda bo'lgani uchun bir oz suxari sotib olish umidida unga yaqinlashibdi. Chunki o'zlarida suxari oz qolgan ekan. Yaqinlashgandan keyin, adashganligini sezibdi va bu nima ekan deb, unga qayiq yuboribdi. Matroslar qo'rqib orqaga qaytishibdi, suzuvchi uyni ko'rdik, deb ont ichishibdi. Kapitan ulardan kulib, qayiqqa o'zi tushibdi, matroslarga ikkita baquvvat arqon olishni buyuribdi.

Dengiz osoyishta bo'lganligidan quti atrofini bir necha marta aylanibdi, undagi temir panjarali derazalarni ko'ribdi. Qutining yalang devoridagi ikkita mustahkam halqaga ko'zi tushibdi. Kapitan ana shu halqalardan arqon o'tkazib, sandig'imni (uyimni shunday deb atabdi) kema tomonga sudrab borishni buyuribdi. Bu ish bajo keltirilgandan keyin kapitan boshqa arqonni qutining tomidagi halqadan o'tkazishni va sandiqni palubaga olishni buyuribdi, ammo sandiq vazmin bo'lganidan butun komanda uni ikki-uch fut yuqoriga ko'taribdi, xolos. Kapitan men teshikdan chiqargan tayoq va ro'molchani ko'rganligini ham aytdi, sandiq ichiga birorta odam qamab qo'yilgan deb o'ylashibdi.

Men kapitandan qutim ko'ringan joyda birorta ulkan qushni ko'rdingizmi, deb so'radim. Bu savolimga u matroslardan biri shimol tomonga uchib ketayotgan, o'zimiznikidan uncha katta bo'lmagan uchta burgutni, ko'rganligini aytdi; qushlar juda balandda uchganligidan shunday ko'ringandir. Men nega bunaqa savol berganimni kapitan tushunmadi. Keyin, yerga hali uzoqmi, deb so'radim. U bo'lsa, eng yaqin sohilgacha yuz ligadan ko'proq yo'l bor, dedi. Men adashyapsiz deb, uni bunga ishontirmoqchi bo'ldim, chunki suvga tushmasimdan ikki soatgina ilgari o'zim yashagan mamlakatni tark etgandim-da.

Shunda kapitan jiddiy qiyofaga kirdi, meni o'zimga ajratilgan kayutaga borib, yaxshigina uxlab olishimni maslahat berdi. Keyin, tortgan kulfatlarim miyamni aynitib qo'yganini pisanda qildi. Xo'jayinimni, meni zo'r iltifot bilan qarshi olganligi tufayli o'zimni yaxshi his qilayapman, deb ishontirdim. Shunda u ochiq-oshkora gapirishni iltimos qildi. Men bunga rozilik bildirdim, albatta. Kapitan bir oz o'y surib turib, mana shu sandiqqa tushishimga sababchi bo'lgan dahshatli jinoyat vijdonimni azoblashidan aqlim o'tmaslashib qolgan-qolmaganligini so'radi. Ba'zi mamlakatlarda eng ashaddiy jinoyatchilarni sharti ketib, parti qolgan eski kemalarga o'tqazib, dengizga qo'yib yuborishlari unga ma'lum ekan. Kapitan o'zi bilan hech narsani yashirmasdan, oshkora gaplashaverishim lozimligini qo'shib qo'ydi. Kemaga menday jinoyatchini olganidan o'zini hech qachon ke-

chirmasmish, lekin bo'lar ish bo'lganmish, meni yaqinroqdagi portga sog'-salomat yetkazib borarmish.

Men o'z navbatida kapitandan sabr-qanoat bilan hikoyamni eshishni iltimos qildim. Men Angliyadan chiqqanimdan boshlab, to u mening qutimni ko'rgunga qadar bo'lgan hamma sarguzashtlarimni, tortgan kulfatlarimni vijdonan aytib berdim. Haqiqat hamisha aqlli va mulohazali odamning ongiga yo'l topadi. Zo'r aql va ma'lumot egasi bo'lgan bu e'tiborli jentelmanning aytganlarimning hammasi samimiy va to'g'riligiga ishonishi tabiiy edi. Undagi so'nggi shubhalarni ham tarqatib yuborish istagida, kapitandan komodinni olib kelishlarini iltimos qildim, uning kaliti cho'ntagimda edi. Komodni ochib, o'zim g'alati usulda tark etgan mamlakatda to'plagan — uncha katta bo'lmagan nodir kolleksiyamni oldim. Bu yerda qirol soqolidan yasalgan taroq, oliy hazratlari boshmaldog'ining tirnog'idan yasalgan stul suyanchig'i bor edi. Shuningdek, uzunligi bir futdan yarim yardgacha keladigan igna va to'g'nag'ichlar kolleksiyasi; malika soch taraganda men yig'ishtirib olgan bir tutam soch; malika jimjilog'idan olib, menga hadya qilgan va marjon o'rnida bo'yninga taqib qo'ygan oltin uzuk ham bor edi. Men kapitandan menga ko'rsatgan xizmati uchun minnatdorchilik belgisi o'rnida shu uzukni qabul etishini iltimos qildim, biroq u iltimosimni butunlay rad etdi. Men unga bir freylinning oyog'i panjasidan o'zim kesib olgan qadoqni ham ko'rsatdim; qadoqning kattaligi rosmama olmaday kelardi, u shu qadar qattiq ediki, Angliyaga qaytganimdan keyin uning o'rtasini o'yib, usti yopiq idish yasadim, uni kumush gardish bilan o'radim. Nihoyat, kapitandan sichqon terisidan tikilgan shimimga nazar solishini so'radim.

Kapitan zo'r qiziqish bilan tomosha qilayotgan saroy malayining tishini mendan sovg'a tariqasida qabul etishga uni arang ko'ndirdim. Kapitan arzimagan ushbu sovg'ani zo'r mamnuniyat bilan qabul qildi. Uncha tajribasi yo'q jarroh bu tishni Glyumdalklichning tish og'rig'idan azob chekayotgan xizmatkorlaridan birining og'zidan adashib sug'urib olgan edi. Tish mutlaqo soppa-sog' edi. Men uni tozalab, antiqa narsa sifatida komod ichiga berkitib qo'ygandim. Uning uzunligi bir futga yaqin, diametri to'rt dyuym kelardi.

Kapitan o'ta tabiiy hikoyamni eshitib rosa huzur qildi. Angliyaga qaytganimdan keyin bularning hammasini yozma ravishda bayon etishimga, kitob qilib bostirishimga katta umid bildirdi. Uning fikricha, bu ishim bilan insoniyatga juda katta xizmat ko'rsatarmishman. Sarguzashtlarim e'tiborga sazovor bo'larmidi deb, kapitanga e'tiroz bildirdim. Hozirgi paytda kitobxonni ajablantirish ancha

qiyin. dedim. Chunki ko'pgina mualliflar haqiqat uchun emas, balki o'zlarining shuhratlarini yoyish uchun jon kuydirishadi, nodon kitobxonlarni g'alati uydirmalari bilan ovutmoqchi, xushnud etmoqchi bo'lishadi. Ularning rivoyatlari oldida mening kitobim zerikarli, suyuq bo'lib qolishi, biron unga e'tibor ham bermasligi mumkin. Har holda, men kapitanning bu haqdagi maqtoqli fikri va maslahati uchun unga minnatdorchilik bildirdim.

Kapitan nima uchun bunchalik baqirib gapirishimga qiziqib qoldi, siz istiqomat qilgan o'sha mamlakatning qiroli va malikasi kar emasmi, deb so'radi. Bu — ulkanlar mamlakatida ko'p vaqt bo'lganimning kasri, deb tushuntirdim. Ular bilan gaplashish uchun qo'ng'iroqxona ustida turgan odam bilan gaplashganday gaplashish kerak, dedim.

O'z navbatida uning gaplariga quloq solib o'tirib, go'yo u shivirlab gapirayotganday bo'lganini ham e'tirof etdim. Men unga boshqa bir taassurotimni ham gapirib berdim: kemaga chiqqanimdan keyin matroslar atrofimni qurshab olgach, ular bo'y-bastlari juda ko'rimsiz maxluqlar bo'lib ko'rindi. Ko'zim nihoyatda bahaybat narsalarni ko'rishga o'rganib qolganidan o'zimni oynaga solib qarolmasdim, chunki bu narsa ham mening ko'rimsizligim haqida ko'ngilsiz fikr tug'dirishi mumkin edi. Kapitan, kechki ovqat paytida har bir buyumga ajablalab qaraganimni, kulgidan o'zimni zo'rg'a tiyib o'tirganimni payqaganini aytdi. Bu g'alati qilg'imning sababini tushuna olmay, bechoraning aqli sal-pal kirdichiqdi bo'lib qolibdi-da, deb o'ylabdi.

Men uning kuzatuvlari mutlaqo to'g'ri ekanligini tan oldim, axir uning o'zi ham bir o'ylab ko'rsin, uch pens kattalikdagi idish-oyoqlarni, bir martada tushirish mumkin bo'lgan son go'shtini, yong'oq po'chog'iday keladigan qadahlarini va boshqalarni ko'rganda kulmay bo'ladimi.

Kapitan hazilimni yaxshi tushundi, bunga: ko'zingiz oshqozoningizdan katta. — degan ingliz maqoli bilan javob qildi, kun bo'yi tuz totmaganligimga qaramay ishtahamning mazasi yo'qligini ham sezibdi. U kulishda davom etib, burgut qutimni tumshug'ida ko'tarib borganini va shunday balandlikdan pastga tashlab yuborganini bir miriqib ko'rsa yuz funt berishga ham tayyorligini aytdi. Chamasi, bu kelgusi avlodlarga ham bayon qilsa arziguday antiqa tomosha bo'lsa kerak.

Kapitan Tonkinda¹⁹ bo'ldi, Angliyaga qaytishda kema shimoli-sharq tomonga surildi, u 44 daraja shimoliy kenglikda va 143 daraja sharqiy uzunlikda edi.

19 Tonkin — Hindi-Xitoydagi shahar.

Meni bortga olishgandan keyin ikki kun o'tgach, passat shamoliga duch keldik va janub tomonga ancha yurdik; Yangi Gollandiyadan o'tib, g'arb-janub-g'arb tomon, keyin janubi-g'arb tomon yo'l oldik va nihoyat, Yaxshi Umid burunini aylanib o'tdik. Safarimiz bexatar bo'ldi, uni tavsiflab kitobxonning me'dasiga tegmayman. Kapitana suv hamda oziq-ovqat uchun bir-ikki marta portlarda to'xtadi. Men to Daunsga borguncha kemadan bir marta ham tashqariga chiqmadim. Bu ozod bo'lganimdan keyin to'qqiz oy o'tgach, ya'ni 1706 yil 3 iyunda yuz berdi. Men kapitanga kemada kelganim uchun o'zimdagi hamma narsani bermoqchi bo'ldim, lekin u mendan bir farting ham shilishga unamadi. Biz do'stona xayrlashdik, undan menikiga — Redrifga tashrif buyurishi haqidagi va'dasini oldim. Kapitandan olgan besh shilingga ot va yo'l boshlovchi yolladim.

Uyga qaytayotib, judayam mayda uy va daraxtlarni, odamlar va hayvonlarni ko'rib, o'zimni Liliputiya yurganday tasavvur qildim. Men yo'lda duch kelgan yo'lovchilarni bosib olishdan qo'rqib, yo'l berishlarini so'rab, ha deb «po'sht-po'sht»lab baqiraverdim. Bu qo'polligim qimmatga tushishiga sal qoldi: tosh otib, peshanamni yorib qo'yay deyishdi. Azaldan tanish joylarni zo'rg'a tanidim, uyimga boradigan yo'lni so'rashga to'g'ri keldi. Xizmatkor eshikni ochdi. Ostonadan hatlayotib, boshimni (g'oz darvoza tagidan o'tayotganday) pastga egdim: boshimni kesakiga urib olishdan qo'rqdim. Xotinim peshvoz chiqib, meni quchoqlamoqchi bo'ldi. Biroq men uning tizzasidan ham past egildim: quchoqlaganda bo'yi yuzimga yetmaydi deb shunday qildim. Qizim duo qilishimni kutib tiz cho'kdi. Lekin ulkanlar bilan gaplashaverib, boshimni yuqoriga ko'tarishga shunchalik o'rganib qolibmanki, uning tiz cho'kkanini payqamabman. Xizmatkorga, uyimda bo'lgan ikki-uch tanishimga, ulkan odam pakanaga qaragandek tepadan qaradim. Xotinimga, pulni tejab-tergab sarflaganing uchun o'zing ham, qizim ham allaqanday nimjon odamlarga o'xshab qolibsizlar, deb ta'na qildim. Xullas, o'zimni shunaqayam g'alati tutdimki, yaqinlarim bu odam aqldan ozib qolmadimikan, deb shubhalanishdi. Men bularni odat hamda noto'g'ri fikrning kuchi naqadar zo'rligini ko'rsatish uchun eslatib o'tyapman.

Ko'p o'tmay oila a'zolarim va boshqa do'stlarim bilan o'zim o'rtamdagi anglashilmovchiliklar barham topdi, lekin xotinim endilikda hech ham dengiz yuzini ko'rmasligimni qat'iyon aytib qo'ydi. Ammo yovuz taqdir boshqacha yo'l tutdi, va (kitobxon buni ha demay bilib oladi) hatto xotinim ham meni o'z yurtimda ushlab qololmadi. Shu bilan baxtsizliklarga to'la sayohatimning ikkinchi qismini tugallayman.

**LAPUTU, BALNIBARBI,
LAGGNEGG, GLABBDORIB
VA YAPONIYAGA SAYOHAT**

BIRINCHI BOB

MUALLIF UCHINCHI SAYOHATGA OTLANADI. U QAROQCHILAR QO'LIGA TUSHADI. YOVUZ GOLLANDIYALIK. MUALLIF ODAM YASHAMAYDIGAN OROLDA. MUALLIFNI LAPUTUGA QABUL QILISHADI.

Uyga qaytganimdan keyin o'n kun o'tgach, uyimga uch yuz tonna yuk ko'taradigan «Yaxshi umid» nomli katta kemanding kapitani kornuelslik Vilyam Robinson tashrif buyurdi. Bir zamonlar uning Levantga qatnaydigan kemasida jarroh bo'lib ishlagan edim. U bilan aka-ukaday bo'lib qolgandik, u menga hech qachon o'z qo'li ostidagi odam deb qaramasdi. Uning bu tashrifi eski qadrtoni bilan diydor ko'rishish istagi natijasi bo'lsa kerak. Dastlabki uchrashuvimizda uzoq ayriliqdan keyin do'stlar o'rtasida qancha gap bo'lsa, shundan ortiq gaplashmadik. Keyin u biznikiga tez-tez keladigan bo'ldi, meni sog'-salomat ko'rayotganligidan xursand bo'lganini izhor qildi. Angliyani tark etmaslikka uzil-kesil qaror etgan-etmaganimni so'radi, ikki oydan keyin Sharqiy Hindistonga jo'nash niyati borligini aytdi. Nihoyat, juda ko'p afv so'rashlar va izoh-shartlardan keyin meni o'z kemasiga jarrohlikka taklif qildi. Kapitan, yordamchim — ikkinchi jarroh ham bo'lishini, ikki barobar oshiq maosh olishimni aytdi. Gapining oxirida, u bilan bab-baravar kemaga qomondonlik qilish qo'limdan kelishini qistirib o'tdi.

Kapitan shirin-shakar so'zlarni shunchalik tizib tashladiki, asti qo'yavering, u ancha bama'ni odam bo'lganidan uning taklifini rad eta olmadim. Boshimga shuncha kulfatlar tushganiga qaramay, olamni ko'rish ishtiyoqi oldingidan ham battar zo'

rayib ketdi. Bitta mushkul ish qolgandi — xotinimni ko'ndirishim kerak edi. Sayohat bola-chaqalarimizga qanday naf keltirishini aytib, har qalay uning roziligini oldim.

Biz 1706 yilning 5 avgustida safarga otlanib, 1707 yilning 11 aprelida Sen-Jorj Fortiga²⁰ yetib keldik. U yerda uch hafta qolib ketdik. Matroslarimiz orasida bemorlar ko'p bo'lganidan ekipajni to'ldirishimiz kerak edi. U yerdan Tonkinga jo'nadik. Tonkinga kapitan ancha to'xtab qoldi, chunki unga kerakli mollarni tayyorlash va kemaga topshirish ishini bir necha oy ichida tugallab bo'lmasdi. Kema to'xtab turgandagi xarajatlarni qoplash uchun kapitan shlyupka sotib oldi, unga turli bозorgir mollarni ortib, mening rahbarligim ostida qo'shni orollarga yubordi. Menga u Tonkinga o'z ishlarini tugatganiga qadar ana shu mollarni sotib kelish topshirildi.

Shlyupkada mendan tashqari komandaning o'n to'rt odami bo'lib, ularning uchtasi yerli, mahalliy xalqdan edi. Yo'lga chiqqanimizga uch kun bo'lgani yo'q ediki, birdan kuchli bo'ron ko'tarildi. Beshafqat shamol besh kun davomida avval shimoli-sharq, keyin esa sharq tomonga haydab bordi. Shundan keyin, garchi kuchli g'arb shamoli esib tursa-da, havo ochilib ketdi. Uchinchi kuni orqamizdan qaroqchilarning ikki qayig'i quvlay boshladi. Shlyupkamizning yuki og'ir bo'lganidan tez suza olmasdik, ko'p o'tmay ular bizni quvib yetishdi.

Qayig'imiz qaroqchilar changaliga tushdi, har ikkala kema kapitanlari o'z odamlari bilan bir vaqtning ichida shlyupkaga bostirib kirishdi. Har qanday qarshilik ko'rsatish befoйда ekanligiga aqlim yetib, komandaga yuz tuban yotishga buyruq berdim. Shuning sharofati bilan qon to'kilmadi. Qaroqchilar qo'l-oyog'imizni mahkam bog'lab, yonimizga soqchilar qo'ygan holda kemamizni tintuv qilish bilan kifoyalanishdi.

Qaroqchilar orasida bir gollandiyalik ham borligini payqab qoldim. Garchi u komandir bo'lmasa-da, obro'yi ancha yaxshiga o'xshab ko'rindi. U o'sha zahotiyoyq bizning ingliz ekanligimizni bilib qoldi va rosa haqoratlab, bir juft, bir juft qilib, orqana-orqa bog'lab dengizga uloqtiraman*, deb qasamyod qildi. Men unga murojaat qilib, hammamiz xristian va protestantlar ekanligimizni, uning vataniga qo'shni bo'lgan do'st mamlakat fuqarolari ekanimizni e'tiborga olishini iltimos qildim. Shuning uchun ham bizga do'q urmasdan, balki, aksincha, komandirlari oldida bizni himoya qilishi lozimligini aytdim. U do'q urishda davom etdi, o'z o'rtoqlariga burilib, chamasi yapon tilida, nimanidir kuyib-pishib uqtira boshladi, gap orasida tez-tez «xristianos» so'zini takrorladi.

20 Sen-Jorj Forti — Hindistondagi Madras shahrining qadimiy nomi.

Kattaroq kemandi komandiri yapon bo'lib, uncha-muncha gollandchani bilarkan. U menga yaqinlashdi, savollar berdi, unga odob bilan javob qaytardim, u bizni o'ldirmaslikka va'da berdi. Men kapitanga egilib ta'zim bajo keltirdim, gollandga murojaat qilib, xristian og'amizga qaraganda majusiylarda shafqat zo'rroq ekan, dedim. Bu betga choparligimdan ko'p o'tmay pushaymon yedim. Bu yaramas meni dengizga uloqtirish lozimligini kapitanlarga ha deb uqtiravergach, nihoyat meni o'limdan ham battar bir jazoga mahkum etishdi. Odamlarimni teng ikkiga bo'lishib, har ikkala qaroqchilar kemasiga o'tqizishdi. Meni esa uncha katta bo'lmagan yelkanli qayiqqa o'tqazib, to'rt kunlik ovqat solib, shamol va to'lqinlar ixtiyoriga topshirishga qaror berishdi. Yapon kapitan ancha saxiy odam ekan, o'z zaxirasidan ovqatlarni ikki baravar ko'paytirdi, meni tintuv qilishni man etdi. Qayiqqa tushayotganimda gollandiyalik palubada turib olib, bisotidagi bor so'kish va haqoratlarga meni ko'mib tashladi.

Qaroqchilar bilan uchrashganimizdan keyin bir soatcha o'tgach, hisob-kitob qilib ko'rib, 46° shimoliy kenglik va 183° sharqiy uzunlikda ekanligimizni aniqladim. Qaroqchilar ko'zdan g'oyib bo'lgach, durbinimni qo'lga olib, ufq tomonni obdon ko'zdan kechirdim: janubi-sharq tomonda bir necha orollarni ko'rdim. Yelkanni ko'tarib, o'sha yoqqa yo'l oldim. Hamroh shamol esib turardi, uch soatlardan keyin orollardan biriga yetib bordim. Qoyalardagi son-sanoqsiz qush uyalariga ko'zim tushdi, hayal o'tmay anchagina tuxum yig'ishtirib oldim. Yonimda chaqmoqtosh va pilik bor edi. Pilikni o't oldirib, quruq archagul va yo'sinlardan gulxan yoqib, tuxum pishirdim. Kechki ovqatim shu bo'ldi, chunki yonimdagi ovqatlarimni imkoni boricha qora kunga saqlayotgan edim. Kechasi oldinga turib chiqqan qoya tagida ostimga yo'sin to'shab, miriqib uxladim.

Ertasi kuni boshqa orolga, undan uchinchi va to'rtinchisiga o'tdim. Faqat beshinchi kun deganda, zerikarli va toliqtiruvchi sayohatdan keyin, nihoyat, ana shu orollarning eng sharq tomonidagisiga yetib bordim. U dengizning ancha ichkarisida ekan, unga o'tish uchun besh soat vaqtim ketdi. Uning sohillariga hech yo'lab bo'lmas ekan, ancha urinishlardan keyin qayiq to'xtatadigan joyni zo'rg'a topdim. Bu mening qayig'imga o'xshash qayiqlardan ikki-uchtasi arang joylashadigan kichkinagina ko'rfaz edi. Orolning tuprog'i toshli, giyohsiz edi. Faqat unda qoyalar oralig'ida nimjon butalar va xushbo'y o'simliklar ko'zga tashlanardi.

Ovqatimdan olib, oz-moz tamaddi qildim. Qolganini tunamoqchi bo'lgan joyimdagi — sohil qoyalari oralig'idagi g'orga ehtiyotlab yashirib qo'ydim. Qoyalar ustidan anchagina tuxum yig'ib oldim, so'ng g'or ichiga bir-ikki bog' quruq o't va yo'sinlarni keltirdim — nonushtamga tuxum pishirib yemoqchi bo'ldim.

O't-o'lan va yo'sinlar menga yana ko'rpa-to'shak bo'ldi. Lekin juda yomon uxladim. Charchaganligimga qaramay, tashvishli o'ylardan uyqum o'chib ketdi. Men xalos bo'lishimga umid ozligi haqida o'ylab, qayg'uli kechishimni ko'z oldimga keltirdim. Bu meni shunchalik ezdiki, o'rnimdan turishga aslo qurbim yetmadi.

G'ordan tashqariga chiqqanimda kun yorishib ketgandi. Qoyalar orasida bir oz kezib yurdim. Osmon musaffo, quyosh omonsiz olov purkardi. Birdan hamma yoq qorong'ilashib ketdi, lekin bu quyosh bulutlar orasiga kirganda bo'ladigan qorong'ilikka o'xshamasdi. Tepaga qarab, yerdan ikki milya balandlikda orol tomon siljib kelayotgan kattagina qora jismni ko'rdim. Xuddi shu narsa quyosh yuzini bir necha daqiqaga to'sib qo'ydi. Lekin men havoning soviganini ham, osmonning qorong'ilashganini ham payqamadim. Men qoya soyasida qolganday edim. Ana shu jism yaqinlashganda mundoq qarasam, u qandaydir qattiq moddadan iborat ekan. Uning yer tomonga qaragan ost qismi silliq va tekis edi; u quyosh nurida tovlangan dengiz singari jilolanardi. Men sohildan ikki yuz yard naridagi baland qoya ustiga chiqib, bu ulkan jism pastga tik og'ib tushayotganini ko'rdim. Jism bilan mening oralig'im bir ingliz milyasicha kelardi. Ko'zimga durbin tutib, jismning nishab tomonlarida tepaga chiqib, pastga tushib yurgan odamlarni ko'rdim. Lekin ularning nima qilishayotganligini farqlay olmadim.

To'satdan sevinganimdan terimga sig'may ketdim. Menda bu sarguzashtim xalos bo'lish va erkinlikka chiqishga imkon beradi, degan umid tug'ildi. Lekin shu bilan birga (kitobxon buni osongina fahmlaydi) o'zida odamlar yashaydigan, ana shu odamlarning istagi bilan harakat qiladigan — osmonda uchib yurgan orolga ta'rifga sig'mas bir hayrat bilan tikilardim. Ammo bu daqiqada ana shu mavzuda faylasufona fikr yuritishdan ancha yiroq edim. Meni ko'proq orolning qayoqqa qarab siljiyotgani qiziqtirardi. U, nazarimda, osmonda muallaq turib qolganday edi. Lekin bir necha daqiqadan keyin u yana harakatga tushdi va menga shu qadar yaqinlashib keldiki, undagi narsalarni bema'lol ko'ra oldim.

Orolning chetlari bo'ylab bir-birining ustiga mingashgan, pog'ona bo'lib joylashgan keng galereyalar cho'zilgandi. Nishab narvonlar ularni bir-biri hamda orol cho'qqisi bilan tutashtirib turibdi. Eng quyi galereyada tikka turgan va o'tirgan bir necha kishi bor edi; ularning ba'zilari uzun qarmoq bilan baliq tutyapti, boshqalari esa buni tomosha qilishyapti. Men tungi qalpog'imni silkita boshladim (shlyapam allaqachonlar eskirib ketgandi), orol qoyaga juda yaqinlashib qolganda esa bor ovozim bilan baqirishga tushdim. Bir necha daqiqadan keyin, orolning menga qaragan tomonida odamlar to'planayotganligini sezdim. Odamlar barmoq-

lari bilan meni ko'rsatishar, qo'llari bilan qizg'in imo-ishoralar qilishardi. Garchi baqirishlarimga javob qaytarishmasa-da, ular meni ko'rishganini angladim. Birdan olomondan to'rt yo besh kishi ajralib chiqdi va shoshgancha narvonlar orqali orolning yuqori tomoniga qarab ketdi. Ular ko'zimga ko'rinmay qolishdi. Bu odamlar qandaydir muhtaram bir zotning buyrug'ini olish uchun ketishganiga aqlim yetdi.

Olomon ko'paygandan ko'payaverdi. Oradan yarim soat o'tar-o'tmas orolning, quyi galareyasini men turgan qoya cho'qqisiga yuz yard masofaga yaqinlashtirildi. Men yalinib-yolvoruvchi kishi holatiga kirdim, yordam berishlarini o'tinib so'ray boshladim. Ammo yalinishlarim oqibatsiz qoldi. Boshqalarga nisbatan menga yaqinroq turgan odamlar, kiyim-boshlariga qaraganda, zodagonlar edi. Ular men tomonga tez-tez ko'z tashlab, allanarsa haqida qizg'in bahslashishardi.

Nihoyat ulardan biri ohangi italyan tilini eslatuvchi aniq, ohangdor, yoqimli bir tilda allanima deb qichqirdi. Men italyancha javob qildim: nazarimda, ular meni tushunishmagan taqdirida ham boshqa tillarga qaraganda italyancha nutq ularga yoqib qoladiganday edi. Lekin nimani talab qilayotganimni gap-so'zsiz ham tushunish mumkin edi.

Menga qoyadan sohilga tushishni ishora qilishdi. Men bu taklifga darhol bo'ysundim. Uchar orol naq tepamga yaqinlashdi. Bir zunda tepadan o'tirg'ichi bor zanjir tushirishdi. Men unga o'tirdim, bloklar yordamida meni orolga tortib olishdi.

IKKINCHI BOB

LAPUTULIKLARNING XARAKTERI VA URF-ODATLARI. LAPUTU FANI. QIROL VA UNING SAROYI. MUALLIFNING SAROYDA QANDAY QABUL QILISHGANI. LAPUTULIKLARNING HADIK VA TASHVISHLARI. LAPUTULIKLARNING XOTINLARI.

Orolga chiqishim bilanoq olomon meni qurshab oldi. Menga yaqin turgan odamlar, chamasi, yuqori tabaqaga mansub edi. Hamma meni zo'r hayrat ichida tomosha qilardi. Biroq, hayratlanishda men ham ulardan qolishmasdim: umrim bino bo'lib gavdasi, kiyimi, yuz ifodalari odamni bumchalik hayronlikka soladigan kishilarni ko'rmagan edim. Ularning boshi yo o'ngga, yo chapga qiyshaygan edi; ko'zlarining biri yuqoriga qarasa, boshqasi

pastga boqardi, hammalari g'ilay edi. Ustki kiyimlarini esa quyosh, oy, yulduzlar bilan skripka, surnay, arfa, karnay, gitara, klavikord va Yevropada ma'lum bo'lmagan boshqa musiqa asboblari oralatib solingan suratlar bezab turardi. Sal narida xizmatkor kiyimidagi bir necha kishini ko'rdim. Ular kichikroq tayoqcha ushlab olishgandi. Tayoqlar uchiga havo to'ldirilgan pufaklar bog'langan edi.

Keyin menga aytib berishlaricha, pufakning ichiga ozgina qurigan no'xat yoki mayda toshchalar solingan ekan. Vaqti-vaqti bilan xizmatkorlar ushbu pufaklarni oldilarida turgan xojalarining lab va quloqlariga shapillatib urib turisharkan.

Nima uchun shunday qilishlarini anchagacha bilolmay yurdim. Chamasi, bu odamlar chuqur o'yg'a tolib yurishgani sababli suhbatdoshining gapini eshitmaydi, unga javob berishmaydi ham. Ularni hushyor torttirish uchun eshitish va gapirish a'zolariga qandaydir tashqi jismoniy ta'sir etish lozim. Shuning uchun ham boy-badavlat odamlar yonlarida shapillatuvchi (ularning tilida *klaymenole*) saqlashar, ularsiz ko'chaga chiqishmasdi. Shapillatuvchining vazifasi bir necha odam bir-biriga duch kelib qolganda, kim gapirishi lozim bo'lsa, o'sha odamning labiga, kim eshitadigan bo'lsa, uning qulog'iga pufakni shapillatib urib qo'yish, xolos. Sayr paytlarida esa shapillatuvchi vaqti-vaqti bilan xojasining ko'ziga urib qo'yadi, aks holda u har qadamda o'nqir-cho'nqirga tushib ketishi yoki boshini xoda-podaga urib olishi, boshqa yo'lovchilar bilan to'qnashib ketishi mumkin.

Kitobxonga ushbu tafsilotni to'la bayon qilishga majburman. Bo'lmasa o'zim singari, ularning meni narvon bilan orol tepasiga olib chiqishdagi va u yerdan qirol saroyiga olib kirishdagi g'ayri tabiiy xatti-harakatlarini tushuna olmaydi. Narvondan ko'tarilayotib, ular nima qilishlari lozimligini unutib, gohida mendan orqada qolib ketishardi. Shunda shapillatuvchilar xojalarini hushyorlikka chaqirishardi. Chamasi, mening tashqi qiyofam ham, kiyim-kechagim ham, chuqur o'yg'a tolisidan yiroq bo'lgan oddiy kishining hayratdan xitob qilishlari ham ularga hech qanday ta'sir etmadi.

Nihoyat saroyga yetib bordik va qabul zaliga kirdik. Bu yerda baland taxt ustida, arkoni davlat qurshovida qirol o'tirardi. Taxt qarshisida katta stol bo'lib, uning usti globuslar, planeta doiralari va turli xil matematik asboblari bilan to'la edi. Bizning kirib kelishimiz saroy ahlining ancha shov-shuviga sababchi bo'lgan bo'lsa-da, oliy hazratlari bizga zarracha e'tibor bermadi. Qirol qiyin masalani yechish ustida bosh qotirib o'tirardi, to u masalani yechguncha bir soat kutib turdik. Qirolning ikki tomonida ikki shapillatuvchi mahram bor edi. Qirol masalani yechib bo'lganini ko'rgan mahramlardan biri, odob bilan, qirolning labiga, bosh-

qasi o'ng qulog'iga pufak bilan urdi. Qirol bir seskanib, nazarini menga va meni kuzatib kelgan kishilarga qarattirdi. U bir necha og'iz so'z qotdi, shundan keyin pufak bilan qurollangan yoshgina bir yigit darhol yonimga keldi va pufak bilan o'ng qo'ltig'imga sal urib qo'ydi. Men imo-ishora bilan bunaqa eslatishga muhtoj emasligimni aytdim. Keyinroq bilishimcha bu narsa oliy hazratlari va butun saroy ahlida mening aql-idrokim xususida yaxshi fikr tug'dirmabdi.

Qirol menga bir qancha savollar berdi. Men o'zim bilgan hamma tilda unga javob qaytardim. Bir-birimizni tushunmayotganimiz ma'lum bo'lgach, qirol meni saroydagi yotoqxonalaridan biriga olib borishni buyurdi, u yerda menga ikkita xizmatkor tayinlashdi. Ilgari men ko'rgan podsholarga qaraganda, ushbu qirol xorijiyarlarga sermulozimatliligi bilan ajralib turardi. Tushlik ovqat tortishdi, taxt qo'yilgan zalda qirol yonida ko'rgan to'rtta amaldorim menga zo'r izzat-ikrom ko'rsatishib, birga ovqatlanishdi. Tushlik ikki bo'lib berildi, har safar uch xil taom tortildi. Dastavval teng tomonli uchburchak shaklida kesilgan qo'yning kurak go'shtini, romb shaklida kesilgan mol go'shti va sikloid shaklida kesilgan puding berildi. Keyingi safar skripka shaklida tayyorlangan ikkita g'oz, surnay shaklidagi kolbasa va sosiska arfa shaklidagi buzoq go'shti tortildi. Xizmatkorlar biz yeydigan nonlarni konus, silindr, parallelogramm va boshqa geometrik shakllarga o'xshatib kesishdi.

Ovqat mahalida ba'zi narsalarni bu yerliklar tilida qanday atashlarini so'radim. Shapillatuvchilarning yordamida amaldorlar iltifot bilan javob qaytarishdi. Aftidan, agar ular bilan gaplashish imkoniga ega bo'lsam ularning qobiliyatligidan o'ta taajjubga tushishimga umid bog'lashgandi. Ko'p o'tmay suv, non va o'zimga zarur bo'lgan boshqa narsalarni so'raydigan bo'lib qoldim.

Tushlikdan keyin hamtovoqlarim ketishdi, huzurimga qirolning buyrug'iga binoan bir shapillatuvchi kuzatuvida boshqa bir amaldor keldi. U o'zi bilan patqalam, siyoh qog'oz va uch-to'rt kitob keltirdi hamda menga shu yerliklar tilini o'rgatajagini imo bilan tushuntirdi. Biz to'rt soat mashg'ulot o'tkazdik, shu vaqt ichida bir necha so'z yozdim va bir qancha uncha katta bo'lmagan jummalarni yodlab oldim. O'qituvchim xizmatkorlardan biriga biror narsani olib kelishni yoki burilishni, ta'zim qilishni, o'tirishni, tikka turishni, yurishni va boshqalarni buyurardi, men esa uning buyruqlarini takrorlar va har bir so'zini yozib olardim. U menga kitoblardagi quyosh, oy, yulduz, burj, tropik va qutb doiralarni ko'rsatdi, ko'pgina yassi shakllar va stereometrik jismlarning nomini aytdi. U musiqa asboblari nomini aytib yozdirdi, ularning har birini chalishda qo'llaniladigan texnik terminlar bilan tanishtirdi. U ketgandan keyin yana shu so'zlarning ham-

masini izohi bilan alifbe tartibida joylashtirdim. Xotiramning zoʻrligi tufayli bir necha kun ichida laputu tilini ancha oʻzlashtirib oldim.

Men *Laputa* soʻzining qayerdan olinganini bari bir bilolmadim, buni men *uchuvchi* yoki *suzuvchi orol* deb tarjima qilaman. *Lap* qadimiy, isteʼmoldan chiqib ketgan soʻz boʻlib, yuksak maʼnosini bildiradi, *untu* — hukmdor demakdir; demak, olimlarning taʼkidlashicha, *Laputa* soʻzi buzib aytilgan *Lapuntu*. Ammo men bunaqa izohlarga qoʻshila olmayman, u nazarimda bir oz yasamaroq. Oʻsha yerlik olimlarga bu soʻzning kelib chiqishi haqidagi oʻz taxminimni aytishga jurʼ-at etdim. Menimcha, *Laputa lapauteddin* boshqa narsa emas: *lap* quyosh nurlarining dengiz sathida jilolanishi, *auteddin* qanot maʼnosini bildiradi. Aytmoqchi, men oʻz taxminimning toʻgʻriligiga ishonolmayman, shu sababli uni toʻgʻri fikr yurituvchi kitobxonlar eʼtiboriga* havola qilaman.

Qiroli tomonidan menga gʻamxoʻrlik qilish buyurilgan saroy amaldorlari kirchir, toʻzib ketgan ust-boshimni koʻrishib, darhol tikuvchini chaqirishdi va mendan oʻlchov olishni buyurishdi. Chevar buyruq olgach, yevropalik tikuvchilarga qaraganda butunlay boshqacha yoʻl tutdi. U eng avvalo kvadrant yordamida boʻyimni oʻlchadi, keyin sirkul va jazvar olib, qogʻozda tanamning hajmi va taxlitini hisoblab chiqdi. Olti kundan keyin ust-boshim tayyor boʻldi. U mening boʻy-bastimga mutlaqo nomunosib tikilgandi, egnimga hech oʻtirishmasdi. Chevar, oʻz hisob-kitobimda birorta xatolik ketgan boʻlsa kerak, dedi. Biroq men bunga unchalik achinmadim. Oʻz kiyimimni atrofimdagi saroy amaldorlariniki-ga taqqoslab, bunaqa xatoliklar bu yerda koʻplab uchrashiga amin boʻldim.

Boshimga tushgan kulfatlardan keyin oʻzimni ancha bedarmon sezdim. Buning ustiga kiyim-kechagim ham durustroq emas edi. Shu vajdan bir necha kunni xona ichida oʻtkazdim, shu muddat ichida bu yerliklar tilini oʻrganishni ancha mukammallashtirdim. Saroyga keyingi safar tashrif buyurganimda qirolning koʻpgina savollariga qoniqarli javob bera oldim. Oliy hazratlari orolni shimoli-sharq tomonga — qirollikning pastda, yer yuzasida joylashgan poytaxti Lagado tomon yoʻnaltirishga buyruq berdi. Buning uchun toʻqson liga yoʻl bosish kerak edi, shuning uchun ham sayohatiniz toʻrt yarim kun davom etdi. Shunisi qiziqi, orolning osmondagi shitobli harakatini hech sezmadim. Ertasi kuni soat oʻn birlarga yaqin qiroli, zodagonlar, saroy ahli va amaldorlar qoʻllariga soz olishib konsert berishdi. Konsert uch soatgacha uzluksiz davom etdi. Men mutlaqo karaxt boʻlib qolgandim, bularning hammasi nima uchun qilinayotganini aslo tushunib yetmadim. Ammo oʻqituvchim uchuvchi orolda yashovchi aholi muhit musiqasi-

ni his eta bilish qobiliyatiga ega ekanligini uqtirdi. Bu musiqa qat'iy belgilangan muddatlardagina eshitilar ekan. Muddat juda yaqin bo'lib, har bir saroy amaldori o'zi qaysi musiqa asbobida yaxshi chala olsa, shu asbob bilan jahon konsertida ishtirok etishi uchun tayyorgarlik ko'rar ekan.

Lagadoga uchish paytimizda oliy hazratlari o'z fuqarolaridan arznoma qabul qilish uchun orolni ba'zi shahar va qishloqlar ustida to'xtatishga buyurdi. Ana shu maqsadda pastga uchida ozgina yuki bilan uzun, ingichka arqonlar tushirilardi. Pastdagi aholi esa ana shu arqonlar uchiga arznomalarini bog'lab qo'yishardi, ular esa, go'yo maktab o'quvchilarining varragi dumiga bog'lab qo'yilgan qog'oz parchasiday, osmonga ko'tarilardi. Ba'zida past tomondan vino va yegulik narsalar ham olardik, — bularning hammasi bloklar yordamida tortib olinardi.

Matematika bo'yicha olgan bilimlarim mahalliy xalq tilini o'rganishimda katta naf keltirdi. Bu tildagi ko'pgina ifodalar matematika va musiqadan olingan ekan. Bu odamlarning miyasi geomertik chizma va shakllarga liq to'la. Masalan, ayol kishining go'zalligini yoki birorta hayvonni maqtashmoqchi bo'lishsa, ular albatta romb, aylana, parallelogramm, ellips kabi geometrik terminlardan yoki musiqaviy iboralardan foydalanishadi. Qirol oshxonasida turli-tuman matematik hamda musiqa asboblarini ko'rdim, oshpazlar qirol dasturxoniga tortiladigan qovurdoqlarni o'shalarga o'xshatib kesishadi.

Laputuliklarning uyi nari-beri qurilgan. Uylarning devori, albatta, bir tomonga qiyshaygan, birorta xonada ham to'g'ri burchakni topolmaysiz. Hamma gap shundaki, ular amaliy geometriyani jinlaridan ham battar yomon ko'rishardi. Ularning fikricha, bu o'ta siyqasi chiqqan fan emish, u bilan faqat no'noq hunarmandlargina shug'ullanarmish. Ular faqat oliy darajadagi mavhum masalalar bilan shug'ullanishadi, ishchilarga bergan ko'rsatmalari shu qadar murakkab, amaliyotdan uzoqki, bu ko'rsatmalar bo'yicha ish qilinganda ketma-ket xatoga yo'l qo'yiladi. Ular qog'oz ustida jazvar, qalam va sirkul yuritishga juda usta. Lekin men kundalik hayotida bunchalik no'noq beso'naqay, noshud, matematika va musiqadan boshqa bilimlar sohasida alifni kaltak deya olmaydigan odamlarni hech qachon ko'rmagandim. Ular juda noshud mutafakkir; ularning fikrini rad etish oson, ammo haqiqat ular tomonda bo'lsa bu qiyin, biroq bunaqa hol kamdan-kam uchraydi. Bu odamlar tasavvur etish, xayolparastlik qilish va bir narsani kashf etishdan ancha uzoq, hatto ularning tilida ana shu tushunchalarni ifodalaydigan so'z ham yo'q. Matematika va musiqadan boshqa hech narsani bilishmaydi, bilishni istashmaydi ham.

Astronomiya bilan shug'ullanuvchi ko'pchilik laputuliklar, garchi oshkora tan olishga uyalishsa ham, astrologiyaga²¹ ishonishadi. Lekin hammasidan ham meni ularning yangiliklar va siyosatga o'chligi hayron qoldirdi. Ular hamisha so'nggi yangiliklarni so'rashadi, davlat ishlari haqida soatlab valaqlashadi, partiyalar o'rtasidagi arzimagan kelishmovchiliklar bo'yicha jon-jahdlari bilan munozara qilishadi. Lekin ana shunday siyosatga moyillikni, garchi siyosat bilan matematika o'rtasida hech qanday umumiylikni topmasam-da yevropalik matematiklarda ham sezganman. Menimcha, bu moyillik manbai bizni hech qanday aloqasi bo'lmagan narsalar bilan qiziqish va shug'ullanishga undaydigan kishilar o'rtasida keng tarqalgan o'jizlik bo'lsa kerak.

Laputuliklar doimo tashvishda yurishadi. Ular hech qachon xotirjamlik rohatini surishmaydi. Hammasidan qizig'i shuki, boshqa odamlarni uncha tashvishlantirmaydigan narsalardan xavotirlanishadi. Hammasidan ham osmon jismlarining o'zgaruvi ularni ko'proq qo'rqitadi. Ular, Yer Quyoshga tinimsiz yaqinlashib borsa, Quyosh uni yutib yubormasmikan, deb tashvish tortishadi. Ularni qachon bo'lmasin Quyosh qattiq qatlam bilan qoplanishi va yorug'lik bermay qo'yishi fikri qattiq talvasaga soladi. Shuningdek, ular Yer so'nggi kometaning dumidan surg'anib qochib qolsa, yana o'ttiz bir yildan keyin paydo bo'ladigan kometa Yerni yakson qilish ehtimoli bor: deb hisoblashadi. Lekin bu hali hammasi emas. Laputuliklar fikricha, Quyosh o'rinsiz ravishda o'z yorug'ligini sarflay-sarflay, oxiri yonib, yo'q bo'lib ketarmish. Bu o'z navbatida, undan nur oluvchi* Yer va boshqa sayyoralarni xarob qilarmish.

Laputuliklar ana shu halokatlarni kutaverishdan shunchalik zada bo'lishganki, o'z o'rinlarida bemalol uxlasha olmaydi, hayotning quvonchi va oddiy lazzatlaridan bahramand bo'lisholmaydi. Laputuliklar ertalab bir-birlari bilan uchrashganda eng avvalo shunday savollar berishadi: Quyoshning ahvoli qalay, botganda va chiqqanda ko'rinishi qanaqa bo'ldi, yaqinlashib kelayotgan kometadan xalos bo'lishning iloji bormi? Bolalar dev va ajinalar haqidagi vahimali ertaklarni qanday tinglashsa, ular ham bunaqa suhbatlarni entikib eshitishadi, eshitishadi-yu, keyin qo'rquvdan uxlasha olmaydi. Orol xotinlari erkaklarga mullaqo o'xshamaydi. Ular juda quvnoq, hayotning nash'u-namosini yaxshi ko'rishadi, erlaridan jirkanishadi. Ular, garchi bu yer dunyoning eng go'zal joyi bo'lsa ham, orolda

21 Astrologiya — qadim vaqtlarda keng tarqalgan, yulduzlarning o'rnashishiga qarab kishilarning taqdirini oldindan aytib berish yoki bashorat bilan shug'ullanadigan fan.

tanholikda hayot kechirishdan doimo shikoyat qilishadi. Orol ayollari poytaxtda kayf-safo surishni yoqtirishadi, oroldagi mo'l-ko'lchilik, hashamat ularning ko'nglini to'ldirmaydi. Biroq hamma illat shundaki, yerga tushish uchun qirolning maxsus ruxsatnomasi bo'lishi kerak. Bunaqa ruxsatnoma zo'rg'a beriladi. Sababi, saroydagi obro'li zotlar ayollarni qit'adan orolga qaytishga majbur etish ancha mashaqqatligini o'z tajribalarida sinab ko'rishgan, shu vajdan ularning poytaxtga borishlariga har qanday qilib bo'lsa ham g'ov bo'lishadi.

Oradan bir oy o'tgach, laputu tilini tuzukkina o'rganib oldim, qirol bergan ko'pgina savollarga bimalol javob qiladigan bo'ldim. Oliy hazratlarini men bo'lgan mamlakatlarning qonunlari, boshqarilish usullari, tarixi, dini, urf-odatlari zaracha bo'lsin qiziqitirmadi. U matematikaning ahvolini so'rash bilan kifoyalandi. lekin javoblarimni shunaqayam nazar-pisand qilmay beparvolik bilan eshitdiki, bechora shapillatuvchilar unda diqqat-e'tiborni orttirish uchun rosa jon kuydirishdi.

UCHINCHI BOB

HOZIRGI ZAMON FALSAFASI VA ASTRONOMIYASI HAL ETGAN MASALA. LAPUTULIKLARNING ASTRONOMIYA SOHASIDA ERISHGAN YUTUQLARI. QIROLNING QO'ZG'OLONNI BOSTIRISH USULI.

Men oliy hazratlaridan orolning diqqatga sazovor joylarini tomosha qilish uchun ruxsat oldim. Ustozimga meni kuzatib yurish topshirildi. Hammasidan ham meni, qanaqa mexanizmlar yoki tabiatning qanday tabiiy kuchi orolni harakatga keltirishi qiziqitirdi. Hozir shu haqda gapirmoqchiman.

Uchuvchi yoki suzuvchi orol diametri yetti ming sakkiz yuzu o'ttiz yetti yard yoki to'rt yarim milyaga yaqin keladigan to'g'ri doira shaklida ekan; demak, uning yuzasi o'n ming akrga teng keladi. Orolning balandligi uch yuz yard. Uning tub qismi ikki yuz yardga yaqin keladigan silliq olmos plita ekan. Ana shu plita ustida turli tog' jinslari bor, ularning usti o'n yo o'n ikki fut qalinlikdagi hosildor qora tuproq bilan qoplangan.

Orolning qoq o'rtasida astronomlar katta g'orga tushadigan, diametri ellik yardcha keladigan o'pqon bor. G'or gumbaz shaklida, shuning uchun ham Flandona

Gagnole yoki Astronomik g'or deb ataladi; u yuz yard pastda, olmos ichida joylashgan. G'orda hamisha yigirmata chiroq yonib turadi, uning nuri olmos devorlarga urilib, eng ichkari burchaklarni ham yoritadi. G'orning ichiga turli-tuman sekstantlar, kvadratlar, teleskoplar, astrolyabiya va boshqa astronomik asboblarga qo'yilgan. Ammo hammasidan ham diqqatni ko'proq o'ziga tortadigani to'quvchilar mokisiga o'xshagan ulkan magnit, orolning taqdiri shunga bog'liq. Magnitning uzunligi olti yard, eng yo'g'on joyining kengligi uch yard, magnit o'rtasidan ko'ndalang teshik ochilgan bo'lib, undan juda mustahkam olmos o'q o'tkazilgan. O'q shunaqayam aniq o'rnatilganki, hatto qo'lingiz sal tegsa ham magnit aylana boshlaydi. Magnit ichi kovak olmos silindrga osilgan. Silindr devorlarining qalinligi to'rt fut, bo'yi ham to'rt fut; silindrning diametri o'n ikki fut. Silindrning shakli ulkan olmos uzukni eslatadi. Silindr gorizontol holda har birining balandligi olti yard keladigan sakkizta olmos oyoqqa o'rnatilgan. Uning ichki devori yuzasida, o'rtada har birining chuqurligi o'n ikki dyuym keladigan ikkita chuqurcha bor; magnitni aylantiradigan o'q uchi ana shu chuqurchalarga qo'yilgan.

Hech qanday kuch biz ta'riflagan magnitni joyidan jildira olmaydi, chunki silindr oyoqlari bilan birga orolning tagi hisoblangan butun bir olmos plitani tashkil etadi.

Ana shu magnit yordamida orol ko'tarilishi va pastlashi, bir joydan boshqa joyga harakat qilishi mumkin, chunki magnit qiroлга qaram bo'lgan yerlarga nisbatan bir tomondan tortish, ikkinchi tomondan itarish kuchiga ega. Agar magnit tik qo'yilsa va uning musbat tomoni yerga qaratilsa, orol pasayadi, agar magnitning manfiy tomoni pastga qaratilsa orol tepaga ko'tariladi. Bordi-yu, magnit qiyalatib qo'yilsa orol ham qiya yo'nalishda harakat qiladi, chunki bu magnitning kuchi hamisha musbat uchi burib qo'yilgan tomonda bo'ladi.

Orol harakati qanday bo'lishini tushunish uchun, «AB» chizig'i Balnibarbi davlati orqali o'tadi, «VG» — magnit, «V» nuqtasi uning manfiy qutbi, «G» nuqtasi esa musbat qutbi deylik. Magnit «VG» holatida qo'yilgan, musbat qutbi pastga yo'naltirilgan bo'lsa, unda orol «G» yo'nalishi bo'yicha harakat qiladi. Ana shu nuqtaga yetganda magnitni shunday buramizki, uning musbat qutbi «D»ga qarab qoladi, shunda orol «D» yo'nalishi bo'yicha qiyalab harakat qiladi. Agar magnitni «E» nuqtasiga, manfiy qutbini pastga qarab qo'ysak, orol «E» nuqtasi tomon qiyalab ko'tariladi, u yerdan musbat qutbini «J» nuqtasiga yo'naltirsak, orolni «J» nuqtasiga olib borish mumkin. Shunday qilib, magnit holatini o'zgartirish yo'li bilan orolni qiya chiziq bo'yicha ko'tarish va pastga tushirish mumkin.

Ana shunday ko'tarish va tushirish yordamida davlatning bir chetidan boshqa chetigacha borish mumkin.

Lekin shuni ham aytilish kerakki, orol faqat Laputu hukmdoriga qarashli yerlar ustidagina harakat qiladi. Gap shundaki, katta magnitga ta'sir o'tkazuvchi minerallar faqat ana shu qirollikda bor, xolos. Shuning bilan birga orol yer yuzasidan to'rt milyadan yuqoriga ko'tarila olmaydi, katta balandlikda magnit harakati to'xtab qoladi.

Bordi-yu, magnitni qat'iy gorizontal holatga qo'yilsa, orol yurishdan to'xtaydi. Buni tushuntirish uncha qiyin emas; magnitning qutblari yerdan baravar uzoqlikda bo'lganligidan bir xil kuch bilan harakat qiladi, biri orolni pastga tortadi, boshqasi yuqoriga itaradi, natijada orol joyidan siljimay turaveradi.

Magnitni boshqarish tajribali astronomlarga topshirilgan, ular qirol far moyishi bilan uning holatini o'zgartirishadi.

Bu olimlar umrlarining ko'p qismini samoviy sayyoralar harakatini kuzatish bilan o'tkazishadi. Bu yerdagi teleskoplar sifat jihatidan biznikidan ancha ustun turadi. Eng katta teleskoplarning uzunligi uch futdan uzun bo'lmasa-da, bizning yuz futli teleskoplarimizdan ko'ra yaxshiroq ko'rsatadi. Ana shu ustunlik laputuliklarga bizning yevropalik olimlarni kashfiyoti sohasida ortda qoldirib ketish imkonini bergan. Masalan, ular harakat qilmaydigan ikki yuz ming yulduz katalogini tuzishgan, vaholanki, bizdagi eng katta katalog buning uchdan biricha ham kelmaydi. Bundan tashqari, ular Mars yaqinida aylanuvchi ikkita kichkina yulduz yoki yo'ldoshni ham kashf qilishgan. Ulardan eng yaqini Mars markazidan uning uch diametriga teng keladigan, boshqasi esa besh diametricha keladigan uzoqlikda.

Laputuliklar to'qson uchta turli kometalarni kuzatilganini, ularning qaytishini juda ham aniq qilib belgilanganligini aytishdi. Agar bu rost bo'lsa, ularning kuzatuv natijalarini hammaga ma'lum qilish, maqsadga muvofiq bo'lur edi. Bu hozir juda oqsayotgan kometalar nazariyasini ancha takomillashtirardi*.

Uchuvchi orol sohibi bo'lgan Laputu qirol jahonning boshqa hukmdorlariga qaraganda juda katta ustunlikka egaligini tushunish qiyin emas. Agar u vazirlarini o'zi bilan hamkorlikda ish tutishga ko'ndira olsa, osongina dunyoning mutloq hokimi bo'lib olishi mumkin edi. Biroq vazirlar huquqi cheklanmagan hukmdorning mavqei uncha mustahkam bo'lmasligini yaxshi tushunishadi. Buning ustiga ularning har biri yer qit'asida juda katta yer-mulkka ega. Shu sababli yurtni qulikka solish ular uchun foydasiz, ular bunga ko'nishmaydi ham.

Agar pastdagi shaharlardan birortasida qo'zg'olon ko'tarilgunday bo'lsa, xalq soliq to'lashdan bosh tortsa qirol ularni ikki xil yo'l bilan itoatga soladi. Buning birinchisi, eng yengili shuki, qirol qo'zg'olon ko'targan shahar va uning atroflari ustida orolni to'xtatadi; bu bilan u bo'ysunmaganlarni quyosh nuri va yomg'irdan bebahra qiladi, natijada ularning mamlakatida ocharchilik va kasallik boshlanadi. Bordi-yu, qirolning fikricha shaharliklar katta jinoyatlar bilan o'zlarini badnom qilib qo'yishgan bo'lsa, u jazoni kuchaytirishi mumkin: uning farmoyishiga binolan shaharga katta-katta toshlar yog'diriladi, ulardan aholi faqat yerto'lalardagina jon saqlashi mumkin, imoratlar esa butunlay yakson bo'ladi. Agar qo'zg'olonchilar qarshilik ko'rsatishda davom etaverishsa, qirol oldingisidan ham keskinroq chora ko'radi: orolni to'ppa-to'g'ri taslim bo'lmayotganlar boshiga tushiradi, ularni uypuylari bilan majaqlab tashlaydi. Biroq qirol bunday jazoni kamdan-kam qo'llaydi. Vazirlar ham bunday yo'l tutishni tavsiya etishmaydi. Ular bir tomondan xalq nafari va o'ch olishidan, ikkinchidan, o'z yer-mulklarining zarar ko'rishidan qo'rqishadi. Orol qirolning xususiy mulki ekanligini unutmashlik kerak, amaldorlarning butun yer-suvi, uylari, chorbog'lari esa yer qit'asida joylashgan.

Bu davlatning qirollari, juda bo'lmay qolgan taqdirda, o'shanda ham istar-istamas, bunday dahshatli chorani qo'llashlarining boshqa muhim sababi bor.

Agar yakson qilinishi kerak bo'lgan shahar baland qoyalar ichiga joylashgan bo'lsa (bu yerda ko'plab shaharlar xuddi shunday joylashgan), bunday shaharda qo'ng'iroqxona yoki tosh minoralar bo'lsa, orolning pastga tezlik bilan tushishi uning ostidagi olmosga ziyon yetkazishi mumkin. To'g'ri, ilgari aytganimday, orolning tagi qalinligi ikki yuz yard keladigan bir butun olmosdan iborat; lekin, har holda, u qattiq urilish natijasida ikkiga bo'linishi yoki halokat paytida yonayotgan binolar taftida chatnashi, yorilishi mumkin. Bu narsa aholiga ma'lum, ular o'z ozodliklari va mol-mulklariga hujum qilinganda qarshilik ko'rsatish paytida buni hisobga olishadi.

O'z navbatida, qirol ham qo'zg'olon ko'targan shaharni yer yuzidan butunlay yo'q qilish uchun orolni iloji boricha sekin va ehtiyotkorlik bilan tushirishni buyuradi. Ayni paytda, rahm-shafqat qilajagini eslatib o'tadi, aslida esa orolning olmos tubi, yer yuzasi bilan to'qnashib, sinib ketishidan qo'rqadi.

Men laputuliklar yurtiga kelmasimdan uch yil ilgari, oqibati bu davlat uchun xunuk bo'lib tugaydigan odatdan tashqari voqea yuz bergan. Qirol o'ziga qaram shaharlar ustidan uchib yurgan. U tashrif buyurgan birinchi shahar Lindalino — qirollikdagi eng yirik shahar bo'lgan; shahar aholisi qirolga gubernatorning jabr-

zulum o'tkazayotganidan ko'plab shikoyat qilishgan. Ilgarigidek, bu shikoyatlar oqibatsiz qoldirilgan. Qirol jo'nab ketgandan keyin uch kun o'tar-o'tmas shaharliklar darvozalarni berkitishgan, gubernatorni qamashgan, juda qisqa muddat ichida shaharning to'rt burchagida, uning markazidagi singari, xarsang toshdan baland, mustahkam, uchi uchli minora qurishgan. Minora va qoyalar ustiga katta-katta magnitlar o'rnatishgan, bordi-yu, magnitlar orolning boshqarilishiga ta'sir o'tkaza olmay qolsa deb, har ehtimolga qarshi, ko'p miqdorda tez yonuvchi yonilg'i tayyorlashgan, olov yordamida orolning olmos tubiga ziyon yetkazishmoqchi bo'lishgan.

Lindalino qo'zg'olon haqidagi xabar qirolga sakkiz oy deganda yetib keladi. U orolni Lindalinoga yo'naltirish uchun buyruq beradi. Oradan bir necha kun o'tgach, orol naq shahar tepasida to'xtagan, uni quyosh nuri va yomg'irdan mahrum qilgan. Bu ko'rilgan chora yetarli bo'lmagan. Shahar o'rtasidan katta daryo oqib o'tardi. Aholi oziq-ovqatni g'amlab olgan bo'lib, qamal qilinishdan qo'rqmaydi. Ular oxirigacha qarshilik ko'rsatishga azmu qaror qilishadi. Qirol oroldan pastga son-sanoqsiz arqonlar tushirishni buyuradi. Ammo kamtarona arznomalar o'rniga orolga: keltirilgan zararni to'lash, shahar aholisi imtiyozlarini qayta tiklash, gubernator saylash huquqi xalqqa berilishi va shunga o'xshash boshqa bema'ni narsalar haqidagi talabnomalar yog'ilgan. Bunga javoban qirol oroldagilarga shahar ustiga katta-katta toshlarni tashlashni buyuradi. Biroq shahar aholisi bu omonsiz jazodan qochib, o'z minoralari va yerto'lalariga yashirinib olishadi.

Shunda, bu o'jarlarni bo'ysundirishga qattiq ahd qilgan qirol orolni minora va qoyalar ustidan qirq yard pastga tushirishni buyuradi. Qirolning buyrug'i bajo keltiriladn. Biroq magnitni aylantirgan amaldorlar orol pastga odatdagidan juda tez tushayotganini payqab qolishadi. Magnitni gorizontal holatga keltirib, orolning pastga tushishini arang to'xtatib qolishadi, lekin orol yerga kuchliroq tortilayotganini, qulab tushishi mumkinligini ham sezishadi. Ular darhol bu haqda oliy hazratlariga xabar berishadi, orolni yuqoriga ko'tarishga ijozat so'rashadi. Qirol darrov rozilik beradi. Orolni ancha tepaga ko'tarishadi. Shundan keyin katta kengash chaqiriladi, magnit sirlarini yaxshi biladigan amaldorlar ham kengashga taklif qilinadi. Ularning ichidan eng tajribali, eng olimi tajriba o'tkazishga ruxsat so'raydi. U pishiq va uzun chilvir olib, uchiga tarkibida anchagina temir rudasi bo'lgan bir parcha olmosni (xuddi orol tubidagiga o'xshash olmosni) bog'laydi, uni quyi galereyadan asta-sekin minoralardan biri uchiga tushiraveradi. Biroq olmos bir necha yard pastga tushgach, amaldor uning zo'r kuch bilan

pastga tortilayotganini sezadi va u qo'lidagi chilvirni arang tutib qoladi. Shunda amaldor bir necha olmos parchasini pastga tashlaydi, ularni ham minora o'ziga tortib oladi. Boshqa minoralar ustida ham ana shunday tajribalar o'tkaziladi. Hamma joyda natija bir xil bo'ladi.

Qo'rqib ketgan qirol shaharni yakson etishdan voz kechadi.

Vazirlardan biri menga, agar orol shahar tepasiga juda yaqin tushganda qayta ko'tarila olmasdi, shahar aholisi uni harakat qilmaydigan qilib qo'yardi, qirol va uning tarafdorlarini o'ldirishardi, davlatni boshqarishni butunlay o'zgartirib yuborishardi, dedi.

Davlatning asosiy qonuni qirol va uning ikki to'ng'ich o'g'liga orolni tark etishni man etadi. Bu qonun malikaga ham taalluqlidir.

TO'RTINCHI BOB

MUALLIF LAPUTUNI TARK ETADI. UNI BALNIBARBIGA TUSHIRIB QO'YISHADI. MUALLIFNING POYTAXTGA KELISHI. POYTAXT VA UNGA YAQIN JOYLARNING TA'RIFI. BIR AMALDOR O'Z UYIDA MUALLIFNI MEHMONDO'STLIK BILAN QABUL QILADI. UNING ANA SHU AMALDOR BILAN SUHBATI.

Orolda kutib olinishimdan garchi zorlanmasam ham har holda u yerda uncha e'tibor qozonmaganligimni tan olishim kerak. Agar qirol va aholining matematika-yu, musiqadan boshqa hech narsaga qiziqmasligini e'tiborga olinsa, buning sababi tushunarli bo'ladi. Men esa bu sohada ulardan ancha orqada edim, shu boisdan katta obro'-e'tiborga ega bo'lolmadim.

Boshqa tomondan, orolning diqqatga sazovor joylarini ko'rib bo'lgach, uni tark etгим kelib qoldi. Bu odamlar judayam me'damga tegdi. Ular chindan ham matematika va musiqa sohasida o'ta bilimdon odamlar. Biroq ma'lumotli laputuliklar shunaqayam xayoli parishon, chuqur o'yga tolган odamlarki, umrimda bunaqa sovuq suhbatdoshlarni hech uchratmaganman. Shuning uchun ham orolda yurgan paytlarimda imkoni boricha ular bilan suhbatlashmaslikka intildim, ko'proq ayollar, savdogarlar, shapillatuvchilar va mahramlar bilan gaplashdim. Bergan savollarimga oqilona javob qaytaradigan birdan-bir odamlar shular edi. Lekin ma'lumotli laputuliklar menga jirkanish bilan qaraydigan bo'lib qolishdi.

Zo'r berib shug'ullanishim tufayli bu yerliklar tilini mukammal egalladim. Menga kam e'tibor berilayotgan bu orolda judayam zerikdim, shu sababli ham qulay fursat kelishi bilanoq uni tark etishga ahd qildim.

Men qirolning yaqin qarindoshi bo'lmish bir amaldor bilan saroyda doim uch-rashib turardim. Saroy ahli uni bu qadar hurmatlashining birdan-bir sababi ana shu qarindoshlik edi. Aslida esa, uni o'ta ahmoq va johil odam deb bilishardi. U davlatga katta xizmatlar ko'rsatgan, zo'r tabiiy qobiliyatlarga ega edi, adolat-liligi va halolligi bilan ajralib turardi. Ammo, ming afsuski, uning qulog'i musi-qaga uncha sezgir emasdi, uni yoqtirmovchilarning gapiga ko'ra, musiqa taktini goho buzib ko'yardi. Matematika sohasida ham ahvol shu edi: ustozlar unga eng oddiy matematik teoremlarni yechishni o'rgatguncha ancha xunob bo'lishgan. Bu amaldor menga katta marhamat ko'rsatdi. U huzurimga tez-tez kelib turar, Yevropa haqida men sayohatda bo'lgan mamlakatlarning qonun va urf-odatleri, bilimlari haqida ma'lumotlar olardi. U gaplarimni butun vujudini quloqqa aylan-tirib eshitar, hikoyalarim xususida oqilona fikrlar bildirardi. U orqasida ikki sha-pillatuvchini ergashtirib yurardi, lekin ularning xizmatiga muhtoj emasdi: sha-pillatuvchilar faqat saroy tantanalari va rasmiy tashrif buyurishlar paytidagina o'z burchlarini bajarishardi. Ikkovimiz yolg'iz qolgan paytlarimizda esa u sha-pillatuvchilarga javob berib yuborardi.

Men ana shu hurmatli zotdan orolni tark etishim uchun oliy hazratlaridan ijozat olib berishini iltimos qildim. Amaldor, o'zi menga aytganiday, ancha af-suslangan bo'lsa-da, iltimosimni bajo keltirdi. U meni orolda olib qolish uchun ancha-muncha sarig' yog'day yoqadigan takliflar qildi, biroq unga chuqur min-natdorchiilik izhor qilib, rad javobi berdim.

16 fevral kuni oliy hazratlari va saroy ahli bilan xayrlashdim. Qirol meni qim-mati ikki yuz ingliz funtiga teng keladigan sovg'alar bilan mukofotladi, xuddi ana shunday sovg'alarni menga homiy bo'lgan qirol qarindoshidan ham oldim. Bundan tashqari, u qirollik poytaxti Lagadoda yashovchi do'sti nomiga yozilgan tavsiya xatni ham berdi. Bu payt orol poytaxtdan ikki milya uzoqlikda uchib borardi, meni quyi galereyadan, ikki oy oldin orolga ko'tarib olishgan o'tirgich yordamida, pastga tushirishdi.

Uchuvchi orol hukmdorining qitadagi mulki Balnibarbi, poytaxti esa, ilgari aytganimday, Lagado deb ataladi. Men oyog'im ostidagi yerni huzur-halovat bi-lan his etdim. Egnimda o'sha mamlakat kiyimi, mahalliy xalq bilan bemalol gap-lashadigan darajada til bilaman, shu vajdan hech bir qiynalmay poytaxtga yetib



bordim. Menga homiylik qilgan kishining do'sti yashaydigan uyni darrov topdim, qo'liga tavsiyanomani topshirdim, izzat-ikrom bilan kutib olindim. Amaldorning ismi Myunodi ekan, u o'z uyida men uchun alohida xona hozirlashni buyurdi, poytaxtdaligimda doimo o'sha joyda yashadim.

Ertasi kuni uy egasi meni kolyaskaga o'tqazib, poytaxtni ko'rsatgani olib bordi. Bu shahar Londondan ikki marta kichik, ko'pi yarim xaroba. Yo'lovchilar qandaydir yovvoyi ko'rinishga ega. Hammasida juldur kiyim; ko'zlarini ola-kula qilishib, tartibsiz holda ko'chalarda izg'ib yurishadi. Shahar darvozasidan chiqqach, dala yo'li bilan ketdik. Bu yerda turli-tuman asboblar bilan ishlayotgan ko'p-gina dehqonlarni ko'rdim. Biroq ularning nima qilayotganliklarini hech tushuna olmadim, chunki dalada o't-o'lan yoki bug'doy poyasidan nomu nishon ham yo'q, yerlar bo'lsa o'ta unumdor edi. Ko'rganlarimdan hayratga tushib, buning boisini tushuntirib berishni hamrohimdan so'radim. Yo'lda uchragan hamma odamlarning yuzida tashvish alomati, qayoqqadir shoshilishadi, shaharda ham, dalada ham ular nima bilandir mashg'ul, ammo bu kuyib-pishib qilinayotgan harakatlarning hech natijasi ko'rinmaydi. Aksincha, umrim bino bo'lib, bunaqa yomon ishlov berilgan dalalarni ham, nari-beri qurilgan uylarni ham, rangi bir holatda va juldur kiyingan odamlarni ham hech uchratmaganman.

Myunodi janoblari ancha e'tiborli amaldor edi. U bir necha yil Lagado gubernatori bo'lgan, ammo keyinroq, go'yo qobiliyatsizligi uchun, bu lavozimdan chetlashtirilgan. Har holda uning qirol oldida hurmati bor, garchi aqli zo'r bo'lmasa-da, qirol uni ishonchli, mulohazali kishi deb hisoblaydi. Myunodi savolim-ga sipolik bilan qisqa javob berdi. U mening bu mamlakatda oz vaqt yashaganimni, mamlakat va uning aholisi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun bu kifoya qilmasligini, har qanday xalq o'ziga xos urf-odatlariga ega ekanligini aytish bilan kifoyalandi va gapni boshqa yoqqa burib yubordi. Uyga qaytganimizda esa u mendan: uyim sizga yoqdimi, uning arxitekturasida biror nuqson topmadingizmi, xizmatkorlarimning tashqi qiyofasi va kiyimi xususida qanday fikrdasiz, deb so'radi. U bunaqa savollarni bemalol berishi mumkin edi, chunki uning uyidagi hamma narsa batartib, nozik va hashamatli edi. Men, janobi oliylari aql-zakovati, mashhurligi va davlati tufayli o'z vatandoshlarining aqlsizligi yoki o'ta qashshoqligi uchun boshlariga tushgan bema'niliklardan saqlana olgan, deb javob qaytardim. Bunga javoban Myunodi, bunaqa suhbatlarni shahardan yigirma milya uzoqda joylashgan chorbog'imda olib borilgani ma'qul, dedi. Janobi oliylari ertagayoq o'sha yoqqa boramiz, deb taklif qildi, men bajonu dil rozi bo'ldim.

Myunodi yo'l-yo'lakay e'tiborimni fermerlarning yerga ishlov berishdagi turli-tuman usullariga qaratdi. Bu usullarning hammasi men uchun noma'lum va mutlaq tushunib bo'lmaydigan darajada edi, chunki dalalarda birorta ham boshqoq yoki o't-o'lanni ko'rmadim. Lekin uch soatcha yo'l bosganimizdan keyin manzara tubdan o'zgardi. Chiroyli, hashamatli fermer uylari, atrofi devor bilan o'ralgan polizlar, uzumzorlar, boshqoqlarini ko'tarolmay qolgan bug'doyzorlar, yam-yashil o'tloqlar ko'zga tashlana boshladi. Anchadan beri bunaqa xushmanzarani ko'rmagan edim. Janobi oliylari chehram ochilganini ko'rib, xuddi shu yerdan o'ziga qarashli mulk boshlanishini aytdi. Shunday dedi-yu, og'ir bir xo'rsinib, vatandoshlari xo'jalikni yomon yuritayotgani hamda yomon o'rnak ko'rsatayotgani uchun undan nafratlanishayotganini ham qo'shib qo'ydi.

Nihoyat uya yetib keldik. Bu ko'rkam, qadimiy arxitektura usulida qurilgan hashamatli bino edi. Fontanlar, bog'lar, xiyobon va butazorlar oqilona, did bilan joylashtirilgan. Ko'rganlarimni maqtashdan o'zimni tiya olmadim, biroq janobi oliylari gaplarimga zarracha e'tibor bermadi. Kechki ovqatdan keyin yolg'iz qolganimizda u chuqur qayg'u bilan, ba'zan keyingi moda talablariga ko'ra uylarini qayta qurish hamda o'z mulkida ekinga ishlov berishning yangicha usullarini qo'llash haqida o'ylayotganligini izhor qildi. Aks holda u mag'rur, o'zboshimcha, tantiq, nodon, haddidan oshgan odam, degan malomatga qolishi, oqibat-natijada qirol ham unga ishonchsizlik bilan qarashi mumkin ekan. Oliy hazratlarining busiz ham unga ishonchi yo'qmish. U saroyda eshitish menga muyassar bo'lmagan ba'zi tafsilotlarini aytgandan keyin mendagi zavqlanishlar birdan so'nishini tashvishlanib pisanda qildi. Axir yuqoridagi — oroldagi odamlarning hammasi olijanob o'y-fikrlarga cho'manganliklari uchun yerda nimalar bo'layotganiga hech qachon e'tibor berishmas ekan-da.

Uning menga aytganlarining mazmuni quyidagicha:

Bundan qirq yil muqaddam poytaxt aholisidan bir necha kishi — ba'zilari ish bilan, boshqalari ko'ngil xushi uchun Laputuga chiqishgan. Ular orolda besh oy yashab, matematikadan yuzaki bilim olgan va samoviy orolda yengiltakliklari ancha oshgan holda pastga qaytib tushishgan. Ular orolda yurishgan paytlarida yerdagi barcha muassasalarga nafrat ko'zi bilan qarab, fan, san'at, qonunlar, til va texnikani yangicha usulda qayta qurish loyihalarini tuza boshlashgan. Ana shu maqsadda ular qirolgan Lagadoda xayolparastlar Akademiyasi ta'sis etish uchun imtiyoz olishadi. Bu fikr chunonam muvaffaqiyat qozonadiki, qirollikdagi kattaroq shaharlarning hammasida ana shunday akademiyalar ochiladi. Ana shu akademi-

yalardagi professorlar yerlarga ishlov berish va imorat qurishning yangicha usullarini, turli hunar-kasblar uchun yangi mashina va asbob-uskunalarni kashf etishadi. Ular ana shu mashina va qurollar vositasi bilan bir kishi o'n baravar ko'p ish bajarishi mumkiiligini ta'kidlashadi. Ularning gapiga ko'ra, kashf etilgan qurollar yordami bilan qandaydir biror hafta ichida juda mustahkam materialdan bag'oyat katta qasr qurish mumkin. U hech qanday ta'mir talab qilmay, abadiy turadi; yerdagi mevalar yilning istagan faslida pishaveradi, buning ustiga o'sha mevalar hozirgilaridan yuz baravar katta bo'ladi... Xullas, insoniyatni baxtiyor qilish yo'lida ular o'ylab chiqqan loyihalarni sanab tugatish qiyin. Afsuslanadigan joyi shuki, ana shu loyihalardan birortasi ham nihoyasiga yetkazilmagan, hozircha mamlakat bo'lg'usi farovonlikni kuta-kuta tashlandiq holga kelgan, uylar vayron bo'lmoqda, odamlar esa och-nahor juldur kiyimlarda yurishibdi*.

Lekin bularning hammasi xayolparastlar ishtiyoqini zarracha ham susaytirmayapti. Aksincha, ular o'z loyihalarini turmushga tatbiq qilish uchun katta umid va jon-jahdlari bilan intilishayapti.

Myunodining o'ziga kelsak, u o'ta uddaburro odam, u eskicha taomillar tarafdori; ota-bobolari qurib ketgan uylarda yashaydi, har borada ularga taqlid qiladi, hech qanday yangiliklarni o'ylab chiqarmaydi. Oliy nasab kishilardan hamda o'rta dvoryanlardan ham bir necha kishi xuddi shunday yo'l tutyapti. Biroq ularga o'zlarining yalqovligi va oromi yo'lida mamlakat muvaffaqiyatini qurbon qilayotgan, fanning nodon dushmanlari va jamiyatning zararkunanda a'zolari sifatida nafrat hamda ishonchsizlik bilan qaraladi.

Janobi oliylari so'zining oxirida, menga boshqa tafsilotlarni bayon qilib o'tirmasligini aytdi. Meni olib bormoqchi bo'lgan Ulug' akademiyani shaxsan ko'rgach, undan oladigan huzur-halovatimdan meni mahrum qilmaslikni u juda-juda xohlardi. U faqat biz turgan joydan uch milya naridagi tog' etagiga joylashgan xarobazorlarga e'tibor berishimni iltimos qildi.

Qachonlardir o'z qo'rg'onidan nariroqda katta daryo bo'yida uning suv tegirmoni bor ekan. Tegirmon uning o'z xo'jaligi uchun ham, ijarachilar xo'jaligi uchun ham yaxshi xizmat qilarkan. Bundan yetti yil muqaddam uning huzuriga xayolparastlar kompaniyasi tashrif buyuribdi va ana shu tegirmonni buzib, tog' etagiga yangisini qurishni taklif qilibdi. Ular tog' cho'qqisida suv ombori vazifasini o'taydigan uzun kanal qaziy boshlashibdi. Kanalga maxsus nasoslar bilan pastdan suv chiqarishmoqchi bo'lishibdi. Ularning fikricha, suv tog' cho'qqisida kuchli shamol hamda musaffo havoga duch kelib, tekis joydan oqayotgan daryoga

qaraganda tezroq harakat qilarmish; bundan tashqari, suv tepadan tushayotib ikki baravardan ziyod kuchga ega bo'larmish, shu vajdan tegirmon ham oldingidan ko'ra ikki baravar tezroq ishlarmish. O'sha paytlarda Myunodining saroy bilan munosabati buzilgandi. Ana shu munosabatni yaxshilash niyatida, do'stlarining qistovi bilan, kompaniyaning taklifini qabul qiladi. Yuz kishidan ortiq kishi mashg'ul bo'lgan bu ish ikki yil davom etgach, ora yo'lda to'xtab qoladi. Xayolparastlar hamma aybni unga to'nkab, o'zlari quyon bo'lishadi. O'shandan buyon ular uni hamisha mazax qilishadi va boshqalarni ham, muvaffaqiyatga erishishga ana shunday kafillik berib, yuqoridagiday tajriba o'tkazishga da'vat qilishadi. Oradan bir necha kun o'tgach, shaharga qaytdik. Janobi oliylarining akademiyada uncha hurmati yo'q ekan. Shu vajdan meni kuzatib borishni ep ko'rmay, bu ishni do'stlaridan biriga topshirdi. Mezbonim do'stiga meni qiziqarli va yengil-elpi loyihalarga o'ta ishqivoz bir kishi sifatida tanishtirdi; aytganday, uning shunday deyishi haqiqatga yaqin edi, chunki yoshligimda zo'r xayolparast edim.

BESHINCHI BOB

MUALLIF LAGODADAGI ULUG' AKADEMIYANI BORIB KO'RADI. AKADEMIYANING TO'LIQ TA'RIF-TAVSIFI. PROFESSORLAR SHUG'ULLANADIGAN FAN VA SAN'ATLAR.

Akademiya, uning ishlashi uchun moslashtirilgan va sotib olingan ko'chaning ikki chetidagi binolarga joylashgan.

Prezident meni juda xushmuomalalik bilan kutib oldi. Men akademiyada bir necha kun qolib ketdim. Har bir xonada bir yoki bir necha xayolparast joylashgandi, agar xotiram xato qilmasa, besh yuztacha xonada bo'ldim.

Men huzuriga tashrif buyurgan birinchi olim eti suyagiga yopishgan, yuz va qo'llari qorayib ketgan bir kishi edi; uning kiyimi, ko'ylagi, terisi ham ana shu rangda, tarab turmaktangan uzun sochlari va soqollarining har yeri-har yeri kuygan. U bodringdan quyosh nuri olish loyihasi ustida sakkiz yil ishlabdi. Ana shu olingan nurlari germetik qopqoq bilan zich yopiladigan idish ichiga to'plab, havo sovib ketsa yoki yozda yomg'irli kun bo'lsa, ana shu nur bilan havoni isitmoqchi bo'libdi. U yana sakkiz yildan keyin gubernator bog'lari uchun o'rta miyona narxda quyosh

nurini yetkazib berajagini ishonch bilan aytdi. Lekin u o'z mablag'ining ozligidan hasrat qilib, mendan kashfiyotini rag'batlantiradigan biror narsa berishni iltimos qildi, o'sha paytlarda esa bodring juda qimmat edi. Men unga xo'jayinim ehtiyot yuzasidan bergan pullardan ozgina hadya etdim. Olimlarning tashrif buyuruvchilardan biror narsa so'rab olishlari janobi oliylariga ayon edi.

O'sha yerda muzni shiddatli olovda kuydirib, uni poroxga aylantirish ish-tiqoqida urinayotgan boshqa bir olimni ham ko'rdim. U menga nashrga tayyorlab qo'ygan, olovning cho'ziluvchanligi haqida yozgan tadqiqotini ko'rsatdi.

Akademiyada uylarni yangicha usulda qurishni o'ylab chiqargan kashfiyotchi arxitektorni ham ko'rdim. Uning fikricha, uylarni qurishni tomdan boshlab, poydevor bilan tugallash kerak edi. U o'z usulining to'g'riligini ikkita aqlli hasharot — asalari va o'rgimchak misolida isbotlamoqchi bo'ldi.

O'sha yerda tug'ma ko'r bor ekan. Uning qo'l ostida bir necha ko'r shogirdlar tasviriy sanat ustalariga bo'yoqlarni aralastirib berishayapti. Professor ularni hid bilish va ushlab ko'rish vositasida ranglarni ajratishga o'rgatibdi. Afsuski, ular o'z vazifalarini maqtanarli darajada uddalashmayapti, professorning o'zi ham xatoga yo'l qo'yayapti. Olim o'z hamkasblari orasida katta obro'ga ega ekan.

Boshqa bir xonada cho'chqa yordamida yer haydash usulini kashf etgan xayolparast menga katta zavq bag'ishladi. Bu usul dehqonlarni omoch, ish hayvoni va ishchilarga sarflanadigan xarajatlardan xalos qiladi. Bu kashfiyotning mazmuni tubandagicha. Siz bir akr yerga chuqurligi sakkiz dyuym, oralig'i olti dyuymli chuqurchalar kovlab, yong'oq, xurmo, kashtan va boshqa dyuymli su-yub yeydigan mevalarni ko'masiz, keyin ana shu maydonga olti yuz yoki undan ortiqroq cho'chqalarni haydab yuborasiz. Ular bir necha kungacha yerga ko'mil-gan mevalarni izlab, yerni rosa kovlab tashlaydi, ekin ekishga tayyor qilib qo'yadi. To'g'ri, o'tkazilgan tajriba shuni ko'rsatdiki, yerga bunaqa usulda ishlov berish katta ovoragarchilik va xarajatlarni talab qiladi; hosilning qanday bo'lishi esa noma'lum. Lekin shunga qaramay, hamma bu kashfiyot sal takomillashtirilsa juda katta foyda keltirishi turgan gap, degan fikrda.

Men ship va devorlarni o'rgimchak uya bosgan keyingi xonaga kirdim. Uyning o'rtasida kashfiyotchi o'tadigan torgina oraliq bor ekan, xolos. Men osto-nada ko'rinishim bilan oq, olim ehtiyot bo'lishimni va o'rgimchak uyalarni yirtib yubormasligimni so'rab qichqirib yubordi. U insoniyatning azaldan adashib ke-layotganidan zorlandi. Chunki hozirgacha kishilar ipak qurti ipagidan foydalanib kelishmoqda. Vaholanki, ixtiyorimizda shunday hasharotlar borki, ular qobili-

yati jihatidan ipak qurtlaridan ancha ustun turadi: ipak qurtlari faqat pilla o'rasa, bular ham ipak chuyaydi. ham to'qiydi. Bundan tashqari, deb gapida davom etdi u, ipakni o'rgimchak uyaga almashtirib, gazlamani bo'yashga sarflanadigan katta xarajatlardan qutulamiz. U menga o'rgimchaklarning oziqasi bo'lmish turli rangdagi pashshalarni ko'rsatganda uning fikriga qo'shildim. Uning gapiga qaraganda, pashshalarning rangi o'rgimchaklar tayyorlayotgan gazlamaga o'tadi. Olim istalgan rangdagi pashshaga ega bo'lgani uchun har qanday iste'molchi ehtiyojini qondira olishidan umidvor edi. Endi uning pashshalarga yog'och yelimi yoki boshqa modda tusidagi munosib ozuqa topishigina qolgan ekan. xolos; bu ozuqa o'rgimchak ipining yo'g'on va pishiq* qiladi.

O'sha joyda quyosh soatini shahar mahkamasi binosidagi katta flyugerga joylamoqchi bo'lgan astronom ham bor ekan. Buning uchun u yerning sutkalik va bir yillik harakati hamda shamol yo'nalishidagi tasodifiy o'zgarishlar o'rtasida qanday muvofiqlik borligini aniq hisoblab chiqsa bas emish.

Men boshqa xonalarda ham bo'ldim, lekin u yerlarda ko'rgan g'alati narsalarimni bayon qilib, kitobxonni toliqtirib o'tirmayman. Faqat «universal dohiy» nomini olgan mashhur bir olim haqida to'xtalib o'taman. xolos. Olimning gapiga ko'ra, u o'ttiz yildan beri butun tafakkurini insoniyat hayotini yaxshilashga bag'ishlayotganmish.

Uning ixtiyorida ikkita katta xona bo'lib, ularga antiqa narsalar uyib qo'yilgan; uning qo'l ostida ellikta yordamchi ishlayapti. Birlari havoni quruq, zich moddaga o'xshatib quyultirishib, undan selitra olishmoqda, suv qismini suzishmoqda*, boshqalari marmarlarni yostiq va to'g'nag'ich sanchadigan bolishchalar uchun maydalashyapti; uchinchilari tirik otning tuyog'iga toshday qattiqlik berish bilan ovora. Olimning o'ziga kelsak, u o'sha paytda ikki buyuk kashfiyot ustida ish olib borayotgandi. Kashfiyotlardan biri — yerlarga to'fon bilan urug' sepish. olimning fikricha, bu bosh ishlab chiqarish kuchidir. Bu fikrning to'g'riligini behisob tajribalar vositasida isbot etdi, lekin, nodonligim qursin, ularning birortasini ham mutlaqo tushunmadim. U ish olib borayotgan ikkinchi narsa — tarkibi o'ta murakkab malham kashf etish edi. Ana shu malham yordamida qo'zichoqlar junini o'sishdan to'xtatib qo'yish mumkin ekan. Olim, yaqin kelajakda qirollikda yaydoq qo'yilar zotini yarataman, degan umidda.

Ko'chaning ikkinchi tomonidagi binolarga akademiyaning bo'limlari joylashgan bo'lib, ularda butun umrini mavhum fanlarni o'rganishga bag'ishlagan xayolparastlar yig'inlar o'tkazishardi.

Bu yerda dastlab uchragan professorim judayam katta xonada qirq shogirdi qurshovida o'tirardi. Salom-aliqdan so'ng xonani ko'zdan kechira boshladim. Xonaning bir tomonini egallagan ulkan rom e'tiborimni tortdi. Buni payqagan professor menga o'zining mavhum haqiqatlarni kashf etish uchun mo'ljallangan alohida mexanik asboblarni tayyorlash ustida ishlayotganligini tushuntirdi. Avvaliga bunday fikrdan ajablanishim mumkinligini aytdi. Lekin uning o'z loyihasini ko'p o'tmay butun jahon qadrlashiga ishonchi komil. Shu vaqtgacha hech kimning kalasida bunaqa ulug'vor, olijanob g'oya paydo bo'lmaganmish. Barcha qabul qilgan usulda fanlarni va san'atni o'rganish qiyinligi hammaga ma'lum. Uning kashfiyoti bo'yicha esa eng nodon hamda layoqatsiz odam ham ozginagina mablag' va kuch-g'ayrat sarflasa falsafa, poeziya, siyosat, huquq, matematika va ilohiyot bo'yicha kitoblar yozaveradi. Shu payt u meni ikki chekkasida shogirdlari saf tortib turgan ulkan rom oldiga olib bordi. Romning kattaligi yigirma kvadrat fut bo'lib, u xonaning o'rtasiga joylashgan edi. Uning usti, har biri o'ynaladigan suyak soqqa-dek keladigan — biri katta, biri kichik — ko'pgina yog'och taxtachalardan iborat edi. Ularning hammasi ingichka sim bilan bir-biriga ulangandi. Taxtachalarga qog'ozlar yopishtirilgan, har qaysi qog'ozga Balnibarbi tilidagi hamma so'zlar fe'l mayllarida, zamonda va kelishikda, ammo tartibsiz ravishda yozib qo'yilgan edi. Professor diqqat qilishni iltimos qildi, chunki u o'z mashinasini ishga tushirmoqchi bo'ldi. Uning buyrug'iga binoan shogirdlar rom chetlaridagi temir tutqichlarni ushlab, darhol burashdi. Taxtachalarning hammasi to'ntarilib, so'zlarning joylashuvi butunlay o'zgarib ketdi. Shunda professor o'ttiz olti shogirdiga, so'zlar romda qanday tartibda paydo bo'lgan bo'lsa, uni shu tartibda astagina o'qishga buyurdi. Bordi-yu, uch yoki to'rtta so'zdan bir ma'no chiqadigan jumla paydo bo'lsa, mirzalik vazifasini o'tayotgan keyingi to'rt shogirdga uni aytib yozdirishardi. Ana shunday mashq uch-to'rt marta takrorlandi. Mashina shunday qurilgan ediki, taxtachalar har to'ntarilganda aylanar va siljir edi, so'zlar ham yangicha joylashardi.

Shogirdlar bunday mashq bilan har kuni olti soat shug'ullanishardi, professor menga ana shu uzuq-yuluq jumalardan tuzilgan ko'pgina kitoblarni ham ko'rsatdi. Professor ana shu boy material asosida barcha fanlarga va san'atga to'liq obzor berish niyatida ekan. Bordi-yu, u Lagadoda ana shunday stanoklardan besh yuztasini qurish uchun yetarli miqdorda pul to'play olsa hamda ulardan olingan jumalarni bir yerga to'plashni rahbarlar zimmasiga yuklay olsa ishi anchagina oson ko'chishi turgan gap edi. U bu kashfiyot yoshligidan buyon butun fikri-zikrini band qilganligini aytdi. Endilikda uning taxtachalarida balnibarbi tilining to'liq lug'ati mu-

jassam bo'libdi. Buning ustiga u kitoblarda qo'llaniladigan ot, fe'l va boshqa so'z turkumlarining nisbat miqdorini ham aniq hisoblab chiqishga muvaffaq bo'libdi.

Men bu ulug' olimga buyuk kashfiyotining sirlarini aytib berganligi uchun chuqur minnatdorchilik izhor qildim va agar, nasib qo'shilib, qachonlardir vatanimga qaytib borsam, mana shunday ajoyib mashinaning yagona kashfiyotchisini ko'klarga ko'tarishga va'da berdim. Undan mashinaning suratini chizib olish uchun ruxsat so'radim. Men unga, garchi Yevropadagi olimlar uchun bir-birlarining kashfiyotlarini o'g'irlash odat bo'lib qolgan bo'lsa-da, lekin bu kashfiyot o'z-o'zingizniki bo'lib qolishi, uni hech kim o'ziniki qilib olmasligi uchun barcha chora-tadbirlarni ko'raman, dedim.

Shundan keyin tilshunoslik maktabiga bordik. U yerda uch professor ona tili ni takomillashtirishning turli loyihalarini muhokama qilishayotgan ekan. Birinchi loyihada ko'p bo'g'inli so'zlarni bir bo'g'inlikka aylantirib, fe'l va sifat-doshlarni chiqarib tashlab, so'zlashuv tilini soddalashtirish taklif qilinardi. Muallif, faqat otlargina mavjud fanlarga mos keladi, deb ta'kidladi.

Ikkinchi loyihada hamma so'zlarni to'liq yo'qotish taklif qilinardi. Ushbu loyiha muallifi, buning salomatlik va vaqtni tejash uchun nafi kattaligini asosiy dalil qilib ko'rsatdi. Chunki, so'zlarni talaffuz qilish bo'g'iz va o'pkani toliqtiradi, demak, umrni ham qisqartiradi. So'zlar faqat narsalarning nomini bildiradigan bo'lgach, kishilar zarur fikr va istaklarini izhor qilish uchun qo'l keladigan narsalarni ko'tarib yurishgani ma'qul.

Bu kashfiyot salomatlik uchun juda foydali bir narsa sifatida keng yayilishi mumkin edi-yu, biroq ayollar johil qora xalq bilan til biriktirib, qo'zg'olon ko'taramiz, deb dag'dag'a qilishdi, tilimizga to'liq erkinlik berilsin, deb qattiq oyoq tirab olishdi. Chindan ham qora xalq — fanning murosasiz dushmani. Buni qarangki, juda ko'p zo'r olimlar va donishmandlar buyumlar vositasida gaplashishning yengil usulidan foydalanishyapti. Bu usulning bitta noqulay tomoni bor: suhbatdoshlar so'zlashishda zarur bo'lib qoladigan narsalarni o'zlari bilan ko'tarib yurishlari kerak. Men, o'zimizning hammollar singari og'ir yukdan qadlari ikki bukilib, arang yurib ketayotgan ikki donishmandni uchratdim. Ular ko'chada bir-birlari bilan uchrashib qolishsa, orqalaridagi qopni yerga qo'yishar va undan zarur narsalarni olib, suhbatlasha boshlardilar. Keyin narsalarni yana qopga joylab, bir-birlariga ko'tartirib qo'yishar, so'ng xayrlashishib, o'z yo'llariga ravona bo'lishardi.

Aytganday, qisqa, uncha qiyin bo'lmagan suhbatlar uchun buyumlarni cho'n-takda yoki qo'ltiqda ham olib yursa bo'laveradi. Uyda esa bu qiyinchilikni oson-

gina bartaraf etish mumkin. Faqat, ana shu tilda so'zlashadiganlar xonani turli-tuman narsalar bilan to'ldirib qo'ysalar kifoya.

Bu tilning muhim afzalligi shuki, u xalqaro xarakterga ega. Madaniyatga erishgan hamma millatlarning mebeli va ro'zg'or anjomlari ozmi-ko'pmi bir xil. Ana shuning sharofati bilan boshqa yurtdan kelganlar bu yerning tili bilan mutlaqo tanish bo'lmasa-da, narsalar vositasida chet el qirollari yoki vazirlari bilan bemalol gaplashaveradi.

Men matematika maktabiga ham tashrif buyurdim. Bu yerda shunday metodda o'qitiladiki, buni Yevropada qo'llash amrimaholmikan, deyman. Har bir teorema isboti bilan bosh og'riq dori o'raladigan qog'ozchaga siyohda yoziladi. O'quvchi ana shu qog'ozchani nahorda yutib yuboradi va uch kungacha suv hamda nondan boshqa hech narsa yemaydi. Qog'oz hazm bo'lgandan keyin, uning ichidagi dori o'zi bilan teoremani yetaklab, miyaga ko'tariladi. Biroq bu metodning muvaffaqiyati hozircha unchalik emas. Bu qisman dorining miqdori yoki tarkibini belgilashda xatoga yo'l qo'yilishdan, qisman bolalarining sho'xligidan bo'lsa kerak — ichayotgan dorilari shunchalik achchiqki, ular sal chetroqqa borib, o'sha zahotiyog uni tuflab tashlashadi. Yana shunisi ham borki, dorining ta'sir kuchini ta'minlash uchun uch kun tuz totish man etilishiga ularni ishontirib bo'lmayabdi.

OLTINCHI BOB

AKADEMIYA TA'RIFINING DAVOMI. MUALLIF BA'ZI TAKOMILLASHTIRISH-LARNI TAKLIF QILADI, BULAR ZO'R MAMNUNIYAT BILAN QABUL QILINADI.

Siyosiy xayolparastlar maktabida meni unchalik iliq kutib olishmadi. Lekin bu maktabning professorlari, nazarimda, mutlaqo jinnining o'zi edi, bunaqa manzara meni doimo qayg'uga soladi. Bu sho'rliklar: hukmdorlarni o'z arzandalarini aqlli, qobiliyatli va saxovatli odamlar orasidan tanlab olishga ishontirish, vazirlarni umum farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishga, faqat jamiyatga katta xizmat qilgan kishilarnigina mukofotlashga o'rgatish: hukmdorlarga ularning chinakam manfaatlari xalq manfaatlari bilan bir xil ekanligini, lavozimlarni faqat munosib odamlargagina berish kerakligini uqtirish usullarini qidirisharkan. Bama'ni odamlar uchun mutloq yot bo'lgan

ajib hamda ro'yobga chiqarib bo'lmaydigan xayollarning anchasi ana shu xom qovoqlarning miyasida jamuljam bo'lgan edi*. Ularga qarab turib, dunyoda faylasuflardan o'z himoyachisi bo'lmagan birorta ham bema'nilik yo'q, degan qadimiy hikmatning to'g'riligiga yana bir karra ishonch hosil qildim.

Biroq, tan berib aytishim kerakki, akademiyaning bu bo'limida hamma olimlar ham xayolparast emas ekan. Men u yerda davlatni boshqarish mexanizmi va tabiatini mukammal o'rgangan o'ta dono bir doktor bilan tanishdim. Bu ulug' olim hokimiyat vakillari ko'proq muhtalo bo'ladigan ham jismoniy, ham axloqiy kasalliklar uchun dori-darmonlar kashf etishda muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. U, kishi organizmi bilan davlat o'rtasida to'liq o'xshashlik bor, degan fikrga tayangan holda, davlat tuzumi — hukmdorlarning qusurlari va fuqarolarning intizomsizligi — tufayli paydo bo'lgan kasalliklarni jismoniy sabablarga ko'ra sodir bo'lgan kasalliklarni davolaganday davolash kerak, deb ta'kidladi. Yuqori palata senatorlari va a'zolarining, ko'pincha, vaysaqilik, tajanglik va boshqa yomon odatlardan; turli xil miya, ayniqsa, yurak kasalliklaridan; chidab bo'lmas azob beruvchi asab tomirlari va har ikkala qo'l, ayniqsa o'ng qo'l* muskullarining qisqarishi kabi kuchli konvulsiyalardan; safro tashlash, bosh aylanish, alahsirashdan; shirincha kasalidan shishish, ishtaha karnay bo'lish, oshqozonning ovqat hazm qilmasligi va boshqa sanab ado qilib bo'lmaydigan talay kasalliklardan azob chekishlari hammaga ma'lum. Shuning uchun ham olim doktor, har safar senat chaqirilganda dastlabki uch majlisga tajribali do'xtirlardan bir nechtasini komandirovka qilishni taklif qiladi. Muzokaralar tamom bo'lishi bilanoq, ana shu do'xtirlar barcha senatorlarning qon tomirlarini ushlab ko'rishlari va ularni tekshirishlari lozim. Ularning har biri qanday kasalga chalinganini yaxshilab aniqlab tekshirilgach, do'xtirlar to'rtinchi kuni majlislar zaliga barvaqt yetib kelishlari hamda majlis boshlanmasdan oldin har bir senatorga tinchlantiradigan, tozalovchi, ich suradigan, kemiradigan, yara tuzatadigan, bo'shashtiradigan, shuningdek, kasalning turiga qarab, bosh, quloq og'riqlari, sariq kasaliga shifo bo'ladigan dorilarni berishlari zarur. Do'xtir ana shu dorilarning ta'sirini tekshirib, kelgusi majlisda yana berishlari yoki boshqa doriga almashtirishlari yo mutlaqo bermasliklari kerak.

Ana shu loyihani turmushga tatbiq etish uncha katta xarajatlarni talab qilmaydi, mening kamtarona fikrim shuki, bu loyiha qonun chiqarishda senat ishtirok etadigan mamlakatlarda ancha qo'l keladi: yakdillikni ta'minlaydi, muzokaralarni qisqartiradi, talqon solingan og'izlarni ochadi, ko'pgina ochiq turgan-

larini esa yopadi, yoshlik hovurini jilovlaydi va qarilikka xos tosh bag'irlikni yumshatadi, befahmlarni sergaklantirib, jirrakilarni sovitadi.

Bu ulug' donishmand olimning ikkinchi loyihasi quyidagicha. Hamma ham, hukmdorlar arzandasining xotirasi zaif va o'tmasligidan shikoyat qiladi. Shuning uchun doktor bosh vazir huzurida bo'lish sharafiga muyassar bo'lgan har bir kishiga, ishning mohiyatini qisqa va lo'nda qilib bayon qilgach, xayrlashib chiqayotib, uning burnidan tortqilab qo'yishni yoki qorniga kelishtirib tepishni, oyog'iniig qadoq joyini bosib olishni yo qulog'ini ishqalashni, badaniga to'g'na-g'ich sanchishni yo qo'lini ko'karib chiqqunday chimdib olishni, shu yo'l bilan vazirning xayolparishonligiga barham berishni maslahat beradi. Bu operatsiyani har qabul kunida iltimos bajo keltirilguncha yoki qat'iy rad javobi olinguncha takrorlayverish kerak.

Shuningdek, doktor har bir senatorga o'z shaxsiy fikrini aytib, unga mutlaqo zid bo'lgan fikrga ovoz berishni taklif qiladi, agar shunday yo'l tutilsa, ovoz berish yakuni hamisha jamiyat uchun katta naf keltirishiga u kafillik beradi.

Bordi-yu, partiyalar o'rtasidagi nizo kuchayib ketgunday bo'lsa, u buni bar-taraf etishning ajoyib vositasini tavsiya etadi. Buning uchun har bir partiyaning yuztadan rahbarini tanlab olish, juft-juft qilib, boshining katta-kichikligi deyarli bir xilligiga qarab, ularni taqsimlash lozim. Shundan keyin ikki jarroh bir vaq-tning o'zida ularning bosh suyagini arralab, miyalarini bir-birlarinikiga qo'yadi. Operatsiya nihoyatda aniqlikni talab qiladi, biroq professorning bizni ishontirishiga qaraganda, operatsiya mohirlik bilan qilingan bo'lsa, bu — o'sha odamlar tuzaldi, degan gap: bir-biriga o'larcha adovatli bo'lgan partiya a'zolaridan olingan va bitta bosh suyagi ichiga joylashtirilgan ikki bo'lak miya ko'p o'tmay bir-biri bilan ahil bo'lib, yaxshigina o'sib ketadi. Ana o'shanda operatsiyaga duchor bo'lgan partiya yo'l boshchilarining boshida, boshliqlar dunyoni idora qilishi kerak, deb tasavvur qilib yurgan kishilar uchun zarur bo'lgan oqilona me'yor mahkam o'rnashib qoladi. To'g'ri, bu yerda ahmoq odamning miyasini aqlli odamning miyasiga qo'yish bilan unisini ham jinniga aylantirib qo'ymasmikanmiz, degan shubhalar ham yo'q emas. Lekin doktor ishontirib aytadiki, aql va qobiliyatda partiya rahbarlari bir-biridan uncha farq qilmaydi, bundan hadiksiramasa ham bo'ladi.

Aholiga malol kelmaydigan tarzda soliq undirish xususida qizg'in bahsla-shayotgan ikki professor huzurida ham bo'ldim. Birinchi professor qusur va be-ma'nilik uchun soliq solinsa adolatli ish bo'ladi, kimdan qancha soliq olish ma-salasini o'z qo'shnilarining qusuriga xolisona baho beradigan mahalliy aholidan

tashkil topgan maxsus qo'mitaga topshirish lozim, derdi. Ikkinchisi esa bunga tamomila zid fikrda edi. Uning fikricha, soliqlar kishilar o'zlarida ko'proq qadrlayotgan ma'naviy va jismoniy fazilatlariga solinishi kerak. Soliq miqdori soliq to'lovchilar tomonidan o'zlariga o'zlari bergan bahoga qarab belgilanmog'i lozim. Katta miqdorda soliqlar belgilash topqirlik, jasurlik va odoblilik timsoli bo'lishi zarur. Lekin or-nomus, adolat, donishmandlik va bilimdonlikka soliq solinmaydi, chunki bu fazilatlariga baho berish shu qadar sub'ektivki, bunday fazilatlarini o'ziga yaqin qo'shnisida borligini e'tirof etadigan yoki o'zidagi shu fazilatlariga to'g'ri baho beradigan odam kamdan-kam topilsa kerak.

Boshqa bir professor menga fitnalarni fosh etish usullari haqida yozilgan qalin bir kitobni ko'rsatdi. U davlat arboblari shubhali kishilar qanaqa ovqat yeyishi, qaysi vaqtda dasturxoniga o'tirishi, qaysi yonboshi bilan uxlashini bilishni va ularning kundalik hayotidan shunga o'xshash ma'lumotlarni to'plashni tavsiya etadi.

Barcha mulohazalar o'tkir zehnilik bilan yozilgan, unda siyosatdonlar uchun qiziqarli va foydali kuzatuvlar o'z ifodasini topgan, lekin bu kuzatuvlar, mening nazarimda, uncha yetarli emasdek ko'rindi. Men ana shu fikrimni aytishga jur'at etdim, agar muallif istasa, ba'zi qo'shimchalar kiritishni taklif qildim. U odatda yozuvchilarda, ayniqsa loyiha tuzuvchilarda bo'lgani kabi, taklifimni zo'r minnatdorchilik bilan qabul qildi va mening mulohazalarimni inobatga olajagini izhor etdi.

Shunda unga sayohatlarimdan birida bo'lishga to'g'ri kelgan — mahalliy aholi Langden deb atagan* Tribnia qirolligida aholi nuqul xabarchi, guvoh, chaqimchi, qoralovchi, da'vogar, har narsaga shohid odamlardan iboratligini, sud maslahatchilari, ularning malay va shogirdlari vazir va vazir yordamchilaridan maosh olishlarini aytdim. Bu qirollikdagi fitnalar o'tkir va nozik siyosatchi bo'lishga intilayotgan, to'kilay deb qolgan hokimiyat organidagi yangi kuchlarni ruhlantirayotgan, jamoatchilik noroziligini bostirayotgan yoki chalg'itayotgan, o'z sandig'ini musodara qilingan boyliklar evaziga to'ldirayotgan, o'z manfaatini o'ylab, davlat kuch-qudratiga nisbatan ishonchni mustahkamlayotgan yoki barbod etayotgan odamlarning ishi ekanligini bayon etdim. Eng avvalo ular, qaysi shubhali odamni fitnada ayblash xususida til biriktirib olishadi; keyin undan barcha xat va qog'ozlarni tortib olish, o'zini esa kishanlab qo'yish uchun bor vositalarni ishga solishadi. Tortib olingan xat va qog'ozlar mutaxassislar qo'lga beriladi, bu mohir odamlar esa so'z, bo'g'in va harflarning sirli ma'nosini yechishadi. Masalan, bir gala g'oz — senat; cho'loq it — senatorlikka da'vogar; sarich — bosh vazir; bod — arxiyepiskop; dor — davlat kotibi; supurgi — revolyusioner; sich-

qon tutadigan qopqon — davlat xizmati; tubsiz quduq — xazinachilik; yuvindi o'rasi — saroy; ahmoqlarning qalpog'i — qirol arzandasi; siniq hasa — sud palatasi; ichi bo'sh bochka — general; yiringli yara — davlatni idora qilish sistemi ekanligini ular osongina aniqlab berishadi.

Professor ana shu kuzatuvlarim borasida bergan ma'lumotlarim uchun chukur minniatdorchiilik izhor qildi va o'z asarida meni kamoli ehtirom bilan eslab o'tajagini aytdi.

Bu mamlakatda meni boshqa hech narsa qiziqitirmadi, men Angliyaga qaytish haqida o'ylay boshladim.

YETTINCHI BOB

MUALLIF LAGODANI TARK ETADI. UNING MALDONADAGA KELISHI. LAGNEGGA JO'NASH UCHUN KEMA YO'Q. MUALLIF GLABBDODBDRIBGA QISQA MUDDATLI SAYOHAT QILADI. ANA SHU OROL PODSHOSI TOMONIDAN MUALLIFNING KUTIB OLINISHI.

Bu qirollik bir qismini egallagan qit'a Amerikaning Kaliforniyadan g'arbga qarab cho'zilib ketgan va tekshirilgan joylaridan sharqda joylashgan. Shunday deyishga asosim bor. Uning shimoliy qismi Tinch okeanga tutash. Lagadodan salkam yuz ellik milya yiroqda go'zal Maldonada porti bor. U 29° shimoliy kenglikning shimoli-g'arbida va 140° g'arbiy uzunlikda joylashgan ulkan Laggnegg oroli bilan qizg'in savdo olib boradi. Laggnegg oroli Yaponiyaning sharq tomonida, undan yuz liga narida. Yapon imperatori va Laggnegg qirol i ittifoq tuzishgan, ana shu orollar o'rtasida muntazam aloqalar bor. Shu vajdan Yaponiya orqali Yevropaga qaytish umidida Laggnegg tomon o'tlanishga ahd qildim.

Maldonadaga borish uchun yo'l boshlovchi va ikkita xachir yolladim. So'ng menga homiylik qilgan Myunodi bilan do'stona xayrlashdim, u yo'lga men uchun katta tuhfa hozirladi, men yo'lga ravona bo'ldim.

Sayohatim tilga olishga arziydigan sarguzashtlarsiz o'tdi. Maldonadaga kelib, Laggnegg tomonga boradigan birorta ham kemani uchratmadim. Portda menga, ushbu orolga bo'ladigan navbatdagi reys biror oydan keyingina bo'lishini aytishdi. Kutishga to'g'ri keldi. Men shahar mehmonxonasiga joylashdim. Ha demay,

ba'zi odamlar bilan tanishib ham oldim. Bir muhtaram zot menga, bu yerda biror oy turadigan bo'lsangiz, janubi-g'arb tomonda, bu yerdan besh liga nariga joylashgan Glabbdobdrib oroliga borishga xohish bildirarsiz, deb qoldi. U meni do'sti bilan kuzatib borajagini, safar uchun qulay katta qayiq topajagini aytdi.

Glabbdobdrib degan so'zining ma'nosi menga tushunarli, u jodugar yoki sehrgarlar oroli demakdir. Bu orol Uayt orolidan uch marta kichkina va zamini ho-sildor. Bu orolni nuqul sehrgarlardan tashkil topgan qabilaning boshlig'i idora qiladi. Orol aholisi faqat bir-birlari bilangina turmush qurishadi. Eng keksa odam orolning hokimi yoki hukmdori hisoblanadi. Hukmdorning atrofi yigirma fut b-landlikdagi tosh devor bilan qurshalgan, kattaligi uch ming akr keladigan bog'i va ajoyib saroyi bor. Bog'ning devor bilan yaxshilab o'ralgan qismi chorva mol-larini boqish, dehqonchilik qilish va bog'dorchilik uchun ajratilgan.

Hukmdorning xizmatkorlari va oila a'zolarining tashqi qiyofalari vahimali. Hukmdor nekromantiya* ilmini suv qilib ichib yuborgani uchun o'z xohishi bi-lan marhumlarni chaqirish va ularni o'ziga xizmat qildirish kuchiga ega. Lekin chaqirilgan marhumlar ustidan uning hukmronlik qilishi yigirma to'rt soatga cho'ziladi, xolos; bundan tashqari, u bitta marhumni bir oy ichida hueuriga faqat uch martagina chaqira oladi.

Orolga kelib tushganimizda soat ertalabki o'n birlar atrofida edi. Hamroh-larimdan biri, oliy hazratlarining huzuriga tashrif buyurish sharafiga muyassar bo'lish umidida orolga kelgan bir xorijiy kishini qabul qilishi uchun hukmdordan ijozat so'ragani uning qasriga jo'nadi. Hukmdor darhol rozilik bildiribdi.

Saroy darvozasining har ikki tomonida qurollangan va o'ta qadimiy modada kiyingan soqchilar saf tortib turardi. Ularning tashqi ko'rinishi haddan tashqari vahimali bo'lganidan dahshatga tushdim. Biz mulozimlar ikki qator bo'lib, saf tor-tib turgan bir necha xonadan o'tdik va qabulxona-zalga yetdik. Bu yerda, taomilga ko'ra, uch marta ta'zim bajo keltirdik. Bizga uncha ahamiyati bo'lmagan bir qancha savollar berishdi va oliy hazratlari taxti-ravonining eng pastki pog'onasidagi uchta kursiga o'tirishni taklif qilishdi. Hukmdor balnibarbi tilini bilar ekan, sayohatla-rim xususida gapirib berishimni iltimos qildi. O'zimni o'nglab olishim va erkin tutishim uchun, u yon-atrofidagilarga chiqib ketishga ishora qildi. Ular, to'satdan uyg'onib ketganimizda tushimiz ko'zdan g'oyib bo'lganiday, bir lahzada g'oyib bo'lishdi. Men hayrat va dahshatdan dong qotib qoldim. Buni fahmlagan hukmdor xavf-xatardan xoli ekanligimga meni ishontira boshladi. Bunday vahimali manza-ralarga ko'nikib qolgan ikki hamrohimning xotirjam o'tirganini ko'rib, men ham

bir oz tinchlandim, sarguzashtlarimdan ayrimlarini oliy hazratlariga aytib berdim. Biroq men hamon o'z hayajonimni bosolmasdim, tez-tez haligi ko'zdan g'oyib bo'lgan mulozim-arvohlar turgan joyga javdirab qarardim.

Men hukmdor bilan birga ovqatlanish sharafiga muyassar bo'ldim. Dasturxon atrofida yangi arvohlar xizmat qilib turishdi, taomlar tortishdi. Biroq ular endi menga ertalabgidek dahshat solmayotgan edi. Men saroyda kun botgungacha qolib ketdim. Hukmdor meni saroyida qolishga qistadi. Lekin men oliy hazratlaridan meni afv etishini, kechasi uyga ketishni ma'qul ko'rayotganimni tavoze bilan iltimos qildim. Men hamrohlarim bilan birga, shu orolning poytaxti hisoblangan shahardagi bir xususiy uyda tunadim. Ertasi kuni ertalab izzat-hurmatimizni izhor etish va uning ixtiyorida bo'lish uchun yana hukmdor huzuriga jo'nadik.

Biz orolda o'n kun istiqomat qildik. Ko'pgina vaqtimizni saroyda, hukmdor huzurida o'tkazdik, kechasi shahardagi kvartirada tunadik. Ko'p o'tmay soya va jinlar muhitiga ko'nikib ketdim, uchinchi kunga o'tganda ulardan hayratlanmadim, dahshatga ham tushmadim. Ehtimol, sal qo'rqqandirman-ku, lekin qiziqish qo'rqquvdan ustunlik qildi. Buni sezgan hukmdor yaqinda yoki uzoq o'tmishda olamdan o'tganlardan kimni ko'rish xohishim borligini so'radi. O'shalarni chaqirib, ular bilan suhbat o'tkazishim, ular hayot vaqtlarida yuz bergan narsalar haqida gapirishi mumkin dedi. Hukmdor ularni og'zidan faqat haq gapni eshitishga ishonchim komil bo'lishini, chunki u dunyodagilar yolg'on gapirishdan hech qanday naf ko'rmasligini ham aytib qo'ydi.

Bunday oliy marhamat ko'rsatgani uchun oliy hazratlariga hurmat-ehtirom bilan chuqur minnatdorchilik izhor qildim. Bu paytda park butun go'zalligi bilan ko'rinish turgan xonada o'tirardik. Eng avvalo tantanavor va ulug'vor manzaralarni tomosha qilgim keldi. Men Buyuk Iskandarni* Arbala yonida bo'lgan jangdan keyin armiyasiga boshchilik qilayotgan holda ko'rsatishni iltimos qildim. Mana, hukmdor barmoqlari bilan ishora qilgan zahotiyoy Iskandar biz turgan deraza ro'parasidagi bepoyon dalada paydo bo'ldi. Hukmdor uni xona ichiga taklif qildi. Uning qadimgi grek tilida gapirgan gaplarini arang uqdim, u ham gapimizni yaxshi tushunolmadi. Iskandar zaharlanmaganligini, balki ichkilikbozlik tufayli o'lganligini menga aytib, ont ichdi.

Keyin Gannibalni* Alp tog'laridan o'tayotgan paytida ko'rdim. Gannibal menga o'z lagerida bir tomchi ham sirka bo'lmaganligini aytdi.

Men jangga kirishga hozirlanib, o'z qo'shinlarini boshqarib turgan Sezar va Pompeylarni ham ko'rdim. Shuningdek, Sezarni so'nggi zafarli yurishi paytida ham ko'rdim. Keyin saroy zallaridan biriga rim senati, boshqasiga hozirgi

zamon parlamenti to'planishini iltimos qildim. Birinchisi ko'zimga qahramonlar va yarim xudolar yig'iniga, ikkinchisi chaqimchilar, cho'ntak kesarlar, qaroqchi va bezorilar yig'iniga o'xshab ko'rindi.

Hukmdor iltimosimni bajo keltirib, Sezar bilan Brutni* bizga yaqinroq kelin-
glar, deb imladi. Brutni ko'rganimda unga bo'lgan izzat-ehtiromim ortib ketdi. Uning yuzidagi har bir ajinda o'ta saxovatlilik va qat'iyat, vatanga qaynoq mu-
habbat va kishilarga marhamat, namoyon bo'lib turibdi. Bu har ikkala odam ham
bir-birlariga yaxshi munosabatda ekanligiga zo'r qoniqish bilan ishonch hosil qil-
dim. Sezar o'z umrida ko'rsatgan buyuk jasoratlari uning hayotini so'ndirgan ki-
shi shuhratiga hech qachon teng kela olmasligini ochiq-oshkora tan olib, menga
aytdi. Men Brut bilan ham uzoq suhbat qurishga muyassar bo'ldim.

Aytmoqchi, u menga bobokaloni Yuniy, Suqrot, Epaminon, Kichik Katon,
ser Tomas Morlar* hamda o'zi hech qachon bir-birlaridan ajralmay yurishlarini
ma'lum qildi. Bu shunday sekstumviratki*, butun insoniyat tarixi bunga yettin-
chi bir odamni qo'shib qo'yishga o'zlik qiladi.

Dunyoning eng qadimiy tarixiy davrlarini ko'rishga bo'lgan chanqoqligimni
qondirish uchun hukmdor huzurimga chaqirib bergan ulug' kishilarni sanayver-
sam kitobxonni toliqtirib qo'yishim mumkin. Ayniqsa, zolimlarni va hokimiyat-
ni zo'rlik bilan qo'lga olgan kishilarni qirib tashlagan, ozodlikni hamda ezilgan
xalqlarning toptalgan huquqlarini tiklagan kishilar bilan diydor ko'rishib, rosa
huzur qildim. Biroq meni to'lqinlantirgan tuyg'ularni kitobxonlar qiziqadigan
tarzda bayon qilishga o'ziman.

SAKKIZINCHI BOB

GLABBDODRIB TA'RIFINING DAVOMI. QADIMIY VA YANGI TARIXGA TU-
ZATISHLAR.

Men butun bir kunni o'tmishning ulug' donishmandlari Gomer va
Arastu* bilan suhbatda o'tkazdim. Miyamga ana shu ulug' zotlar bi-
lan birga ularning sharhlovchilarini ham chaqirish fikri kelib qoldi.
Sharhlovchilar shunchalik ko'payib ketishdiki, ulardan yuzlab kishi
saroyda va saroyning boshqa xonalarida navbat kutishga majbur bo'lishdi. Olomon

ichida darhol ikki dahoni tanib oldim. Gomer chiroyliroq, Arastudan novcharoq bo'lib, yoshiga nisbatan qaddini ancha bardam tutib turardi, ko'zlari esa odatdan tashqari ma'nodor va ziyrak boqardi. Arastu esa bukchayib, hassa tayanib yuribdi; uning yuzlari olqindiday, siyrak sochlari dikkaygan, ovozi bo'g'iq. Men har ikkala donishmand ham o'z sharhlovchilarini ko'rmaganligini va ular haqida eshitmaganligini darhol fahmladim. Arvohlardan biri qulog'imga, bu sharhlovchilar narigi dunyoda o'zlarini mashhur donishmandlardan ancha yiroqda olib yurishadi, deb shivirladi. Ular o'z sharhlarida bu muallifarning teran ma'noli asarlari mazmunini haddan tashqari buzib ko'rsatishganini tan olishadi, shu vajdan donishmandlarga yaqinlashishga uyalishadi. Men Arastuga Skot bilan Ramusni* tanishtirmoqchi bo'ldim. Biroq faylasufga ularning dunyoqarashlarini bayon qila boshlashim bilan oq u juda qattiq g'azablandi va, nahotki sharhlovchilarning keyingi avlodlari ham shular kabi ovsarlardan iborat bo'lsa, deb so'radi.

Shundan keyin hukmdordan Arastuga o'z sistemalarini bayon qilib berishlari uchun Dekart bilan Gassendini* chaqirishni iltimos qildim. Ulug' faylasuf tabiat ta'limoti borasidagi xatolarini oshkora tan oldi, chunki uning ko'pgina fikrlari taxminlarga asoslangan ekan. U yana, Epikur* ta'limoti kuchi bilan falsafani yangilagan Gassendi va girdob nazariyasini yaratgan Dekart avlodlar tomonidan rad etiladi, degan taxminni ham aytdi. U hozirgi zamon olimlari zo'r ishtiyoq bilan intilayotgan tortish kuchi nazariyasining qismati ham shundan bo'ladi, deb bashorat qildi. Shuningdek, tabiat falsafasining yangi sistemasi yangi modaga o'xshab, avlod o'tgan sari yangilanib boradi. Hatto matematika yordamida o'z qarashlarini isbotlash va asoslashga intilayotgan faylasuflar ham uncha mashhur bo'lolmaydilar, muddat taqdiri belgilagan paytda modadan chiqib qolishaveradi, dedi.

Keyingi besh kun ichida ko'hna dunyoning boshqa ko'pgina olimlari bilan suhbat qurdim. Ko'pgina Rim imperatorlarini ko'rdim. Men hukmdordan bizga ovqat pishirib berish uchun Geliogabal* oshpazlarini chaqirishni iltimos qildim, ammo turli ziravorlar yetishmaganligi tufayli ular o'z san'atlarini namoyish etisholmadi. Agesilayning* iloti²² bizga spartakcha suyuq osh pishirib berdi, lekin bir ho'plagach, ikkinchi qoshiqni icholmadim.

Meni kuzatib yurgan ikki jentelmen ish bilan uch kunga uylariga jo'nashdi. Shu muddat ichida vatanimda va Yevropaning boshqa mamlakatlarda yashab o'tgan, keyingi ikki-uch asrda dunyoga dong taratgan ulug' odamlar bilan uchrashdim.

22 Ilot — qul.

Men hamisha qadimiy mashhur ajdodlarning muxlisi bo'lganimdan, hukmdordan bir talay yoki ikki qirolni bir necha avlod-ajdodlari bilan chaqirib berishni idtimos qildim. Biroq men qiyin va tasodifiy umidsizlikka duchor bo'ldim. Boshiga toj kiygan zotlarning hashamatli safi o'rniga bir sulolada ikki g'ijjakchini, uchta uchar saroy ahlini va bitta italyan prelatini ko'rdim; boshqa bir sulolada sartarosh, abbat va kardinalni uchratdim. Aytganday, bu nozik narsadan uzoqroq turish niyatida, tojli boshlarni hurmat qilaman. Graf, markiz, gersog va shunga o'xshashlarga kel-sak, ular bilan unchalik e'tibor-e'tiqodda bo'lmaganman. Shuni e'tirof etishim ke-rakki, mashhur ajdodlarning tashqi ko'rinishi va fe'l-atvoridagi o'ziga xos fazilatlar qanday paydo bo'lganligini aniqlash menga ancha huzur bag'ishladi. Men hech bir qiynalmay bir avlodning nima uchun jag'i uzunligini, boshqa bir sulolaning ikki avlodida nega tovlamachilar, undan keyingi ikki avlodida esa ahmoqlar ko'pligini; uchinchisi aqldan ozganlar, to'rtinchisi fribgarlar ekanligini bilib oldim; shunday qilib, zolimlik, aldanchilik, qo'rqqoqlik ba'zi sulolalarning asosiy belgilari bo'lib qolgan, o'z mulozimlarining uqali kiyimlari va karetalarining eshiklarini bezagan gerblari esa bularning oldida bir paqirga qimmat.

Ayniqsa, yangi tarixga judayam jirkanib qaradim. Men o'tgan asrda qirollar saroyida katta shuhratga erishgan kishilar bilan yaxshilab tanishib oldim. Eng buyuk harbiy jasoratlarni qo'rqqoqlarga, dono maslahatlarni ahmoqlarga, sami-miylikni xushomadgo'yilarga, Rim jasoratini xoinlarga, xudojo'yulikni xudosiz-larga, haqqoniyatni chaqimchilarga almashtiruvchi sotqin sharhchi-xattotlar dunyoni naqadar laqillatayotganliklaridan hayratga tushdim. Men qanchadan-qancha gunohsiz, ajoyib odamlar o'limga hukm etilganligini yoki qudratli vazir-larning hiyla-nayrangi tufayli surgun qilinganligini bilib oldim. Qanchadan-qan-cha ablahlar oliy martabalariga erishib, katta ishonchga, hokimiyatga, hurmat-eh-tiromga sazovor bo'lishibdi, mo'l-ko'lchilikda huzur-halovat ko'rishibdi. Buyuk voqealar va davlat to'ntarishlarining harakatga keltiruvchi kuchlar va sabablar, ularning muvaffaqiyatiga asos bo'lgan tasodiflar haqidagi haqqoniy ma'lumot-larni olganimda mening inson donishmandligi va halolligi xususidagi fikrlarim naqadar sayoz ekanligini bildim. Bir general qo'rqqoqligi va ahmoqona buyruqlar berishi bilan, xuddi shu yerda turgan admiral esa, dushman vaziyatini durustroq bilmaganligi tufayligina yov ustidan g'alaba qozonishganini e'tirof etib aytish-di. Vaholanki, admiral flotni topshirishga hozirlanib turgan ekan. Uch qirol esa, necha yil taxtda o'tirib, birorta ham aqliraso, munosib odamni davlat mansabiga tayinlashmaganliklarini aytishdi. Bordi-yu, shunday tayinlashlar bo'lgan bo'lsa,

u ham xatolik yoki birorta vazirning xoinligi orqali bo'lgan ekan. Ular, agar yana taxtga o'tirish nasib qilsa bunday xatolarga yo'l qo'yilmaydi, deyishdi. Yana ular fahsh, axloqi buzilgan odamgina taxtda uzoq vaqt hukmronlik qiladi, benuqson, dadil, qat'iy va oqil kishilar davlatni idora ishlarida xalaqit berib qoladi, xolos deb meni qattiq ishonirishdi.

Meni oliy unvonlar va bitmas-tuganmas boyliklarga qanday qilib ega bo'lish qiziqtirib qoldi. Hatto xorijiyarlarga ham ozor yetkazishdan qo'rqib, hozirgacha o'z tadqiqotlarimda bu masalaga til tekizmaganman (ishonamanki, bu xususda men nimaki degan bo'lsam, ularning mening vatanimga hech qanday aloqasi yo'qligini kitobxonga aytib o'tirishning hojati bo'lmasa kerak). Iltimosimga ko'ra meni qiziqtirgan ancha odamlar chaqirildi. Bir necha yengil-elpi savollar berilgandan keyin ko'z o'ngimda shunaqayam rasvo manzara namoyon bo'ldi-ki, bu haqda bamaylixotir eslay olmayman. Yovuzlik, ezish, pora berish, aldanchilik va shunga o'xshash o'jizliklar boylik orttirishda qo'llanayotgan vositalar ichida afv etiladigani desa bo'larkan. Lekin chaqirtirilganlarning biri mashhur bo'lish va boylik orttirish uchun vataniga xoinlik qilganini, boshqasi birovlarini zaharlaganini, ko'pchiligi aybsiz odamlarni o'ldirish maqsadida qonunlarni buzganligini e'tirof qilgach, bu kashfiyotlar (bu gapim uchun kitobxon meni kechirsin), barcha oddiy odamlar kabi, meni ham oliy nasabli zotlarga nisbatan bo'lgan ehtirom tuyg'ularimni bir oz me'yorga solib olishga majbur qildi.

Men podsholarga va o'z vataniga katta xizmatlar qilgan kishilar haqida ko'p o'qiganman, ana shularni ko'rish istagini bildirdim. Biroq menga, ularning nomini u dunyo arxivida topib bo'lmaydi, deyishdi. To'g'ri, ro'yxatda o'z vatanining chinakam muruvvatli odamlari bo'lgan bir necha kishining nomi turibdi, biroq tarix ularni uchchiga chiqqan muttahamlar va xoinlar sifatida talqin qilgan ekan. Ularni ko'rgim keldi. Ularning hammasi mening ro'paramda rang-ro'ylari bir ahvolda, juldur kiyimlarda hozir bo'lishdi. Ularning ko'pchiligi o'z hayotlarini yo'qchilik va shafqatsizlikda, hatto jallod kundasida tugatganliklarini menga aytib berishdi.

U dunyodan chaqirilganlarning hammasi tiriklik vaqtlaridagi tashqi qiyofalarini bekami-ko'st saqlab qolishibdi. Ularning tashqi qiyofalarini zamondoshlarimizniki bilan taqqoslab, keyingi asrlarda insoniyatning zoti aynib borayotganligidan ko'ngilga g'ashlik soluvchi xulosalarga keldim.

Eng oxirida matonatli ingliz dehqonlarini chaqirishni iltimos qildim. Bu odamlar bir vaqtlar fe'l-atvorining soddaligi, adolatlilik, chinakam erkparvarligi, jasurligi va o'z yurtlariga qizg'in muhabbatlari bilan dong taratishgan edi.

Men tiriklarni marhumlar bilan taqqoslab, bobokalonlarimizning saxovati oyoq osti qilinganligiga befarq qarab turolmadim. Hozirgi razil odamlar parlamentga o'tkazilgan saylovlarda arzimagan pul uchun ovoz berib, saroyda o'rganish mumkin bo'lgan hamma qusurlarga* ega bo'lishadi.

TO'QQIZINCHI BOB

MUALLIF MALDONADAGA QAYTADI VA KEMADA LAGGNEGG QIROLLIGIGA BORADI. MUALLIF HIBSGA OLINADI. UNI SAROYGA CHAQIRISHADI. SAROYDA UNING KUTIB OLINISHI. QIROLNING O'Z FUQAROLARIGA MURUVVATI.

Nihoyat jo'nab ketadigan kunimiz ham keldi. Men Glabbdobdrib hukmdori bilan xayr-xo'shlashib, ikkala hamrohim bilan Maldonadaga qaytib keldim. U yerda bir kema Laggnegg oroliga jo'nash uchun shay bo'lib turgan ekan. Hamrohlarim shu qadar yaxshi odamlar ediki, ular meni yo'li oziqlari bilan ta'minlab, kemagacha kuzatib qo'yishdi. Safarimiz bir oyga cho'zildi. Yo'lda qattiq bo'ron ko'tarildi va biz bu yerlarda oltmish liga kenglikda esadigan passat shamollarga yetib olish uchun kema yo'lini g'arb tomonga burishga majbur bo'ldik. 1708 yilning 21 aprelida Laggnegg orolining janubi-sharq chetidagi Klyumegnig daryosiga kirdik. Daryoning dengizga quyiladigan joyida katta port bor ekan. Biz shahardan bir liga berida langar tashladik va lotsman so'radik. Yarim soat o'tmay kemaga ikkita lotsman chiqdi va uni qoya hamda cho'gir toshlar orasidan o'tadigan xavfli tor yo'ldan shahar devorlaridan ikki yuz metr beridagi yopiq ko'rfazga olib bordi; bu yerda langarda bexatar tursa bo'lardi.

Matrosalarimizdan biri, ehtimol, yovuz niyat bilandir, lotsmanlarga kemamizda mashhur sayohatchi — chet ellik kishi bor, deb aytib qo'ydi. Lotsmanlar bu haqda bojxona amaldoriga xabar yetkazishdi, sohilga chiqqanimda u meni rosa sinchiklab tekshirdi. Nazoratchi men bilan Balmbarbi tilida gaplashdi. Qizg'in savdo-sotiq sharofati bilan bu til shu yerliklarning hammasiga, ayniqsa dengizchilar va bojxona xizmatchilariga yaqin hamda tanish ekan. Men nazoratchiga sarguzashtlarimdan ba'zilarini iloji boricha haqqoniy va ravon qilib aytib berdim. Lekin qaysi millatligimni yashirishni lozim topdim, unga gollandman dedim. Mening Yaponiyaga borish niyatim bor edi, ma'lumki, u yerda yevropaliklardan

faqat gollandlarni qo'yishadi*, xolos. Shuning uchun ham bojxona amaldoriga Balnibarbi sohillarida kema halokatiga uchraganimni, Laputuga yoki Uchar orolga ko'tarilganimni (bu orol haqida u ko'p eshitgan ekan), endilikda o'z yurtimga qaytish niyatida Yaponiyaga borishga oshiqayotganimni aytdim. Amaldor saroydan farmoyish bo'lgunga qadar meni ushlab turajagini bildirdi. U saroyga xat yozishga va'da berib, javobi ikki haftadan kechikmay yetib kelishini ma'lum qildi. Meni shinamgina xonaga olib borishdi, eshik oldiga soqchi qo'yishdi. Ammo men katta bog'da bemalol sayr qilib yurishim mumkin edi. Meni qirol hisobidan boqishdi, menga nisbatan muomalalari yaxshi bo'ldi. Har kuni huzurimga anchagina odam kelib turdi, chunki juda yiroq mamlakatdan sayohatchi kelganligi haqidagi mish-mish butun shaharga yoyilib ketibdi.

Huzurimga keluvchilar bilan g'aplashish uchun kemada men bilan birga kelgan bir yigitni tarjimonlikka chaqirdim. U asli Laggneggdan bo'lib, bir necha yil Maldonada yashagan, har ikkala tilni mukammal egallagan edi. Biroq bu yerga keluvchilar bilan o'tkazgan suhbatlarim menda hech qanday qiziqish tug'dirmadi. Men faqat savollarga javob berardim, xolos.

Saroyga yuborilgan xatga belgilangan muddatda javob keldi. Unda o'ntacha soqchi kuzatuvida meni mulozimlarim bilan, Traldregdab yoki Trildrogdribga (tushunishimcha, bu so'z ikki xil aytiladi) olib borishga farmoyish berilgandi. Mening mulozimim faqat tarjimon yigitning o'zi edi, uni xizmatimga o'tishga arang ko'ndirgandim. Tavoze bilan qilgan iltimosimga binoan ikkovimizga bitadan xachir berishdi.

Mening tezda yetib borishimni bildirgani hamda qirolning marhamat ko'rsatib, o'z taxti *pyoidan tuproq yalash* sharafiga meni muyassar etadigan kun va sotatni belgilashni iltimos qilgani oldindan chopar ketdi. Bu yerdagi saroyning udumi shunaqa ekan, bu shunchaki gap emasligini o'zim sinab ko'rdim. Chindan ham, saroyga yetib kelganimdan keyin oradan ikki kun o'tib, qirol meni qabul qiladigan bo'lgach, menga taxt oldigacha emaklab borishni va tuproqni yalashni* buyurishdi. Aytganday, xorijiy kishi bo'lganim uchun menga alohida izzat-ikrom ko'rsatishibdi: polni shunchalik tozalashibdiki, unda tuproqdan nom-nishon ham qolmabdi. Bu alohida muruvvat hisoblanarkan. Bunday marhamatga oliy nasabli amaldorlargina loyiq topilarkan. Bordi-yu, qirol tomonidan qabul qilingan kishining saroyda ko'pgina qudratli dushmanlari bo'lsa, ba'zida polga ataylab ko'pgina tuproq sepib qo'yishar ekan. Bir kuni katta bir amaldorning og'zi tuproqqa to'lib qolganini, taxt yoniga yetib kelganida bir og'iz ham so'z qota olmaganini

o'z ko'zim bilan ko'rdim. Tuproqni butunlay yutib yuborish kerak, oliy hazratlari huzurida uni tupurib tashlash yoki og'izni artish og'ir jinoyat hisoblanadi.

Bu yerda yana bir urf-odat bor ekan, u menga mutlaqo ma'qul kelmadi. Agar qirol o'z amaldorlaridan birortasini qiynamay va marhamat ko'rsatib qatl etmoqchi bo'lsa, yerga jigar rang tusdagi alohida zaharli poroshokni sepishga buyurur ekan. Hukmga mahkum etilgan kishi uni yalagach, yigirma to'rt soatdan keyin o'lar ekan.

Lekin ushbu podshoning o'ta shafqatli va o'z fuqarolariga mehribon (bu borada yevropalik podsholar undan ibrat olsa yomon bo'lmasdi) ekanligiga tan berish kerak: qatl bajo keltirilgandan keyin qabulxona — zal polini yaxshilab yuvishni buyuradi. Ana shu buyruqni hafsalasizlik bilan bajargan xizmatkorlar podshoning qahru g'azabiga duchor bo'lishadi. O'zining navbatchilik paytida qatldan so'ng polni yaxshilab tozalash haqida gamxo'rlik qilmagan bir amaldorni oliy hazratlari qamchi bilan savalashga buyurganini o'z qulog'im bilan eshitdim. Chunki ana shu beparvolik oqibatida podsho qabulxonasiga kelgan yosh, umidli amaldor zaharlandi. Vaholanki, qirol o'shanda uni mutlaqo o'ldirish niyatida bo'lmagan. Lekin qalbi daryo podsho shu qadar shafqatli ediki, u aybdor amaldorni savalattirmadi, yosh amaldorning, bundan buyon qirolning alohida farmoyishi-siz bunday yo'l tutmayman, deb bergan va'dasiga qanoat hosil qilib qo'ya qoldi.

Endi o'z hikoyamizga qaytaylik. Men taxtga qadar to'rt yard emaklab borganimdan keyin, sekin tizzalab turdim, peshonamni yetti marta polga urib, yaqinginada yodlab olgan quyidagi so'zlarimni aytdim: *«Ikpling gdoffzrosb skvutseromm bliop mlushnalt evin tnodbokef sliofed gerdleb asht!»* Bu tabrik so'zlari qirol huzuriga qo'yilgan har bir kishi uchun qadimiy qonunlar tomonidan belgilangan. Uni quyidagicha tarjima qilish mumkin: «Oliy hazratlarining samoviy quyoshi o'n bir yarim qamar oyidan ham uzoq yashasin». Tabrikni eshitgach, qirol menga savol berdi, lekin men tushunmadim. Ammo unga menga o'rgatganlari bo'yicha javob qildim. *«Flyuft drinyalerik duoldam prastredmirpush»*, bu: *«Mening tilim do's-timming og'zida»* degani. Bu so'zlarim bilan, tarjimonimga murojaat qiling, degan ma'noni bildirdim. Shunda tarjimon yigit ishga tushdi. Oliy hazratlari ma'qul ko'rgan hamma savollarga uning yordamida javob berdim. Men balnibarbi tilida gapirdim, tarjimon aytganlarimni lagnegg tilida tushuntirib bordi.

Men qirolga juda yoqib qoldim, u o'zining *bliffmar klubiga*, ya'ni ober-gof-meystriга men va tarjimonim uchun saroydan alohida xona ajratishni hamda is-siq-sovug'imdan xabardor bo'lib turishni buyurdi. Ustiga-ustak, oliy hazratlari mayda-chuyda xarajatlarim uchun bir hamyon oltin ham berdi.

Men bu mamlakatda uch oy yashadim. Qirol menga hisobsiz iltifot va marhamatlar ko'rsatdi. U meni shu yerda umrbod qolishga ko'ndirmoqchi bo'ldi va ko'p narsalarni va'da qildi. Lekin men umrimning qolgan qismini xotinim, bola-chaqalarim bilan o'tkazishni eng oqilona va adolatli ish deb bildim.

O'NINCHI BOB

LAGGNEGGLAR MADHI. STRULDBRUGLARNING TO'LIQ TA'RIFI. MUALLIFNING BIR NECHA TANIQLI ODAMLAR BILAN STRULDBRUGLAR HAQIDA SUHBATLASHUVI.

Laggnegglar xushmuomala, olijanob xalq. Garchi ular barcha sharq xalqlariday sal mag'rur bo'lsalar ham, xorijiy kishilarga juda iltifotli, bordi-yu, ularning saroyda hurmati zo'rroq bo'lsa, yanada iltifotliroq bo'lishadi. Men oliy tabaqa orasidan ko'pgina tanishlar orttirdim, tarjimon yordamida ular bilan shirin suhbatlar qurdim.

Bir kuni tam-tamlar orasiga tushib qoldim. Suhbat davomida kimdir struldbruglar yoki o'lmaydiganlarni ko'rganmisiz, deb so'rab qoldi. Men yo'q deb javob berdim, bu g'alati so'zning ma'nosini aytib berishni iltimos qildim.

Suhbatdoshim bu antiqa odamlar haqida hanuzgacha hech narsa eshitmaganligimni bilib juda ajablendi va ular haqida hikoya qilishga oshiqdi. Uning ajoyib hikoyasining mazmuni shunday. Juda kamdan-kam bo'lsa-da, vaqti-vaqti bilan laggnegglarda peshanasida, naq chap qoshining ustida qizil xoli bor bola tug'iladi. Bu xol — bolaning hech qachon o'lmasligining muqarrar nishonasi. Xolning kattaligi avvalo uch pensli kumush tangaday bo'ladi, lekin vaqt o'tishi bilan u kattalashadi, rangi ham o'zgaradi. Bola o'n ikki yoshga to'lganda xol moviy tusga kiradi va yigirma besh yoshgacha shunday qoladi; keyin to'q ko'k rangga aylanadi; qirq besh yoshga yetganda struldbruglarning xoli ko'mirdek qop-qora bo'ladi va ingliz shillinggiday kattalashadi, so'ng umrbod shundayligicha qoladi. Xoldor bolalar shu qadar kam tug'iladiki, butun qirollikda har ikkala jinsdan bo'lgan struldbruglar bir ming bir yuztadan oshmaydi. Ulardan ellik kishi poytaxtda yashaydi, shular orasida uch yil muqaddam tug'ilgan qizcha ham bor. Struldbrug har qanday oilada tug'ilishi

mumkin. Uning tug'ilishi tasodifiy hol. Bu strulbruglarning bolasi boshqalarniki singari qazo qilishi mumkin.

Oshkora e'tirof etishim kerakki, bu hikoya meni behad ruhlantirib yubordi. Naqadar baxtiyor millat! Bu yerda tug'iladigan har bir chaqaloq o'lmaydigan bo'lishi mumkin! Ko'z oldida bobolar saxovatining jonli namunasini hamisha ko'rib turish xalq uchun naqadar katta baxt! Ilgari yashab o'tgan bir necha avlodlar erishgan tajribalar asosida donishmandlikni o'rgatishga qodir ustozlarning bo'lishi xalq uchun naqadar zo'r ezgulik! Olijanob strulbruglarning o'zi esa ulardan yuz baravar baxtiyorroq. Tabiat har bir kishining boshiga tushadigan ajal qismatidan ularni xalos etgan. Ular azoblovchi o'lim dahshati nimaligini bilishmaydi; bu haqdagi doimiy fikr ular aqliga raxna solmaydi va ularning aqli hech qanday to'siqsiz, erkin rivojlanaveradi.

Men saroyda ana shunday shavkatli o'lmaydigan odamlardan birorta ham uchratolmaganim uchun ajablanganligimni izhor etdim. Peshanadagi qora xol — darhol ko'zga tashlanadigan nishona, bunga albatta e'tibor bergan bo'lardim. Shuning bilan birga, aqli teran hukmdorlardan biri bo'lmish oliy hazratlari o'z yonida ana shunday dono va tajribali maslahatchilarni saqlamasligi aqlga sig'maydigan ish. Ehtimol, bu donishmandlarning fazilatlarini saroyda hukm surayotgan axloqiy buzilishlarga to'g'ri kelmas. Axir, qariyalarning oqilona maslahatlariga o'jarlik va yengiltaklik bilan quloq solmayotgan yoshlarni ham bilamiz-ku. Lekin oliy hazratlari o'z huzuriga bemalol tashrif buyurishim uchun ijozat berdi, men esa dastlabki qulay fursatdayoq, bu haqdagi o'z fikrimni unga batafsil bayon etaman.

Har holda, endi oliy hazratlarining umrbod mamlakatimizda qoling, degan iltifotli taklifini zo'r minnatdorchilik bilan qabul qilaman, agar bu ulug' zotlar meni o'z davralariga qo'shishini lozim topishsa, butun umrimni strulbruglar bilan suhbatda o'tkazaman.

Men bu gaplarni zavq-shavq bilan aytarkanman (men o'zim yaxshi bilgan balnibarbi tilida gapirardim), suhbatdoshim soddadil odamga achingandek bir qiyofada menga jilmayib boqdi. Gapimni tugatganimdan keyin, u meni mamlakatda olib qolish uchun har qanday taklifga rozi ekanligini aytdi va gaplarimni shu yerda o'tirganlarga tarjima qilib berishga mendan rozilik so'radi. Bundan o'ta minnatdor bo'laman, deb javob qildim. Uning hikoyasi hammaning e'tiborini o'ziga tortdi; shundan keyin suhbat yana qizg'in tus oldi. Afsuski, bu yerliklarning tiliga tushunmasdim, buning ustiga men aytgan fikrlar qanday ta'sir etganligini ularning yuz ifodasidan ham o'qib ololmadim. Nihoyat suhbatdoshim

yana menga yuzlandi. U mening ham, o'zining ham do'stlari ulug' baxt hamda o'lmaslikning afzalliklari haqidagi mulohazalarimdan nihoyatda xursand bo'lishganligini aytdi. Keyin, bordi-yu falakning gardishi bilan o'zingiz struldbrug bo'lib tug'ilganingizda qanday yo'l tutishingiz bularni juda qiziqtirayapti, dedi.

Ularning qiziqishini osongina qondirishim mumkin, dedim. Men o'lmaslik haqida doim orzu qilganman, mangu hayot kechirish nasib qilgudek bo'lsa, o'zimni qanday tutishim xususida ko'p o'ylaganman.

Xullas, o'lmasligimga qattiq ishonganimdan keyin, avvalo boyishga intildim. Tejam hamda me'yor bilan ish tutish orqali ikki yuz yildan keyin qirollik bo'yicha eng badavlat odam bo'lib olishga aqlim yetadi. Juda yoshlik paytimdan boshlaboq ilm va san'atni egallashga kirishib, olimlikda hammani ortda qoldirib ketgan bo'lardim. Va nihoyat, jamiyatdagi muhim voqealarning yilnomasini yozib borardim. O'z kitobimga urf-odat, til, kiyinish, ovqatlanish va ko'ngil ochish borasidagi hamma o'zgarishlarni qayd etardim. O'z bilimdonligim va kuzatuvlarim sharofati bilan bora-bora chinakam donishmand bo'lardim, xalqim uchun barcha bilimlar manbaiga aylanardim.

Oltmish yoshdan keyin uylanishni butunlay xayolimdan chiqarib tashlardim. Tejamligimcha qolib, oshkora hayot kechirardim. o'ta mehmondo'st bo'lardim. Atrofimga umidli yoshlarni to'plab, o'z tajribam, kuzatuv va xotiralarimga tayanган holda, jamiyat va shaxsiy hayotda himmat va saxovat naqadar yaxshi ekanligini ularga uqtirardim.

Ammo o'zim kabi mangu yashaydiganlar eng yaxshi, yaqin va hamishalik do'stlarim hamda suhbatdoshlarim bo'lib qolardi. Ular orasidan eng keksasi-yu, o'zimga tengqur bo'lganlardan o'n ikkita do'st tanlab olardim. Bordi-yu, ular orasida muhtojlar chiqib qolgunday bo'lsa, yer-mulkim atrofiga uy-joy qurib berardim. Dasturxonim atrofida doim struldburg do'stlarim va oddiy odamlarning eng munosiblari o'tirishardi. Zamon o'tishi bilan do'stlarimning olamdan ko'z yumishiga befarq qaraydigan bo'lib qolardim, ularning avlod-ajdodlariga havas bilan boqardim. O'tgan kuzda so'lib bitgan gullarga afsuslanmay, bog'imizda chaman-chaman ochilib yotgan chinnigul va lolalarga ana shunday havas bilan boqamiz-ku, axir.

Suhbatlarimiz naqadar mazmunli, maroqli bo'lardi! Biz, struldbruglar, bir necha asrlar mobaynida to'plangan kuzatuv hamda xotiralarimizni baham ko'radik. O'z shaxsiy fazilatlarimiz bilan odamlar orasida kun sayin o'sib borayotgan qusurlarning oldini olgan bo'lardik.

Bunga davlatlardagi va imperiyalardagi ulug' to'ntarishlardan, jamiyatning hamma qatlamlarida — pastdan yuqorigacha yuz beradigan o'zgarishlardan olinadigan huzur-halovatlarni qo'shib qo'ying. Ko'z oldingizda qadimiy shaharlar vayronalarga, hech kimga nomi ma'lum bo'lmagan qishloqlar aholisi zich poytaxtlarga aylanadi. Toshqin daryolarning anhorchalarga aylanishini, okeanlarning bir sohildan siljib, boshqa sohilni suv ostida qoldirishini kuzatasiz. Kechagina nom-nishoni yo'q mamlakatlar xaritada paydo bo'lib qolganini ko'rasiz. Siz madaniyat cho'qqisiga erishgan xalqlarning yovuzlashuvini, yovuzlarning esa sivilizasiyaga erishuvini kuzatasiz. Perpetuum mobile* ning kashf etilishi tufayli yana qanchadan-qancha kashfiyotlar bunyodga kelardi, barcha kasallarga davo bo'ladigan yoki uzoq yashashni aniqlab beradigan dorilar yaratishga imkon tug'ilardi!

O'lmaslik kishiga qanday xursandlik va huzur-halovat baxsh etishini ta'riflashda juda so'zamol bo'lib ketdim. Gapimni tamomlaganimdan keyin uning mazmuni shu yerdagilarga tarjima qilib berilgach, laggnegglar o'zaro bir-birlari bilan qizg'in gaplasha boshlashdi, goh-goh menga masxaraomuz nazar tashlab qo'yishdi.

Nihoyat tarjimonlik qilayotgan jentelmen, hamma undan menga dunyoqarashimdagi xatoliklarni tushuntirib berishni iltimos qilayotganini aytdi.

Men yo'l qo'ygan kamchilik inson zotiga mansub bo'lgan g'irt ahmoqlikning o'zimidir. Bu xislat mamlakatdagi struldbruglar zotida ayniqsa kuchlimish. Bunaqa antiqa maxluqlarni Balnibarbida ham, Yaponiyada ham topib bo'lmasmish. Tarjimonga bu kunday ravshan ekan, chunki oliy hazratlari uni yapon imperatori huzuriga elchi qilib yuborgan ekan, u yerda uning struldbruglar haqidagi gaplariga hech ishonishmabdi.

Suhbatdoshim yuqorida nomi zikr qilingan qirolliklarda mahalliy xalq bilan uzoq suhbatlashibdi, uzoq umr ko'rish hammaning istagi, orzu qilgan niyati ekanligini payqabdi. Hatto bir oyog'i go'rda bo'lgan qariyalar ham uzoqroq yashash ilinjida ekan. Juda munkillab qolganlar ham har bir kunni qadrlab, ajalga katta bir baxtsizlik deb qarasharmish. Faqat Laggnegg orolidagina hayotga bunchalik hirs qo'yish yo'q, chunki hammaning ko'z oldida uzoq umr ko'rish namunasi — struldbruglar bor.

Tasavvurimda jonlanayotgan o'lmas odamlarning hayot kechirishi ro'yobga chiqmaydigan narsa. U abadiy navqironlikni, salomatlik va kuch-quvvatni talab qiladi. Kishining orzulari qanchalik balandparvoz bo'lmasin unga umid bog'lab bo'lmaydi. Demak, bu yerda gap umrbod yoshlik va uning farog'atlaridan bahramand bo'lish ustida emas, balki qarilik keltiradigan azob-uqubatlar

bilan abadiy umrni qanday o'tkazish ustida borayapti. Bunday og'ir shart-sharoitda ko'pchilik abadiy umrga rozi bo'lmaydi. Lekin suhbatdoshim Balnibarbi va Yaponiyada hatto qarilikning barcha kulfatlariga muhtalo bo'lgan qariyalar ham ajalni o'zidan yiroqlashtirishga iitilganini payqabdi. U mendan, ana shunday holat sizning vataningizda, shuningdek siz sayohatda bo'lgan mamlakatlarda hech uchramadimi, deb so'radi.

Shundan keyin u o'z oralarida yashayotgan struldbruglarni batafsil ta'riflab berdi. Uning gapiga ko'ra, struldbruglar o'ttiz yoshgacha boshqa odamlardan farq qilmaydi. Keyin bora-bora indamas, tund bo'lib qolishadi.

Struldbrutlar, bu yerda inson umrining oxirgi chegarasi deb tan olingan sakson yoshga yetishganda oddiy odamlarga o'xshab munkillagan qariyalarga aylanishadi. Qarilikda bo'ladigan barcha kasallik va bedarmonliklardan tashqari, ular yana, umrbod mana shunday ayanchli alfozda o'tar ekanmiz, degan o'ydandan ham azob chekishadi.

Struldbruglar faqat o'jar, mijg'ov, xasis, tund, kekkaygan va mahmadona bo'lib qolmay, balki do'stlik va mehr-muhabbatdan ham mahrum. O'z yaqinlariga bo'lgan tabiiy tuyg'u nabiralaridan nariga o'tmaydi. Hasad, bir narsadan ko'ngli to'lmaslik doim ularni azoblaydi. Eng avvalo ular yoshlarning nuqsonlari va qariyalarning o'limiga hasad bilan qarashadi. Yoshlarning ko'ngil ochishlariga qarab turib, o'zlari uchun rohatlanishning hamma yo'llari berkilganligini o'ylab, alam chekishadi. Ko'mish marosimini ko'rishganda esa, boshqalar o'lib erishgan osoyishtalik biz uchun nasib etmaydi, deb hasrat va shikoyat qilishadi. Bularning ichida xotiradan mahrum bo'lib, go'daksifat hayot kechirayotganlari eng baxtiyorlari hisoblanadi. Ularga kishi achinadi, hamdard bo'lgisi keladi, chunki ular boshqa o'lmaydiganlarga xos qusur va nuqsonlardan xoli.

Bordi-yu, struldbrug o'ziga o'xshagan o'lmaydigan xotinga uylansa, er yo xotinning kichik yoshdagisi saksonga kirganda bu nikoh o'z-o'zidan bekor bo'ladi.

Struldbruglarning sakson yoshga kirishi, ular uchun fuqarolik o'limi hisoblanadi. Merosxo'rlar darhol ularning mol-mulkini tortib olishadi. Merosdan ularni boqish uchun ozgina mablag' ajratib qolinadi; o'ta faqirlari jamoatchilik hisobiga yashaydi. Sakson yoshga yetgan struldbruglar lavozim egallashga noqobil deb hisoblanadi. Ular biror narsani xarid qilolmaydi, yerni ijaraga ololmaydi, ularga sudda guvohlikka o'tishga ruxsat etilmaydi.

To'qsonga kirganda struldbruglarning tish va sochlari to'kilib ketadi. Bu yoshda ular ovqatning mazasini payqamay qolishadi, qo'llariga nima tushsa,

huzur-halovat, ishtaha nimaligini bilmay yeb-ichaverishadi. Ularni qarilik azob-lari tobora kuchayib, tinimsiz azoblayveradi. Bora-bora ular xotiradan mahrum bo'lishadi. Suhbat asnosida oddiy buyumlar hamda yaqin do'stlari va qarindosh-larining nomlarini ham unutib qo'yishadi. Ular o'qisholmaydi ham: bir jumlani o'qisa, oxiriga yetguncha boshini esidan chiqarib qo'yishadi. Shunday qilib, ular birdan-bir qo'llaridan keladigan ana shu ermakdan ham mahrum.

Bu mamlakat tili asta-sekin o'zgarib boradi. Bir asrda tug'ilgan struldbruglar boshqa asrda tug'ilgan odamlarning tilini zo'rg'a tushunishadi. Ikki yuz yoshga to'lishganda esa eng oddiy jumalarni ham arang talaffuz qilishadi. Shu muddat-dan boshlab, ular o'z mamlakatlarining xorijiy kishilariga o'xshab qolishadi.

Suhbatdoshimning ta'rifiga ko'ra struldbruglar ana shunday ekan. Keyinroq, turli yoshdagi besh-olti struldbrugni o'z ko'zim bilan ko'rdim. Ulardan eng yoshi ikki yuzga kiribdi. Ularni huzurimga olib kelgan do'stlarim meni ularga ulug' sayyoh, butun olamni kezgan kishi, deb tanishtirdi. Lekin bu gap struldbruglar-ga zarracha bo'lsin ta'sir qilmadi. Ular nimalarni ko'rganim va boshimdan ke-chirganim xususida birorta ham savol berishmadi. Ularni bitta narsa — ularga *slomeko'dask*, ya'ni esdalik sovg'a berish-bermasligim qiziq-tirdi. Bu — sadaqa so'rashning qulay usuli. Jamiyat hisobiga yashayotganliklari vajidan ularga ga-doylik qilish qat'iy an man etiladi. Lekin ularga beriladigan ovqat juda oz, shu tu-fayli ular gohida qonunni ham chetlab o'tishadi.

Struldbruglardan hazar qilishadi, ularga nafrat bilan qarashadi. Ularning har birining tug'ilishini yomon alomat deb bilishadi va nomlari alohida kitobga aniq qilib yozib qo'yiladi, shuning uchun ham har bir struldbrugning yoshini davlat arxiviga qarab bilish mumkin. Aytganday, arxiv yozuvlarining ming yildan na-riyog'i yo'q. Buning ustiga ko'p kitoblar zamon o'tishi bilan chirib ketgan yoki xalq qo'zg'olonlari vaqtida yo'q bo'lgan.

Struldbrugning yoshi qanchaligini bilishning eng oson yo'li undan, umringda qancha qirolni va buyuk voqealarni ko'rding, deb so'rashdir.

Struldbruglar o'zlari sakson yoshga kirgunlariga qadar taxtga o'tirgan qirol-larninggina nomini eslay oladilar. Keyin yilnomalarni titkilab, struldbrugning taxmiy yoshini belgilash mumkin. Umrim bino bo'lib shularchalik jirkanch odamlarni ko'rmaganman. Ayollari erkaklaridan ham battar jirkanch ko'rinish-ga ega. Munkillagan qariyalarga xos badbasharalikka ega bo'lish bilan birga, ular yillar o'tishi bilan allaqanday arvohlar qiyofasiga kirib qolishadi. Ularning qiyofasi kishi yuragiga ta'rifga sig'mas darajada dahshat soladi.

Struldbruglar bilan yaqindan tanishganimdan keyin, mendagi o'lmaslik haqidagi kuchli havas ancha so'nib qolgani kitobxonga ma'lum bo'lgan bo'lsa kerak.

Qirol do'stlarim bilan mening o'rtamda bo'lib o'tgan suhbat mazmunini eshitib, rosa kuldi. U vatandoshlarimni o'lim dahshatidan xalos qilish uchun struldbruglardan ikkitasini o'z yurtimga olib ketishimni taklif qildi. Qirollikning asosiy qonuni struldbruglarning o'z vatanlarini tark etishni man etmaganda edi, ularni yurtimga olib ketishning sarf-xarajatlarini va tashvishini joi-jon deb zimmamga olardim.

Shuni e'tirof etishim kerakki, bu yerda struldbruglarga nisbatan juda oqilona qonun qo'llanarkan. Agar ana shu qonunlar bo'lmaganda edi, qarilikka xos ochko'zlik balosiga muhtalo bo'lgan struldbruglar sekin-asta butun mamlakatni o'z mulklariga aylantirib, fuqarolik hokimiyatini butunlay egallab olishardi. Bu esa, ularning idora qilishdagi no'noqliklari tufayli, davlatni so'zsiz halokatga mahkum etishning o'zi bo'lardi.

O'N BIRINCHI BOB

MUALLIF LAGGNEGGNI TARK ETIB, YAPONIYAGA JO'NAYDI. U YERDAN GOLLAND KEMASIGA O'TIRIB AMSTERDAMGA, AMSTERDAMDAN ANGLIYAGA QAYTADI.

Ishonamanki, struldbruglar haqidagi hikoya o'zining yangiligi bilan kitobxonni ancha ovuntirgandir. Qo'limga tushgan sayothatnoma kitoblarda, sal-pal bo'lsa ham shunga o'xshash narsani uchratganimni eslolmayman.

Laggnegg qirolligi hamda ulug' Yaponiya imperiyasi o'rtasida doimiy savdo aloqalari bor. Ehtimol, yapon yozuvchilari struldburglar haqida yozishgandir. Men Yaponiyada juda oz vaqt bo'ldim. Men yapon tilini mutlaqo bilmayman, bu masala xususida biror narsa o'rganish imkoniyati ham bo'lmadi. Lekin ishonamanki, gollandlar hikoyalariمنى o'qib, o'lmaydiganlarga qiziqishadi va ma'lumotlarimni to'latishadi.

Oliy hazratlari saroyda birorta lavozimni egallang, deb meni rosa qistadi. Lekin vatanga qaytishga qattiq ahd qilganimni ko'rib, javob berishga rozi bo'ldi, hatto yapon imperatoriga tavsiyanoma ham yozib berdi. U menga to'rt yuz qirq

to'rt dona yirik oltin tanga va qizil olmos hadya qildi. Olmosni Angliyada bir ming bir yuz futga pulladim.

1709 yilning 6 may kuni oliy hazratlari va do'st-yorlarim bilan tantanali vaziyatda xayrlashdim. Qirol shu qadar marhamat ko'rsatdiki, hatto o'zining gvardiyachi otryadiga meni orolning janubi-g'arb tomonidagi qirol porti Glangvenstaldgacha kuzatib qo'yishga farmoyish berdi.

Olti kundan keyin Yaponiyaga ketayotgan kemaga o'tirdim, yo'lda o'n besh kun bo'ldim.

Biz Yaponiyaning janubi-sharq qismiga joylashgan, uncha katta bo'lmagan Ksamoshi portida langar tashladik. Shahar cho'zinchoq yerga joylashgan bo'lib, u yerdan torgina bo'g'oz shimolga — uzun dengiz tarmog'iga olib borar ekan; uning shimoli-g'arb qismiga imperiyaning poytaxti Iyeddo joylashgan ekan. Sohilga chiqqach, bojxona amaldorlariga Laggnegg qirolining imperator hazrati oliylari nomiga yozilgan maktubini ko'rsatdim. Bojxonada mening shapalোগ'imgday keladigan qirol muhrini yaxshi bilisharkan. Muhrda cho'loq gadoyning o'rnidan turib olishiga yordamlashayotgan qirol tasvirlangan. Shahar magistrati bu maktubdan xabar topib, meni do'st mamlakat elchisi sifatida qabul qildi. Magistrat menga ekipaj va xizmatkorlar berdi. Iyeddogacha olib borib qo'yish xarajatlarini o'z gardaniga oldi.

U yerga yetib kelishim bilanoq imperator qabulida bo'ldim va maktubni topshirdim. Maktub zo'r tantana bilan ochildi, imperatorga tarjimon yordamida o'qib berildi. Oliy hazratlarining farmoyishiga binoan, menga undan biror narsa iltimos qilishimni taklif etishdi. Imperator Laggnegg qirolini o'zining podsho og'aynisi deb hurmatlagani vajidan iltimosim darhol bajarilar ekan. Tarjimonga gollandlar bilan muomala qilish topshirilgan ekan. Shuning uchun ham u tashqi qiyofamga qarab turib yevropalik ekanimni bilib oldi, u imperator hazratlarining so'zlarini bir necha bor golland tilida takrorladi, u bu tilni mukammal bilarkan. Men ilgari ahdimga muvofiq, o'zimni yiroq mamlakat sohilida kema halokatiga uchragan golland savdogari deb tanitdim. U yerdan Laggnegg oroliga, Laggneggdan kemaga o'tirib, vatandoshlarim savdogarchilik qilayotgan Yaponiyaga kelganligimni, endilikda biror kishi bilan vatanimga qaytish imkoni tug'ilganini aytdim. Men oliy hazratlaridan Yevropa kemalari kiradigan birdan-bir port Nagasakiga soqchilar bilan birga jo'nashimga ruxsat berishini tavoze bilan iltimos qildim. U yerda Yevropaga jo'nash uchun qulay fursatni kutajagimni aytdim. So'zimning oxirida oliy hazratlaridan, menga homiylik qilgan Laggnegg qirolini hurmati tufayli marhamat

ko'rsatib, vatandoshlarim uchun majburiy bo'lgan but toptash marosimidan* meni xalos etishni iltimos qildim va, baxtsizlik tufayli bu mamlakatga kelib qolganimni, savdogarchilik niyatim ham yo'qligini pisanda qildim.

Tarjimon imperatorga iltimosimni aytganda, oliy hazratlari bir oz ajablandi. U vatandoshlarimdan birinchi bo'lib mengina shunchalik nozik tabiatlilik qilganimni aytdi. U mening golland ekanligimga shubha bilan qaradi; gaplarimdan haqiqiy xristianligim sezilib turardi. Lekin shunga qaramay, Laggnegg qiroliga izzat-ikrom ko'rsatish istagida mening injiqligimni ko'tardi. Biroq u, bu ishda nihoyatda ehtiyot bo'lishim zarurligini aytib, ogohlantirdi. U o'z amaldorlariga, go'yo tasodifan, parishonxotirlik bilan but toptash marosimini unutgan bo'lib, meni qo'yib yuborishlari haqida farmoyish berishini aytdi. Chunki vatandoshlarim — gollandlar mening bu marosimni bajarishdan ozod etilganimni bilib qolishsa, imperatorning gapiga ko'ra, ular meni bo'g'izlab tashlasharmish. Men bunchalik katta iltifot ko'rsatilganidan o'ta minnatdor ekanligimni izhor qildim. Shu payt Nagasakiga soldatlar otryadi ketayotgan ekan. Menga otryadga qo'shilib olishni taklif qilishdi, otryad boshlig'i yo'l-yo'lakay meni qo'riqlab borishi, ayniqsa but xususida qat'iy buyruq oldi. Ancha uzoq va toliqtiruvchi sayohatdan keyin, 1709 yil 9 iyun kuni Nagasakiga yetib keldik. Bu yerda to'rt yuz ellik tonna yuk ko'taradigan Amsterdam kemasida xizmat qilayotgan golland dengizchilari kompaniyasi bilan tanishdim. Men ilgari Gollandiyada ancha istiqomat qilgandim. Leydenda o'qigandim, golland tilini ham yaxshi bilardim. Matroslar qayerdan kelganligimni tezda bilib olishdi, sayohatlarim va hayotim bilan qiziqsinishdi. Men ko'pgina voqealarni yashirib, haqiqatga to'g'ri keladigan qilib, qisqagina hikoya to'qidim. Gollandiyada ko'pgina tanishlarim bor edi, shuning uchun ham ota-onalarimning familiyalarini to'qib-bichib, ular Gelderlandda yashashlarini aytdim. Men kema kapitanidan (T. Vangrultdan) har qancha pul olib bo'lsa ham, meni Gollandiyaga eltib qo'yishini iltimos qildim. Lekin u mening jarroh ekanligimni bilgach, kiraning yarim haqini olajagini aytdi, ammo kemada do'xtirlik vazifasini o'tashni shart qilib qo'ydi. Yo'lga chiqishdan oldin matroslar mendan but toptash marosimini bajargan-bajarmaganimni bir necha marta so'rashdi, men esa ularga mujmal javob berish bilan kifoyalandim. Biroq badjahl yigit — shkiper meni yapon zobitiga ko'rsatib, but toptamaganimni aytdi. Lekin men haqimda maxsus farmoyish olgan zobit bu yaramas odamning orqasiga bambuk tayoq bilan yigirma marta tushirdi. Shundan keyingina bunaqa savol bilan menga hech kim tiqilinch qilmaydigan bo'lib qoldi.

Sayohat paytida esda qolishga arziydigan hech qanday voqea yuz bermadi. Yaxshi Niyat buruniga qadar hamroh shamol esdi, Biz ichimlik suv olish uchun u yerda bir necha kun to'xtadik. 1710 yilning 10 aprel kuni sog'-salomat Amsterdam shahriga yetib keldik, yo'lda to'rt kishini yo'qotdik: uchitasi kasal bo'lib o'ldi, to'rtinchisi Gvineya sohillarida bizan-machtadan dengizga qulab tushdi. Amsterdamdan shu shaharga qarashli bo'lgan kichikroq kemada Angliyaga jo'nadim.

16 aprel kuni Daunsda langar tashladik. Ertasi kuni sohilga chiqdim va besh yarim yillik judolikdan keyin yana o'z vatanimni ko'rdim. Men to'ppa-to'g'ri Redrifga yo'l oldim, o'sha kuni tush paytida — soat ikkilarda uyga yetib bordim, xotinim, bola-chaqalarimni sog'-salomat holda ko'rdim.

GUIGNGNMLAR MAMLAKATIGA SAYOHAT

BIRINCHI BOB

MUALLIF KEMA KAPITANI BO'LIB SAYOHATGA OTLANADI. KEMA KOMANDASI MUALLIFGA QARSHI FITNA UYUSHTIRADI. UNI ANCHA VAQTGACHA KAYUTADA QAMOQDA SAQLASHADI, KEYIN NOMA'LUM MAMLAKAT SOHILIGA TASHLAB KETISHADI. MUALLIF MAMLAKAT ICHKARISIGA YO'LOLADI. YEXU DEB NOMLANGAN ALOHIDA HAYVON ZOTLARINING TA'RIFI. MUALLIF IKKITA GUIGNGNMNI UCHRATADI.

Men uyda xotin va bola-chaqalarim bilan besh oyga yaqin istiqomat qildim, agar tinch va osoyishta hayot kechirishning qadriga yetganimda, o'zimni eng baxtiyor odam deb hisoblashim mumkin edi. Menga o'zim uchun o'ta foydali shart-sharoitda, uch yuz ellik tonna yuk ko'taradigan eng yaxshi savdo kemasi «Advenchyurer»ga kapitanlik lavozimini taklif qilishdi, ko'p ikkilanib o'tirmay taklifni qabul qildim. Dengizda kema boshqarishning ipidan ignasigacha bilaman, jarrohlik esa jonga tegdi. Shuning uchun ham, bu ishni o'rni kelib qolsa qilishdan bo'yin tovlamay, kema do'xtirligiga ancha bilimdon yigit Robert Pyurefani taklif qildim. Biz 1710 yil 7 sentyabr kuni Portsmutdan yo'lga chiqdik. 14 sentyabr kuni Tenerif yonida Kampeshiga sandal daraxti uchun ketayotgan bristollik kapitan Pokokkni uchratdim. Lekin 16-kuni ko'tarilgan bo'ron bizni bir-birimizdan ajratib yubordi. Angliyaga qaytib kelganimdan keyin bilsam, uning kemasi cho'kib ketipti, butun ekipajdan faqat bitta yunga jon saqlab qolibdi. Bu kapitan ajoyib yigit, tengi yo'q dengizchi, lekin o'lardek o'jar edi. Xuddi ana shu o'jarligi uni halok etganiga shak-shubham yo'q.

Safar davrida kemamdagi bir necha matros tropik bezgakdan o'ldi. Ularning o'rnini to'ldirish maqsadida Barbadosdan va kema xo'jayining topshirig'iga bi-

noan borilgan Antil orollaridan odam yolladim. Ko'p o'tmay bu qilmishimdan pushaymon yedim. Yollangan matroslarimning ko'pchiligi ancha shubhali edi, keyinroq ular dengiz qaroqchilari bo'lib chiqishdi. Kemada ellik odamim bor edi. Menga Janubiy okean hindulari bilan savdo qilish hamda shu kenglikdagi kam ma'lum bo'lgan joylarda tekshirish ishlari olib borish topshirilgandi.

Men kemaga yollab olgan ablahlar boshqa matros'larni ham o'z tomonlariga og'dirib olishibdi. Meni hibsga olish va kemani egallashga ahd qilishibdi. Bu fitnani zudlik bilan bajarish kerak ekan. Bir kuni ertalab fitnatchilar kayutamga bos'tirib kirishdi, qo'l-oyoqlarimni bog'lashdi, qarshilik ko'rsatsang dengizga uloqtiramiz, deb dag'-dag'a qilishdi. Qismatimga tan berib bo'ysunishdan va o'zimni asir deb bilishdan boshqa ilojim qolmadi. Qaroqchilar meni boshqa qarshilik ko'rsatmaslik uchun qasam ichishga majbur etishdi. Ularning talabini bajo keltirganimdan so'ng qo'l-oyoqlarimni yechishdi, lekin meni karavotga zanjirband qilib, kayutam eshigi oldiga qurolli soqchi qo'yishdi va unga, qutulish uchun sal-pal uringudek bo'lsam ham meni otib tashlash topshirildi. Ular kayutamga suv, ovqat kiritib turishdi, kemani boshqarishni o'z qo'llariga olishdi.

Qaroqchilar ispan kemalarini ta'qib qilish va talashga ahd qilishdi. Lekin bunday qilish uchun ular juda ozchilik edi. Shuning uchun ular kemadagi mollarni sotmoqchi va ekipajni to'ldirish uchun Madagaskar oroliga bormoqchi bo'lishdi. Qaroqchilar bir necha kun okeanda suzishdi, hindularga mol sotishdi. Lekin men ularning qaysi tomonga ketayotganini bilmasdim, chunki hamisha kayutada qamoqda edim, daqiqa sayin jazolanishimni kutib o'tirardim, chunki ular jazolajayaklarini tez-tez pisanda qilib o'shqirishardi.

1711 yil 9 may kuni kayutamga Jems Uelch degan kimsa kirdi va kapitan unga meni sohilga tashlab ketish haqida buyruq berganini aytdi. Men uni insofga chaqirishga urindim, lekin iltimoslarim yerda qoldi. Hatto u yangi kapitanlarining nomini aytishdan ham bosh tortdi. Qaroqchilar eng yangi kiyimlarimni kiyishga, ichki kiyimlar solingan tugunchani olishga ruxsat berishdi; qurollardan faqat xanjarimni qoldirishdi. Ular shu qadar marhamatli bo'lishdiki, hatto cho'ntaklarimni ham tintishmadi; cho'ntagimda pul va mayda-chuyda narsalar bor edi. Keyin meni qayiqqa o'tqazib, kemadan bir liga narida ko'rinib turgan sohil tomon yo'l olishdi. Qaroqchilar meni sohilning sayoz joyiga tushirib, o'zlari orqaga qaytishdi. Men hech bo'lmasa bu yer qaysi mamlakat ekanligini aytinglar, deb iltimos qildim. Lekin meni olib kelgan odamlar bu haqda mendan qutulishni niyat qilib qo'ygani aytdi. Keyin ular o'zlari kapitan deb atayotgan kishi

kemadagi yuklar sotilib bo'lishi va Madagaskarga boradigan vaqt yetishi bilan noq mendan qutilishni niyat qilib qo'yganini aytishdi. Keyin qayiq orqaga qaytdi. Ular xayrlashisharkan, omad tilashdi, suv ko'paymasdan sohilga chiqib olishni maslahat berishdi.

Ularning maslahati oqilona edi, men sayoz joylardan sohilga tomon yurdim. Qirg'oqqa yetgach, dam olish uchun bir tepalikka o'tirdim, endi nima qilsam ekan, deb xayolga cho'mdim. Menda ortiqcha ovqat ham, uni topish vositasi ham yo'q edi. Men yoppa-yolg'iz, qurolsiz edim. Yonimda dastlab uchragan yovvoyi odamlar qo'liga o'zimni topshirib, ularning hurmat va e'tiborini qozonadigan bir qancha bilaguzuk, shisha va boshqa narsalardan yasalgan mayda-chuyda bezaklar bor edi. Dengizchilar notanish mamlakatlarga o'tlanayotib ana shunaqa bezaklarni g'amlab olishadi. Men ham kayutani tark etayotib, ulardan cho'ntagimga solib olgandim. Xuddi shu qarorga kelib, o'rnimdan turdim va mamlakat ichkarisiga qarab yo'l oldim.

Qarshimda kenggina tekislik yastanib yotardi. Uni uzun daraxtlar qatori kesib o'tgan. Lekin daraxtlar inson qo'li bilan o'tqazilgan emas. Daraxtlar oralig'idan ko'm-ko'k o'tloqlar, sulii ekilgan ekinzorlar ko'zga tashlanadi. Men atrofga alanglab, hadik bilan oldinga ketaverdim. Doimo, ishqilib biror kimsa menga qo'qqisidan yon yoki orqa tomondan hujum qilib qolmasinda, deb qo'rqib bordim.

Bir ozdan keyin qatnov yo'lga chiqdim. Yo'lda juda ko'p odam izlari, bir nechta sigir izlari ko'zga tashlanardi. Hammasidan ham ot izi ko'p edi. Nihoyat dalada qandaydir hayvonlarni ko'rib qoldim. Ana shu hayvonlarning bir nechtasi daraxt tepasida o'tiribdi. Ularning g'alati va ajib ko'rinishi meni tashvishga solib qo'ydi. Ularga durustroq tikilish uchun buta ortiga yotdim. Ulardan ba'zilari men yashirib yotgan joyga yaqinlashib kelishdi, shunda ularni sinchiklab ko'rib oldim. Ularning bosh va ko'kraklari jun bilan qoplangan, ba'zilarining juni jingalak, boshqalariniki silliq. Ko'plarining soqoli echkinikiga o'xshaydi. Yelkalari va qo'llarining ustki qismini ham kaltagina jun qoplagan. Ular qip-yalang'och bo'lib, terilari to'q jigar rang tusda. Dumlari yo'q. Urg'ochilari erkaklaridan kichikroq; boshlarida uzun, silliq soch, yuzlari sip-silliq, tanalari mayin tuk bilan qoplangan, erkak va urg'ochilarining sochlari har xil rangda: jigar rang, qora, sarig. Ular bir joyda tek turmay, kishi hayron qoladigan darajada chaqqonlik bilan yugurishar, irg'ishlashishardi, old va orqa oyoqlaridagi qattiq va o'tkir tirnoqlari ularning olmaxon singari epchillik bilan eng baland daraxtlarga ham tirmashib

chiqib ketishlariga imkon berardi. Xullas, sayohatlarim paytida hech qachon bulardan ham xunuk, jirkanch maxluqlarni uchratmagandim. Shuning uchun ham ularga uzoq tikilib o'tirmadim. Jirkangan va nafratlangan holda yashiringan joyimdan chiqdim, yo'lga ravona bo'ldim, birorta hinduning kulbasiga uchrarman, degan umidda bo'ldim.

Biroq, endigina besh-olti qadam qo'ygan ham edimki, ro'paramda haligi jirkanch maxluqlardan biri paydo bo'ldi. U men tomonga chopib kelardi. U meni ko'rib to'xtadi, ko'zini dahshatdan ola-kula qilib menga boqdi. Keyin, yaqinroq kelib, yo qiziqsinibmi, yo yomon niyatdami — buni bilolmadim — oldingi oyoqlarini ko'tardi. Men xanjarimni sug'urib, o'tmas tomoni bilan jon-jahdim-la maxluqning panjasiga urdim. Bu mamlakat odamlari, ularga qarashli hayvonlarni chavaqlab tashlasam, yana mendan achchiqlanishmasin, deb hadiskiradim, shu vajdan xanjarining tig' tomonini ishga solishni istamadim. Haligi hayvonning qo'li qattiq og'riganidan juftakni rostlab qochib qoldi, hamma yoqni boshiga ko'tarib chinqirdi, ovozini eshitib, qo'shni daladan xuddi uning o'ziga o'xshash maxluqlarning qirqtasi podaga o'xshab yopirilib keldi, qiyqirib va aftlarini vahimali bujmaytirib meni qurshab olishdi. Men daraxt tagiga qarab qochdim, uning tanasiga orqamni qilib, ularni o'zimga yaqinlashtirmay hanjarim bilan hamla qila boshladim. Lekin ahvolim juda nochor edi. Bu hayvonlarning bir nechasi daraxt ustiga chiqib, tepadan menga hujum qilishga hozirlandi. Boshqalari esa tobora qurshov halqasini toraytirib kela boshladi.

Qutulish umidi puchga chiqib, endi osonlikcha jon bermaslikka hozirlanib turgan ham edimki, birdan dushmanlarimning qandaydir sarosimaga tushib qolganini sezib qoldim.

Oradan yana bir lahza o'tgach, ularning hammasi shosha-pisha qochib qolishdi. Bir oz kutib turgach, qo'rqmay daraxt tagidan uzoqlashdim, yo'limda davom etdim. Ularni bunchalik vahimaga tushishiga sabab bo'lgan narsani hech bilolmasdim. Chapga o'girilib, dala bo'ylab bamaylixotir qadam tashlab borayotgan otga ko'zim tushdi. Meni ta'qib qiluvchilar uni mendan oldin ko'rib, qochib qolgan bo'lsa kerak. Ot menga yaqinlashgach, bilinar-bilinmas, bir seskandi, so'ng darhol o'zini o'nqlab olib, nihoyatda ajablangan holda aftimga tikilib turaverdi. U qo'l-oyoqlarimga nazar tashladi, atrofimda bir necha bor aylandi. Men yurmoqchi bo'ldim, lekin ot yo'limni to'sdi, menga yuvosh va beg'araz tikilishda davom etdi, uning xulqidan meni xafa qiladigan chog'i yo'q edi. Shu alfozda bir-birimizga ancha tikilishib turdik.

Nihoyat yurak yutib, uni silash niyatida qo'limni yoliga qo'ydim. Biroq ot mening iltifotimga nafrat bilan qaradi, boshini silkitib, qovog'ini soldi, oldingi o'ng oyog'ini asta ko'tarib, qo'limni nariga surib qo'ydi. Keyin ot shunchalik ifodali, ma'noli kishnadiki, u o'z tilida gapirmayaptimikan, deb o'ylab qoldim.

Ko'p o'tmay uning yoniga yana bir ot keldi. Har ikkala ot bir-biriga takalluf bilan salom berdi. Ular oldingi o'ng oyoqlarini bir-birlarinikiga asta tegizishdi va o'hangini tez-tez o'zgartib kishnay boshlashdi. Keyin mendan bir necha qadam nariga borib, muhim masalani hal qilayotgan odamlarday, yonma-yon sayr qilishga tushishdi. Goh-goh, qochib ketmadimikan deb, men tomonga ham ko'z qirlarini tashlab turishdi. Bu aqlsiz hayvonlarning xulqiga qarab turib, bordi-yu, bu mamlakatda oddiy to'rt oyoqli hayvonlar shunday bo'lsa, ikki oyoqlilari qanday ekan, deb o'ylab qoldim. Ehtimol, ular yer kurrasidagi eng aqlli odamlardir. Bu fikr meni g'oyat tetiklantirib yubordi, birorta uyga yetib olmaganimcha yoki shu yerliklardan birortasini uchratmaguncha yo'lda davom etishga ahd qildim. Lekin chipordan kelgan birinchi ot ketayotganimni ko'rib, orqamdan shunday ma'noli kishnadiki, uning nima deyayotganini tushunganday bo'ldim. Men darhol orqamga qaytdim va boshqa farmoyishlarni kutib yoniga kelib turdim. Shuni e'tirof etishim kerakki, garchi qo'rqayotganimni zo'r berib yashirsam-da, bu sarguzashtning oqibatidan hadiksiray boshladim. Hozirgi ahvolim havas qiladigan darajada emasligini kitobxon tasavvur qilayotgan bo'lsa kerak.

Ikkala ot menga yaqinlashib, yuz va qo'llarimni astoydil ko'zdan kechira boshlashdi. Kul rang ot oldingi o'ng oyog'ining tuyog'i bilan shlyapamni ishqalagandi, u ezg'ilanib ketdi, uni boshimdan olishga majbur bo'ldim. Shlyapamni to'g'rilab, yana kiydim. Xatti-harakatlarim kul rang ot va uning sherigi qora to'riqni ancha hayratga soldi. Qora to'riq kaftanimning etagini ushladi, uning bemalol hilpirab turishi har ikkovini yana hayronlikka soldi. Qora to'riq terimning rangi va yumshoqligidan ajablangan bo'lsa kerak, o'ng qo'limni silashga tushdi. U qo'limni tuyoqlari va baqayi bilan shunday qisdiki, og'riqdan dodlab yubordim. Ot shu zahotiy oq'limni qo'yib yubordi, shundan keyin har ikkovi meni ehtiyotkorlik bilan ushlay boshlashdi. Kavush va paypoqlarim ularni hayratga soldi. Ular anchagacha paypoq va kavushimni ushlaydi, ularga ko'z uzmay tikilishdi, o'z hayratlarini oyoqlarini qimirlatishib, kishnashib izhor etishdi. Umuman olganda, bu hayvonlarning fe'l-atvori o'zining mantiqiyligi va mulohazakorligi bilan ajralib turardi, oqibat natijada menda, bular ot qiyofasiga kirib qolgan sehrgarlar emasmikan, degan fikr tug'ildi. Ular yo'lda xorijiy

bir odamni uchratib, uni mazax qilib, qo'rqitishyapti. Ehtimol, ular chindan ham kiyimi, yuz tuzilishi, qaddi-qomati bu yiroq mamlakatda yashaydigan odamlarga o'xshamagan odamni ko'rib hayron qolishayotgandir. Shunday fikrga keldim-da, ularga quyidagicha murojaat qildim. «Jentlmenlar, sizlar chindan ham men o'ylaganday sehriga bo'lsangiz, hamma tillarni tushunasiz. Shuning uchun siz muhtaram zotlarga ma'lum qilaman: men faqir bir inglizman. Yovuz taqdir meni mamlakatingiz sohillariga tashladi. Mening birortangizga, haqiqiy otga minganday, minishimga ruxsat beringlar, birorta qishloqqa borib, u yerdan o'zimga boshpana topib olay. Xizmatlaringiz evaziga tashakkur izhor etib, sizlarga manovi pichoqni yoki bilaguzukni hadya qilaman». Men o'sha zahoti har ikkalasini cho'ntagimdan chiqardim.

Men gapirayotganda har ikkala ot gaplarimni zo'r e'tibor bilan tinglayotganday jim turishdi. Gapimni tamomlagach, ular bir-birlariga yuzlanib, o'zaro gaplashayotganday bir necha bor kishnashdi. Shu payt ularning tili tuyg'ularni bema'lol ifodalay olishini payqab qoldim, so'z va ayrim tovushlarni anglatishda xitoy tilidan ham oson til ekan.

Har ikkala otning bir necha bor *yexu* so'zini taqrorlaganini aniq eshitdim. Garchi uning ma'nosini tushunmasam-da, har holda, ular gapga ovora bo'lib turganda uni o'zlashtirib olishga urindim. Ular gaplarini tugatishlari bilanoq otning kishnashiga o'xshagan ohangda bir necha bor «exu», «exu» deb baqirdim. Bu aftidan ularni juda hayron qoldirdi, keyin kul rang ot meni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatmoqchi bo'lgandek, ana shu, so'zni ikki marta takrorladi. Men unga ergashib, bu so'zni imkoni boricha aniq talaffuz qilishga urindim va bir oz chala bo'lsa-da, har qalay muvaffaqiyatga erisha boshladim. Shundan keyin qora to'riq oldingidan ham qiyinroq guigngm degan yana bir so'zni aytirishga urindi. Bu so'zni aytish oldingisidan ancha mushkul bo'ldi, biroq ikki-uch marta uringach uni aniq talaffuz eta oldim. Har ikkala ot, chamasi, mening idrokligidan hayron qolishdi.

Do'stlar yana bir oz gaplashib turishgach, dastlab uchrashgan paytlaridagidek. tuyoqlarini taqillatishdi-da, ajralishdi. Shundan keyin kul rang ot menga, oldiga tushishimga ishora qildi. Durustroq rahnamo topgunimga qadar uning taklifiga bo'ysunishni oqilona ish deb bildim. Qadamimni sal sekinlatgan edim, ot: «*gguun, gguun*» deb kishnay boshladi. Bu kishnash qanday ma'noni bildirishini anglab, unga charchaganimni, tezroq yurishga qurbim yetmasligini iloji boricha tushuntirishga urindim. Shunda ot to'xtadi, dam olishim uchun imkon berdi.

IKKINCHI BOB

GUIGNGM MUALLIFNI O'ZI YASHAYDIGAN UYGA OLIB KELADI. BU XONADONNING TA'RIFI. MUALLIFNING QARSHI OLINISHI. GUIGNMLAR OVQATI. BU MAMLAKATDA NIMA BILAN TIRIKCHILIK QILISHINI BILMAY MUALLIF GARANG BO'LADI. MUSHKUL AHVOLDAN QUTULISH YO'LI. BU MAMLAKATDA MUALLIFNING YEGAN OVQATLARI.

Uch milyaga yaqin yo'l bosganimizdan keyin uzun, lekin pastakkina bir uyga yetib keldik. Uyning devorlari chetan devor bo'lib, tomi poxol bilan yopilgandi. Uyni ko'rgan zahotimoq yengil nafas oldim, cho'ntagimdan bir qancha bezaklarni chiqardim. Mana shu bezaklar tufayli uy egalari meni xushnudlik bilan qarshi oladilar degan umidda edim. Ot uyga kirishimga imo qildi, men taxta poli bo'lmasa ham tekis va kenggina xonaga kirdim; devorning bir tomonida bir necha oxur turardi. Bu yerda uchta xachir va ikkita baytal bor ekan; shunisi qiziqqi, ular oxur oldida tik turib yem yeyishmayapti, balki itlarga o'xshab cho'nqayib o'tirishibdi. Boshqa otlar esa uy-ro'zg'or ishlari bilan band; bu hol meni battar hayratga soldi. Oqibat-natijada, mana shunday aqlsiz hayvonlarni bunchalik ishga o'rgatgan xalq o'zining donishmandligi bilan yer kurrasidagi boshqa hamma xalqlardan shubhasiz ustun tursa kerak, degan xulosaga keldim. Boshqa otlar meni badkorlik bilan qarshi olmasligi uchun kul rang ot orqamdan ichkariga kirdi. Xo'jayin singari, buyruq ohangida bir necha bor kishnadi, boshqa otlar esa darhol itoatkorlik bilan unga javob qaytarishdi.

Bu yerda shu xonadan tashqari unga yopishtirib qurilgan yana uchta xona bor edi. Xonalar o'zaro katta-katta eshiklar orqali tutashgan edi. Eshiklar devorga bir-biriga qarama-qarshi qilib o'rnatilgani uchun birinchi xonadan oxirgisigacha bemalol o'tish mumkin edi. Biz ikkinchi xonaga kirdik. Bu yerda kul rang ot kutib turishimga ishora qilib, o'zi uchinchi xona tomon ketdi. Men ikkinchi xonada qolib, uy egasi va uning xotiniga ikkita pichoq, qalbaki gavhar o'rnatilgan uchta bilaguzuk, kichkinagina ko'zgucha va bir shoda marjonni hadya qilish uchun hozirlab turdim Ot uch-to'rt marta kishnadi, bunga javoban inson ovozini eshitish umidida, butun vujudimni quloqqa aylantirdim. Lekin men yana kishnash ovozini eshitdim, bu ovoz oldingisidan ancha muloyim, nozik edi. Men beixtiyor: «Ehtimol, bu uy muhtaram bir zotga qarashli bo'lsa kerak, chunki meni ichkariga

qo'yish uchun shunchalik tantana bo'lyapti», — deb o'yladim. Nahotki shunday muhtaram zotning otlardan boshqa xizmatkorlari bo'lmasa? Bu mening tushunchamdan ancha yuqori edi. To'satdan, boshimga tushgan yo'qchilik va azob-uqubatlardan aqlidan ozib qolmadimmikan, deb qo'rqib ketdim. O'z-o'zimni majbur etib, atrofga e'tibor bilan nazar tashladim: men turgan uy oldingisiga o'xshatib jizohlangandi, faqat zeb-ziyatlar ancha chiroyli edi. Ko'zimni bir necha marta ishqaladim — baribir qarshimda o'sha narsalar turardi. Uyg'onish uchun qo'l va biqinlarimni chimchilab ko'rdim, chunki bularning hammasini tushimda ko'rayotgandek edim. Biroq chimchilashlar ham foyda bermadi: men hamon o'sha xonani, o'sha polni, o'sha oxurlarni ko'rardim. Shunda men, bu ko'rayotganlarim jodu va sehr, degan uzil-kesil bir fikrga keldim. Xuddi shu lahzada ostonada kul rang ot ko'rindi va orqasidan uchinchi xonaga kirishimga imladi; u yerda chiroyli bir baytalni ikkita toychog'i bilan ko'rdim. Ular poxoldan yasalgan, ozoda va pokiza bo'yra ustida orqa oyoqlarini taglariga bosib o'tirishardi.

Ichkariga kirganimda baytal darhol o'rnidan turib, menga yaqinlashdi. Qo'l va yuzlarimga diqqat bilan tikildi, nafratlanganday yuzini o'girdi. Keyin kul rang otga yuzlandi, ular o'rtasida bo'lib o'tayotgan suhbatda, men hali ma'nosiga tushunib yetmagan «exu» so'zi bir necha bor takrorlandi. Evoh! Tahqirlanishimni qarangi, buning ma'nosini keyin bilib qoldim.

Kul rang ot menga imo qilib, yo'l-yo'lakay ko'p marta undan eshitib kelgan — orqamdan yur degan ma'noni bildiruvchi «gguun», «gguun» so'zini takrorlay-takrorlay, meni orqa hovliga olib chiqdi. Uydan sal narida kattagina saroy bor ekan. Biz saroy ichiga kirdik, u yerda men daraxt tagida o'zimni himoya qilgan haligi jirkanch maxluqlardan uchtasini ko'rdim. Ular ko'rinishi o'ta xunuk ildiz va xom go'shtlarni ochofatlik bilan tushirishyapti. Keyin bilsam, ular yeyayotgan narsalar harom o'lgan it, eshak va sigirlarning go'shti ekan. Har uchala maxluq ham burnidan yo'g'on xodaga bog'lab qo'yilibdi. Ular go'shtlarni old panjalarida mahkam ushlab, tishlab tortqilashardi.

Uy egasi bo'lmish ot o'z xizmatkori to'riq xachirga ulardan eng yirigini yechib, tashqariga olib chiqishni buyurdi. Xo'jayin bilan xizmatkor bizni yonmayon qo'yib, diqqat bilan taqqoslay boshlashdi, so'ng «exu» so'zini bir necha bor takrorlashdi. Yonimda turgan mana shu jirkanch hayvon tashqi ko'rinishi bilan insonni eslatishini payqab, dahshat va hayratga tushganimni ta'riflash qiyin. To'g'ri, uning yuzlari keng va yapaloq, burni puchuq, og'zi katta, lablari do'rdoq edi. lekin bu xislatlar ko'proq yovvoyi odamlarda uchraydi, chunki yovvoyi ona

o'z bolasini mukkasiga yotqizadi va orqasida ko'tarib yuradi, natijada bolaning burni ha deb onasining orqasiga ishqalanaveradi, Yexuning old panjasi mening qo'limdan tirnoqlarining uzunligi, terisining dag'alligi, kaftlarining jigar rang tusda bo'lishi bilan farq qilardi, buning ustiga uning panjasining orqa tomoni jun bilan qoplangan. Shuningdek, yexuning orqa oyoqlari ham menikidan uncha farq qilmasdi. Garchi otlar buni payqamagan bo'lsa-da, men darhol fahmladim. Chunki oyog'imda paypoq va kavushlarim bor edi-da.

Hammasidan ham, chamasi, har ikkala otni kiyim-kechagim hayronlikka soldi. Kiyim nimaligi haqida ular hech qanday tasavvurga ega emasdi, kiyimlarim tufayli esa mening tanam yexunikidan tubdan farq qilib turardi.

To'riq xachir tuyoqlari orasiga qandaydir ildizni qisib menga uzatdi. Men ildizni oldim, hidlab ko'rib, nazokat va odob bilan qaytarib berdim. Shunda u og'ilxonadan bir bo'lak eshak go'shti keltirdi, go'shtdan shunaqayam badbo'y hid anqirdiki, ko'nglim aynib, teskari boqdim. Xachir go'shtni yexuga tashladi, u zum o'tmay uni yeb qo'ydi. Keyin ot menga pichanni ko'rsatdi, bu menga ovqat o'rniga o'tmasligini bildirib, bosh chayqadim. Shu payt chinakamiga qo'rqib ketdim: bu yerda o'zimga o'xshaganlarni topolmasam ochlikdan o'laman, degan fikr yarq etib miyamga keldi. O'z-o'zidan ma'lumki, yexu mening toifamga kirmaydi. Bu jirkanch hayvonlarni inson bilan taqqoslash haqidagi fikr o'shanda qattiq g'azabimni qo'zg'atdi. Tirik jonzotlar ichida hech qachon bunaqa jirkanch, kishi hazar qiladiganini uchratmaganman; bu mamlakatda ular bilan qanchalik yaqinroq tanishsam, ularga nisbatan nafratim shu qadar ortib bordi. Ot menga o'grilib, oldingi tuyoqlarini og'ziga olib keldi, men nimalar yeyishim mumkinligini bilish maqsadida bir qancha imo-ishoralar qildi. Lekin men unga tushunadigan qilib javob qaytara olmasdim. Bordi-yu, u meni tushungan taqdirda ham bundan biror naf chiqarmidi? Darvoqe, menga mos keladigan ovqatni u qayerdan topib beradi?

Shu payt yonginamizdan bir sigir o'tib qoldi. Men uni barmog'im bilan ko'rsatdim, unga yaqinlashib, sutidan sog'ib olish istagini bildirdim. Meni darhol tushunishdi, kul rang ot meni yana uyga olib kirdi va baytal xizmatkorga xonalardan birini ochishni buyurdi, u yerda ko'pgina sopol va yog'och idishlarda sutlar bor ekan. Baytal menga katta kosadagi sutni uzatdi, men uni hur-hur qilib ichdim, o'zimni ancha tetik va bardam his etdim.

Tushga yaqin to'rtta yexu chanasimon aravani sudrab keldi. Aravada keksa bir ot o'tirardi — u zodagonlardan bo'lsa kerak. U aravadan orqa oyoqlarida yurib tushdi, chunki old tomondagi chap oyog'i lat yegan ekan. Bu ot xo'jayinimniki-

ga tushlikka kelibdi, xo'jayinim uni izzat-ikrom bilan kutib oldi. Ular eng yaxshi jihozlangan xonada ovqatlanishdi; ovqatning ikkinchisiga sutda qaynatilgan suli tortildi; mehmon ovqatni issig'ida yedi, boshqa otlar esa sovutib yeyishdi. Oxurlar xona o'rtasiga doira shaklida qo'yildi, har bir oxurning kataklari bo'lib, bu yerdagilar miqdoriga teng edi, otlar bo'ya ustida joy-joylarini topib, odob saqlab o'tirishdi. Har bir ot va har bir baytal o'ziga tegishli xashakni va sutda pishirilgan suli bo'tqasini alohida yedi. Tushlik juda batartib, yaxshi o'tdi. Toychoqlar odob saqlab o'tirishdi, mezbolar esa mehmonga zo'r iltifot va izzat ko'rsatishdi. Kul rang ot meni yoniga chaqirdi va o'z do'sti bilan men haqimda uzundan-uzoq suhbatga berilib ketdi. Buni ularning tez-tez menga qarab qo'yishlaridan hamda «*exu*» so'zining takrorlanib turishidan sezdim. Cho'ntagimga qo'limni solsam, qo'lqopim turibdi. Uni kiygim kelib ketdi. Kul rang xo'jayinim qo'lqop kiyib olganimni ko'rib, hayron qoldi va imo-ishora bilan oldingi oyoqlaringga nima bo'ldi, deb so'ray boshladi. U bir necha marta qo'lqopga tuyoqlarini tegizdi, qo'limga oldingi holatga keltirishim kerakligini uqtirdi. Men unga itoat etdim, qo'lqopni yechib, cho'ntagimga solib qo'ydim.

Bu qilig'im qizg'in gap-so'zga sababchi bo'ldi, xulq-odobim bilan ularning e'tiborini qozonganimni payqadim. Menga o'rganib olgan so'zlarimni aytishni buyurishdi. Suhbat davomida xo'jayin menga suli, sut, olov, suv va boshqa narsalarning qanday aytilishini o'rgatdi. Bu so'zlarni o'rganish uncha qiyin bo'lmadi. Chunki bolaligimdayoq boshqa tillarni o'rganishda qobiliyatligim bilan ajralib turardim.

Tushlikdan keyin xo'jayinim bo'lmish ot meni chetga chaqirib, imo ham so'z bilan mening hech narsa yemayotganimdan juda tashvishda ekanligini aytdi. Chunki hanuzgacha suli yeyishdan bosh tortayotgan edim. Xuddi shu paytda miyamga sulidan non tayyorlash mumkin-ku, degan fikr kelib qoldi. To o'zimga o'xshagan odamlar yashaydigan biror mamlakatga ketish fursati yetib kulguncha non bilan sutga qanoat qilib yashash mumkin. Guigngmlar tilida suli *glung* deyiladi. Men ana shu so'zni bir necha marta takrorladim. Xo'jayin o'sha zahotiy oq xizmatkor — oq baytalga yog'och idishda suli keltirishni buyurdi. Men sulini bir amallab qovurdim. po'stlog'ini chiqarib tashlash uchun ishqaladim. Keyin donni yelbib, ikkita tosh vositasida yanchdim; suv olib, xamir qordim, olovda non pishirdim hamda qaynatilgan sut bilan yedim.

Bu ovqat Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida rasm bo'lsa-da, menga o'ta mazasiz bo'lib tuyuldi. Lekin vaqt o'tishi bilan bunga ko'nikib ketdim.

Aytmoqchi, sayohatlarim paytida bundan ham battar ovqatlarni yeganman, men insonning hayot kechirishi uchun uncha ko'p narsa kerak bo'lmisligiga yana bir karra ishonдим.

Ba'zan yexuning sochidan yasalgan tuzoqda quyon yoki birorta qushni ilintirdim; ba'zan yeb bo'ladigan o't-o'lanlarni topib qaynatdim va zirovar o'rnida nonga qo'shib yedim; ba'zida esa o'zim uchun sutdan yog' oldim, qattiq ichdim.

Avvaliga tuz bo'lmaganligi juda o'tib ketdi, keyin esa usiz ham tirikchilik o'ta boshladi.

Tuzni dastavval ziyofat paytlarida ishtaha ochish uchun iste'mol qilishgan; keyinroq esa tuzli narsa yeyish odat tusiga kirib ketgan. Biz tuzni suyub yeydigan birorta ham hayvonni bilmaymiz. Har holda, shuni aytishim kerakki, mutlaqo tuz bo'lmasa-da, dag'al va faqirona ovqat yesam-da, shu mamlakatda yashab turgan paytimda biror marta ham kasal bo'lmadim.

Kech kirishi bilan xo'jayinim bo'lmish ot uydан olti yard naridan, yexular turadigan og'ilxonadan alohida bir uyni menga ajratib berdi. U yerda ozgina poxol bor ekan, kiyimnimni ustimga yopib, qattiq uyquga ketdim. Ko'p o'tmay bundan ham yaxshiroq joylashib oldim, kitobxon buni shu mamlakatdagi hayotimning to'liq tafsilotiga bag'ishlangan keyingi hikoyamdan bilib oladi.

UCHINCHI BOB

MUALLIF MAHALLIY TILNI ASTOYDIL O'RGANADI. UNING XO'JAYINI BO'L-MISH GUIGNGM MASHG'ULOTLARDA UNGA YORDAMLASHADI. JUDA KO'P HURMATLI GUIGNGNMLAR MUALLIFNI KO'RGANI KELISHADI. U XO'-JAYINIGA O'Z SAYOHATLARI HAQIDA QISQACHA SO'ZLAB BERADI.

A sosiy mashg'ulotim til o'rganish bo'ldi; uyda xo'jayin (kul rang otni bundan buyog'iga shunday deb atayman) va uning bola-chaqalaridan tortib, to oxirgi xizmatkorgacha mening til o'rganishimga astoydil yordam berishdi. Ularga bu qo'pol hayvon qandaydir mo'jiza sharofati bilan aqlli zot xislatlarini namoyish etayotganga o'xshab ko'rinardi. Men u yoki bu narsani barmog'im bilan ko'rsatar va nomini so'rar edim. Narsalarning nomini yodlab olishga intildardim, keyin esa qulay fursat topib kundalik daftarimga

yoziq qo'yardim. Talaffuzni yaxshilash uchun oila a'zolaridan har bir so'zni bir necha marta takrorlashni iltimos qilardim. Mashg'ulotlarimda xo'jayinimning to'riq xachiri — xizmatkori ayniqsa bajoni dil yordam berdi.

Guigngnmlarning talaffuzi burun va bo'g'izdan chiqadi; guignnm tili menga ma'lum bo'lgan Yevropa tillari ichida ko'proq yuqori golland yoki nemis tiliga o'xshab ketadi, lekin bu til ulardan ko'ra nafisroq va burroroq.

Xo'jayinim tezroq shu yerning tilida gapirishim va o'z boshimdan o'tgan voqealarni hikoya qilib berishimni toqatsizlik bilan kuta boshladi. U har bir kuni menga til o'rgatish uchun bir necha soatlab vaqt sarfladi. U mening yexu ekanligimga (buni u keyin aytdi) ishonchi komil ekan. Lekin mening idrokliligim, xushmuomala va batartibililigim uni hayratga solibdi, chunki bunday sifatlar bu hayvonlarga mutlaqo xos emas ekan.

Xo'jayinim qayoqdan kelganim. o'z xatti-harakatlarimdagi bunchalik fahm-farosatga qayerda erishganimni bilishga oshiqardi. U mendan tezroq sarguzashtlarim tarixini eshitgisi kelardi. Uning kutish soatlari oz qolganiga ishonchi komil edi: guignnm tilini o'rganishda ajoyib yutuqlarga erishayotgandim. O'rganib olgan so'zlarimni yaxshilab eslab qolish uchun ularni ingliz alifbosi tartibida tegishli tarjimasi bilan yozib bordim. Bir muncha muddat o'tgach, ana shu yozuvlarni xo'jayinning huzurida yoza boshladim. Nima qilayotganimni unga uqtirish juda qiyin bo'ldi, chunki guigngnmlar kitoblar va adabiyot haqida hech qanday tasavvurga ega emas.

Taxminan o'n haftalardan so'ng xo'jayinimning bergan savollarining ko'pchiligiga tushuna boshladim. uch oydan keyin esa bemalol javob qaytaradigan bo'lib qoldim. Xo'jayinimni bu yerga qaysi mamlakatdan kelib qolganim. aqlli zotlarga taqlid qilishni qanday o'rganganim qiziqtirardi, chunki yexular (uning fikricha, men ularga juda o'xshab ketarmishman) qanchalik ayyor bo'lishsa, biror narsani o'rganishda boshqa hayvonlarga nisbatan shunchalik no'noq.

Men unga o'zimga o'xshash ko'pgina odamlar bilan ancha yiroqdan kelganimni, daraxt tanalaridan yasalgan ichi kovak idishda dengizda uzoq suzganimizni, nihoyat, hamrohlarim meni sohilga tashlab ketishganini aytdim. Turli imo-ishora va harakatlar bilan xo'jayinga gaplarimni arang tushuntira oldim.

Bir oz o'ylab turgandan so'ng u menga: yo xato qilyapsan yoki bo'lmag'ur narsalarni gapiryapsan, dedi (Guignnm tilida yolg'on va aldamchilik degan so'zlar butunlay yo'q). Dengiz ortida ham mamlakatlarning bo'lishi, bir to'da yovvoyi hayvonlarning yog'och kemani o'zlari xohlagan tomonga yurgizishlari unga aqlga sig'maydigan narsaday bo'lib tuyuldi. Guigngnmlardan hech kim bunaqa kema

yasashga qodir emasligiga, uni boshqarishni esa yexularga ishonib topshirib bo'lmashligiga imoni komilligini aytdi. «Guigngnm» so'zi mahalliy tilda «ijod toji» degan ma'noni bildiradi, ot xalqi o'zini bu mamlakatda eng aqlli zot hisoblaydi.

Xo'jayinga ularning tilini yaxshi bilmashligimni, hamma savollariga javob berish qiyinligini aytib, yaqin kelajakda unga juda ko'p maroqli voqealarni hikoya qilib berishga qodir bo'lish niyatida ekanligimni izhor etdim.

Ko'p o'tmay, guigngnm singari gapira oladigan, gapi va xatti-harakatida aqlzakovat alomatlari zohir ajoyib yexu paydo bo'lganligi haqida xabar chor atrofga yoyildi. Meni ko'rgani xo'jayinimnikiga juda ko'p muhtaram zot ot va baytallar kela boshladi. Men bilan so'zlashish ularga bitmas-tuganmas huzur bag'ishlardi: ular menga savollar berishar, men esa qo'limdan kelganicha javob qaytarardim. Buning nafi katta bo'ldi: besh oydan keyin mahalliy tilda bemalol gaplashadigan, ular nima desa yaxshi tushunib, fikrimni ham osongina ifodalaydigan bo'lib qoldim.

Meni ko'rish va gaplashish uchun xo'jayinimnikiga mehmon bo'lib kelgan guigngnmlar mening haqiqiy yexu ekanligimga zo'rg'a ishonishdi. Hammadan ham ularni kiyimlarim hayratga soldi. Kiyimlar tanamning tarkibiy qismimi yo yo'qmi — ana shuni bilolmay ular hayratda edi. Men esa ulardagi anglashilmovchilikka barham berishga shoshilmasdim. Ular meni kiyimsiz holda ko'rib, chinakam yexu toifasiga qo'shishlari mumkin, men esa buni xohlamasdim. Ammo sirimni uzoq vaqt saqlay olmadim. Odatda, uydagilar hammasi uxlagandan keyin kiyimlarimni yechardim, hech kim hali uyg'onmasidan oldin kiyinib olardim.

Bir kuni ertalab xo'jayinim huzurimga o'zining xizmatkori to'riq xachirni yuboribdi. U xonamga kirganida kiyimlarimni yechib, uxlab yotgandim. U o'sha yerda turgan paytda uyg'onib ketdim, qarasam, xachir nihoyatda o'zini yo'qotib qo'yibdi. U topshiriqni amallab bajardi-da, xo'jayini yoniga oshiqdi. Xo'jayin men bilan salom-alik qilgandan keyin: xizmatkorim uxlayotganingizda butunlay boshqacha bo'lib qolishingizni aytdi, buni qanday tushunish kerak, dedi.

Men bundan buyon sir saqlash behuda ekanligini tushundim, buning ustiga kiyimlarim va poyafzalim ham ishdan chiqib qolgan bo'lib, yaqin kelajakda ularni yexu yoki boshqa hayvonlarning terisidan tikilgan narsalar bilan almashtirishga to'g'ri kelardi. Shuning uchun ham xo'jayinga, men kelgan mamlakatda kishilar tanalarini ba'zi hayvonlarning junidan to'qilgan sun'iy narsalar bilan yopib yurishi odat tusiga kirganini, bu tanani sovuq yoki issiqdan saqlash, ko'proq odob uchun qilinishini aytdim. So'zimni isbotlash maqsadida xo'jayinning oldida yechindim; egnimda ko'ylagim qoldi, xolos.

Xo'jayin barcha xatti-harakatlarimni zo'r qiziqish va hayrat bilan kuzatdi. U hamma kiyim-kechaklarimni bir-bir olib, tuyog'i va baqayi orasiga qisgan holda diqqat bilan ko'zdan kechirdi. Keyin mening hamma yog'imga ko'z yugurtib chiqib, men haqiqiy yexu ekanligimni aytdi — o'z zotimdagi hayvon vakillari-dan terimning yumshoqligi, oppoqligi va silliqligi, orqa va old oyoqlarimdagi tir-noqlarning shakli va uzunligi, nihoyat, jo'rttaga orqa oyoqda yurishim bilan farq qilar emishman. U sovuqdan qaltirayotganimni ko'rib, kiyinib olishni taklif qildi.

Kiyina turib, xo'jayinga meni ko'pincha yexu deb atashi yoqmayotganligini, chunki bu murdor hayvonlardan hazar qilishim va nafratlanishimni aytdim. Bundan buyon meni o'zi ham, xizmatkorlari ham yexu deb atamasligini iltimos qildim.

Bundan tashqari, tanamning sun'iy qobig'ini sir tutarsiz, xizmatkor xachirga ham ko'rganlarini birovga aytmaslik haqida buyruq berarsiz, deb istak bildirdim.

Xo'jayin iltimosimni yerda qoldirmaslikka va'da berdi, o'z navbatida, u ham mening tezroq ularning tilini mukammal egallab olishimni iltimos qildi.

Uning gaplariga qaraganda, mening tashqi qiyofamdan ham ko'ra ularning tilida gapira olish borasidagi qobiliyatim va aqlimga qoyil qolayotgan ekan, men aytib berishga va'da qilgan ajoyibotlarni eshitishga mushtaq ekan.

Shu kundan boshlab xo'jayin bir g'ayratiga o'n g'ayrat qo'shib, menga til o'r-gata boshladi. U tez-tez meni mehmonga olib borib turdi. Hamma qo'shnilardan menga xushmuomalada bo'lishni iltimos qildi, chunki bu mening kayfiyatimni yaxshilarkan, gapga chechan qilib qo'yarkan.

Guigngm tilini o'rganishdagi yutuqlarimni birma-bir bayon qiladigan bo'lsam ancha zerikarli bo'ladi. Faqat shuni aytishim kerakki, xo'jayinning g'amxo'rligi va o'zimning qobiliyatiligim tufayli, uning sabr-qanoatga bardosh berolmaydigan qiziquvchanligini qondirishga, bu yerga qanday kelib qolganim, vatanim qanaqa mamlakat ekanligi haqida ozmi-ko'pmi hikoya qilishga muvaffaq bo'ldim. Eng av-valo, ilgari tushuntirmoqchi bo'lgan narsalarimni yana takrorladim.

Men bu yoqqa, deb o'z hikoyamni boshladim, o'zimga o'xshagach ellikta jo-nivor bilan haddan tashqari yiroq mamlakatdan keldim. Biz, siz muhtaram zot-ning uyingizdan ham kattaroq, yog'och idish ichiga tushib, dengizlarda suzdik. Shunday deb, unga kema qanaqaligini ta'riflab berdim. Ro'molchamni olib, yel-kan qanaqa narsaligini, u kemani harakatga keltirishini uqtirdim. So'ng gapimda davom etdim. Men va hamrohlarim o'rtasida janjal chiqqanligi tufayli, ular me-ni sohilga tashlab ketishdi. Nima qilishimni bilmay mamlakat ichkarisiga qa-rab yuraverdim, ko'p o'tmay jirkanch yexular hujumiga giriftor bo'ldim. Xuddi

shu yerga kelganimda xo'jayin gapimni bo'lib: kemani kim yasadi, uni boshqarishni mamlakatingiz guigngnmlari nega bunaqa yovuz hayvonlarga topshirdi, deb savol berib qoldi. Men: hozir nima eshitsangiz ham xafa bo'lmaslikka va'da bersangiz hikoyamni davom ettiraman, deb aytdim. U rozi bo'ldi. Shunda men, kema menga o'xshagan jonzotlar tomonidan qurilgan; bu jonzotlar mening yurtimda ham, men bo'lgan mamlakatlarda ham eng aqlli maxluqlar hisoblanadi, shuning uchun ham qolgan hamma hayvonlar ustidan hokimlik qiladi, dedim. Tinglovchimga, uning o'zi va yor-do'stlari yexu deb nomlagan maxluqda aql-zakovatni ko'rib qanchalik hayratga tushishgan bo'lsa, men ham guigngnmlarning oqilona xatti-harakatlaridan shunchalik ajablanganimni e'tirof etdim. Men o'z tanamning anovi hayvonlar tanasi bilan o'xshash ekanligini tan olaman, deb davom etdim, biroq ularning bunchalik zoti aynib, yovvoyilashib ketishi sababiga tushuna olmayapman. Bordi-yu, taqdir nasib qilib, o'z yurtimga qaytib borsam bu mamlakatga qilgan sayohatimni aytib beraman, lekin menga hech kim ishonmaydi, bo'lmagan narsalarni gapirayotganimni, sarguzashlarimning boshdan oxirigacha o'zim to'qib chiqarganligimni yuzimga solishadi. Tinglovchimdan yana mendan gina qilmasligini, bergan va'dasini unutmashligini iltimos qilaman. Biroq, unga, uning oila a'zolari va yor-do'stlariga hurmatim qancha zo'r bo'lmasin, baribir vatandoshlarim biron joyda guigngnmlarning hokim, yexularning qo'pol hayvon bo'lganliklariga ishonishmaydi.

TO'RTINCHI BOB

GUIGNGNMLARNING HAQIQAT VA YOLG'ON HAQIDAGI TUSHUNCHALARI. MUALLIFNING GAPLARI XO'JAYINNI G'AZABGA MINDIRADI. MUALLIFNING O'ZI VA SAYOHATLARI HAQIDAGI BATAFSIL HIKOYASI.

Xo'jayin gaplarimni o'ta norozi qiyofada tingladi. Shubha va ishonmaslik bu mamlakat uchun mutlaqo noma'lum narsa, bordiyu bu hol yuz bergudek bo'lsa guigngnmlar qanday yo'l tutishni bilmay qoladilar. Xo'jayin bilan suhbatlashganimda odamlar, ularning fe'l-atvorlari va rasm-rusumlari haqida gapirayotib yolg'on va aldanchiliklar borligini ham qistirib o'tgandim, u shu qadar aqlli bo'la turib, nima demoqchi ekanligimni arang uqdi.


U shunday fikr yuritardi: bir-birimizni tushunish, bir-birimizga turli narsalar haqida foydali ma'lumotlarni bildirish uchun faqat bizgagina gapirish qobiliyati berilgan. Shuning uchun ham biror kishi yo'q narsani bor deydi bo'lsa, suhbatimizning maqsadi butunlay buzilib ketadi. Kimga murojaat qilinayotgan bo'lsa, u suhbatdoshini tushunmay qoladi. U yangi ma'lumotlar ololmay qolgani ustiga ustak, yana eng og'ir ahvolga ham tushadi, chunki uni oqni qora, uzunni qisqa deb ishonitirmoqchi bo'ladilar. Odamlar o'rtasida keng tarqalgan yolg'on gapirish xususidagi uning tushunchalari shuning bilanlangina chegaralanadi, xolos.

Yana o'z hikoyamizga qaytaylik. U mening yurtimda yexu hokimlikka ega ekanligini eshitib, mamlakatimizda guignnmlar bor-yo'qligi, bor bo'lsa ular nima bilan shug'ullanishlarini bilgisi kelib qoldi. Men unga guignnmlar juda ko'p, ular yoz faslida o'tloqda, qishda alohida uylarda xashak va suli bilan boqiladi, qashlag'ich bilan qashlanadi, yollari taraladi, oyoqlari yuviladi, yem berilib, ularning dam olishi uchun joy hozirlanadi deb javob qildim.

«Gapingizga endi tushundim, — dedi xo'jayinim, — aytganlaringizdan shu narsa ravshan bo'ldiki, garchi yexularingiz o'zlarini aqlli jonzorot hisoblasalar ham, bari bir, hokimlar guignnmlar ekan».

Shundan so'ng undan hikoyani davom ettirmaslikka ruxsat berishini iltimos qildim, bordi-yu, u xohlaganday batafsil so'zlaydigan bo'lsam ta'bi xira bo'lishini aytib, ogohlantirdim. Lekin u, yaxshi bo'lsa ham, yomon bo'lsa ham hamma narsani bilishni xohlayman, deb oyoq tirab turib oldi. Mening esa unga bo'ysunishdan boshqa ilojim qolmadi.

Eng avvalo men, bizda ot deb nomlangan guignnmlar barcha hayvonlar ichida eng chiroyligi, eng olijanobi va aqllisi deb, ularning ko'p ta'rifini keltirdim. Ular nihoyatda baquvvat, chopqir. Agar otlarning xo'jayinlari zodagon va badavlat, odamlar bo'lsa, ularga juda mehribon va g'amxo'r bo'lishadi, ko'z qorachig'iday asrashadi; ular nomigagina mehnat qilishadi; ularni poygaga qo'yishadi, ekipajga qo'shishadi, ulardan sayohat paytida foydalanishadi. Biroq otlar keksayib, kuchdan qolishi bilanoq ularni begona odamlarga sotib yuborishadi. Ular to butunlay kuchdan qolguncha har xil iflos va og'ir ishlarni bajarishadi. O'lgandan keyin esa terisini shilib olishadi va arzimagan pulga sotib yuborishadi, go'shtini itlarga va yirtqich qushlarga tashlashadi. Xashaki zot otlarning ahvoli bundan ham chatoq. Bunaqa otlarning ko'pchiligi fermerlarga, izvoshchilarga va boshqalarga qarashli. Ular otlarni og'ir ishlarga solishadi va durustgina boqishmaydi.



Men unga ot minib yurish, yuganning shakli va uni ishlatish, egar, shpor, qamchi, abzal va g'ildiraklar haqida batafsil ma'lumot berdim.

Men yana otlarimiz tuyog'iga toshloq yo'llardan yurganda yeyilmasligi uchun temir deb ataluvchi alohida qattiq moddadan taqalar qoqishimizni ham qo'shib qo'ydim.

Xo'jayin qahr-g'azabdan fig'oni ko'kka chiqib, hikoyamni bir necha bor bo'ldi. Hammasidan ham u guigngnmlar ustiga minishga jur'at etilganidan nihoyatda ajablandi. U: eng kuchsiz xizmatkorim ham eng kuchli yexuni uloqtirib tashlashga qodir yoki u bilan yerga yiqilib, orqasi bilan yumalab, hayvonni o'ldira oladi, bunga shubha qilmayman, dedi. Bunga javoban men, otlarni uch yoshdan boshlab minishga o'rgatilishi, to ular bo'ysunmaguncha ko'p marta kaltaklab, qiynashlarini batafsil aytib berdim. Eng muhimi shuki, deb qo'shimcha qildim, buni muhtaram zot e'tiborga olishi kerak, bizdagi guigngnmlar bu yerdagi yexularga o'xshab aql-farosatdan mahrum.

Vatanimda guigngnmlarga yovuzlarcha munosabatda bo'lishlari haqida hikoyamni eshitib, xo'jayinim shunaqayam g'azablandiki, buni ta'rifga sig'dirib bo'lmaydi. Lekin u shunday dedi: «Agar sizlarda yexuga aql-farosat ato qilingan bo'lsa, u boshqa hayvonlar ustidan hokimlik qilishi kerak, chunki aql hamisha qo'pol kuchlar ustidan g'alaba qiladi». Shunisi qiziqki, o'zining kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirishda ana shu aqldan foydalanuvchi birorta ham hayvon tana tuzilishi bo'yicha menchalik yomon moslashmagan. Bu xususda bu yerdagi yexular mendan ancha ustun turishadi.

To'g'ri-da, tirnoqlarim men uchun mutlaqo foydasiz; oldingi oyoqlarimni oyoq deb aytib bo'lmaydi, chunki yurganimda hech qachon ularga tiranmayman; ko'zlarim shunday qo'yilganki, boshimni burmasdan atrofga qaray olmayman; terim nihoyatda nozik, issiq va sovuqqa bardoshi berolmaydi, men esa zerikarli va toliqtiruvchi ish — kiyinish va yechinish bilan mashg'ul bo'lishga mahkumman. Aytganday, u hozir bu masalani chuqurroq muhokama qilishni xohlamaydi. Uni ko'proq mening hayotim: qayerda tug'ilganligim bu yoqqa kelib qolmasimdan oldin boshimga qanday kunlar tushganligi qiziqtiradi.

Uning qiziqishini bajonu dil qondirishga tayyor ekanligimni aytdim. Lekin hikoyam xo'jayinga o'ta tushunarli bo'lishiga shubhalandim, chunki u hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan narsalar haqida gapirishga to'g'ri kelardi. Shuning uchun ham u muhtaram zotdan achchiqlanmaslikni, bordi-yu, hikoyamda biror narsa tushunarli bo'lmasa, uni qayta so'rashini iltimos qildim.

Men, deb hikoyamni boshladim, Angliya deb nomlangan orolda hurmatli ota-onadan dunyoga keldim. Bu orol bu yerdan shunaqayam uzoqki, muhtaram zotning eng kuchli xizmatkori quyoshning bir yillik aylanib chiqishi davomida ham unga yetolmasa kerak. Orolni mening zotimdan bo'lgan bir urg'ochi zot idora qiladi, uni qirolicha deymiz. Yoshlik yillarimda jarrohlikni, ya'ni tasodifiy yoki begona qo'l yetkazgan yara va latlarni davolashni o'rgandim. Lekin bu hunar menga kam daromad berdi, men boyib hamda qaytib kelganimdan keyin oilam bilan farovon turmush kechirish uchun chet mamlakatlarga jo'nab ketdim. Oxirgi sayohat paytida men kema kapitani edim; qo'l ostimda ellikka yaqin yexu bor edi. Ulardan ko'pchiligi yo'lda vafot etdi, ularning o'rnini turli xalqlardan tanlab olingan boshqa yexular bilan to'ldirishga majbur bo'ldim. Sayohat paytida kemamiz ikki marta cho'kib ketishiga sal qoldi: bir marta qattiq bo'ronga duch keldi, ikkinchi marta qoya toshga urilay dedi.

Xo'jayinim gapimni bo'lib, shuncha odamni yo'qotib qanchadan-qancha xavf-xatarga duch kelganimdan keyin ham chet ellik kishilarni xatarli safarga qanday qilib ko'ndirganimni so'rab qoldi. Men unga, bular har narsaga tayyor turgan dovyurak odamlar edi, deb tushuntirdim. Qashshoqlik va jinoyat ularni o'z vatanlarini tark etishga majbur qilgan. Ba'zilari g'oyat cho'zilib ketgan sudlashishlardan xonavayron bo'lgan bo'lsa, boshqalari ichkilikka, ko'ngil ochish, qimorga berilib, bor bisotlarini sovurishgan. Ko'plari xiyonat qilishda, qotillikda, o'g'irlikda, birovlariga zahar berishda, talonchilikda, qasamdan qaytishda, qalbaki tangalar yasashda, qochoqlikda ayblanadilar. Ularning anchasi turmadan qochgan kishilar. Dorga osilish yoki turmada chirish xavfidan cho'chib, ularning birortasi ham vataniga qaytmaydi, shuning uchun ham ular yot o'lkalarda tirikchiliklarini o'tkazib yurishibdi.

Hikoya qilayotganimda xo'jayin bir necha bor savol berib, gapimni bo'ldi. Unga matroslarim nima uchun shunday qilishganini, o'z yurtlarini tark etganliklarini bir iloj qilib tushuntirish uchun juda ko'p taqqoslashlar va misollar o'ylab topishga to'g'ri keldi. U gap nimadaligini tushunishi uchun bir necha kun darkor bo'ldi. Lekin baribir bu odamlarni shunday gunoh qilishga nima majbur qilganini u hech tasavvur qila olmadi. Men unga o'zimizga xos bo'lgan hokimiyat va boylikka bo'lgan ochko'zlik, qanoatsizlik, yovuzlik va hasadning ayanchli oqibatlari haqida ba'zi tushunchalarni bermoqchi bo'ldim. Bularning hammasini misol va taqqoslashlar yordamida ta'riflash va aniqlashga to'g'ri keldi. Guigngnmlar tilida hokimiyat, hukumat, urush, qonun, jazolash va shunga o'xshash ko'pgina so'zlar yo'q. Shu sababli ham nima haqda gapirayotganimni

xo'jayin tushunishi uchun nihoyatda jon kuydirdim. Biroq u tabiatan zo'r aqlga va qat'iyatlikka ega bo'lganidan biz yashayotgan mamlakatlarda inson tabiati nimalarga qodir ekanligi haqida ozmi-ko'pmi o'ziga yarasha xulosa chiqarib oldi va dunyoning biz Yevropa deb atagan qismini ayniqsa, o'z yurtimni batafsil ta'riflab berishimni istab qoldi.

BESHINCHI BOB

XO'JAYINNING BUYRUG'IGA BINOAN MUALLIF UNI ANGLIYADAGI AHVOL
BILAN TANISHTIRADI. YEVROPA DAVLATLARI O'RTASIDAGI URUSHLARNI
KELTIRIB CHIQARGAN SABABLAR. MUALLIF ANGLIYA KONSTITUTSIYASI-
NI BAYON QILISHGA KIRISHADI.

Bundan buyon, xo'jayin bilan olib borilgan uzundan-uzoq suhbatlari-
miz paytida muhokama qilingan narsalarning eng muhimlarini qisqa-
cha bayon qilaman, buni kitobxon iltifot ila e'tiborga olgay. Bundan
tashqari yana shuni ham aytishim kerakki, bu ulug' zotning shaklan
oddiy va ravshan, mazmuni hikmatga to'la xulosa hamda fikrlarini bu yovvoyi ti-
limizda to'laligicha va aniqligicha bayon qilib bera olmasam kerak. Men olijanob
guignnm xalqi vakili bilan olib borgan suhbatlarimni faqat ana shunday shartlar
bilan bayon qilaman.

Shunday qilib, muhtaram zotning istagini bajo keltirib, shahzoda Oran-
skiy vaqtida bo'lib o'tgan so'nggi Angliya revolyusiyasi haqida, ana shu shah-
zoda boshlagan va uning vorisi, hozir podsholik qilayotgan qirolicha qaytadan
yangilagan, juda katta xristian davlatlari qatnashgan va hanuzgacha davom
etayotgan — Fransiya bilan olib borilayotgan urush haqida hikoya qilib berdim.
Xo'jayinimning iltimosiga ko'ra, ana shu urush davomida bir milliondan ortiq
yexu o'ldirilganini, yuzga yaqin shahar ishg'ol qilinganligini, uch yuztadan ko'p-
roq kema yondirilgani yoki suvga cho'ktirilganini hisoblab chiqdim. Xo'jayin
mendan, bir davlatning boshqasi bilan urush olib borishga nima majbur qiladi,
deb so'radi. Buning sababi son-sanoqsiz, lekin men eng muhimlarini sanab o'ti-
shim mumkin, dedim. Bunga ba'zan hech narsaga qanoat hosil qilmagan, do-
imo o'z mulkini kengaytirish, o'z fuqarolari miqdorini ko'paytirishga intilgan

podsholarning shuhratparastligi va ochko'zligi; ba'zida esa, davlatni idora qilinishidan norozi bo'lgan fuqarolar shikoyatini bo'g'ib tashlash va o'zlarini chalg'itish uchun o'z podsholarini urush girdobiga tortgan vazirlarning buzuqchiliklari sababchi bo'ladi. Qarashlarning bir xil bo'lmasligidan ham ko'p qon to'kiladi. Masalan, non tanami yoki tana nonmi; nima yaxshi: daraxtning bir bo'lagini o'pishmi yoki olovga tashlashmi; ustki kiyimning rangi qanday bo'lishi kerak: qorami, oqmi, qizilmi yoki kul rangmi, kabi munozaralar million-million kishilar hayotini so'ndirdi*.

Garchi birortasining huquqi bo'lmasa-da, qaysi birimiz uchun uchinchi podshoni taxtdan ag'daramiz, degan masalani hal etishda ham ikki podsho o'rtasida janjal chiqib ketadi. Ba'zan bir podsho qo'shni podsho o'ziga hujum qilib qolishidan qo'rqib, unga birinchi bo'lib hujum qiladi; ba'zida esa raqib o'ta kuchli bo'lib ketganligi yoki, aksincha, nihoyatda kuchsiz bo'lganligidan ham urush boshlanib ketadi. Ba'zan bizda bor narsalar qo'shnilarimizda bo'lmaydi yoki ularda bor narsa bizda bo'lmaydi. Ana o'shanda ular bizdagi narsani yoki biz ulardagi narsani tortib olmagunimizgacha urush bo'laveradi. Aholisi ochlikdan toliqib, vabodan qirilayotgan yoki ichki janjallar bilan ovora bo'lgan mamlakatga bostirib kirish esa uzrli hisoblanadi. Xuddi shuningdek, eng yaqin ittifoqchimizning birorta shahri biz uchun qulay joyda joylashgan bo'lsa yoki bir parcha yeri bizning mulkimiz chetida bo'lsa, unga qarshi ochilgan urush ham adolatli hisoblanadi. Bordi-yu, podsho aholisi qashshoqlikda va nodonlikda yashayotgan mamlakatga o'z qo'shinini yuborsa, u aholining yarmini qonuniy ravishda qirib tashlashga, yarmini esa qulga aylantirishga haqli. Bu xalqni yovvoyilikdan xolos etish va madaniyatning hamma rohatlaridan bahramand qilish hisoblanadi. Shuningdek, podsholarga xos va olijanob harakat qilishning juda keng tarqalgan usuli ham bor: qo'shnisining yeriga bostirib kirgan dushmanga qarshi kurashish uchun uning taklifiga binoan yordamga kelgan podsho, dushmanni quvib chiqargach, ittifoqdoshining yerlarini egallab oladi, o'zini o'ldiradi, turmaga tashlaydi yoki surgun qiladi. Qon-qarindoshlik yoki nikohda bo'lish podsholar o'rtasida ko'pincha urushlarni keltirib chiqaradi. Qon-qarindoshlik qanchalik yaqin bo'lsa, ular bir-birlarini shunchalik ko'ra olmaydilar. Kambag'al millatlar ochko'z, badavlatlari dimog'dor bo'ladi. Ochko'zlik bilan dimog'dorlik esa hech qachon chiqisha olmaydi. Shuning uchun ham urushlar aslo to'xtamaydi, askarlik esa eng faxrli kasb hisoblanadi. Biz o'ziga o'xshagan, lekin unga ziyon-zahmat yetkazmaganlarni sovuqqonlik bilan ko'plab o'ldirish uchun yollanadigan yexularni soldat deb ataymiz.

Bundan tashqari, Yevropada kambag'alligi tufayli mustaqil urush olib bora olmaydigan juda ko'p mayda hokimlar bor. Ana shu kambag'al podsholar o'z qo'shinlarini boy qo'shnilariga kunbay haq olish evaziga yollashadi. Mazkur haqning to'rtidan uch qismini o'zlariga olib qolishadi va shu daromad hisobiga yashashadi*.

— Urushlar xususida gapirgan gaplaringizning hammasi, — dedi xo'jayinim o'ychan holda, — siz da'vo qilayotgan narsaga ega bo'lish uchun bu aql qanaqaligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ammo yaxshiki, siz ko'pgina ziyon-zahmat yetkaza olmaysiz. Tabiat sizni boshqalardan o'jizroq qilib yaratib, buning g'amini yegan.

Yaxshiyam yuzingiz yalpoq, jag'ingiz oldinga turtib chiqmagan. Shuning uchun ham bir-biringizni tishlashingiz yoki g'ajib tashlashingiz amri mahol. Old va orqa oyoqlaringizning tirnoqlari kalta, nimjon. Bizning har bitta yexumiz sizlarning bir qanchangizga bemalol bas kela oladi. Mendan o'kinmang, — dedi xo'jayin gapining oxirida, — menimcha, jang paytlarida o'lganlar miqdorini aytish bilan o'zi yo'q narsani gapiryapsiz».

Bu gaplarni eshitib, o'zimni kulgidan tiya olmadim. Harbiy bilimim ancha yaxshi bo'lganidan unga zambarak, mortira, mina, mushket, karabin, to'pponcha, o'q, porox, qilich, nayza kabi narsalarning nimaligini unga tushuntira olardim. Men kemanding ekipaji bilan cho'kib ketganligi haqidagi jangni butun tafsiloti bilan ta'riflab berdim. Uning ko'z oldida jang manzarasini: tutun, shovqin-suron, sarosima, o'layotganlarning oh-vohlari, ot tuyog'i tagida qolib o'lishlar, qochayotganlarni quvlashlarni gavdalandirishga urindim. Men: itlarga, bo'rilarga va boshqa yirtqich qushlarga yem qilib tashlab ketilgan o'liklar to'la dalalar; tinch aholiga qilingan zo'ravonliklar, talon-taroj, bosqinchilik, payxon qilingan ekinzorlar va yondirilgan shaharlar haqida gapirdim. Qadrdon vatandoshlarimning jasoratini maqtash maqsadida bir shaharni qamal qilinganda portlash tufayli yuzlab dushman soldatlari dabdalasi chiqib, osmonu falakka uloqtirilganini, ularning burdalangan etlari ko'zlarni quvontirib, osmondan yomg'irday yog'ilganini o'z ko'zim bilan ko'rganman, dedim.

Keyingi tafsilotlarni ham bayon qilishga tushgan edim, lekin xo'jayin jim bo'lishni buyurdi.

«Yexuni biladigan har bir kimsa, — dedi u, — bu maraz hayvon, agar kuchi yetsa, siz aytgan hamma narsalarni amalga oshirishga qodir ekanligiga ishonadi». Mening hikoyam unda, u ilgari hech qachon his etmagan tashvishni tug'dirdi. U mana shu mamlakatda yashayotgan yexulardan hamisha jirkangan, lekin

ularning hamma nuqsonlarni *gnnex* (yirtqich qush) larning yovuzligi yoki qat-tiq tosh tuyog'iga lat yetkizgani kabi qoralamasdi. Mening hikoyalarimda esa eng zo'r aqliy qobiliyatga ega bo'lganlar dahshatli yovuzliklarni qilishmoqda. Bu uni, aynigan aql yirtqichning befahmligidan ham yomon, degan fikrga olib keldi. Uning fikricha, bu aql emas, balki tabiiy nuqsonlarimizni rivojlantirishga ko'maklashadigan qandaydir alohida qobiliyat.

Nihoyat u urush haqidagi gaplardan to'yganligini aytdi. Endi uni boshqa nar-sa qiziqtirib qoldi. Men hikoyamda kemamdagi ba'zi matroslar o'z vatanlarini tark etishganini, chunki qonun ularni mol-mulkidan mahrum etganini eslatib o'tgandim. Bu xo'jayinimni juda ajablantirdi. U qonun biror kimsani, mening aytganlarim bo'yicha — qanaqa qilib xonavayron bo'lishga olib kelishiga hech tushunmasdi. Axir, qonunning mohiyati har bir fuqaroning manfaatlarini qo'-riqlashdan iborat-ku. Shuning uchun u qonun o'zi nima va uning xizmatkorlari kimligini tushuntirib berishni iltimos qildi. Uning fikricha, tabiat va aqlning rah-namoligi, biz o'zimizni qanday hisoblasak, shunday aqlii jonzotlar uchun yetarli.

Men muhtaram zotga garchi qonun va huquq bobida bitimim zo'r bo'lmasa-da, sizning iltimosingizni bajo keltiraman, deb javob berdim.

Men unga mamlakatimizda odamlarning bir necha tabaqasi mavjudligini, ular yoshligidan kimning qancha to'lashiga qarab oqni qora, qorani oq deb is-bot qilishga o'qib-o'rganishlarini aytdim. Ana shu tabaqa butun xalqni qullikda saqlab turadi.

Masalan, bordiyu qo'shnimga sigirim yoqib qolsa, u qonun bo'yicha sigi-rimni mendan tortib olishga haqli ekanligini isbotlash uchun advokat yollaydi. Shunda sigir o'zimmniki ekanligini isbotlash uchun men ikkinchi bir advokat-ni yollayman, chunki sud paytida o'zini o'zi himoya qilishga hech kimga qo-nun ruxsat bermaydi. Ustiga-ustak qonuniy va haqqoniy mulk egasi bo'lganim uchun sud paytida noqulay ahvolga ham tushib qolaman. Hamma gap shundaki, yolg'onni yoqlash advokatlarga yo'rgakda tekkan dard. Shu sababli u haqqoniyat-ni himoya qilish paytida o'zini noqulay his etadi va durustroq g'ayrat va mahorat ko'rsata olmaydi. Buning ustiga ular o'ta ehtiyotkor bo'ladi: haq ishni himoya qilayotganda kuyib-pishib gapirsa sudya tomonidan tanbeh oladi. o'z tabaqasi sha'hini yerga uradi.

Omadi gapni aytganda, sigirimni bermaslikning ikkita yo'li bor: birinchi-si, go'yoki haq ishni himoya qilayotganini sudga bildirib qo'yishi uchun, qarshi tomon advokatiga pora berish; ikkinchisi — meni himoya qilayotgan kishiga si-

girga da'vo qilishim adolatsiz ekanligiga uni ishontirish, sigir chindan ham raqibimniki ekanini shama qilib qo'yish. U holda ham, bu holda ham, haqqoniyat raqibim tomondami yoki talabim qonuniy emasmi, bari bir, bu ishda mening yutib chiqishim muqarrar.

Muhtaram zot, shuni bilib qo'yingki, deb davom etdim, bizda mulk haqidagi hamma bahslarni hal etish va jinoyatchilarni jazolash ishi zimmasiga yuklangan kishini sudya deyiladi. Ularni qarib, yalqovlanib qolgan eng o'tkir advokatlardan saylashadi. Sudyalikka tayinlangunlariga qadar bu odamlar advokat sifatida yolg'on-yashiq, qasamdan qaytish va zo'ravonlikka yo'l qo'yishga o'rganib qolishadi. Men haq tomon bergan porani olishdan qat'iyon bosh tortgan, bu ishi bilan haqiqatning tantana qilishini va o'z tabaqasi sha'nini yerga urishni istamagan juda ko'p muhtaram sudyalarni ko'rganman.

Ular turli sudlashuvlarni ko'rish paytida ishning mohiyatiga kirib borishdan qochishadi; lekin ishga mutlaqo aloqasi bo'lmagan narsalar haqida og'iz ko'pirtirib baqirishadi, qizishishadi va holdan toyguncha gapirishadi. Masalan, haligi misolimda ular raqibimning mening sigirimga ega bo'lish uchun qanday haqi borligi haqida so'rashmaydi, balki sigir qorami yoki qizilmi, shoxi uzunmi yo qisqami, uni uyda sog'ishadimi yo yaylovdami, uning qanaqa kasalligi bor va hokazo, hokazolarni vaysashaveradi.

Yana shuni e'tiborga olish kerakki, bu odamlar o'z nutqlarida oddiy odamlar uchun mutlaqo tushunarsiz alohida so'z va iboralarni ishlatishadi. Qonunlar ham xuddi ana shunday tuzilgan. Bu qonunlar shunaqayam ko'p, shunaqayam tushunib bo'lmaydigan va bir-biriga shunaqayam zidki, qanday xatti-harakat qonuniy, qanaqasi qonunsiz, qanaqasi adolatlil, qanaqasi adolatsiz, yolg'on qayerda — bilib bo'lmaydi. Bunaqangi qonunlar va bunaqangi sudyalar bilan ota-bobolarimdan qolgan, olti avlod o'tguniga qadar egalik qilgan yerlar menga yoki ana shu yerlardan uch yuz milya narida yashovchi allaqanday xorijiy kishiga tegishli-tegishli emasligini aniqlash uchun o'ttiz-qirq yil sarflanishi turgan gap.

Davlat jinoyatchilari ustidan qilingan sud ancha tez o'tadi. Sudyalar hokimiyatdan, ayblanuvchi jazolansinmi, yo oqlansinmi, deb so'rab qo'ya qolishadi.

Keyin olingan ko'rsatmaga binoan, uni yo dorga osishga hukm chiqarishadi, yoki oqlab yuborishadi. Biroq u holda ham, bu holda ham ular qonunga qattiq amal qilishadi*.

Endi, muhtaram zot, deb hikoyamni tamomladim, «qonun xonavayron qilgan» degan so'zga tushungan bo'lsangiz kerak.

OLTINCHI BOB

ANGLIYA TA'RIFINING DAVOMI. YEVROPA SAROYLARIDAGI BIRINCHI YOKI BOSH VAZIRNING ROLI.

Shu payt yana bir mushkullik tug'ildi: xo'jayinim sudyalarning o'z yaqinlariga ziyon yetkazish va ularni xafa qilish uchun shunchalik jon-jahdlari bilan urinishlariga nima sabab bo'lishini tushunolmadi. Eng muhimi — «to'lov uchun» degan ibora mutlaqo tushunarli bo'lmadi.

Uning hayratga tushib bergan savollariga javoban pul nimaligini, u nimadan tayyorlanishini, asl metallarniig bahosi qanaqaligini tushuntirdim. Men aytdimki, bordi-yu yexu mana shu metallardan ko'pgina g'amlab olsa, har narsani — hashamatli uylarni, bepoyon yer-mulkn, qimmatbaho mebellarni, eng a'lo taomlarni va ichimliklarni sotib olishi mumkin. Hamma narsani pul vositasida qo'lga kiritish mumkinligini bilgan yexularimiz pulni dunyoda hamma narsadan yuqori qo'yishadi va unga ko'proq ega bo'lishga intilishadi. Pul buyuk ahamiyatga molikligidan, boy odamlar kambag'allarni o'zlariga bo'ysundirib olishadi va ularning mehnatidan bahramand bo'lishadi. Bir boyga minglarcha kambag'al to'g'ri keladi. Kamil ishonch bilan aytish mumkinki, xalqimizning ko'pchiligi qashshoqlikda hayot kechirishga va bir hovuch odamlar rohat-farog'atda yashashi uchun oz haq olib, og'ir mehnat qilishga majbur. Bularning hammasi xo'jayinimga tushunarsiz edi, chunki u hamma hayvonlar, ayniqsa boshqalari ustidan hokimlik qiladiganlar yer ne'matlaridan o'z ulushiga ega deb hisoblardi.

U bizda boy yexular qanday hayot kechirishini so'rab, oshxonalarimiz va shunchalik katta mablag'larni talab qilayotgan taomlar haqida ko'proq narsa bilmoqchi bo'ldi. Men esimga tushgan hamma nodir taomlarni sanab berdim, ularni tayyorlashdagi turli usullarni ta'riflab berdim. Ovqatlarga solinadigan ziravorlar va ichiladigan ichimliklarni olib kelish uchun kemalar dengizlar osha jahonning turli mamlakatlariga borishini ham aytdim, birorta badavlat yexumizning oilasi nonushtasiga tortiladigan oziq-ovqat yoki uni solib beradigan idish-tovoqni topish uchun eng avvalo dunyoni uch marta aylanib chiqishi kerak.

«Juda kambag'al mamlakat ekan. — dedi suhbatdoshim, — hatto o'z aholisini ham boqolmas ekan!»

Ayniqsa uni mamlakatimizda ichimlik suvning yetarli emasligi, uni olib kelish uchun aholini dengiz orti mamlakatlariga jo'natilishi hayron qoldirdi.

Men unga ichimlik suv yetmayotganligi uchungina uni boshqa mamlakatlardan sotib olayotganligimizni uqtirdim. Alohida mevalar shirasidan tayyorlangan bu ichimliklarni ko'ngil ochish, esimizni yo'qotish, qayg'uli xayollardan xalos bo'lish, turmushimizda to'lib-toshib yotgan tashvish va ko'ngilsizliklarni unutish uchun ichamiz. To'g'ri, ichimlikni ichib, lanj, irodasiz, g'amgin, kasalmand bo'lib qolamiz. Lekin bu bizni tiya olmaydi: biz bir oz bo'lsa ham g'amdan xalos bo'lish uchun hamma narsaga rozimiz.

«Jonajon yurtim Angliya, — dedim, — o'z aholisi iste'mol qiladigan turli-tuman taomlarni, juda kam deganda, uch baravar ko'p ishlab chiqarishga qodir. Biroq yexularimiz bunga qanoat hosil qilishmaydi, dengiz ortidan turli xil meva-cheva, sabzavot, har xil o'tkir ziravorlar va boshqa narsalarni keltirishadi, shu bilan o'zlarining nozik tabiatlarini qondirishadi. Bularning evaziga dengiz ortidagi mamlakatlarda yashovchilarga ularning hayoti uchun zarur oziq-ovqat va buyumlar yuboramiz. Vatandoshlarimning ko'pchiligi gadoylik, talon-taroj, o'g'irlik, tovlamachilik, qasamdan qaytish, xushomadgo'ylik, pora berish, qalbakichilik, qimor, yolg'onchilik, malaylik, maqtanchoqlik, saylovdagi ovozini sotish, qog'oz qoraytirish, munajjimlik munofiqlik, tuhmat qilish va shunga o'xshash qiliqlar bilan o'z tirikchiligini o'tkazayotganidan ajablanmasa ham bo'ladi».

Ana shu so'zlarning har birini guignngmga tushuntirish uchun qancha mehnat sarflaganimni kitobxon tasavvur qilayotgan bo'lsa kerak.

«Biroq bunday sharoitda, — dedi xo'jayinim, — mamlakatingizda yashovchilar boylarning nafsini qondirish uchun erta tongdan qora tungacha mehnat qilishlari kerak».

«Siz mutlaqo haqsiz, — dedim. — Masalan, uyda yurganimda egnimga yuzlarcha hunarmandning mehnat mevasi bo'lgan kiyimni kiyib yuraman. Uyimni qurish va uning jihozlari undan ham ko'p ishchi kuchini talab qiladi, xotinimni kiyintirish uchun esa ana shu ishchilar miqdorini besh baravar ko'paytirish lozim».

Men unga kasallarni davolab, tirikchilik o'tkazadigan kishilar haqida gapirmoqchi bo'ldim, biroq xo'jayinim bu so'zning ma'nosini tushunmadi. Bu muhtaram zot har bir guignngmning o'limidan sal oldin kuchsizlanib va og'irlashib qolishi yoki tasodifan o'zini yarador qilib olishini tabiiy bir hol deb bilardi. Biroq butun qilmishi aql ruhi bilan sug'orilgan tabiatning tanamizda kasallik keltirib chiqarishi mutlaqo uning aqliga sig'masdi. U mana shu kulfatning kelib chiqish sabablarini

so'ray boshladi. Men unga shunday deb javob berdim: kasalliklarimizning aksariyati me'yoridan ko'p ovqatlanish va ichkilikbozlik tufayli yuz beradi; och qolmaganimizda ovqat yeb qo'yamiz, hech qanday tashnalik bo'lmaganda ichib qo'yamiz. Ba'zan kunu-tun o'tkir ichimliklarni ichamiz. Bu bizni yalqovlashtiradi, ichki a'zolarimizni yallig'lashtiradi, ovqat hazm qilishni izdan chiqaradi. Boshqa ko'p kasalliklar mamlakatimizda avj olgan son-sanoqsiz illatlar tufayli paydo bo'ladi. Inson tanasi duchor bo'lgan hamma kasalliklarni sanash uchun vaqt yetmaydi. Agar butun boshli bir tabaqa vatandoshlarimni davolash bilan shug'ullanishini aytсам, shuning o'ziyoq kifoya qiladi. Men doktorlarimiz, ularning turli kasallarni davolash usullari, firibgarlik va ochko'zliklari haqida batafsil gapirib berdim.

Ayniqsa ular kasallik oqibatini aytib berishga juda usta. Bu borada ular kamdan-kam xato qilishadi. Bordiyu bir kishi og'ir betob yotgan bo'lsa, ular, o'ldi deb aytishadi. Davolash qo'llaridan kelmagan taqdirda, ular bemorni istagan paytlarida o'ldira oladilar. Biroq, ularning davolashiga qaramay, bemorda yaxshi tomonga o'zgarish yuz bersa, ular bemorning yaqin odamlariga, bu mening davolashim natijasi deb aytib, ularni shunga ishontiradilar.

Ular bir-birlarining me'dasiga tekkan er-xotinlar, meros olish ilinjida yurgan to'ng'ich o'g'illar, xavfli raqiblari bor vazirlar, hatto o'z vaziridan* qutulmoqchi bo'lgan podsholar uchun ham juda foydalidir. Bu gaplarimni eshita turib, xo'jayinim gapimni bo'ldi, chamasi do'xtirlar tabaqasi haqidagi fikrlarim uning joniga tegdi, shekilli.

«Siz vazirlarni bir necha bor tilga oldingiz, — dedi u. — Bu so'z bilan yexuning qaysi turini aytmoqchisiz, shuni juda bilgim keladi».

Men unga, birinchi yoki bosh vazir xursandlik va g'amginlik, muhabbat va nafrat, shafqat va g'azab tuyg'ularidan butunlay mahrum bir zot, deb aytdim. Unda boylik, hokimiyat va yuksak unvonga jon-jahdi bilan intilishdan boshqa dard yo'q. U o'z fikrlarini ifodalash uchun emas, balki turli maqsadlarni ko'zlab so'z ishlatadi. U gapini yolg'onga chiqarishlarini xohlagandagina rost gapiradi; faqat yolg'on gapini rostga o'tkazmoqchi bo'lgandagina, yolg'on gapiradi. Uning nazarida, yomon o'tliq bo'lgan odamlar obro'-e'tibor orttirish yo'lida ketayotganidan ko'ngli to'q bo'lishi kerak; u maqtay boshlagan odamlar o'zlarini tamom bo'ldim, deb hisoblay berishi lozim. Bordiyu, u iltimosingizni bajo keltirishga va'da bersa, yana ustiga-ustak ont ichsa, ehtiyot bo'ling. Bundan keyin istagan-gizning ro'yobga chiqishiga hech qanday umid qolmaydi, qo'l siltab ketaverish oqilonla ish bo'ladi.

«Bosh vazir bo'lishning bir qancha yo'llari bor, — deb davom etdim. — Buning eng osoni — boplab tuhmat qilish, ustalik bilan gap chaqish, xoinlik. Ba'zan bunday oshkora va shiddatli fosh etish saroyning razolatga yuz tutganligi hamda boshqa illatlar botqog'iga botganidan darak beradi. Donishmand podshohlar keyingi usulni qo'llaganlarni yoqtiradi, chunki bu fosh etuvchilar hamisha xushomadgo'ylikni joyiga qo'yib, o'z xo'jasining injiqlik va orzu havaslarini ko'taradi.

Hokimiyat tizginini qo'lga olgach, vazir ko'pchilik senator yoki kengash a'zolarini sotib olib, o'z mavqegini mustahkamlaydi. Poraxo'rlik, davlat mablag'larini epchillik bilan talon-taroj etish, to'g'ridan-to'g'ri o'g'irlik qilish bilan juda katta boylik orttirgach, vazirlar ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashishadi.

Birinchi vazir saroyi uning o'ziga o'xshagan kishilar tarbiyalanadigan joy. Mahram, malay, shveysarlar o'z xo'jayinlariga taqlid qilib, o'z muhitlarida xo'jalariga o'xshab vazir bo'lib qoladi, vazirlik san'atining uchta muhim shart-sharoiti: yuzsizlik, yolg'on-yashiq gapirish va poraxo'rlikni o'rganadi. Ba'zan ular epchillik va yuzsizliklari bilan martaba zinapoyasidan ko'tarila borib, o'z xo'jalarining arzandasiga aylanishadi».

Mamlakatimiz zodagonlari to'g'risidagi gaplarimni eshita turib, bir kuni xo'jayin, garchi bunga loyiq ish qilmagan bo'lsam ham, menga xushomadgo'ylik qilib qoldi. U menga: oliy nasab oiladan tug'ilgan bo'lsangiz kerak, chunki gavda tuzilishingiz, teringizning rangi, ozoda-pokizaligingiz bilan mamlakatimiz yexularidan ancha utsun turasiz, dedi. Bundan tashqari, gapirish qobiliyatiga, oz bo'lsa-da, aql-zakovatga ega emishman uning hamma tanishlari buni karomat deb bilishyotganmish.

Men muhtaram zotga o'z haqimda aytgan maqtov gaplari uchun chuqur minnatdorchilik izhor qildim. Shu bilan birga, kelib chiqishim unchalik oliy nasabdan emasligini, chunki ota-onalarim kamtar, halol odamlar ekanligini, meni ilmi qilish imkoniyatiga arang ega bo'lishganini aytdim. Zodagonlarimiz u tasavvur qilganday emasligini ham pisanda qildim. Yosh zodagonlar bolaligidanoq ishdan qochish va haralla-taralla yashash ruhida tarbiyalanadilar. Ana shu yoshlar maktabni bir amallab tamomlab olishgach, umrlarini aysh-ishrat, qarta o'ynash va boshqa ko'ngil ochishlar bilan o'tkazishadi. Ular o'z bisotlarining ancha-munchasini sovg'ach, pul uchun o'zlari nafratlanib qaraydigan, past tabaqadan bo'lgan va na husni, na salomatligi bilan ajralib turmaydigan ayollarga uylanishadi. Ana shunday er-xotinlardan shirincha, raxit kasaliga muhtalo bolalar tug'ilishi turgan gap.

Har holda, bizning mamlakatimizda odamlarning nimjon va kasalmandligi, rangi zahilligi ularning aslzodaligiga yorqin ishoradir. Salomatlik va adl qad-di-qomat aslzodalar uchun sharmandali ko'rinish hisoblanadi. Ularning ma'naviy qashshoqliklari jismoniy nuqsonlariga mos tushadi va xafaqonlik, befaahmlk, nodonlik, haddan oshish, dimog'dorlik bilan birikib ketadi.

YETTINCHI BOB

MUALLIFNING O'Z VATANIGA BO'LGAN MUHABBATI. ANGLIYADAGI IDORA QILISH USULI XUSUSIDA XO'JAYINNING TANBEHLARI. XO'JAYINNING INSON TABIATI HAQIDAGI MUSHOHADALARI.

Mening yexu bilan o'xshashligimni bilib-ko'rib turgan va inson zoti haqida uncha yaxshi fikrda bo'lmagan bir jonzot oldida qabilamiz nuqsonlarini ro'y-rost ochib tashlashim kitobxonga ancha erish tuyulishi mumkin. Biroq shuni yurak-yurakdan e'tirof etishim kerak: bu olijanob to'rt oyoqlilarning fazilatlarini inson buzuqliklari bilan taqqoslash mening inson tabiati haqidagi qarashlarimni tubdan o'zgartirib yubordi. Men o'z qabilam sha'nini ayash kerak emas, degan xulosaga keldim. Buning ustiga, xo'jayinim va uning yon-veridagilarga nazar solib turib, har qanday yolg'on va aldashga o'ta zo'r nafrat tuyg'usi bilan qaradim. Aytganday, hozir o'z vatandoshlarim haqida gapirganlarimni xotirlar ekanman, ularning nuqsonlarini qanchalik xas-po'shlaganimni va hayot kechirishlari hamda fe'l-atvorlarini ijobiy qilib ko'rsatishga zo'r berib uringanligimni ro'y-rost ko'rib turibman. Lekin men buni o'zim uchun alohida xizmat deb bilmayman. Nahotki o'zi tug'ilib o'sgan yurtiga moyil bo'lmagan va unga qizg'in muhabbat bilan qaramagan biron kimsa bo'lsa?

Men bu yerda xo'jayin bilan olib borgan suhbatlarim paytidagi eng muhim omadi gaplarni bayon qildim. Va nihoyat, muhtaram zotning qiziqishlarni ozmi-ko'pmi qoniqish topdi. U bir kuni ertalab meni huzuriga chaqirdi, o'tirishni taklif etdi (bunaqa obro'ga hech sazovor bo'lmagan edim) va uzundan-uzoq nutq so'zladi. U mening o'z haqimda va vatanim haqida aytganlarimni rosa mushohada qilib, ta'b xira qiladigan xulosaga kelganini aytdi.

«Siz zig'irdakkina aql-farosat ato qilgan alohida hayvonlar toifasiga kirasiz, — dedi xo'jayin. — Biroq bu aqlni siz faqat tabiiy nuqsonlaringizni ko'paytirish, yangilarini o'rttirish uchun ishlatasiz. Siz tabiat ato qilgan qobiliyatlarni bo'g'ib, o'z ehtiyojlaringizni ko'paytirish va ularni qondirish uchun juda xilma-xil, ajib vositalarni o'ylab topishni hayot kechirishning birdan-bir maqsadi deb bilasiz. Lekin shaxsan sizga qarab turib fikr yuritadigan bo'lsak, xalqingiz jismoniy tomonidan yexularimizga tenglasha olmaydi. Siz orqa oyoqlaringizda mahkam tura olmaysiz; tirnoqlaringiz o'zingizni himoya qilish yoki hujum qilish uchun mutlaqo yaroqsiz. Yugura olmaysiz, daraxtlarga anovi birodarlaringiz (ularni u hamisha shunday deb atardi) yexularga o'xshab darrov chiqa olmaysiz.

Hokimiyatingiz hamda qonunlaringizning mavjudligi aqlingiz, qolaversa fazilatlarining ham kamolga yetmaganidan dalolat beryapti. Ularni idora qilish uchun, kim chinakam aql sohibi bo'lsa, bitta aqli odam ham kifoya qiladi. Aytganday, sizlarda yuz berayotgan hamma narsalar aqli bo'lish uchun intilmayotganingizni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Ana shu xulosalarimni tekshirish maqsadida, — deb davom etdi xo'jayin, — sizlarning hayot kechirishlaringiz, urf-odatlariningiz va fe'l-atvorlaringizni yexularimiz hayoti bilan taqqosladim. Aql borasida ham xalqingiz bilan yexular o'rtasida ajoyib o'xshashlik borligiga mutlaqo ishonдим.

Yexular boshqa hayvonlarga qaraganda, bir-birini aslo ko'ra olmaydi. Odatda bu ko'ra olmaslikning asl sababini o'zlarining badbasharaliklaridan ko'rishadi; har bir yexu o'z birodarlarining badbasharaligini ko'radi-yu, o'zining esa qanaqaligini sezmaydi. Lekin endilikda men bu tushuntirishni xato deb hisoblayman. Ana shu hayvonlar o'rtasidagi nizolar boisi sizning avlodlaringiz o'rtasida yuz bergan nizolar sababining xuddi o'zginasi. Chindan ham shunday, agar ellikta yexuga yetadigan ovqatni beshta yexuga bersangiz, tinchgina yeya berish o'rniga, ular darrov urush chiqarishadi. Har biri ovqatning hammasini o'zi egalab olishga intiladi. Shuning uchun yexuni dalada ovqatlantiriladigan bo'lsa, ular yonida albatta, xizmatkorlardan soqchi bo'ladi. Og'ilxonada esa ular bir-biridan ancha uzoqqa bog'lab qo'yiladi. Ba'zan dalalarda o'lib qolgan sigirlarni o'z yexularimizga olib kelishga ulgurolmay qolamiz. Shunday paytlarda yaqin atrofdagi yovvoyi yexular yopirilib kelib, o'ljaga o'zlarini tashlashadi. Shunda ular o'rtasida, siz tasvirlab berganga o'xshash, qattiq jang boshlanib ketadi. Ular tirnoqlarini ishga solib bir-birlarini qattiq yaralashadi, lekin o'lish hollari kamdan-kam uchraydi. Axir ularda sizlar kashf etgan odam o'ldiruvchi qurollar yo'q. Ba'zan

hech qanday sabab bo'lmasa-da, bu yovvoyi hayvonlar o'rtasida yuqoridagidek janglar boshlanib ketadi. Biror o'rmon yoki chakalakzorda istiqomat qiladigan yexular o'z qo'shnisiga hujum qilib qoladi, uni g'afatda qoldirishga urinishadi. Yengilganlari uylariga qaytishadi va buning alamini olish uchun, siz o'zaro urush deb ataganingizday, bir-birlari bilan qiy-pichoq bo'lishadi.

Mamlakatimizning ba'zi joylarida xilma-xil yarqiroq asl toshlar uchrab qoladi. Yexular ana shu toshlarni qo'lga kiritish uchun hech narsadan qaytishmaydi. Bordiyu tosh yerga botibroq turgan bo'lsa, uni chiqarib olish uchun, ular kun bo'yi ishlashga tayyor. Ular o'z o'ljalarini uylariga olib borib, yerga ko'mib qo'yishadi. Bu ishni bajarishda o'ta ehtiyotkorlik qilishadi, atrofga shubha bilan alanglab nazar tashlashadi, yashirinishadi, xullas, xazinalarini qayerga berkitishganini qo'shnilari payqab qolishidan qo'rqishadi.

— Men, — deb davom etdi xo'jayin, — yexularning asl toshlarga bunchalik hirs qo'yishlari sababini hech tushuna olmasdim. Endi esa, uning manbai, siz inson zotiga xos degan o'ta ochko'zlik deb o'ylayapman.

Bir kuni, sinab ko'rish uchun, bir yexuning ko'mib qo'ygan joyidan anchagina asl toshlarni bildirmay olib ketdim. Xazinasini yo'qolganini payqagan ochko'z hayvon shunaqayam shovqin ko'tardiki, zum o'tmay uning oldiga bir to'da yexu yetib keldi. Xazinasidan ayrilgan yexu o'rtoqlariga tashlanib, ularni tirnay va tishlay boshladi. Oradan bir necha kun o'tdi, lekin u yo'qotgan narsasini unutilmadi, yemadi ham, ichmadi ham, uxlamadi ham, ishlamadi ham. Nihoyat xizmatkorimga toshlarni sezdirmay o'z o'rniga qo'yib qo'yishni buyurdim. Xazinasini topib olgan yexu darhol jonlanib, xursand bo'lib ketdi. U toshlarni yangi, ishonchliroq joyga yashirdi, o'shandan buyon u hamisha itoatkor, ishchan hayvon bo'lib qoldi.

Shuningdek, xo'jayinim asl toshlar serob dalalarda yexular o'rtasida juda qattiq jang bo'lishini ham ta'kidlab o'tdi — buni o'zim ham kuzatdim.

«Qachonki ikkita yexu, — deb davom etdi xo'jayin, — dalada ana shunaqa toshni topib olsa, unga ega bo'lish uchun bir-biri bilan olisha boshlaydi, tosh esa uchinchi bir yexuga nasib qiladi; ularning urishayotganidan foydalanib, toshni ilib ketadi».

Xo'jayin bu o'rinda bizning sudlashishimizga o'xshash ba'zi narsalar borligini tilga oldi. Men uni fikridan qaytarishga urinmadim. Bu pok nomimizga dog' tushirish bo'lardi. Negaki bahslarni bunday hal etish bizning sudlarimiz hukmidan ancha adolatliroq ekanini tan olishim kerak edi. Darvoqe, bu yerda da'vogarlar jangga sababchi bo'lgan toshdan boshqa hech narsani yo'qotishmaydi.

Bizning sudyalarimiz bo'lsa har ikkala da'vogarni xonavayron qilmaguncha ishni to'xtatmaydi.

Keyin xo'jayinim yexularning ochofatligidan juda nafratlanishini aytdi. Yexular ko'zlariga nima ko'rinsa ochko'zlik bilan tashlanishadi, o'ng-tersiga qaramay o't-o'lan, ildiz, meva, harom-xarish go'shtlarni yeyaverishadi. Ular uyda tayyorlab berilgan ovqatdan ko'ra o'g'irlangan yoki talash tufayli qo'lga kiritilgan taomlarni xush ko'rishadi.

Bu yerda kamdan-kam bo'lsa-da, shirali ildiz uchraydi. Yexular uni zo'r haf-sala bilan axtarishadi, topishsa huzur qilib shimishadi. Vino bizga qanday ta'sir qilsa, ildiz ham ularga shunday ta'sir qiladi. Uning ta'sirida ular goh o'pishshadi, goh urishshadi, aftilarini burishtirishadi, nimalarnidir bidirlab gapirishadi, qo-qinshadi, loyga yiqilishadi va uxlab qolishadi.

Fan, boshqarish tizimi, san'at va sanoat xususida xo'jayinim biz bilan o'z mamlakati yexulari o'rtasida hech qanday o'xshashlik yo'q ekanligini e'tirof etdi. To'g'ri, u bir necha qiziquvchan guigngnmlardan yexular podasining ko'pchiligida o'ziga xos hokimlar bo'lishini, bular eng yovuz va odobsiz poda ekanligini eshitibdi. Odatda har bir yo'l boshchining o'z arzandasi bo'ladi. Ana shu arzanda o'z hukmdoriga juda o'xshab ketadi. Uning vazifasi xo'jasining oyog'ini yalashdan va unga qulaylik tug'dirishdan iborat. Buning evaziga u ahyon-ahyonda eshak go'shti bilan taqdirlanadi. Bu arzandani butun poda yomon ko'radi, shu vajdan u xavf-xatardan saqlanish uchun doimo xo'jasining yonida bo'ladi. Xo'jasi uni undan ham battarroq yexuni topgunga qadar ushlab turadi. U iste'foga chiqishi bilanoq, an shu sohaning yexulari — kattayu kichik hammasi yangi voris boshchiligida uni qurshab olishadi va yaxshigina savalashadi. Xo'jayinim bularning hammasini bizning saroyimiz, arzanda va vaziririmizga qanday tatbiq qilinishini o'zimga havola qilib qo'ya qoldi.

Xo'jayin yexularda yana bir qancha xislatlar borligini aytdi — bularni men inson avlodlari haqida hikoyalarimda yo aytganman yoki shu mavzuga yaqinlashib o'tganman. Eng avvalo yexularda balchiqqa bulg'anishga ishqivozlik va kir-chirlik ko'zga tashlanadi, vaho'fanki boshqa hamma hayvonlar tabiatan pokiza bo'lishadi.

Agar guigngnmlar mamlakatida cho'chqalar bo'lganda edi, avlodlarim zimmasidan, ular nopoklik bilan ajralib turadi, degan aybni soqit qilgan bo'lur edim. Biroq, baxtga qarshi, bu yerda cho'chqalar bo'lmas ekan. Garchi bu to'rt oyoqlilar yexularga qaraganda ancha istarasi issiq bo'lsa-da, bari bir o'ta pokizaliligi bilan maqtana olmaydi. Bordi-yu, muhtaram zot, ularning kishi hazar qiladigan dara-

jada ovqatlanishlarini, tuproqqa yumalab, loy ustida uxlashlarini ko'rsa, ehtimol mening gaplarimga qo'shilardi.

Xo'jayinning xizmatkorlari ayrim yexularda payqagan yana bir xislatni tushunish ancha qiyin. Ba'zan yexular burchakka tiqilib olib xayol suradi, yerda yotadi, oh-voh chekadi va yoniga yaqinlashganlarni haydab soladi. Odatda yosh, sog'lom, semirgan yexular shunday qilishadi; ular og'izlariga ovqatu suv olishmaydi, hech qanaqa og'riq ham sezishmaydi. Ularga nima bo'lganini aslo tushunib bo'lmaydi. Ularni bunday darddan xalos etishning birdan-bir davosi og'ir mehnatdir, — mehnat ularni eski holatiga qaytaradi.

Men xo'jayinning bu gapiga hech narsa demadim. Vatandoshlarimga hurmat yuzasidan, yexularning bunday holga tushuvida mamlakatimizdagi boy va bekorchi odamlar ko'p yo'liqadigan xafaqonlik yoki boshqa dardning alomatlari uch berganligini tushuntirib o'tirishni lozim topmadim. Lekin bu dardni davolash usuli haqidagi xo'jayinim fikriga to'la qo'shildim.

SAKKIZINCHI BOB

MUALLIF YEXULARNING BA'ZI SIFATLARINI TA'RIFLAYDI. GUIGNGNMLLARNING BUYUK FAZILATLARI. YOSH AVLODNI TARBIYALASH. GUIGNGNMLLARNING GENERAL KENGASHI.

Albatta, men inson tabiatini xo'jayinimdan ko'ra durustroq tushunardim, shuning uchun ham u yexularga bergan tavsifni o'z-o'zimga va vatandoshlarimga qo'llashim uchun qiyin emasdi. Lekin men, mustaqil kuzatuvlar meni bundan ham maroqliroq xulosalarga olib keladi, degan umidda edim. Shu tufayli muhtaram zotdan qo'shni yexular yig'inga qatnashish uchun ruxsat berishini iltimos qildim. U bunga bajonudil rozi bo'ldi, chunki u bu hayvonlardan behad jirkanishim meni ular tomonidan o'tkaziladigan har qanday yomon ta'sirdan saqlashiga ishonchi komil edi. Muhtaram zot o'z xizmatkorlaridan biriga — eng baquvvat, shuhrati va fazilati bilan nom chiqargan to'riq xachirga meni kuzatib borishni buyurdi. Uning soqchiligisiz bunaqa ekskursiyaga yuragim dov bermas edi. Bu mamlakatga kelishim bilanoq bu jirkanch maxluqlar meni qanday kutib olishganini kitobxonlarga

allaqachon aytgan edim. Aytmoqchi, keyin ham bir necha bor ularning qo'liga tushishimga sal qoldi.

Bu hayvonlar meni o'zlariga o'xshash bir hayvon deb o'ylaganlariga to'liq asosim bor. Ular imkoni boricha menga yaqinlashishga, maymundek har bir xatti-harakatimga taqlid qilishga intilishardi. Lekin menga zo'r adovat va nafrat bilan qarashardi. Qalpoq va paypoqlarni kiyib olgan uy zag'chasi yovvoyi zag'chalar to'dasiga tasodifan qo'shilib qolganda ular uni qanday ta'qib qilishsa, yexular ham meni xuddi shunday ta'qib etishardi.

Yexu bolaligidanoq hayron qolarlik darajadagi epcilligi bilan ajralib turadi, lekin shunga qaramay bir kun uch yashar erkak yexuni tutib oldim. Uni erkalatib tinchlantirmoqchi bo'ldim, biroq bu shayton o'lgur jon-jahdi bilan baqirdi, meni tirnadi, tishladi; uni qo'yib yubordim, yaxshiyam shunday qilganim, chunki zum o'tmay shovqin ovozigina bir poda yexu yetib keldi. Ularning hammasi nihoyatda g'azabnok edi, ammo bolachaning sog'-salomatligini, to'riq xachir yonimda turganini ko'rib, menga yaqinlashishga jur'at etisha olmadi.

Fahmlashimcha, yexularni tarbiyalash va o'rgatish juda mushkul ish. Ularni faqat og'ir yuklarni ko'tarish yoki tortishgagina o'rgatish mumkin. Menimcha, buning asosiy sabablaridan biri ularning o'jarligi va shubhaliligidir. Chunki ularni idrokli va ayyor emas, deb bo'lmaydi. Lekin ular yovuz, qahri qattiq va qasoskor bo'lishadi. Ular juda baquvvat, qo'rs, lekin juda qo'rqqoq, ana shu xislat ularni bezbet, pastkash va berahm bo'lishga majbur qiladi.

Guigngnmlar yexulardan uy ishlarida foydalanishadi, ularni o'z uylaridan sal nariroqdagi og'ilxonalarda saqlashadi; boshqalarini dalaga haydab yuborishadi, ular yerlarni kovlab ildizlarni topishadi, turli o't-o'lanlarni yeyishadi, o'limtiklarni axtarishadi, ba'zan sassiq qo'zan va lyuximuxs (dala kalamushlari) ni tutishadi. Har bir yexu o'zi uchun birona tepalik yonidan in kovlaydi, o'sha joyda o'zi yolg'iz yashaydi. Urg'ochi yexularning ini kengroq bo'ladi, chunki u yerga uning o'zidan tashqari ikku-uch bolasi ham sig'ishi kerak.

Yexular suzishga usta, suv tagida ham uzoq vaqt bo'la oladi. Ular baliq tutishni judayam sevisadi, urg'ochilari tutilgan baliqlarni bolalariga keltirib berishadi.

Ushbu mamlakatda roppa-rosa uch yil yashaganim tufayli, ehtimol, kitobxon boshqa sayohatchilar kabi shu yerliklarning fe'l-atvorlari va urf-odatlarini haqida batafsil ma'lumot berishimga umidvor bo'lib turgandir.

Olijanob guigngnmlar tabiatan yaxshi fazilatlarga moyil va ular yomonlik nima ekanligini mutlaqo bilmaydilar. Ular hayotining asosiy qoidasi o'z xulq-la

rini aqlga bo'ysundirishdan iborat. Nima oqilona-yu, nima aqlga zid ekanligini aql va tuyg'u bilan his etishda ular hayron qolarlik darajadagi qobiliyatga ega. Shu boisidan ular, hech bir ikkilanmay, oqilona narsani e'tiborga olib, aqlga zid narsani rad etishadi. Shuning uchun ham uzundan-uzoq bahslar, omonsiz ayti-shib qolishlar yoki shubhali fikr-mulohazalar kabi nuqsonlar guigngnmlarga mutlaqo noma'lum narsalardir.

Do'stlikka sadoqat va marhamatlilik — guigngnmlardagi asosiy fazilat. Guigngnmlar faqat o'z yaqinlari va tanish-bilishlarigagina emas, balki, umuman, barcha hamyurtlariga ham xuddi shunday munosabatda bo'lishadi. Uzoq yurtlardan kelgan xorijiyarlarni ham eng yaqin qo'shnilaridek iliq kutib olishadi. U qayerga bormasin, o'zini o'z uyidagiday his etadi. Guigngnmlar odob va hurmat qilishga qat'iy amal qilishadi, lekin biz odob saqlash qoidasi deb atagan narsa bular uchun mutlaqo notanishdir. Ular toychoqchalarini erkalatishmaydi, biroq ularga g'amxo'rlik ko'rsatishadi, oqilona tarbiya qilish qoidalari talab etgan barcha sharoitlarni yaratib berishadi. Xo'jayinim o'z bolalariga ham, qo'shni bolalariga ham bir xilda mehribonlik ko'rsatishini payqadim. Guigngnmlar aql-zakovat va tabiat bizni o'zimizga monandlarni sevishga o'rgatadi, deb hisoblaydilar.

Ularning yoshlarni tarbiyalash sistemasi juda ajoyib, biz unga taqlid qilsak arziydi. Yosh guigngnmlar o'n sakkiz yoshga to'lmaguncha, ularga oz-ozdan suli beriladi, uni ham har kuni berilmaydi; sut ichish ularga ayrim hollardagina ruxsat etiladi. Yoz fasllarida, o'z ota-onalariga o'xshab, ikki soat ertalab va ikki soat kechqurun o'tlashadi. Xizmatkorlarga bir soatdan o'tlashga ruxsat etiladi. Ularga yerni uyga olib kelib beriladi, ular ana shu yerni ishdan bo'shagan vaqtlarida yeyishadi.

Mo'tadillik, mehnatsevarlik, jismoniy mashq va ozodalik har ikkala jinsdagi yoshlar uchun ham shart. Guigngnmlar yoshlardagi kuch-qudratni, tez chopishni va botirlikni o'stirib borishadi. Toychoqlarni tepaliklarning tik qiyaliklaridan va toshloq dalalardan chopishga, ular charchab ko'pikka botishganda esa anhor yoki daryoga sho'ng'ishga majbur qilishadi. Har bir okrugda to'rt yilda bir marta yoshlar musobaqalari o'tkaziladi. Bunda yoshlar chopish, sakrash va kuch hamda epchillikni talab etadigan boshqa mashqlar bo'yicha o'z mahorat va yutuqlarini namoyish qilishadi. G'oliblarga beriladigan mukofot ular sharafiga aytilgan tantanali qo'shiqlar. Ana shunaqa bayram kunlarida xizmatkorlar guigngnmlarni mehmon qilish uchun ustiga xashak, suli va sut ortilgan yexularni maydonga haydab kelishadi. Lekin yexularning badburush basharalari yig'ilganlar ko'nglini aynitmasligi uchun ularni darhol uzoqroqqa haydab yuborishadi.

Har to'rt yilda, bahorda kecha va kunduz baravarlashgan kunda, bu yerda butun millat vakillarining kengashi bo'lib o'tadi. Kengash xo'jayinimning uyidan yigirma milya naridagi tekislikda o'tkaziladi. U besh-olti kun davom etadi. Ushbu kengashda turli okruglardagi ahvol: ular yem-xashak, sulii va yexular bilan yetarli ta'minlangan-ta'minlanmaganligi muhokama qilinadi. Bordi-yu, okrugdan birortasida u yoki bu narsa yetarli bo'lmasa, kengash o'sha yerga zarur narsalarni boshqa okruglardan yetkazib beradi. Bu haqdagi qaror doimo bir ovozdan qabul qilinadi.

TO'QQIZINCHI BOB

GUIGNGNMLAR KENGASHIDAGI MUHIM MUZOKARALAR. GUIGNGNMLAR-
NING MASHG'ULOTI. ULARDAGI QURILISH. KO'MISH MAROSIMI. ULAR TI-
LIDAGI KAMCHILIKLAR.

Ana shunday katta yig'inlardan biri shu mamlakatda yashab turgan paytimda, u yerdan jo'nab ketishimga uch oy qolganda bo'lib o'tdi. Xo'jayinim bu kengashda okrugimiz vakili sifatida qatnashdi. Ana shu kengashda juda muhim bir masala muhokama qilindi. Bu umumiy yig'ilishlarda bir necha bor muhokama qilingan va guigngnmlar o'rtasida bahsga sabab bo'lgan yagona masala edi. Xo'jayinim uyga qaytib kelgach, u yerda bo'lib o'tgan gaplarni batafsil aytib berdi.

Gap yer yuzidan yexularni butunlay yo'qotib yuborish kerakmi-yo'qmi, ana shu haqda bo'libdi.

Yexularni yo'qotishni zarur, deb hisoblagan yig'ilish qatnashchilaridan biri o'z fikrini isbotlash uchun rad qilib bo'lmaydigan qator dalillarni keltiribdi. Uning ta'kidlashicha, yexular yer yuzidagi eng iflos, manfur, badbashara hayvongina bo'lib qolmasdan, balki o'ta o'jarligi, itoatsizligi, yovuz niyatligi va kekchiligi bilan ham ajralib turadi. Hammaga ma'lumki, degan u, ularni qattiq nazorat ostida tutish kerak. Bo'lmasa ular guigngnmlarga qarashli sigirlarning sutini emib qo'yishadi, ularning mushuklarini tutib yeyishadi, sulilarni payhon etishadi va boshqa talay bemaza qiliqlarni qilishadi.

U yig'indagilarga yexularning kelib chiqishi haqidagi qadimiy afsonani ham eslatib o'tgan. Ushbu afsonaga ko'ra, qadim zamonlarda yexular mamlakatda

mutlaqo noma'lum bo'lgan. Lekin ko'p yillar muqaddam tog'lardan birida ana shu hayvonlardan bir jufti paydo bo'lgan. Ularning qayoqdan kelib qolgani ni hech kim bilmaydi. Ular quyosh nurining ta'sirida chiriyotgan baqa to'niyu loydan paydo bo'lganmi yoki balchiq va dengiz ko'pigidan tug'ilganmi, hanuz-gacha noma'lum*. Ana shu juft ko'paya boshlagan, uning avlodlari ha demay shunaqayam ko'payib ketganki, mamlakatni to'ldirib, uning haromini chiqarib yuborgan. Bu ofatdan qutulish uchun guigngnmlar ularni ko'plab tuta boshlash-gan; ular bu maxluqlarning butun podasini qurshab olishga muvaffaq bo'lishgan. Kattalarini qirib tashlab, har bir guigngnm ikkitadan yexu bolasini olib ketgan, ularni og'ilxonalarga joylashtirib, og'ir yuklarni ko'tarish va tashishga o'rgatgan.

Ushbu afsonada, chamasi, anchagina haqiqatga yaqin gaplar bor.

Yexularga faqat guigngnmlarninggina emas, balki umuman boshqa hayvonlar nafrati ham g'oyat kuchli, shu sababli yexularning *ilg'niamshi* (mamlakatiing tub aholisi) bo'lishi amri mahol. Albatta, yexu bunday nafratga loyiq, biroq ular hamisha shu yerda istiqomat qilganlarida edi, ularga nisbatan nafrat bunchalik kuchayib ketmagan bo'lardi. Aksincha, ularni allaqachon qirib tashlashgan bo'lur edi.

Notiq so'zining oxirida, guigngnmlar yexuni ishga o'rgatish va eshaklarni mensimaslik bilan o'ta aqlsiz ish qilishgan, deb aytgan. Bu chiroyli, uncha talabchan bo'lmagan hayvonlar yexularga qaraganda ancha yuvosh, fe'l-atvori ham yaxshi. To'g'ri, ular chaqqonlikda yexulardan keyin turadi, lekin yuk tashishga kelganda ancha kuchli, chidamli. Hangrashlari yoqimsiz, ammo yexuning vahi-mali uvillashidan ko'ra durust.

Xo'jayinim ana shu notiqdan keyin so'zga chiqib, uning ma'lumotlarini to'la-tish lozim deb hisoblagan. U yig'inning hurmatli a'zosi bayon etgan afsonaning to'g'riligiga shubha bildirmagan, lekin mamlakatda paydo bo'lgan bir juft yexu bu yoqqa dengiz ortidan kelganligini tasdiqlagan.

Ehtimol, ular o'rtoqlari tomonidan tashlab ketilgandir, sohilga chiqishgach, tog'da yashirilib olishgandir. Ularning avlodlari esa tobora ko'payavergan.

Bora-bora ular yovvoyilashib, o'z ota-bobolari va o'zlari qayerdan kelgan bo'lsalar, o'sha mamlakatda istiqomat qiluvchilarga xos ozginagina aqldan ham mahrum bo'lishgan. Xo'jayinim o'z fikrini ma'qullash maqsadida bir qancha muddatdan buyon hovlisida ajoyib bir yexu (meni nazarda tutgan) yashayotgan-ligini aytgan. Yig'indagilarning aksariyati uning haqida eshitgan, ba'zilari esa uni ko'rgan ham bo'lishi kerak, degan. Keyin u meni qanday qilib topib olgan-ligini hikoya qilib bergan. U: mening butun tanam boshqa hayvonlarning terisi

va juni bilan qoplanganligini; men gapirish qobiliyatiga ega va guignnm tilini bekami-ko'st o'rganganligimni; men unga bu yerga qanday kelib qolganligimni aytib berganimni; meni yalang'och holda ham ko'rganini, men naq yexuning o'zi ekanligimni, ammo terim oppoqroq, junlarim kamroq, tirnoqlarim kaltaroqligini ma'lum qilgan.

U yig'in qatnashchilariga, mening o'z yurtimda va boshqa mamlakatlarda yexular hokimlik qiluvchi aqlli hayvon. ular guignnmlarni qullikda saqlaydi, deb uni ishontirishga uringanimni aytgan. U meni kuzatib, hamma xislatlarim yexumikiga o'xshashini, ammo, aqllilikda ulardan ancha ustun turishimni aniqlagan.

Demak, bu borada guignnmlardan qancha past bo'lsam, mahalliy yexulardan shuncha yuqori turaman.

Katta kengashda bo'lgan muzokaralar haqida xo'jayinim menga ana shu narsalarnigina ma'lum qilishni lozim topdi. Shaxsan menga aloqador bo'lgan ba'zi tafsilotlarni yashirgan bo'lsa kerak. Ehtimol, meni ranjitgisi kelmagandir. Har holda, bu kunni hayotimda bundan so'ng yuz bergan baxtsizliklarning boshlanishi, deb hisoblashimni kitobxon ha demay bilib oladi.

Guignnmlarda yozuv yo'q. Shuning uchun ularning butun bilimi afsonalarda saqlanadi. Tabiatan tinchliksevar, yaxshilik qilishga moyil. beqiyos aql bilan ish tutadigan hamda boshqa xalqlar bilan aloqa qilish imkoniga ega bo'lmagan bu xalqning hayotida buyuk voqealar kamdan-kam bo'ladi va ularning tarixi xotirada osongina saqlanib qoladi.

Guignnmlar hech qanday kasallikka chalinmasligini, shu vajdan do'xtirlarga ham ehtiyojlari yo'qligini oldin aytgan edim. Demak, ularda o't-o'lanlardan tayyorlangan ajoyib dorilar bor, tasodifan lat yeyilsa yoki yarador bo'linsa shu dorilar bilan davolanishadi.

Ular yil va oy hisoblarini quyosh va oying aylanishiga qarab chiqarishadi. Ular ana shu ikkita samoviy jismning harakati bilan yaxshi tanish, oy va quyosh tutilishini ham bekamuko'st bilishadi. Bu — ular astronomiyasining katta yutug'i.

Yana shunga qoyil qolish kerakki, poeziya sohasida ular boshqalarni ortda qoldirib ketishadi: taqqoslashlarining o'tkirligi, ta'riflashlardagi batafsillik va aniqlik chindan ham mislsiz darajada go'zal. She'rlar mavzusi odatda do'stlik va chopish hamda boshqa musobaqalar g'oliblarini maqtashdan iborat.

Ularning binolari qo'pol va oddiy, ammo ancha qulay, issiq va sovuqdan saqlanishga moslashtirilgan. Ular yurtida bitta daraxt o'sadi, qirq yildan keyin ildizi chirib, dastlabki shamoldayoq qulaydi. Guignnmlar daraxt tanasini o'tkirlan-

gan tosh (temir nimaligini ular bilishmaydi) yordamida uchli qilib yo'nishadi. Qoziqni oraligini o'n dyuymdan qoldirib yerga qoqishadi, keyin suli poxoli yoki novdalar yordamida chetan devor yasashadi. Tomlariga poxol yopishadi.

Biz qo'limizdan qanday foydalansak, guignnmlar ham old oyoqlarining tuyog'i va baqayidan shunday foydalanib, chuqur kovlashadi. Bu ishni bajarayotganda shunaqayam epchillik ko'rsatishadiki, dastlabki paytlarda bu men uchun aqlga sig'maydigan bir narsadek bo'lib tuyuldi. Men uyimizdagi oq baytal ignadan ip o'tkazganini ham ko'rdim (ignani unga sinab ko'rish uchun bergandim). Ular sigir sog'ishadi, suli yanchishadi va biz qo'lda bajaradigan hamma ishlarni bajarishadi. Ular qattiq chaqmoqtosh yordamida boshqa toshlarni yo'nib, pona, bolta, va bolg'alar yasashadi. Ana shu chaqmoqtoshlardan tayyorlangan qurollar bilan ular xashak o'rishadi, suli yanchishadi. Bu yerdagi dalalarda suli o't-o'lan singari o'sib yotadi. Yexular suli bog'larini daladan aravalarda olib kelishadi, xizmatkorlar esa alohida yopiq xonalarda sulini oyoqlari bilan yanchishadi. Don omborlarda saqlanadi. Ular loydan beso'naqay bo'lsa-da, idishlar yasashadi va oftobda quritishadi.

Guignnmlar odatda yetmish yoki yetmish besh yoshgacha umr ko'rishadi. O'lishlariga bir necha hafta qolganida darmonlari quriyotganini payqashadi, lekin hech qanaqa og'riqni sezishmaydi. Bunday paytda do'stlari ularni ko'rgani tez-tez kelib turishadi, chunki ular o'zining tashqariga chiqishi ancha qiyinlashib qoladi. O'lishiga o'n kun qolganda — buni guignnmlar juda aniq belgilashadi — ular yor-do'stlarinikiga vidolashish uchun tashrif buyurishadi. Buning uchun ularga yexu qo'shilgan qulaygina chanalar beriladi.

Shu yo'sinda yor-do'stlari bilan vidolashgan guignnm uyiga qaytib keladi va to'lguniga qadar hech qayoqqa chiqmaydi. Guignnmlarni iloji boricha xilvat hamda qulay joylarga ko'mishadi. Marhumning do'stlari va yaqin qarindoshlari bu kuni xursand ham bo'lishmaydi, g'am ham chekishmaydi. Hatto o'layotgan guignm ham, go'yo mehmondorchilikdan uyiga qaytib ketayotganday, bu dunyoni tark etayotgani uchun zarracha bo'lsin afsuslanmaydi. Bir kuni xo'jayinim do'stini bola-chaqalari bilan muhim ish yuzasidan uyiga taklif qilgani esimda. Belgilangan kuni kechqurun do'stining xotini faqat ikkita bolasi bilan kirib keldi. U eng avvalo erining kelolmaganligi uchun uzr so'radi, uning gapiga qaraganda, eri ertalab *sxnunx*. Bu so'z mahalliy tilda ancha ma'nodor jaranglaydi, lekin tarjimaga chap beradi; u quyidagicha ma'noni bildiradi: «o'z momosi yoniga qaytmoq». Keyin u o'zini ham afv etishni so'rab, ertalab

eri o'lib qolganligini va uning jasadini biror qulayroq joyga qo'yish borasida xizmatkorlar bilan uzoq kengashganini aytdi. Mundoq qarab, men uning boshqalardek xushchaqchaq kayfiyatda ekanligini sezdim. Uch oydan keyin, go'yo qolgan umrini uzoq mamlakatda o'tkazishga ahd qilib, o'sha yoqqa otlangan-day, o'zi ham vafot etdi.

Guigngnmlar tilida yexularning badbashaaligi va nuqsonini ko'rsatuvchi so'zdan boshqa bironta yomon va ko'ngilsiz narsani ifodalaydigan so'z yo'qligini eslatish joizmi-yo'qmi — bilmayman. Shu sababli ular gap orasida biror yoqimsiz so'zni aytmoqchi bo'lishsa, ana shu so'z yoniga albatta yexu so'zini qo'shib aytishadi. Masalan, xizmatkorning parishonxotirligi yoki yalqovligi, bolaning nojo'ya harakati, oyoqni kesib olgan tosh, havoning aynishi va shunga o'xshagan narsalarni yexu epitetini qo'shish bilan ifodalashadi. Chunonchi: *gxnm yexu*, *gvnagolm yexu*, *inxmndvixlma yexu*, yomon qurilgan uyni esa *ingolmgnmrogli v yexu* deb atashadi.

Bu ajoyib xalqning fe'l-atvorlari va fazilatleri haqida bajonudil to'liq ma'lumotlar berardim-u, ammo yaqin kelajakda shunga bag'ishlangan bir kitob nashr qilish niyatim bor, kitobxonga ham o'shani havola qilaman.

Endi boshimga tushgan kulfatlarni bayon qilishga o'taman.

O'NINCHI BOB

MUALLIFNING RO'ZG'ORI VA UNING GUIGNGNMLAR ORASIDAGI BAXTIYOR HAYOTI. U YETUK FAZILAT EGASI BO'LADI. XO'JAYIN MUALLIFGA U MAMLAKATNI TARK ETISHI LOZIMLIGINI MA'LUM QILADI. BU XABARNI ESHITIB, MUALLIFNING UMIDSIZLIKKA TUSHISHI, MUALLIF XIZMATKOR YORDAMIDA O'ZIGA QAYIQ YASAYDI. U OMADSIZLIK DENGIZIGA TUSHIB, SAFARGA OTLANADI.

Men o'z didimga moslab kichkinagina ro'zg'or qurib oldim. Xo'jayin men uchun o'z uyidan yetti yard naridan shu yer uslubida qurilgan uy ajratib berishni buyurdi. Xonaning pol va devorlarini loy bilan suvadim, o'zim to'qigan qamish bo'ya bilan yopdim. Yovvoyi kanop topib, uning tolalaridan ip yigirdim; ana shu iplardan ko'rpm

uchun g'ilof to'qib oldim. Yexularning soch tolasidan yasagan tuzoqlarimga ilingan qushlar patini ko'rpamga paxta o'rnida soldim. Qushlarning o'zi esa menga yaxshigina qovurdoq bo'ldi. Ishning eng og'ir qismini bajargan to'riq xachir yordamida o'zimga ikkita kursi yasadim. Kiyimlarim titilib ketgach, quyon va uning kattaligidagi nnuxnox deb ataluvchi boshqa chiroyli hayvonlar terisidan yangisini tikib oldim. Ana shu terilardan pishiq-puxta paypoqlar ham tikdim. Kavushimga yog'och tagchamlar qoqdim, kavushim yirtilgach esa, yangisini tikib oldim.

Ko'pincha daraxt kovaklaridan asal topardim-da, uni suvga aralashtirib, su-li nonim bilan yerdim. «Tabiat oz narsaga qanoat qiladi» va «muhtojlik har narsaga o'rgatadi» degan ikki hikmatli gapning ma'nosini hech kim menchalik bilolmadi.

Men salomatligim yaxshiligidan va ko'nglim tinchligidan huzur qilib yura berdim. Men xoinlik yoki do'stning bevafoqligidan hamda pinhoni yoki oshkora dushmanning ozor yetkazishidan qo'rqishimning hech hojati yo'q edi. Bu dunyoning kattalari va arzandalari marhamatiga loyiq bo'lish uchun pora berish yoki xushomadgo'ylik qilishga ham to'g'ri kelmadi. O'zimni yolg'on-yashiq va zo'ravonlikdan himoya ham qilmadim, Bu yerda tanamga ziyon yetkazadigan do'xtirlar ham, meni xonavayron qiladigan yuristlar ham, to'lov uchun menga ayb qo'yadigan chaqimchilar ham yo'q edi. Bu yerda birovni mazaxlovchilar, tuhmatchilar, cho'ntak kesarlar, qulfbuzar o'g'rilar, saroy xodimlari, vaysaqilar, bahslashuvchilar, qotillar, tovlamachilar yo'q edi. Bu yerda siyosiy partiya va to'garaklarning liderlari va a'zolari ham, turma, bolta, dor, darra va odamlarni tumonat oldida sharmandai sharmisor qilish ham yo'q edi. Bu yerda aldamchi savdogarlar va firibgar hunarmandlar yo'q edi. Bu yerda dimog'dorlik va shuhratparastlik yo'q edi. Bu yerda oliftalar, urishqoqlar, ichkilikka mukkasidan ketganlar va me'daga tegadigan, urish qo'zg'aydigan, shallaqi, bema'ni oshna-og'aynilar yo'q edi. Bu yerda o'zining qabihligi bilan balchiqdan oppoq bo'lib chiqadigan ablahlar ham, o'zining yaxshi fazilatlarini uchun balchiqqa uloqtirilgan olijanob kishilar ham, amaldor, sudya, g'ijjakchi va raqs o'qituvchilari ham yo'q edi.

Men guignnmlar orasida yurishdek sharafga muyassar bo'ldim. Xo'jayinimnikiga mehmonlar kelishganda, muhtaram zot iltifot bilan meni o'z yonlarida o'tirishga va suhbatlarini tinglashga taklif qilardi. O'zi ham, mehmonlar ham menga savollar berishar, javoblarimni esa odob saqlab eshi-

tishardi. Mehmonga borayotib, xo'jayin meni albatta o'zi bilan birga olib ketardi. Men hech qachon ularning suhbatiga aralashmasdim, faqat berilgan savollarga javob qaytarardim, xolos. Biroq ana shu suhbatlarda tinglovchi bo'lib o'tirishning o'ziyoq menga katta huzur bag'ishlardi. Chunki bu suhbatlarda ish haqida gapirilardi, fikrlar lo'nda, asosli so'zlar orqali ifodalanardi, suhbatdoshlar bir-birlarining gapini bo'lishmasdi, zerikishmasdi, qiziqqonlik qilishmasdi, shiddatli bahslashuvlar bo'lmasdi. Guingimlar jamoat orasidagi suhbat qisqa-qisqa pauzalar bilan bo'lishini ma'qul ko'rishadi. Menimcha, bu juda to'g'ri, chunki ana shu jim qolgan lahzalarda suhbatga jon kirgizuvchi yangi fikrlar tug'iladi. Ular suhbatining mavzui do'stlik, muruvvat qilish, tartib va obodonchilik, ba'zida tabiatdagi qandaydir ajoyib bir voqea yoki qadimiy rivoyat bo'lardi. Ular ko'pincha yaxshilikning mohiyati, zakovat qonunlari haqida gapirishar yoki yaqin orada bo'ladigan katta yig'inda qabul qilinadigan qarorni muhokama qilishardi. Ko'pincha poeziya suhbat mavzuga aylanib ketardi.

Mening ishtirokim ko'pincha suhbatga fayz kiritardi. Xo'jayinim do'stlariga mening hayotim va yurtimni ta'riflab berardi. Ular bu gaplarni eshitishib, inson zoti haqida unchalik yaxshi fikrlarni aytishmasdi. Shuning uchun bu yerda ularning tanbehlarini yozib o'tirmayman. Shuni ajablanib ma'lum qilamanki, xo'jayinim barcha mamlakatlar yexularining tabiatini mendan ko'ra yaxshiroq bilib olgandi. U bizning nuqsonlarimiz va telbaliklarimizni bir boshdan sanab, men uning oldida hech qachon tilga olmagan qusurlarimizni ko'rsatardi. U agar bu yerdagi yexularda ham bir chimdim aql bo'lsa ular qanday noma'qulchiliklar qilishini mulohaza qilib, ana shu men aytmagan nuqsonlarni bilib olardi. U bunday hayvonlarni bekordan-bekorga; nafratga sazovor, jirkanch maxluqlar, — deb aytmasdi.

Men hech qanday mublag'asiz aytishim mumkin: o'zim uchun foydali narsalarning hammasini xo'jayinimning hikmatli gap-so'zlaridan, uning do'stlari bilan qilgan suhbatlaridan bilib oldim. Agar menga «tanla» deyishganda, hech bir ikkilanmay, Yevropaning ulug' va dono parlamentining obro'li notig'i bo'lishdan ko'ra, mana shu donishmandlarning kamtar tinglovchisi bo'lishni afzal deb bilardim.

Bu mamlakatda istiqomat qiluvchilarning kuchiga, go'zalligiga, tez chopishiga hayron qolardim. Ana shu jonzotlarda o'zim kuzatgan turli yaxshi fazilatlarining mujassamlanganligini ko'rib, ularga chuqur hurmatda bo'ldim. To'g'ri,

dastavval, yexular va boshqa hayvonlar singari ularga qoʻrqa-pisa munosabatda boʻlmadim, lekin bora-bora hurmat tuygʻusi meni chulgʻab oldi.

Guigngnmlar bilan hamisha non-qatiq boʻlishim hamda ularga qoyil qolishim tufayli ularning yurishi va xatti-harakatlariga taqlid qila boshladim. Hozir ham doʻstlarim, hech bir tortinmay, *otga oʻxshab chopishimni* yuzimga solishadi. Men bu gaplarni maqtov deb bilaman. Shuningdek, gaplashayotgan paytimda hanuzgacha guigngnmlarning gap ohangi va odatiga taqlid qilishimni ham inkor etmayman, buning uchun doʻstlarim masxaralab kulsalar ham mayli, oʻkinmayman.

Xullas, hayotim baxtiyor, osoyishta oʻtayotgan edi, birdan-bir niyatim hayotimning oxirgi damlarigacha shu ajoyib mamlakatda qolish edi. Toʻsatdan, bir kun ertalab, xoʻjayin meni odatdagidan ancha ertaroq chaqirib qoldi. Uning yuziga nazar tashlab, xijolat chekayotganini va gapni nimadan boshlashni bilmayotganini payqadim. Bir oz sukut saqlagach, nihoyat gap boshlashga jurʼat etdi va yexular haqidagi masala muhokama qilingan soʻnggi kengashda kengash aʼzolari, u oʻz uyida yexu saqlab, unga guigngnm kabi munosabatda boʻlayotganligi oʻz zotini tahqirlashdan boshqa narsa emas, deyishganini aytdi. Uning men bilan tez-tez suhbatlashishi, men bilan birga boʻlganidan mamnun boʻlishi ham ularga maʼlum ekan. Bunday qilish aql-zakovatga, tabiatga zid emish. Shu sababli kengash unga menga yexu singari munosabatda boʻlishni yoki qayerdan kelgan boʻlsam oʻsha yoqqa suzib ketishim uchun buyruq berishni maslahat beribdi. Biroq men koʻrgan va men bilan suhbatda boʻlgan guigngnmlar birinchi taklifni qatʼiyan rad etishibdi. Ular anovi hayvonlardagi kabi tugʻma axloqsizligim hamda ozmi-koʻpmi aqldan xabardorligim tufayli, yexularni mamlakatning oʻrmonlik yoki togʻlik joyiga ergashtirib ketishim va kechasi guigngnmlarning uy hayvonlariga hujum qilish uchun ularni podapoda holda olib kelishimdan hadiksirashibdi.

Xoʻjayinim yon-atrofdagi guigngnmlar kengashda oʻziga berilgan maslahatni bajarishni undan har kun talab qilishayotganini ham qistirib oʻtdi. Lekin u boshqa bir mamlakatga suzib yetib borishimga aqli bovar qilmay, dengizda yurish uchun oʻzim ilgari taʼriflaganimga oʻxshash arava yasab olishimni istadi. Bu ishda oʻzining ham, qoʻshnilarining ham xizmatkorlari menga yordam berishar ekan. Xoʻjayin gapining oxirida, meni umrbod oʻziga xizmatkor qilib olib qolishga tayyor ekanligini, chunki guigngnmlarga taqlid qilib yurib, barcha yexularga xos boʻlgan ahmoqona odat va moyilliklardan tamomila xalos boʻlishimga aqli yetayotganligini aytdi.

Muhtaram zotning gaplari meni zo'r umidsizlik girdobiga tashladi. Nogahoniy hayajon shu qadar kuchli ediki, hushimdan ketib, xo'jayinning oyoqlari ostiga yiqildim. Guigngnmlar bunaqa o'zlik nimaligini bilmaganliklaridan, xo'jayin meni o'lib qoldi, deb o'ylabdi. Buni hushimga kelganimdan keyin e'tirof etdi. Men behol ovoz bilan, bu gaplarni eshitgandan ko'ra o'lim ming marta afzal edi, dedim. Albatta, men kengash bunaqa maslahat bergani uchun uni qoralamayman, nazarimda bundan ham qattiqroq qarorga kelishi mumkin edi. Yaqinroqdagi qit'a yoki orolchaga kam deganda yuz liga masofa bor. Men yo'lga chiqadigan kichkinagina kemani yasash uchun zarur materiallar bu mamlakatda yo'q. Shu sababli, bu tashabbusni behuda va o'zimni halokatga mahkum bir kishi deb hisoblayman. Demak, o'lim men uchun birdan-bir orzu bo'lib qoladi. Chindan ham, bordiyu o'z hayotimni saqlab qoldim deylik, unda butun umrimni yexular orasida o'tkazaman hamda eski nuqsonlarimga yana giriftor bo'laman, degan fikr bilan qanday murosa qilaman. Men kengash qarori oldida sajda qilaman, chunki buning uchun keskin va jiddiy asoslar borligiga ishonchim komil. Keyin qayiq qurishda yordam berish haqidagi taklifi uchun xo'jayinga minnatdorchilik izhor qildim va: Angliyaga qaytib borsam, shuhra-ti unutilmas guigngnmlarni maqtab, ulardagi fazilatlar inson zoti taqlid qilsa arziydigan namunalar ekanligini ko'rsatib, o'z vatandoshlarimga katta naf keltirish umididaman, — dedim.

Muhtaram zot bu gaplarimga iltifot bilan javob qaytardi va qayiq yasash uchun ikki oy muhlat berdi. U to'riq xachirga ishda menga yordam berishni va mening barcha topshiriqlarimni bajarishni buyurdi. Men to'riq xachirning o'ta zahmatkashligini, meni yaxshi ko'rishini bilardim.

U bilan eng avvalo matroslar meni tashlab ketgan sohil tomon bordim. Tepalik ustiga chiqib, dengizni ko'zdan kechira boshladim. Nazarimda, shimoli-sharq tomonda uncha katta bo'lmagan orol ko'ringanday bo'ldi. Durbinimdan qarab, uni aniq ko'rdim, Mening taxminimga ko'ra, orol bu yerdan besh liga narida edi. Lekin to'riq xachirga orol ko'kimga bulut bo'lib ko'rindi, xolos. U boshqa mamlakatlar ham borligi haqida hech qanday tushunchaga ega emasdi, dengizda uzoqdagi narsalarni biz — bu ofatlarga ko'nikib qolgan odamlar singari ajrata olmasdi.

Orolni kashf etib, bundan to'liq qoniqish hosil qildim, unga quvg'indalik paytimdagi dastlabki boshpanam, deb qaradim. Kelgusida esa o'zimni butunlay taqdir qo'lga topshirib qo'ymoqchiydim.

Uyga qaytib kelgach, to'riq xachir bilan maslahatlashib, yaqinroqdagi chakalakzorga jo'nadim. U yerda men pichoq bilan, u esa yog'och sopga mohirona o'rnatilgan chaqmoqtosh bilan oddiy tayoq yog'onligida ko'pgina dub shoxlarini kesdik, ularning orasida yog'onlari ham bor edi. Men qilgan ishlarimning tafsilotini aytib kitobxonni toliqtirmayman. Shuning uchun quyidagilarni aytib qo'yaman. Ishning eng og'irini bajargan to'riq xachir yordami bilan olti hafta ichida hind qayig'iga o'xshash, biroq hajmi kattaroq uzun qayiq yasadim, uni o'zim tayyorlagan kanop ip yordamida bir-biriga mahkam ulab tikilgan terilar bilan qoplادim. Xuddi shu terilardan yelkanlar ham yasadim, lekin yelkan uchun yosh hayvonlar terisini tanlardim, chunki qarilarining terisi qalin va qo'pol edi. Shuningdek, to'rtta eshkak yasadim, quyon va uy parrandalari go'shtidan ancha-muncha g'amlab, bir idishga sut, ikkinchisiga suv to'ldirib oldim.

O'z qayig'imni xo'jayinimning uyi yaqinidagi anhorda sinab ko'rdim, te-shik-kandiklarini tuzatib, moy surtdim. Keyin qayiqni aravaga yukladim; uni to'riq xachir hamda yana bir xizmatkor kuzatuvida yexularga ko'tartirib, juda ehtiyotkorlik bilan dengiz sohiliga olib borildi.

Hamma narsa tayyor bo'lib, jo'naydigan kunim ham yetib kelgach, xo'jayinim, uning xotini va bola-chaqalari bilan xayrlashdim. Ko'zim jiqqa yoshga to'lib, ko'nglim vayron bo'lib ketdi. Lekin muhtaram zot qiziqqanidanmi yoki menga rahmi kelganidanmi (agar shunday deyishga haqli bo'lsam), qayig'imda dengizda qanday suzishimni ko'rish xohishini bildirdi, qo'shnilaridan ba'zilarini sohilgacha o'zini kuzatib borishga taklif etdi. Suv ko'payishini bir soatcha kutib qoldim. Ko'p o'tmay yengilgina hamroh shamol ham esdi. Buni payqadim-u, o'sha zahotiyog' yo'lga o'tlanish uchun xo'jayin bilan ikkinchi marta xayrlashishga oshiqdim. Men uning tuyoqlaridan o'pish uchun tiz cho'kmoqchi bo'ldim, biroq u menga muruvvat ko'rsatib, tuyog'ini asta ko'tarib, labimga yaqinlashtirdi. Ana shu tafsilotni eslatganim uchun baloga qolganim ma'lum. Menga tuhmat qiluvchilarga mana shunday ulug' zotning menday arzimas odam uchun yuqoridagiday muruvvat ko'rsatishi aqlga sig'maydigan narsaday bo'lib tuyulibdi. (Ba'zan sayohatchilar o'zlariga ko'rsatilgan odatdan tashqari muruvvatlar bilan maqtanishlari ham menga ma'lum.) Lekin ana shu tanqidchilar guigngnmlarning olijanoblighi va odoblilighi bilan yaxshiroq tanish bo'lganlarida edi, o'z fikrlaridan darhol qaytgan bo'lur edilar.

Men muhtaram zotni kuzatib kelgan boshqa guigngnmlar bilan ham xayrlashib, qayig'imga o'tirdim va sohildan uzoqlashdim.

O'N BIRINCHI BOB

XAVFLI SAYOHAT. MUALLIF ISTIQOMAT QILISH UCHUN YANGI GOLLANDIYAGA KELADI. O'SHA YERLIKLARDAN BIRI UNI YOYDAN O'Q OTIB YARALAYDI. UNI USHLAB OLISHADI VA MAJBURAN PORTUGALIYA KEMASIGA O'TKAZISHADI. KAPITANNING U BILAN BO'LGAN SHIRIN MUOMALASI. MUALLIF ANGLIYAGA QAYTADI.

Men bu umidsiz sayohatni 1714 yil 15 fevral kuni ertalab soat 9 lar-da boshladim. Hamroh shamol esib turardi. Buning ustiga men eshkak eshib bordim. Biroq, eshkak eshish ha demay toliqtirib qo'yadi, shamol esa o'zgarishi mumkin deb o'ylab, kichkina yelkanlarimni ko'tarishga jur'at etdim. Shunday qilib, suv ko'tarilishining qaytishi yordamida, o'z taxminim bo'yicha, soatiga bir yarim liga tezlikda suzib keta boshladim. Men to ko'zdan g'oyib bo'lgunimga qadar xo'jayinim va uning do'stlari sohilni tark etishmadi. Qulog'imga goh-gohida to'riq xachirning (u meni yaxshi ko'radi) «*gnuy illa nixa meydjax yexu*» (o'zingni yaxshilab ehtiyot qil, yexu) degan ovozi chalinib turdi.

Men sohildaligimdayoq durbin orqali ko'rgan orolimga qarab boraverdim. O'sha yerda o'z mehnatim bilan yashash uchun zarur narsalarni toparman, degan umidda edim. Yexular orasiga qaytish va ularning hukmronligi ostida bo'lishni o'ylasam dahshatga tushardim. Zero tanholikda yashasamgina o'z avlodlarimning nuqsonlari balchig'iga yana botish xavfidan qutulib, guigngnmlarning mislsiz fazilatleri haqida o'y surib yura olardim.

Kitobxon matroslarning menga qarshi fitna uyushtirganini, kapitan kayutasiga qamab qo'yishganini xotirlasa kerak. Bu qamab qo'yish, ilgari eslatib o'tganimday, bir necha haftaga cho'zilgan, natijada kemaning qaysi yo'nalish bilan harakat qilayotganidan xabarsiz qolgan edim.

Meni qirg'oqqa tashlab ketgan matroslar rostdanmi yo yolg'ondanmi ont ichib, dunyoning qaysi joyida ekanligimizni bilmasliklarini aytishgan va bunga meni ishontirishgan edi. Lekin men Yaxshi Niyat burunidan o'n daraja janubroqda yoki janubiy kenglikning 45° da harakat qilayotirmiz, deb hisoblardim. Kapitanning Madagaskar oroliga borish haqidagi niyati va biz ana shu orolning janubi-g'arb tomonida ekanligimiz to'g'risida matroslarning gap-so'zlarini eshitgach, ana shunday xulosaga

kelgandim. Garchi bu taxmin bo'lsa-da, har holda sharqqa qarab yuraverdim. Yangi Gollandiyaning janubi-g'arbiy sohillariga yetib olishni umid qildim. Ana shu sohillar yaqinida o'zim uchun qulay bo'lgan birorta orol topib olishni o'ylab qo'ydim.

Doimo g'arbiy shamol esib turdi, kechqurun soat otilarda, o'z hisobim bo'yicha, sharq tomonga kamida o'n sakkiz liga yurganimdan keyin, yarim mi-ly narida kichkinagina bir orolchani ko'rdim.

U dengiz suvi yuvib turgan yap-yalang'och qoya bo'lib, kichkinagina buxtasi ham bor edi. U yerga qayig'imni qo'yib, qoya ustiga tarmashib chiqdim, sharq tomonda janubdan shimolga qarab cho'zilib ketgan yerni yaqqol ko'rdim. Tunni qayiqda o'tkazdim, ertalab esa yana yo'lga tushdim, soat yettilarda Yangi Gollan-diyaning²³ janubi-sharqiy sohillariga yetib bordim.

Men tushgan sohil mutlaqo yap-yaydoq, inson oyog'i yetmagan joy ekan. Yonim-da qurolim bo'lmaganidan, qit'aning ichkarisiga kirishga yuragim dov bermadi. So-hilda bir necha chig'anoqlarni topib, ularni xomligicha yeb oldim. Yerli xalq e'ti-borini o'zimga tortishdan qo'rqib olov yoqmadim. G'amlab olgan ozgina ovqatim-ni ehtiyotlash maqsadida uch kungacha baliq va chig'anoqlarni yeb kun o'tkazdim. Baxtinga, ichimlik suv oqayotgan ariqcha topib oldim, suv kuchimga kuch qo'shdi.

To'rtinchi kuni tavakkal qilib qit'aning ichkarirog'iga kirdim. To'satdan besh yuz yard narida, uncha baland bo'lmagan tepalikda o'sha yerlik odamlardan bir to'dasini ko'rib qoldim. Ularning hammasi — erkaklar, ayollar va bolalar — qip-yalang'och bo'lib, gulxan yonida o'tirishardi. Ulardan biri meni ko'rib qoldi va yon-veridagilarga qo'li bilan ko'rsatdi. Besh erkak o'rinlaridan sapchib turishdi, ayollar va bolalarni gulxan yonida qoldirib, o'zlari men tomon kela boshlashdi. Men jon holatda sohilga qarab qochdim, o'zimni qayiqqa tashlab, uni dengiz ichiga hayday boshladim. Yovvoyilar qochayotganimni ko'rib orqamdan quvishga tushishdi, ulardan hali yiroqlab ketishga ulgurmagan ham edim-ki, o'q uzishdi — yoy o'qi chap tizzamga kelib sanchildi. Men o'qqa zahar surtilganimikin deb qo'rqib ket-dim. O'q yetmaydigan masofaga yetib olganimdan keyingina (o'sha kuni shamol esmayotgan edi) tizzamdagi yarani so'rib tashladim, uni bir amallab bog'lab oldim.

Nima qilishimni bilmay qoldim. Avvalgi kelib tushgan joyimga qaytishga yura-gim betlamasdi. Shu sababli shimolga qarab yo'l oldim, ustiga-ustak eshkak eshib borishga majbur bo'ldim. To'xtash uchun qulayroq joy axtarib, atrofga alanglab bo-rar ekanman, shimoli-sharq tomondan kelayotgan yelkanni sezib qoldim, u daqiq

23 Yangi Gollandiya — Avstraliya.

sayin aniqroq ko'rinardi. Men kemani kutaymi-yo'qmi deb, bir necha muddat ikkilanib qoldim. Lekin hamma mulohazalardan ham o'z toifamdagi yexularga bo'lgan nafratim ustunlik qildi. Qayig'imni burib, janubga haydadim, ertalab o'zim jo'nab ketgan buxtaga kirib oldim. Yevropalik yexular orasida yashagandan ko'ra, yovvoyi odamlar qo'lida o'lib ketishni afzal ko'rdim. Qayig'imni sohilga qo'yib, o'zim ichimlik suv oqayotgan ariqcha bo'yidagi tosh orqasiga yashirindim.

Kema buxtadan yarim liga masofa narida to'xtadi va ichimlik suv uchun sohilga bochka yuklangan qayiq jo'natdi. Chamasi, kema dagilar bu yerni yaxshi bilishardi. Men toshlar orasida yotganim uchun qayiqni sohilga yaqinlashib kelgandagina ko'rdim, boshqa pana joy qidirish uchun vaqt o'tgan edi. Matroslar sohilga chiqishlari bilanoq qayig'imni ko'rib qolishdi. Uni diqqat bilan ko'zdan kechirishdi va qayiq egasi shu yaqin o'rtada ekanligini darhol fahmlashdi. Ulardan to'rttasi har bir teshik-kandikni, butalar tagini qarashga tushib ketishdi va nihoyat, meni yashirib yotgan joyimdan topib olishdi. Ular birmuncha vaqt egnimdagi g'alati va qo'pol kiyim-kechaklarimga — quyvon terisidan tikilgan kafftan, tagcharmi yog'och kavushim va mo'yna paypoqlarimga hayratlanib qarab turishdi: Ayni paytda ular kiyim-kechaklarimdan mening bu yerlik emasligimni ham bilib olishdi, negaki bu yerda yashovchilar qip-yalang'och yurishadi. Matroslardan biri menga portugal tilida murojaat qilib, o'rnimdan turishimni buyurdi va kimligimni so'radi. Men uning nima deyayotganini juda yaxshi tushundim (chunki portugal tilini bilardim-da) va o'rnimdan turib, men guigngnmlar mamlakatidan qutilgan bir bechora yexuman, meni qo'yib yuborishlaringizni o'tinib so'rayman, dedim. Matroslar mening portugalcha gapirayotganimni eshitib, battar hayron bo'lishdi. Yuz tuzilishimdan yevropalik ekanligimni payqashdi. Biroq «exu», «guigngnm» so'zlari orqali nima demoqchi ekanligimni anglay olishmadi. Ayni paytda, otning kishnashiga o'xshatib gapirishim ularning kulgisini qistatdi. Men dahshat va nafratdan titrab-qaqshab, asta-sekin qayig'im tomonga tisarilar ekanman, ulardan ketishga yana ruxsat so'ray boshladim. Lekin ular qayerlik ekanimni, bu yerga qayoqdan kelib qolganimni bilish uchun meni mahkam ushlab olishdi. Bunga javoban ularga shunday dedim: men asli angliyalikman, sizlarning mamlakatingiz bilan Angliya tinch-totuv yashayotgan bir paytda — bundan besh yil ilgari sayohatga chiqib ketganman. Shu boisdan menga dushmanlik ko'zi bilan qaramassizlar degan umiddaman, men ham sizlarga yomonlikni ravo ko'rmayman. Men bir bechora yexuman, umrimning qolgan qismini tinchgina o'tkazadigan kimsasiz bir joy axtarayapman.

Ular qizg'in gapga tushib ketishdi, nazarimda, umrimda bundan ham ko'ra jirkanchroq narsani na eshitgan, na ko'rgan edim. Agar Angliyada it yoki sigir, yo bo'lmasa guingnmlar mamlakatida yehu gapirib yuborgan taqdirda ham men-ga bunchalik g'alati tuyulmasdi. Muhtaram portugallar, garchi meni yaxshi tushu-nishsa ham, egnimdagi kiyimlarim, g'alati ohangda gapirishimdan lol qolgan edi-lar. Ular menga zo'r iltifot ko'rsatishdi va ehtimol, kapitanlari meni Lissabonga olib ketishi, u yerdan o'z vatanimga qaytib borishim mumkinligini aytishdi.

Ikki matros kemaga qaytib borib, bu yerda ko'rganlarini kapitanga aytmochi va uning farmoyishini olmoqchi bo'ldi. Meni esa, agar qochib ketmaslikka tantanali va'da bermasam kuch bilan ushlab turishlarini aytib, ogohlantirishdi. Men ularning taklifiga rozi bo'lishni ma'qul ko'rdim. Ular sarguzashtlarimni ju-da-juda eshitgilari kelardi, biroq men sipolikni qo'ldan bermadim. Shunda ular, baxtsizliklar uni aqldan ozdirgan bo'lsa kerak, degan fikrga kelishdi.

Oradan ikki soat o'tgach, ichimlik suv to'la bochkalarni olib ketgan qayiq qaytib keldi, kapitan meni kemaga olib borishni buyuribdi. Men tiz cho'kib, meni o'z holimga qo'yishlarini so'rab yolvora boshladim. Biroq yolvorishlarim behuda ketdi: matroslar qo'l-oyog'imni bog'lab, qayiqqa tashlashdi, keyin qayiqda kema-ga olib borib, meni kapitanning kayutasiga olib kirishdi.

Kapitanning ismi Pedro de Mendes ekan. U juda xushmuomala, olijanob odam ekan. U mendan o'zim haqimda ba'zi bir ma'lumotlar berishimni iltimos qildi va kedadagilar uning o'ziga qanday munosabatda bo'lishsa, menga ham shunday munosabatda bo'lishlariga kafillik berdi hamda menga ancha shirin gaplarni aytdi, men esa bunaqa shirin kalom, xushmuomala yexuni uchratganimdan hayratda edim. Lekin men indamas, tundligimcha qolaverdim, kapitan va uning matrosleri-dan taralayotgan hiddan hushimdan ketayozdim. Nihoyat, qayig'imdagi ovqatlar-dan yegulik biror narsa berishlarini iltimos qildim. Biroq kapitan menga pishiril-gan jo'ja va a'lo nav vino berishni, eng pokiza kayutada ko'rpa-yostiq hozirlashni buyurdi. Men yechingim kelmadi, o'ringa kiyimlarim bilan yotdim. Oradan yarim soat o'tgach, taxminimga ko'ra, ekipaj ovqatlanayotgan paytda hech kimga sez-dirmay kayutamdan chiqdim, kema borti yoniga borgach, mana shu yexular orasi-da qolmaslik uchun o'zimni dengizga tashlab, qutulib ketmoqchi bo'ldim. Ammo matroslardan biri menga to'g'anoq bo'ldi, suiqasd qilmoqchi ekanligimni kapitan-ga xabar qildi, u esa meni o'z kayutamga qamab qo'yishni buyurdi.

Ovqatdan keyin don Pedro huzurimga kirdi, bunchalik umidsizlikka tushib qil-gan qilmishim boisini bilmoqchi bo'ldi. O'zining birdan bir istagi — menga qo'lidan

kelganicha yaxshilik qilish ekanligini aytdi. U shunaqayam ta'sirchan, ishonarli qilib gapirdiki, asta-sekin u bilan, ozgina aqldan xabari bor hayvon bilan gaplashganday, muomala qilishga rozi bo'ldim. Men o'z sayohatim, kemamdagi ekipajning qo'zg'olon ko'tarishi, qo'zg'olonchilar meni tashlab ketgan mamlakat, u yerda uch yil yashaganim haqida qisqagina gapirib berdim. Kapitan hamma aytganlarimni alahlash yoki ko'zga har xil narsalarning ko'rinish oqibatiga yo'ydi. Bu meni judayam ranjitdi. Men barcha yexularga xos yolg'onlash odatidan qaytgandim va ularning o'zlariga o'xshagan odamlar gapiga ishonchsizlik bilan qarashi yodimdan ko'tarilgandi.

Men undan, mamlakatingizda *o'zi yo'q narsa* haqida gapirish odati bormi, deb so'radim. Men «yolg'on» so'zi ma'nosini mutlaqo unutganman, bordi-yu, Guignemiyada ming yil yashasam-da eng pastkash xizmatkordan ham hech qachon yolg'on gap eshitmasdim. Aytmoqchi u gapimga ishonadimi-yo'qmi, menga bari bir, lekin uning xushmuomalaligi uchun undagi tabiiy nuqsonlarni kechirib, menga beradigan har qanday savol va e'tirozlariga javob qaytaraman.

Kapitan aqlli odam chiqib qoldi, u ziddiyatli fikrlar bilan meni qo'lga tushirishga ancha uringandan keyin sofdilligimga ishonch hosil qildi. Biroq u, siz haqiqatni bu qadar hurmat qilar ekansiz, sayohat paytida o'z joningizga suiqasd qilmaslikka chin va'da berasiz, aks holda Lissabonga yetgunga qadar sizni qamoqda saqlayman, dedi. Men va'da berdim, ammo shu bilan birga, yexular orasiga qaytmaslik uchun har qanday og'ir kulfatlarga ham bardosh berishga tayyorman, dedim.

Sayohatimiz paytida diqqatga sazovor voqea yuz bermadi. Kapitanga minnatdor-chilik bildirish ma'nosida, ba'zan uning astoydil qilgan iltimosiga bardosh berolmay, odamlarga bo'lgan nafratimni ichimga yutib, u bilan birga o'tirardim. Bari bir ko'pincha nafratim alanganib ketardi, biroq kapitan o'zini hech narsani sezmaganga solardi. Matroslardan hech qaysisi bilan uchrashmaslik maqsadida kunning anchasini kayutada o'tkazardim. Kapitan yovvoyilarga xos kiyimlarimni yechib tashlashni ko'p marta iltimos qildi. U o'zining eng yaxshi kiyimlarini menga bermochi bo'ldi, biroq men, yexuning badani tekkan kiyimlar bilan o'zimni o'rab-chulg'ashni istamay, hammasidan voz kechdim. Undan atigi ikkita toza ko'yлак so'rab oldim. Ko'yлаklar yaxshigina yuvilgan bo'lib, meni unchalik iflos qilmasligi mumkin edi. Ko'yлаklarni har kuni o'z qo'lim bilan yuvib, almashtirib turdim.

1715 yil 15 noyabrda Lissabonga yetib keldik. Ko'chadagi olomon atrofimda to'planmasligi uchun qirg'oqqa chiqish oldidan kapitan egnimga o'z plashini tashladi. U meni o'z uyiga olib bordi; astoydil qilgan iltimosimga binoan, meni derazalari hovliga qaragan eng yuqori qavatdagi xonaga joylashtirdi. Kapitan

meni yangi kiyimlar tiktirib olishga ko'ndirmoqchi bo'ldi. Ammo chevar mendan o'lchov olishiga aslo-aslo unamadim. Don Pedroning bo'y-basti meniki bilan deyarli teng edi, shu sababli unga tikilgan kiyim menga to'g'ri kelaverardi. U meni boshqa buyumlar bilan ham ta'minladi. Bu buyumlarning hammasi mutlaqo yangi edi. Shunday bo'lsa ham, ularni kiyishdan oldin kun bo'yi shamollatardim.

Kapitan uylanmagan ekan, uning faqat uchta xizmatkori bor edi. U dasturxon ustida xizmat qilishni ularga man etdi. Umuman, u menga shunaqayam ehtiyotkorlik bilan muomala qila boshladiki, mening holatimni tushunib, shunday odamgarchilik qildiki, bora-bora u bilan birga bo'lishga ko'nikib ketdim. Nihoyat u meni uyning orqa tomonidagi bo'qqa qaragan derazadan ko'z tashlashga ko'ndira oldi. Keyin boshqa xonalarga ham chiqadigan bo'ldim. Bir kuni derazadan ko'chaga ham qaradim, qaradimu qo'rquvdan o'zimni orqaga tashladim. Bir haftadan keyin kapitan meni pastga tushib, ko'cha eshik oldida o'tirishga ko'ndirdi. Nihoyat kapitan bilan birga qo'rqmay ko'chaga ham chiqadigan bo'ldim.

Bu yerga kelganimga o'n kun bo'lgach, oilam hamda uydagi mashg'ulotim haqida ba'zi bir narsalarni o'zimdanda bilib olgan don Pedro mening burchim — o'z yurtimga qaytish, o'z uyimda xotinim va bolalarim bilan yashash ekanligini aytdi. U yana, portda jo'nab ketishga shay ingliz kemasini turganligini, safar uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan meni ta'minlashga tayyor ekanini ham aytdi. Uning dalillarini va mening e'tirozlarimni takrorlash kitobxonni zeriktirib yuboradi. U men orzu qilgan kimsasiz orol hech qayerda yo'qligini, o'z uyimda esa ko'nglimga nima ma'qul kelsa shuni qilishim, zo'hdarlarday hayot kechirishim mumkinligini gapirdi.

Va nihoyat, bundan ma'quli yo'qligiga tan berib, unga bo'ysundim, 24 noyabrda ingliz savdo kemasiga o'tirib, Lissabonni tark etdim; kemanding xo'jayini kim ekanligini surishtirib o'tirmadim. Don Pedro meni kemagacha kuzatib qo'ydi, yigirma funt qarz berdi. Xayrlashayotib, meni nazokat bilan quchdi, lekin uning bu qilmishidan hazar qildim. Yo'lda kapitan bilan ham, matroslar bilan ham gaplashmadim, o'zimni kasalga solib, kayutada o'tiraverdim. 1715 yilning 5 dekabr kuni ertalab soat to'qqizlarda Daunsda langar tashladik, kunduz soat uchlarda Redrifdagi uyimga eson-omon yetib oldim.

Xotinim, bola-chaqalarim meni hayrat va xursandchilik bilan kutib olishdi. Ular meni halok bo'lgan deb yurishar ekan. Lekin ochig'ini aytsam, ularni ko'rganda nafratim, hazar qilishim va g'azabim battar kuchayib ketdi.

Uyga kirishim bilanoq xotinim meni bag'riga bosdi. Uning quchoqlashidan jirkanib, hushimdan ketib qoldim, bir soatdan keyin o'zimga keldim. Mana

shu siz o'qiyotgan satrlarni yozayotganimda Angliyaga qaytganimga allaqachon besh yil bo'lgandi. Dastlabki yili xotinim va bolalarimni ko'rishga toqatim yo'q edi. Lekin ular hali-haligacha men yeydigan nonga qo'l tegizishga yoki mening finjonimdan choy ichishga yuraklari betlamaydi, hali-haligacha qo'limdan ush-lashlariga yo'l qo'ymayman,

Qo'limdagi pulga ikkita toychoq sotib oldim, ularni pokiza otxonada boqa-yapman. O'tboqar ulardan keyingi arzandam, chunki undan otxonaning yoqimli hidi anqib turadi. Otlar meni juda yaxshi tushunishadi. Har kuni ular bilan kam deganda to'rt soat gaplashaman. Ular yugan va egar nimaligini bilishmaydi, men-ga juda suyanib qolishgan, bir-birlari bilan qalin do'st.

O'N IKKINCHI BOB

MUALLIFNING HAQQONIYLIGI. BU KITOBNI NASHR ETTIRISHDAN UNING KO'ZLAGAN MAQSADI. U HAQIQATDAN YUZ O'GIRGAN YOZUVCHILARNI TANQID QILADI. BU KITOBNI YOZISHDA MUALLIF HECH QANDAY AHMOQO-NA NIYATLARGA EGA BO'LMAGANINI ISBOT QILADI. BITTA E'TIROZGA JA-VOB. MUSTAMLAKALARNING TUZILISH USLUBI. VATAN MADHI. MUALLIF TA'RIFLAGAN MAMLAKAT TOJIGA BEGUMON HUQUQLILIK. BUNGA ERI-SHISHDAGI QIYINCHILIK. MUALLIF KITOBXON BILAN BUTUNLAY XAYRLA-SHADI. U KELAJAKDA QANDAY HAYOT KECHIRISH REJALARINI BAYON QI-LADI, YAXSHI MASLAHATLAR BERADI VA KITOBNI TAMOMLAYDI.

Shunday qilib, muhtaram kitobxon, men sizga o'n olti yilu yetti oydan ko'proq davom etgan sayohatlarimni haqqoniy bayon qilib berdim. Bayonimda jimjimadorlikdan ko'ra haqiqat haqida ko'proq jon kuydir-dim. Ehtimol, boshqa sayohatchilarga o'xshab, sizni ajib va aqlga sig'-maydigan hikoyalar bilan hayratga solishim mumkin edi, ammo faqat faktlarning o'ziningina lo'nda qilib bayon qilishni afzal ko'rdim. Maqsadim — sizni yupatish emas, sizga ko'pgina yangi ma'lumotlarni berish, xolos.

Inglizlar va boshqa yevropaliklar kamdan-kam qadam bosgan yiroq mam-lakatlarga sayohat qiluvchi bizday sayohatchilar uchun kishini hayratga soluv-chi, dengiz va quruqlikda yashovchi hayvonlar haqida to'qib-bichish oson. Lekin

sayohatchining asosiy maqsadi — kishilarning ko'zini ochish, ularda yaxshi fazilatlarini tarbiyalash va begona mamlakatlar hayotidagi yaxshi-yomon narsalar misolida ularning aqlini kamolotga yetkazishdan iboratdir.

Har bir sayohatchi o'zining sayohatnomasini e'lon qilishga ruxsat olishdan avval, oliy lord kansler huzurida, o'zi nashr etayotgan narsalarning hammasi chin haqiqat ekanligi haqida qasam ichishga majbur qiladigan qonun chiqarilishiga bajonu dil rozi edim. Ana o'shanda hech kim, ba'zi yozuvchilar qilayotganday, har narsaga ishonuvchi ko'pchilikni laqillatmagan bo'lur edi. Kitobim ancha qiziqarli bo'lsin deb, ular kitobxonlarning oldiga paxol solib qo'yishadi*.

Yoshligimda ko'pgina sayohatnomalarni huzur qilib o'qiganman. Biroq, o'shandan buyon deyarli butun yer kurrasini aylanib chiqqach, o'z kuzatuvlarimga asoslanib, mazkur kitoblarda qanchadan-qancha yolg'on-yashiqalar borligiga ishonch hosil qildim va bunaqa o'qishga o'ta nafratlanib qaradim.

Kuchli xotira yoki kundalikni batartib olib borishdan boshqa na iste'dodni, na bilimni va umuman, hech qanday zakovatni talab qilmaydigan kitoblar o'z mualliflari dovrug'ini doston qila olmasligini yaxshi bilaman. Men kitobimda ta'riflagan mamlakatlarga keyinroq borib qolgan sayohatchilar mening nuqsonlarimni aniqlashi, ko'pgina yangi narsalarni kashf qilishi va meni orqaga surib, o'rnimni egallab olishi ham turgan gap, jahon esa falon vaqtda falon yozuvchi o'tganligini unutib yuboradi. Agar shuhrat orttirish uchungina kitob yozganimda edi, bu mening uchun katta musibat bo'lur edi, ammo-lekin birdan-bir tashvishim *jamiyat baxt-saodati* bo'lganligi sababli pushaymon bo'lishga hech qanday asosim yo'q.

Ingliz fuqarosi sifatidagi burchim, vatanimga qaytib kelishim bilanoq o'z kashfiyotlarim haqida vazirlardan biriga axborotnoma yozib berishimni taqozo etishini qulog'imga shipshitishganini ham bo'yningma olaman, chunki fuqaro ochgan yerlar, kashfiyotlar qirolniki bo'larkan.

Lekin, men tilga olgan mamlakatlarni egallash, Ferdinand Kortes* himoyasiz amerikaliklarni bosib olganidek oson bo'lishiga ishonchim komil emas. Mening fikrimcha, *liliputlarni* bo'ysundirish uchun armiya va flotni qurollantirib o'tir-masa ham bo'laveradi. Shu bilan birga, *brohdingneglarga* hujum qilish oqilona yoki bexatar ish deb hisoblamayman; shuningdek, Angliya soldatlari tepalarida *Uchar Orol* paydo bo'lib qolsa, o'zlarini yaxshi his etmasalar kerak, deb o'ylayman. To'g'ri, *guigngnmlar* urushga unchalik yaxshi hozirlik ko'rishmagan. Lekin, men vazir bo'lganimda, ularga hujum qilishni zinhor-zinhor maslahat bermasdim. Ularning donoligi, birdamligi, botirligi va o'z yurtlariga bo'lgan mehr-

muhabbatlari harbiy bilimdan xabarsizliklarini bosib ketadi. Yevropa armiyasi orasiga yorib kirib, saflarni parokanda qilib yuborgan yigirma ming guigngnmni, to'ntarilib yotgan aravalarni, dahshatli tuyuq zarblaridan basharasi anjir bo'lib ketgan askarlarni ko'z oldingizga keltiring.

Ana shu olijanob xalqqa qarshi urush boshlash o'rniga, ulardan yonlariga o'z odamlarimizdan ko'plab yuborishni iltimos qilsak yaxshiroq bo'lardi: u yerga borib kelganlar bizni or-nomus, adolat, to'g'rilik, qanoatlilik, hamkorlik, jasurlik, do'stlik, yaxshilik va sadoqatlilik qonun-qoidalariga rioya etishga o'rgatgan hamda Yevropa madaniyatini yuqori pog'onaga ko'targan bo'lur edilar. Ana shu yaxshi fazilatlar nomi aksar Yevropa tillarida saqlanib kelmoqda, ularni hozirgi zamon yozuvchilari asarlarida ham, qadimiy yozuvchilar asarlarida ham uchratish mumkin.

Men kashf etgan mamlakatlarni qirol oliy hazratlarining egallab olishida yordamlashuvimga to'g'anoq bo'lib turgan yana bir boshqa sabab ham bor. Haq gapni aytsam, bunday paytlarda podsholarning adolatlilik qilishlariga uncha ishongim kelmaydi. Aytaylik, bo'ron qaroqchilar to'dasini dengizda noma'lum yoqqa surib boryapti. Nihoyat yunga machta uchidan yerni ko'rib qoladi va kashf etadi. Qaroqchilar talash va talon-taroj qilish uchun sohilga chiqishadi. Ular o'zlarini izzat-ikrom bilan kutib olayotgan beg'araz xalqni uchratishadi. Mamlakatga yangi nom berishadi, qirol nomi bilan uni egallashadi, esdalik belgi sifatida kesak yoki toshdan yodgorlik tiklashadi, mahalliy xalqdan yigirma-o'ttiz kishini o'ldirishadi, garov tariqasida bir necha odamni majburan kemaga o'tqazishadi, o'z vatanlariga qaytib kelib, ilgorigi gunohlaridan, saddi pok bo'lishadi. *Ilohiy haqiqat yo'li bilan* yangi mustamlaka ana shunday paydo bo'ladi. Dastlabki imkoniyat tug'ilishi bilanoq o'sha yoqqa kemalar yuboriladi. Mahalliy xalq yo haydab yuboriladi yoki qirib tashlanadi, ularning yo'lboshchilarini esa o'z oltinlarini berishga majbur qilib qiynoq-qistovga olinadi. Hammaga ko'ngliga ma'qul kelgan barcha yovuzliklarni qilishga to'liq erkinlik beriladi, ona yurt o'z o'g'illarining qoni bilan bo'yaladi. Ana shunday ishlar bilan shug'ullangan manfur qassoblar to'dasi yovvoyilar orasida sivilizasiya urug'ini sepish, ularni xristianlarga aylantirish uchun *zamonaviy mustamlakani* barpo etadilar.

Lekin bu ta'riflarning Britaniya millatiga hech qanday aloqasi yo'q, albatta. Biroq men yuqorida ta'riflagan mamlakatlar aholisi mustamlakachilar tomonidan zabt etilishga, qulga aylantirishga, qirib tashlashga yoki haydab yuborishga arzi-maganligi va o'sha mamlakatlarda na oltin, na kumush va na tamaki serob bo'l-

maganligi tufayli, fikrimcha, tirishqoqlik va jasorat ko'rsatishimiz uncha to'g'ri kelmaydi. Ammo bu fikr-mulohozaga daxldor biror kimsa bo'lsa va u boshqacha fikrda bo'lsa, qasamyod qilib aytamanki, menga qadar yevropaliklardan biror kishi, bu mamlakatlarga qadam bosmagan. Afsonaga ko'ra, bundan bir necha asr oldin Guigngnmiyaning tog'laridan birida ko'rishgan va ulardan manfur hayvon zotlari tarqagan o'sha ikki yexugina ba'zi shubhalarii tug'dirishi mumkin. Ana shu ikki yexu ehtimol inglizdir — juda badbasharalashib ketishgan bo'lsa-da, ular avlodining yuz bichimlariga qarab turib shunday xulosaga keldim. Lekin bu fakt tasdiqlanadigan bo'lsa, muhokamani mustamlaka qonunlarini suvday biladigan kishilarga havola qilaman.

Endi kashf etilgan mamlakatlarni hukmdorim nomi bilan bosib olish masalasiga kelsak, bunaqa fikr hech xayolimga kelmagan. Bordi-yu, bu haqda o'ylaganimda ham, o'sha vaqtdagi holatimni e'tiborga olib, bu tartib-qoidani amalga oshirishni boshqa bir qulay fursatga qoldirib, oqilona yo'l tutgan bo'lardim.

Shunday qilib, sayohatchiga qilinadigan yagona ta'naga javob berib, barcha muhtaram kitobxonlarim bilan butunlay xayrlashaman va Redrifdagi bog'imga ketaman. U yerda guigngnmlarning farog'atli mamlakati haqida shirin xayollarga berilaman, maorif tarqatishga arziydigan yexularning ko'zini ochishga intilaman; ko'zguna boqib, o'zimga tez-tez nazar tashlab turaman, shunday qilish bilan, iloji bo'lsa, inson qiyofasiga o'zimni ko'niktirib boraman; vatanimdagi guigngnmlarning yovvoyiligidan iztirobga tushaman, lekin olijanob xo'jayinim, uning oilasi, yor-do'stlari va barcha guigngnmlar zotiga hurmatim tufayli, ular shaxsiga ehtirom bilan munosabatda bo'laman, chunki otlarimiz gavda tuzilishi jihatidan ularga juda-juda o'xshab ketishadi, lekin aqliy qobiliyatda ularga tenglasha olmaydilar.

O'tgan haftadan boshlab xotinimga uzun stolning narigi chekkasida o'tirib, men bilan ovqatlanishiga va savollarimga iloji boricha qisqa javob berishiga ruxsat berdim. Garchi keksa odam uchun oldingi odatlarini tashlash amri mahol bo'lsa-da, bir muncha muddat o'tgach qo'shni yexular bilan birga bo'lishga chiday olaman va ularning tish hamda tirnoqlaridan qo'rqmay qolaman, degan umiddaman.

Agar yexular tabiat ato qilgan nuqson va bema'niliklar bilan kifoyalanib qolishganda edi, ular bilan til topishishim ancha oson ko'chardi. Saroy xodimi, cho'ntak kesar, masxaraboz, amaldor, qimorboz, siyosatdon, qo'shmachi, do'xtir, yolg'on guvohlik beruvchi, vasvasa qiluvchi, xoin va shunga o'xshash odamlarning tashqi qiyofasi mening asabimga tegavermaydi: ularning barchasi odatidagicha yashayveradi. Biroq turli nuqson va illatlar badan-badaniga singib ketgan

hayvon kalondimog'lik qilsa, g'ururlansa toqatim toq bo'lib ketadi. Bunday hayvonlarning faxrlanishini, kekkayishini hech aqlga sig'dira olmayman. Aqlli jonzotga husn bo'lib tushadigan barcha fazilatlariga ega — dono va yaxshi niyatli guignnmlarda esa ana shu nuqsonlarni nomlaydigan so'z ham yo'q. Biroq katta tajribam tufayli yovvoyi yexular orasidagi g'ururlanish va kalondimog'lik kurtaklarini payqab oldim.

Lekin aql-farosat bilan yashovchi guignnmlar, men ikkita qo'limga bino qo'ymaganimday, o'zlaridagi yaxshi fazilatlar bilan mag'rurlanmaydilar; aqlli odam bir qo'lidan ajrab o'ta baxtsiz bo'lgan taqdirda ham, ikki qo'lli edim deb maqtanmaydi. Men qo'limdan kelganicha ana shu hol ustida uzoq to'xtalдим, chunki ingliz yexularini, ancha bardoshli, maylimga monand ko'rishni istadim. Shuning uchun ham mag'rurlanish va kalondimog'lik kasriga uchrab qolgan odamlardan ko'zimga ko'rinmasliklarini iltimos qilaman.

T A M O M

IZOHLAR

BIRINCHI QISMGA

I BOB

5-bet. Vandimen Yeri — Avstraliyaning janubi-sharq tomoniga joylashgan Tasmaniya orolining eski nomi.

II BOB

14-bet. «Yerni minnatdor bo'lsang, bosaman deydigan viqorli odam edi.» — Muallifning fikricha, Liliputiyaning qiroli 1714 yildan 1727 yilgacha hokimiyat tepasida bo'lgan Angliya qiroli Georg I ni eslatishi kerak. Svift ehtiyotkorlik qilib, liliput qirolini xunuk va pak-pakana Georgga o'xshatib tasvirlamagan, ammo liliput qirolining ba'zi sifatleri unikiga o'xshab ketadi. Georg I ga o'xshab liliput qiroli ham xasis, davlatni idora qilish ishlariga aralashmaydi, davlat tashvishini o'z vazirlariga ishonib topshirib qo'yadi.

14-bet. «... U yigirma sakkiz yoshu to'qqiz oylik, xolos» — Svift bu bilan liliputlar umri oddiy odamlar umridan ancha uzun, demoqchi.

14-bet. «... zarbof va kumush rang ip bilan tikilgan yubka.» — Svift yashagan davrdagi zamonaviy modaga ishora. Aristokrat xonimlarning kiyimlari XVIII asr boshlarida odatdan tashqari dabdabali bo'lib, zarbof va kumush rang iplar bilan tikilgan, ularga qimmatbaho toshlar qadalgan. Shunaqa kiyimning bit-tasi butun bir bisot bahosiga teng turardi.

III BOB

22-bet. «... Flimnap sakrashda alohida dovrug' taratgan.» — Flimnap nomi zahirida 1721 yildan boshlab viglar vazirligi boshida turgan, Svifg o'ta yomon ko'rgan bosh vazir Robert Uolpol nazarda tutiladi. Svift Uolpolning siyosiy faoliyatini dorbozning epchillik bilan sakrashlariga o'xshatadi.

23-bet. «... mashqlarni o'rinlatib bajarganlarning ikkinchisiga qizil, uchinchisiga yashil ip beriladi.» — Moviy, qizil va yashil iplar ingliz ordenlarining rangi.

25-bet. «... iloji boricha oyoqlarimni keng kerib, Koloss Rodosskiy holatida...» — Koloss Rodovsskiy — Rodoss shahri gavaniga kiraverishdagi bo'yi 72 metrli mis haykal. Rivoyatga ko'ra, haykalning keng kerilgan oyoqlari orasidan kemalar o'tgan.

27-bet. «... bizga hujum qilish uchun hozir qurollanayotgan...» — Liliputiya bilan Blefuskuni o'rtasidagi munosabatlar ispan merosi uchun olib borilgan urush (1702–1713 y.) davridagi Angliya va Fransiya munosabatini eslatadi. Ishora ochiq-oydin bilinib qolmasligi uchun Svift Liliputiyaning qit'ada, Blefuskuni orolda deb ko'rsatadi.

IV BOB

30-bet. «Birinchilari baland poshna tarafdorlari, ikkinchilari past poshna tarafdorlari.» — Tremeksenlar va Slemeksenlar partiyalari zamirida Svift bir-biriga dushman bo'lgan tori va viglar partiyasini ko'rsatmoqchi bo'ladi. U partiyalar o'rtasidagi kurash baland va past poshnalar uchun kurashga aylanib ketganini aytish bilan, ana shu partiyalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar davlat ahamiyatiga mutlaqo molik emasligini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Liliputlar imperatorining past poshnaga bunchalik hirs qo'yishi, viglar partiyasiga mansub bo'lgan Georg I ning taxtga o'tirgach hukumat muassasalaridan barcha torilarni haydashiga ishora.

30-bet. «... oliy hazratlari bir oz oqsaydi». — Qirol Georg II (1727–1760) dan keyin ancha vaqtgacha qaysi partiyani afzal ko'rishni bilmay, o'z saroyiga viglarni ham, torilarni ham taklif qilgan shahzoda Uelskiyga ishora.

31-bet. «... tuxumni uch tomonidan sindirish.» — Poynakchilar va uchdan sindiruvchilar partiyalari — xristian cherkovini katolik va protestant cherkoviga bo'lib yuborgan diniy parokandalikni satirik tasviri. XVI asrda, protestant yoki reformatson harakat paydo bo'lganda, diniy masalalar bo'yicha protestantlarning katoliklar bilan kurashi, aslida, Rim papasi va katolik cherkovining barcha sohalarda davlat hamda xo'jalik ishlariga aralashishiga qarshi kurashi edi. Keyinroq, protestantlar tomonidan boshlangan diniy urushlar tamom bo'lib, barcha mamlakatlarda feodalizmni bitirishga yordam bergan tub iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar yuz bergach, katoliklar va protestantlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar tor diniy ixtiloflarga aylanib qoldi va bu, Sviftning fikricha, poynakchilar va uchdan sindiruvchilar o'rtasidagi ixtiloflar kabi ahamiyatga mutlaqo molik emas.

31-bet. «... qo'zg'olon qatnashchilarini o'z mamlakatlarida yashirishgan.» — O'lgan hukmdor zamirida vatanga xiyonat qilgani uchun Angliya burjua revolyusiyasi davrida alohida tribunal hukmi bilan qatl etilgan (1649 y.) qirol Karl I ko'zda tutiladi. Tojidan ayrilgan hukmdor esa qirol Yakov P, u 1688 yildagi «Shonli revolyusiyaga» deb nomlangan davlat to'ntarishi natijasida Fransiya qochib ketgan. Fransiya qirolu Lyudovik XIV (1643–1715) ko'p jihatdan Blefusku qirolini eslatadi, u Angliyaga qarshi urushga tayyorgarlik ko'rayotib, angliyalik siyosiy emigrantlarga, ayniqsa yakobinchilarga homiylik qilgan. Chunki u Yakov II ni Angliyaning qonuniy qirolu deb bilgan.

31-bet. «... har bir dindorning o'z shaxsiy ishi.» — Svift bu gapi bilan diniy ixtiloflarga nisbatan o'z munosabatini bildirmoqchi bo'ladi.

V BOB

34-bet. «... hokimi mutloq bo'lib qoladi.» — Ispan merosi uchun bo'lgan urushda ingliz bosh qo'mondoni gersog Malboro (Cherchil) Fransiya qator g'alabalarni qo'lga kiritdi. Tarixchilarning ta'kidlashicha, agar urush shu yo'sinda ketaversa, Fransiyaning taslim bo'lishi hech gap emas edi. Biroq urushning cho'zilib ketishi tufayli yuz bergan qiyinchiliklar jonga tekkan va xalqning qahr-g'azabi shu qadar oshib-toshgan ediki, urushni davom ettirish tarafdorlari — viglar vazirligi 1710 yilda iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Lord Bolinbrok boshliq yangi torilar vazirligi Malboroni darhol Fransiya qochirib oldi va sulh tuzishga oshiqdi. Bu yerda va bundan keyin Gulliver ko'proq Bolinbrokka o'xshab ketadi.

35-bet. «Imperator oldida mening vijdonim pok edi.» — Bu yerda gap Uolpol tomonidan Bolinbrokka qo'yilgan ayb hamda hali Angliya va Fransiya urush holatida bo'lgan bir paytda uning fransuz hukumati bilan maxfiy muzokaralar o'ratgani to'g'risida boradi. Bolinbrok ta'qibdan qutulib, Fransiya qochib ketadi va ko'p yillar surgunda yuradi.

VI BOB

39-bet. «... jazolashdan ko'ra mukofotlash maqbulroq...» — Angliyadagi ko'pgina sud muassasalarida grek ma'budasi — adolatli sud timsoli Femidaning surati bor. Femida ko'zi bog'liq, bir qo'lida yalang'ochlangan qilich, bosh-

qasida esa adolat tarozisini ushlagan holda tasvirlanadi. Liliputlarning hushyor va ziyrak adolatli sudi ko'zi ko'r Femidaga istehzo bilan qarama-qarshi qo'yiladi.

VII BOB

45-bet. «...kengashning maxsus komissiyalari o'ta maxfiy kengashlar o'tkazdi...» — Bu o'rinda, Uolpol raisligida 1715 yilning 15 aprelida «sulh tuzish (Utrext sulhi) va qirolichaning sobiq vazirligi faoliyatiga tegishli masalalarni tekshirish uchun» ta'sis etilgan maxfiy komitet nazarda tutiladi. Bu komitet, davlatga xiyonat qilish borasida vazirlar Bolinbrok va graf Oksfordskiyga qo'yilgan aybni tasdiqlaydi.

47-bet. «Unda yana ko'pgina muhim narsalar bor edi.» — Aybnomada yuridik hujjatlar uslubi, shuningdek, Sviftning fikricha, Bolinbrokning xiyonat qilganligi haqidagi aybnomaning yetarli asoslanmaganligi ustidan kulinadi.

49-bet. «...jazo ham shunchalik vahshiyona va qurbon shunchalik begunoh bo'ladi.» — Hokimiyatdan tushirilgan Styuartlar sulolasi tarafdorlari 1715 yilda taxtga da'vogar Yakov III foydasiga qo'zg'olon ko'tarishdi. Qo'zg'olon bostirilib, ko'p odamlar qatl qilingach, hukumat qirolning o'ta marhamat va shafqat ko'rsatganligi haqida varaqalar tarqatdi.

50-bet. «... aholi allaqachonlardan beri meni orziqib kutayotgan joyga...» — Bolinbrokka va uning Fransiyaga qochib ketishga (1715 yil) ilgaritdan tayyorlanganiga yangi ishora; Bolinbrok keyinchalik Gulliver singari o'zini oqlashga urinadi: bundan so'ng Angliyada qolish, uning uchun o'zini ixtiyoriy ravishda o'limga tutib berish bilan teng edi.

VIII BOB

54-bet. «... bunday og'ir kulfatdan...» — Siyosiy fitnalari va Bolinbrokning Fransiyadagi faoliyati faqat Angliya vazirligini tashvishga solmay, balki Lyudovik XIV va uning saroyini ham ancha bezovta qilib qo'ydi. Bu hol har ikki hukumat o'rtasidagi munosabatlarda ortiqcha chigalliklarni keltirib chiqardi.

57-bet. «... o'zlarining mayin junlari bilan...» — Bu yerda Angliya qonunchiligining ingliz jun sanoatini har taraflama qo'llab-quvvatlab, irland junini tashqariga chiqarishga to'sqinlik qilgani, natijada Irlandiya iqtisodiyotiga va aholi farovonligiga putur yetgani kinoyali tarzda bayon qilinadi. Svift o'zining bir qancha boshqa asarlarida ham bunday siyosatni qoralaydi.

Ikkinchi qismga

I BOB

59-bet. «... kema machtalari qancha yelkanga bardosh bersa...» — Svift boʻronni bunday tavsiflash bilan oʻsha vaqtlarda yozilgan dengiz sayohatnomalari va sarguzasht romanlarda maxsus dengiz terminlarini suiisteʼmol qilinishini kinoya ostiga oladi.

61-bet. «... oʻn yardga teng kelardi.» — Aholisining har bir qadami oʻn yardga (toʻqqiz metrdan ziyodroq) teng keladigan ulkanlar podshohligi bilan dastlabki tanishuvning oʻziyoq ulkanlar va ularni qurshab olgan narsalarning boʻy-basti haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Gulliver liliputlardan necha marta katta boʻlsa, ulkanlar ham undan shuncha, yaʼni oʻn ikki marta katta. Ulkan odamlar va Gulliver Brobdingnegda boʻlgan paytida uchratgan narsalarni taʼriflashda ana shu nisbatga qatʼiy rioya qilinadi.

III BOB

74-bet. Feniks — Misr mifologiyasidagi afsonaviy qush. U oʻlim yaqinlashganida oʻz uyasida oʻzini yondirib yuborish va kuldan yana qaytadan paydo boʻlish xususiyatiga ega. Koʻchma maʼnoda — bu tabiat moʻʼjizasi, odatdan tashqari hodisa hisoblanadi.

76-bet. «... insoniyat bilimining ulugʻ taraqqiyoti...» — Svift yetarli tekshirilmagan tabiat hodisalarini oʻrganish oʻrniga, koʻpincha tumanli, mazmunsiz fikrlarga berilib ketgan oʻz zamonasidagi olimlar ustidan kuladi.

IV BOB

81-bet. «... Yaponiya bilan Kaliforniya oʻrtaligʻida okean bor». — XVIII asr geograflari, Yaponiya Amerika bilan quruqlik orqali tutashganmi yoki ular oʻrtasida suv boʻshligʻi bormi, degan masalada bir-birlari bilan kelisha olmasdilar.

85-bet. «... Solsberidagi sobor qoʻngʻiroqxonasidan ham past edi». — Solsberidagi sobor qoʻngʻiroqxonasining balandligi bir yuz yigirma ikki metr. Ulkanlar qirolligidagi minora mahalliy aholiga bagʻoyat taʼsir koʻrsatishi uchun uning balandligi 1464 metr (122×12) boʻlishi kerak.

85-bet. «Avliyo Pavel gumbazi» — Londondagi avliyo Pavel sobori gumbazining diametri oʻttiz metrdan ortiq.

VI BOB

95-bet. Demosfen — eramizdan avvalgi IV asrda yashagan qadimgi grek notigʻi; Siseron — qadimiy Rimning davlat arbobi va notigʻi; eramizdan oldingi I asrda yashagan.

95-bet. «Shavkatli perlar palatasida» — Angliya parlamenti — yuqori va quyi palatadan iborat qonun chiqaruvchi oliy muassasa. Yuqori palata per yoki lord unvoniga ega boʻlgan oliy tabaqa vakillari hisobiga meros tariqasida toʻldiriladi. Shuning uchun ham u perlar va lordlar palatasi deb nomlanadi. Quyi palata (yoki vakillar palatasi) saylangan vakillar bilan almashtirib turiladi.

97-bet. «... oʻrinsiz hamda nomaqbul deb hisoblayman.» — Ulkanlar qiroli-ning tanbehlarida Angliya ijtimoiy tuzumidagi nuqsonlarga eʼtibor beriladi. Swift ana shu nuqsonlarni oʻzining siyosiy pamfletlarida ham ommonsiz tanqid qilgan.

98-bet. «... quyi palata aʼzolari boʻla oladimi?» — Ulkanlar qiroli taklif qilgan masalalar Angliya sud qonunchiligining turli tomonlariga taalluqlidir: bu yerda sud ishlarini yuritishdagi suiisteʼmolchilik, sansolarlik, haddan tashqari rasmiyatchilik va boshqalar tanqid ostiga olinadi.

Uchinchi qismga

I BOB

115-bet. «... dengizga uloqtiraman.» — Gollandiyaliklarning inglizlarga nisbatan sharqdagi dushmanligi Angliya va Gollandiyaning dengizlarda hamda mustamlaka mamlakatlarida raqobat qilishlari tufayli kelib chiqqan, bu haqda oʻsha zamon sayyohlari koʻp yozishgan.

II BOB

121-bet. «... toʻgʻri fikr yurituvchi kitobxonlar eʼtiboriga...» — Swift oʻsha zamondagi mashhur olimlarning ayrim soʻzlarning kelib chiqishi haqida oʻrinsiz fikr yuritishlaridan kuladi.

123-bet. «... undan nur oluvchi...» — Qiyomat-qoyim yaqinlashayotgani haqidagi astronomik nazariyalar o'sha vaqtlarda keng tarqalgan edi.

III BOB

126-bet. «... hozir juda oqsayotgan...» — kometalarning kelib chiqishi, ularning olam bo'shlig'ida harakat qilishi, yerga va quyoshga yaqinlashishi va hokazolarga doir turli nazariyalar Svift zamonasidagi olimlar o'rtasida qizg'in bahslarga sabab bo'lgan. Mazkur masalalar bilan Londondagi qirol jamiyati ko'p shug'ullangan; Svift romanning uchinchi qismidagi turli boblarda bunga shama qilib o'tadi.

IV BOB

134-bet. «... juldur kiyimlarda yurishibdi.» — Bu bobda Angliyada son-sanoqsiz aksionerlik kompaniyalari va kommersiya jamiyatlari paydo bo'lgan 1719, 1720 va 1721 yillardagi chayqovchilik shavq-zavqi kulgi ostiga olinadi, ana shu kompaniya va jamiyatlarning tashkilotchilari bo'lmish uddaburrolaru avantyuristlar har qanday gapga ishonuvchi ommani tezroq boy bo'lishning ko'z ko'rib quloq eshitmagan yo'llari bilan laqillatishgan. «Sovun pufaklari» deb nom olgan bu kompaniyalar qanday tez paydo bo'lgan bo'lsa, shunday tez sinadi, o'z paychilarini esa xonavayron qiladi. Svift xuddi ana shu temada «Ingliz sovun pufaklari tajribasi haqida» nomli satira yozgan.

V BOB

137-bet. «... yo'g'on va pishiq...» — 1710 yilda Bon ismli uddaburro fransuz broshyura chiqarib, unda o'rgimchak ipidan paypoq va qo'lqoplar ishlab chiqarish usullarini taklif qildi. Hech qanday muvaffaqiyatga olib kelmagan bunday tajribalar keyinchalik ham amalga oshirilgan.

137-bet. «... suv qismini suzishmoqda.» — Svift zamonida havoning tarkibi hali ma'lum emasdi.

VI BOB

141-bet. «... ana shu xom qovoqlarning miyasida...» — Bu yerdagi kinoya ostida Sviftning o'z ijobiy qarashlari yotganligini tushunish uncha qiyin emas.

141-bet. «... ayniqsa o'ng qo'l...» — poraxo'rlikka qilingan ishora.

143-bet. «Mahalliy aholi Langden deb atagan...» — Tribnia va Langden — anogrammalar (harflarning o'rin almashuvi). Bu yerda Britaniya va England (Angliya) deyilmoqchi.

VII BOB

145-bet. Nekromantiya (yunoncha) — kelajakni bilish uchun marhumlar soyasini chaqirish. Bunday bid'at qadimgi dunyoda va o'rta asrlarda keng tarqalgandi.

146-bet. Buyuk Iskandar — Makedoniya podshosi (eramizdan avvalgi IV asr, qadimgi dunyoning mashhur sarkarda va davlat arbobi.

146-bet. Gannibal — Karfagenli sarkarda (eramizdan oldingi III–II asrlar). Rimliklar bilan jang qilgan. Afsonada aytilishicha, Alp tog'laridan oshib o'tayotganida uning armiyasi yo'lini katta xarsang tosh to'sib qo'ygan. Gannibal toshni olov yoqib qizdirish va sirka sepib yumshatish haqida buyruq beradi va shundan keyin toshni qazib o'tadi.

147-bet. Kay Yuniy Brut — Rim senatori, Sezarning qotili, Rimning sarkardasi va siyosiy arbobi. Yagona diktatorlik hokimiyatini o'rnatgan; Gney Pompey — Sezar bilan raqobat qilishga kirishgan Rim sarkardasi.

147-bet. Mark Yuniy Brux — Kay Yuniy Brutning otasi; Suqrot — mashhur yunon faylasufi (eramizdan oldingi V asr); — Epaminond — yunon (fivan) sarkardasi (eramizdan oldingi V–IV asrlar); Kichik Katon — Rimning davlat arbobi; u Sezarning mustabid hokimligiga qarshi kurash olib borgan respublika aristokratlar partiyasiga boshchilik qilgan; Tomas Mor (1480–1535) — mashhur ingliz faylasufi va davlat arbobi, u «Utopiya» degan kitobida kelajakdagi ideal davlat haqidagi fikrlarini bayon qilgan.

147-bet. Sekstumvirat — oltilar hamkorligi.

VIII BOB

147-bet. Gomer — qadimiy Yunonning afsonaviy shoiri, «Iliada» va «Odiseya» nomli qahramonlik dostonlarining muallifi (eramizdan oldingi IX–VIII asrlar); Arastu — mashhur yunon faylasufi va olimi (eramizdan oldingi IV asr).

148-bet. Duns Skot va Petr Ramus — Arastu asarlariga izohlar yozgan o'rta asr faylasuflari.

148-bet. Rene Dekart va Per Gassendi — XVII asrdagi mashhur fransuz faylasuflari.

148-bet. Epikur — ulug' yunon faylasufi (eramizdan oldingi IV–III asrlar).

148-bet. Geliogabal — Rim imperatori (III asr).

148-bet. Agesilay — Yunon (Sparta) podshosi (eramizdan oldingi IV asr).

151-bet. «... Saroyda o'rganish mumkin bo'lgan hamma qusurlarga...» — Swift zamonasida saylovchilarni pul evaziga o'z tomoniga og'dirish va poraxo'rlik avj olgan edi, bu hol uning satirasiga ko'p marta mavzu bo'lgan.

IX BOB

152-bet. «... faqat gollandlarni qo'yishadi.» — 1637 yilda xristianlar qo'zg'oloni bostirilgach, gollandlardan boshqa barcha yevropaliklarning Yaponiyaga kirishiga chek qo'yilgan.

152-bet. «... taxt oldigacha emaklab borishni va tuproqni yalashni...» — Swift bu epizodda qirol hamda uning arzandalari oldida xushomadgo'ylik va laganbardorlik qilish, boshi yerga tekkuncha ta'zim etish udumlari ustidan kuladi. Bundan udumlar Georg I va boshqa Yevropa podsholari saroyida avjiga chiqqan edi.

X BOB

157-bet. Perpetuum mobile — abadiy harakat, birorta tashqi manbadan energiya olmay abadiy va hech to'xtamay ishlaydigan mashinani — abadiy dvigatelni qurish uchun uzoq vaqt behuda urinishlar bo'lgan.

Hamma kasallarga davo bo'ladigan universal dori-darmonlarni izlab topish ham zo'r orzuga aylangan, abadiy dvigatelni yaratishdagi kabi bir necha bor muvaffaqiyatsiz tajribalar o'tkazilgan.

XI BOB

162-bet. «... but toptash marosimi...» — Sayyohlarning hikoya qilishicha, XVII va XVIII asrlarda Yaponiyada xristian diniga mansub bo'lganlarni but toptashga majbur qilishgan. O'zining xristian diniga mansub emasligini ana shu marosim orqali bildirmagan kishilarni qiynashgan, qatl etishgan. Yaponiyada xristianlarni ta'qib qilish 1873 yilgacha davom etgan.

To'rtinchi qismga

V BOB

184-bet. «... million-million kishilar hayotini so'ndirdi.» — Bu yerda gap cherkovda parchalanishni boshlab bergan va katoliklar bilan protestantlar o'rtasida qonli urushlarni keltirib chiqargan diniy urf-odatlar va sirlar ustida bormoqda.

185-bet. «... shu daromad hisobiga yashashadi.» — Daromad qilishning tasvirlangan uslubi XVIII asrlarda bir qancha mayda davlatlarga bo'linib ketgan Germaniyada keng qo'llanilgan. Angliya qiroli Georg I ham o'zining Gannoverdagi mol-mulkini qo'riqlash uchun yollanma nemis soldatlari xizmatidan foydalangan. Xorijiy armiyalarga askar sotish XVIII asr progressiv yozuvchilari asarlarida ham sharmandali jinoyat sifatida qoralangan. Masalan, F. Shillerning «Makr va muhabbat» dramasi.

187-bet. «... ular qonunga qattiq amal qilishadi.» — Svift sud lo'ttiboqligini ko'rsatish bilan ingliz adolatli sudidagi nuqsonlarni omonsiz tanqid qiladi. Bunday tanqidga romanning ikkinchi qismida ham katta o'rin berilgan.

VI BOB

190-bet. «... o'z vaziridan qutulmoqchi bo'lgan...» — Sviftning bu kinoyasi o'sha zamon tibbiyotining nochor ahvolda ekanligi bilan izohlanadi. Buning ustiga ko'pgina aldamchi va tovlamachilar o'zlarini do'xtir deb ko'rsatib, tibbiyot obro'sini yerga urishgan.

IX BOB

200-bet. «... hanuzgacha noma'lum.» — XVIII asrda ommalashgan — yerda hayotning o'z-o'zidan tug'ilishi nazariyasi ko'zda tutilmoqda.

XII BOB

216-bet. «... ular kitobxonlarning oldiga poxol solib qo'yishadi.» — XVIII asrlarda Angliyada chindan ham yozuvchilar yiroq va kam ma'lum bo'lgan mam-

lakatlar haqida haqqoniy sayohatnomalar yozishgan, biroq kitobxonning qiziqishini orttirish uchun qissalarini har xil yolgʻon va uydirmalarga toʻldirishgan. Ehtimol, Svift bu oʻrinda oʻzining adabiy raqibi Daniel Defoni nazarda tutgandir, chunki u dovrugʻ taratgan «Robinzon Kruzo» romanida ham faktik xatolarga va noaniqliklarga yoʻl qoʻyadi.

216-bet. Ferdinand Kortes (1485–1547) — Meksikani ispan mulkiga qoʻshgan ispan istilochisi.

KINOYA VA HAJV USTASI

Hurmatli o'quvchi! Sizga taqdim etilayotgan ushbu asar — «Gulliverning sayohatlari» jahon bolalar adabiyotining durdonalari qatoriga kiradi. Har biringiz bolaligingizda shahar bog'larida sayr qilgansiz, katta va kichik hovuzlarda cho'milgansiz, bolalar maydonchasida ot o'yinlariga tushgansiz. Ana shu bolalar maydonchasiga kiraverishda siz darvoza o'rnida baland bo'yli Gulliverning uzun oyoqlari ostidan turna qator bo'lib o'tayotganingizda Sviftning mashhur romanidagi mittivoylarga o'xshab qolganingizdan zavqlanib, xoxolab kulgansiz. Keyinroq kutubxonalardan ana shu kitobni qidirib topib o'qiganingizda esa, o'zingizni dunyoning turli dengizlari va ummonlari osha uzoq sayohatlariga chiqqan Gulliver deb his etgansiz. Endi yanada aqlingiz to'lishib, zehningiz o'tkirlasha boshlaydi va bu asar qiziqarli sayohatnoma bo'libgina qolmay, unda murakkab ruhiy va ijtimoiy, falsafiy muammolar haqida donishmand odamning ajoyib-g'aroyib hikoyalari zavqli ekanligiga ishonch hosil qilasiz.

Bu durdona asarni yozgan ulug' ingliz adibi Jonatan Sviftning hayoti ham, xuddi Gulliverniki singari juda ajabtovur voqealarga boy. Jonatan (Jo va Natan ismlaridan olingan) Svift 1667 yilda, Angliyaning yaqin qo'shnisi va oroldagi mustamlakasi bo'lgan Irlandiyaning poytaxti Dublinda ingliz muhojiri oilasida tug'ilgan. Otasi u tug'ilmasdan sal avvalroq vafot etgan edi. Ziyrak Jo huquqshunos, advokat tog'asi qo'lida tarbiya topdi. Bola boshlang'ich maktabda tahsil ko'rgach, o'n to'rt yoshida uni tog'asi Dublin universitetining ilohiyot fakultetiga o'qishga beradi. Jonatan universitetni tugatgan vaqtda Dublinda irland katoliklarining inglizlarga qarshi qo'zg'oloni yuz beradi. Shu paytda Irlandiyadan quvilgan ingliz oilalari qatori, yosh dinshunos olim Svift ham Dublinni tark etadi, kema-ga o'tirib, «katta er»ga, Angliyaga yo'l oladi. U Angliyada marhum otasining qalin do'sti, sobiq Uilyam Templning Mur-Park degan so'lim qishlog'ida boshpana topadi. Uilyam Templ uzoq vaqt Angliyaning Gollandiyadagi elchisi bo'lgan, obro'li odam edi. U adabiyot ixlosmandi, o'zi ham ijodkor edi. Shuning uchun, u iste'dodli yosh shogirdi Jonatan Sviftni o'ziga kotib qilib oladi va yaxshigina maosh to'lab turadi. Janob Templning Mur-Parkda katta va boy kutubxonasi bor edi, Svift o'z bilimlarini kamol toptirishda bu xazinadan juda yaxshi bahra olib, gazetalarga, maqola, pamflet, she'r va feletonlar yoza boshladi. Tabiiyki, yosh yozuvchi o'zining g'amxo'r ustози Templning asarlarini tuzatib, tahrir qilib berardi.

Mur-Parkda janob Templning ish boshqaruvchisi Jonsonning Ester-Yulduz ismli ziyrak va zehni asrandi qizchasi bor edi. Janob Templ uni o'ziga tutingan farzand qilib oladi. Yosh Svift janob Templga kotibligidan tashqari, mana shu qizchani ham muallimi va murabbiysi edi. Ester — Yulduz aqlli, barkamol qiz bo'lib voyaga etdi va ustoz Jonatan Sviftning bir umrli do'sti va sirdoshi bo'lib qoldi.

XVII asrning oxirlarida Fransiyada, keyinroq Angliyada qadimgi adabiyot tarafdorlari bilan yangi adabiyot tarafdorlari o'rtasida qizg'in bahslar bo'lib o'tdi. Bu adabiy bahsga janob Templ va uning shogirdi Svift ham qatnashdi.

O'shanda buyuk faylasuf olim Nikola Bualo qadimgi adabiyotni, folklorshunos, xalq ijodi muxlisi Sharl Perro yangi davr adabiyotini himoya qilib chiqdi. Svift 1697 yili shu bahsga bag'ishlab, (ustoz Templning topshirig'i bilan) «Kitoblar jangi» nomli mashhur hajviya-pamfletini yozdi. Sviftning bu ilk asarida qadimiy va yangi kitoblar ramziy ma'noda bir-biriga qarshi qo'shin tortishar, qadimgi yunon shoiri Pindar yangi ingliz shoiri Kauliga qarshi, ulug' «Iliada» ijodchisi Homer yangi qasidachi Draydenga qarshi jang qilishardi. Bu jangda Zevs, Afina, Apollon, Afroditalar qadimgi adabiyot qo'shinlarini himoya qilar, yangi davr adabiyotiga esa «Adabiy tanqid» nomli mayib-majruh «tangri» homiylik ko'rsatardi. Svift ijodiga xos kinoya, qochiriqlar mana shu ilk asaridayoq ko'rinib qoldi.

Qadimiy va yangi kitoblar o'rtasidagi jangda Sviftning o'zi ikkala tomonni himoya qildi. U hajviyasini o'rgimchak va asalari haqidagi hikoya bilan tugatdi. Sviftning fikricha, «Haqiqiy adib o'rgimchak singari o'z ichidan chiqqan to'qima iplari bilan tanob tortaverishi yaxshi emas, asl ijodkor asalariday hamma erda hayot materiali sharbatini yig'ib, uni san'at asaliga aylantirishi kerak» (Z.Grajdanskaya va boshqalar. «Chet el adabiyoti tarixi. XVIII asr» kitobidan. MGU, 1974 yil, 37-bet.)

1699 yilda Sviftning g'amxo'r ustoz Janob Templ vafot etgach, o'ttiz ikki yoshli adib Mur-Parkdan chiqib ketadi. Adib shundan so'ng Irlandiyaga qaytib, Larakor qishlog'ida cherkov noziri vazifasida ishlay boshlaydi. O'sha vaqtlarda cherkov ruhoniylari juda erkin fikrlashardi, ular turli latifa va hajviyalar to'qishar, sevgi mojarolari haqida she'r, hikoyalar yozishardi. «Qavmlarning ko'pchiligi katolik mazhabida bo'lgani uchun, — deb yozadi Z. Grajdanskaya, — ingliz cherkoviga hech kim kelmas, ko'pincha ruhoniyo voiz burchakda mudrab o'tirgan qorovulga qarab va'z aytardi. Svift esa ko'pincha hazil-mutoyibali yoki hajviy nutqlar ijod etar edi. Gohida esa u cherkovga qulf osib, Londonga ketib qolardi». O'sha vaqtlarda Irlandiya ruhoniylari hukmron Angliya ruhoniylari bilan huquqda teng emasdi. Inglizlar irland ruhoniylariga past nazar bilan qarab, ularning huquqlarini cheklab

qo'yishgan edi. Balandroq mansablarga irland ruhoniylari yaqinlashtirilmadi. Irlandiya hukumati vakillari shoir va hajvchi Sviftning obro'sidan foydalanib, o'z huquqlari uchun kurashda undan yordam so'rashadi. Svift bunga rozi bo'lib, ko'p yillar irlandlarning iltimosini amalga oshirish uchun Angliyaning martabali rahbarlari doirasiga yaqinlashdi, uzoq vaqt muzokaralar olib bordi.

Bir yili Svift o'zi tashkil etgan jurnalda mashhur «karomatgo'y» Ishaq Bikerstafga qarshi kurash ochdi. U, jurnalning bir sonida Bikerstafning falon yili, falon soatda olamdan o'tishini «bashorat qilib» yozib chiqdi. Keyinroq jurnalning boshqa bir sonida xuddi o'sha bashorat qilingan vaqtda uning o'lganligini e'lon qildi. Bu voqea katta shov-shuvlarga sabab bo'lib, Sviftning shuhrati yanada oshib ketdi. Hali o'lmagan Bikerstaf dushmani Sviftga qarshi qancha raddiya e'lon qilsayam, odamlar uning tirikligiga ishonmay qo'yishdi.

Qiroi saroyida galma-gal hukmronlik qilayotgan torilar bilan vigilar partiyasi Jonatan Sviftning o'tkir san'atkorligidan foydalanish maqsadida unga nisbatan izzat-hurmat ko'rsatib, saroyga yaqinlashtira boshlashdi. Svift bu yaqinlikning o'z xalqiga nafi tegishini o'ylab, rozi bo'ldi. U, qirolicha Annaning arzanda bosh vaziri, vigilarning rahbari gersog Malboro bilan do'stlashdi. Lekin vigilarning o'n yillik urushni davom ettirish tarafdori ekanligi, mansablaridan foydalanib, boyishga intilishi, olchoqligi adibga yoqmadi. Shuning uchun, u, xalqqa erkinlik va'da qilayotgan, qirg'in urushni to'xtatish tarafdori bo'lgan torilarni qo'llab-quvvatlay boshladi. Torilar boshlig'i gersog Bolingbrok ham Sviftga tog'-tog' va'dalar berib, sulh tuzish uchun kurash zarurligi haqida jamoatchilik fikrini uyg'otishda undan yordam so'radi. Adib o'zining o'tkir maqola va hajviyalari bilan Yevropadagi urushning xalq ommasiga juda katta zarar keltirayotganligini isbotlab, keng jamoatchilikni sulh uchun kurashga da'vat etdi. Yozuvchi, publitsist Svift torilar tomonidan turib, gersog Malboroning jinoiy ishlarini, urush bahonasida davlat pulini o'g'irlab, boyib ketganligini fosh etuvchi bir turkum maqolalar yozib, vigilarga qaqshatqich zarba berdi. Shunday qilib, 1711 yilda gersog Malboroning bosh qo'mondonlikdan olib tashlanishiga, torilarning davlat tepasiga kelishiga, 1713 yilda Angliya bilan Fransiya o'rtasida tarixiy Utrext sulhi tuzilishiga Jonatan Svift hal etuvchi ta'sir ko'rsatdi.

Atoqli jamoat arbobi bo'lishiga qaramay, Svift kamtarona yashadi. Uning Londondagi faqirona uyiga ministrilar va boshqa arboblilar maslahat so'rab kelib turishardi. U, torilarning «Ekszaminer» gazetasiga jamoatchilik asosida (haq olmasdan) muharrirlik qilar, qirolicha va ministrilarning nutqlarini yozishib, tahrir qilib berar edi.

Mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotini inqirozga uchratayotgan ana shu ixtiloflarga qarshi Jonatan Svift o'zining eng yaxshi asarlaridan biri «Bochka ertagi» hajvijasini yozdi. Adibning yozishicha, bir ota o'zining uch o'g'liga turli mol-mulk bilan birga uchta bir xil ko'ylak meros qoldiribdi. Ota o'g'illariga: «Hech qachon bu ko'ylaklarni buzib, tuzatib, o'zgartirmanglar, hamisha bir xil kiyininglar», deb vasiyat qilibdi. Farzandlar ota vasiyatiga etti yil amal qilishibdi. Ammo, shundan so'ng ular o'rtasida janjal chiqib, har kim o'z ko'ylagini o'zicha buzib, so'kib, tuzatadigan bo'libdi. To'ng'ich o'g'il Piter o'z ko'ylagini turli kashtalar, nishonlar bilan bezab tashlabdi. Kichik o'g'il Jekning ko'ylagi uvadasi chiqib, ilma-teshik bo'lib ketibdi. Faqat o'rtancha o'g'il Martin ko'ylagini o'zgartirmay, ota vasiyatiga amal qilishga urinibdi. Bu ertakda Svift xristian dinining turli mazhablari o'rtasidagi noaniqlikni fosh etadi.

Fransuz mutafakkiri Volter bu asarga qoyil qolib: «Svift o'g'illarga qamchi urganida, otasiga ham tegib ketadi», deya hajviyachining jur'atiga ishora qilgan edi.

Mavjud qonunlarga ko'ra, Svift ruhoniy bo'lgani uchun dunyoviy amaldorlikka (masalan, ministrlikka) saylanolmasdi. Mansabdor do'stlari Sviftga oliy diniy lavozim — episkoplikni olib berishga va'da qilishgan edi. Ammo, adib bu niyatiga ham etolmadi. Do'stlarining va'dalari yolg'on bo'lib chiqdi. Malika Anna aslzoda tabaqadan chiqmagan Sviftni jur'atli fikrlari uchun yaxshi ko'rmasdi. Ministr do'stlari esa uning qalami va xalq o'rtasidagi obo'sidan foydalanishnigina ko'zlardilar, xolos. Buyuk ingliz adibi, mashhur «Manmanlik bozori» romani avtori Uilyam Tekkereyning aytishicha, «Yepiskoplik nishoni kelayotgan kareta (soyabon arava) boshqa yo'ldan o'tib ketdi, Svift esa so'kinganicha, to'pponchasi osmonga o'q otib qolaverdi», Aksincha, Sviftni poytaxtdan chetlashtirish uchun, uni Dublindagi avliyo Patrik ibodatxonasiga nozir qilib tayinlashdi.

Angliyaning mashhur publitsisti bo'lgan adib o'zini dunyo ishlaridan chetga olmadi. Irland xalqining milliy ozodlik uchun kurashiga qizg'in yordam berdi. Va xuddi shu erda u o'ziga shon-shuhrat keltirgan asarlarini yozdi. Ayniqsa, Sviftning shoh asari, jahon adabiyotining ham durdonasi bo'lmish «Gulliverning sayohatlari» mana shu quvg'in yillari vujudga keldi.

Bu asardan Balzak, Dikkens, Mark Tven, Oskar Uayld, Jeyms Joys, Mixail Bulgakov hajv mahoratini o'rgandilar. Jonatan Svift asli ingliz bo'lib, avvallari Irlandiyaga past nazar bilan qaragan bo'lsa ham, haqiqatgo'y ijodkor sifatida har qadamda bechora irlandlarning insoniy huquqlari toptalayotganini ko'rib, jim tura olmadi. U, Dublinda ekanligida, Angliyaning hukmparast, olchoq lordlari

irland dehqonlarini xonavayron qilayotganligini, irland hukumatining barcha huquqlari tortib olinganligini, irland xalqining taqdiri Londonda hal etilayotganligini g'azab bilan fosh etuvchi asarlar yozdi.

Xuddi mana shu singari muammolar «Gulliverning sayohatlari»da ayniqsa, yorqin badiiy quvvat bilan aksini topdi. Aslida Jonatan Svift bu asarini boshqa bir buyuk ingliz adibi Daniel Defoning «Robinson Kruzo» romaniga hajv sifatida boshlagan edi. Afsuski, bir zamonda yashagan ikki buyuk adib bir-biriga yov edi. Defo ham, Svift ham bir-birini amaldorlarga xushomadgo'ylik qilishda, sotqinlikda ayblar edilar. «Robinson Kruzo»ning bir necha qismidan iborat davomi bo'lib, ularda qahramon mavjud qirollik tuzumida, adolatli qonunlar asosida oddiy mehnatkash odam o'z baxtini topadi, degan g'oyani ilgari surgan edi. Svift esa, aksincha, bir-biridan battar olchoq, ochko'z, molparast, tekinxo'r, takabbur qirollar va ministrilar hukmronlik qilgan jamiyatda inson hech qachon baxtini topolmasligini Gulliver sayohat qilgan o'lkalar timsolida ravshan ko'rsatadi.

Lemyuyel Gulliver mittivoilar o'lkasida Tog' odamga aylanadi. Oyog'i ostida minglab liliputlar uymalashadi. Gulliverning ro'molchasida chavandozlar ot o'ynatadi, qahramon 600 ta to'shakda uxlaydi. Darozlar o'lkasida esa Gulliverning o'zi mitti bo'lib qoladi.

Mittivoilar mamlakatida tuxumni uch tomonidan sindiruvchilar guruhi bilan poynagidan sindiruvchilar guruhi o'rtasida ashaddiy bahs boradi. «Tuxumni uchidan sindirishdan bosh tortganligi uchun o'n bir ming mutassib o'lim jazosiga hukm qilingan. Mana shu masalaga bag'ishlab yuzlarcha tom kitob yozilgan...» Adib bu bilan o'z zamonasidagi katoliklar va protestant mazhabidagi dindorlarning ashaddiy ixtiloflari aslida arzimas poydevorga qurilganligi, ammo, shu arzimas sabab tufayli juda katta qirg'in-barotlar yuz berayotganligini alamli qahqaha bilan tasvirlaydi.

Romanda hukumat rahbarlarining shaxsiga sig'inish, ularni dabdabali unvonlar bilan ulug'lash bunday masxara qilinadi: «Liliputiyaning qudratli imperatori, jahonning quvonchi va dahshati, podsholarning podshosi, insoniyatning eng ulug' farzandi, boshi quyoshga etgan, bahorday so'lim, yozday himmatli, kuz singari to'kin, qish singari qahrli Golbasto Momaren Evlem Gerdaylo Shefin Mollu Olli Gu Oliy hazratlari...»

Romanda Liliputiya'dagi ahmoqona tartiblardan yana biri — yuqori mansablarga qanday odamlar tanlanishi mana bunday o'tkir hajviy bo'yoqlarda tasvirlanadi: «Birorta amaldor vafot etsa yoki imperatorning g'azabiga uchrasa, bo'shagan lavo-

zimga da'vogar bo'lganlardan besh-olti kishi oliy hazratlari va butun saroy ahlini xushnud etib, dor o'ynab berish uchun imperatoridan izn so'rashadi. Kimki arqondan qulamay, hammadan balandga sakrasa, bosh o'rin o'shaniki bo'ladi». Mukofot olish tartiblari ham shunga o'xshash. Imperator tayoq o'ynatganida uning ustidan va ostidan chaqqonlik bilan likillab o'ta oluvchilarga oliy mukofotlar beriladi.

Svift o'z hayoti davomida Angliya hukumati rahbarlariga juda ko'p yaxshiliklar qilgan bo'lsa-da, ular adibga bergan va'dalarini tez unutishdi... Bundan insoniy g'ururi ozor topgan adib «Gulliverning sayohatlari»da bunday hazil qiladi: «Hamma odamlar amaldorlarning xotirasi pastligidan shikoyat qiladi... Shu vajdan, har bir odam birinchi ministr qabuliga kirib, arzini qisqa qilib aytganidan so'ng, esida qolishi uchun uni burnidan chimchilashi yoki qorniga bir tepishi kerak bo'ladi...»

«Gulliverning sayohatlari» avtorini «Robinzon Kruzo» avtorini Defo bilan bahslashar ekan, hayotning cheksiz rang-barangligini, murakkabligini, kulgili va fojiali voqealarga boyligini idrok etishda Daniel Defoga nisbatan mislsiz yuksaklikka ko'tariladi. Shu bilan birga u inson ruhiy holatlarini, qahramonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitni keng, batafsil tasvirlashni Defodan o'rganadi ham.

Darvoqe', buyuk fransuz rassomi, Gustav Dore Fransiya mumtoz adabiyoti otaxoni Fransua Rablening mashhur «Gargantuya va Pantagryuel» romaniga chizgan suvratlaridan birida adabiy dala maysazorida muallif (Rable) o'z kitobini ochib, keyingi davrlarning adiblariga ko'rsatib turgani, bir yonida shoir Gomer, bir yonida faylasuf Suqrot unga ustozlik qilayotgani, maysazorda esa keyingi davr adiblari Servantes, Bomarshe, Moler, Svift, Defo va boshqalar uning kitobidan shosha-pisha «ko'chirib» olayotganlari tasvirlangan. Bu hazil manzarada katta haqiqat bor. F. Rable o'z asarida butun insoniyatni nizo, janjallarsiz, qirg'in urushlarsiz, tinch-totuv yashashga chaqirgan edi. Chindan ham Jonatan Svift bu asardan juda yaxshi foydalanib, «Rablecha qahqaha»ni qiyomiga etkazgan.

Romanda Gulliver yana dengiz sayohatiga chiqib, Ulkanlar mamlakatiga boriqolganida o'zi liliput ahvoliga tushib qoladi. Ulkan fermer-dehqon «kichik odamcha»ni tomoshaxonada xalqqa ko'rsatib, rosa pul ishlaydi. Ulkanlar qirolining qizi bu xabarni eshitib, otasini ko'ndirib, dehqondan «qo'g'irchoq odamcha» Gulliverni sotib oladilar. Ulkanlar qiroliga unga g'amxo'rlik qilib, suhbatlar quradi. Bu suhbatlarda Gulliver o'zining buyuk vatani Angliyaning qiroliga va lordlar palatasini, ijtimoiy tartib-qonunlarni maqtaydi. Bu qonunlarga ko'ra Angliya hukumati ilm-ma'rifatli, vatan va millatga sodiq ziyolilarni quvg'in qilib, poraxo'r, o'g'ri, muttaham, urush — qirg'inlarni keltirib chiqaruvchi ig'vogarlarini

yuqori mansablarga ko'taradi. Suhbatlarda Gulliver sevimli vatani — Angliya tarixini aytib maqtanadi. Ulkanlar qirol bunday deydi: «Siz maqtagan tartib-qonunlaringiz ham, urush-qirg'inlardan iborat tarixingiz ham juda axmoqona va adolatsiz, razolatlardan iborat ekan».

Keyingi sayohatida Gulliver Sehrgarlar oroli Glabbdobdribga borib qoladi. Sehrgar qirol unga insoniyat tarixida o'tgan buyuk zotlarning ruhlarini chaqirib, suhbatlashtiradi. Sviftning qahramoni ruhlar bilan suhbatda biladiki, Buyuk Iskandar zaharlangan emas, balki ichkilikdan vafot etgan. Gulliver Yuliy Sezar va Brutning ruhlarini bilan gaplashganida, diktatorga nafratini va erkparvar Brutga muhabbatini bildiradi. Suhbatlarda aniqlanishicha, tarixda o'tgan buyuk zotlarning avlodlari asrlar o'tishi bilan maydalashibdi — ular tovlamachi, firibgar, aqldan ozgan, zolim odamlarga aylanibdilar. Tarixchilar esa yolg'onlarni yozib, eng buyuk jasoratlarni qo'rqqoqlik, dono maslahatlarni ahmoqlik, vatanparvarlikni xoinlik deb yozibdilar. Biz bu kinoyalarni o'qiganimizda sho'rolar davri o'zbek tarixchilari ham Sulton Mahmud, Jaloliddin, Amir Temurni, Boburni, Firrat, Cho'lponni zolim, xoin deb yozganlari esimizga tushadi.

Atoqli tarjimonlar Vahob Ro'zimatov, Sotiboldi Yo'ldoshev roman qahramonlarining ichki kechinmalarini va ularning nutqidagi kinoya, hajv ruhini o'zbekchada ifodalash uchun munosib so'z va iboralarni, zarur ohangni topa olganlar.

Asarning falsafiy utopiya darajasiga ko'tarilgan oxirgi qismida otlar aqlli zotlarga, odamlar maymunsimon aqlsiz maxluqlarga — exularga aylanadi. Yexularning eng xunugi va ahmog'i podsho bo'ladi. Bosh vazirning vazifasi — qirolini boshidan oyog'igacha yalab chiqish va unga yangi-yangi urg'ochilar topib kelishdan iborat. Yexularning ishi — hamma yoqni vayron etish, bir-birini qirib yo'qotish. Ular oltinga va boshqa yaltiroq toshlarga sajda qilishadi... Bu fantaziya achchiq haqiqat bor.

Jonaton Sviftning bu dohiyona asari oradan o'tgan ikki yarim asr davomida jahonning deyarli barcha tillariga tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etilgan. Roman Sotvoldi Yo'ldoshev tarjimasida o'zbek tilida ham bir necha bor nashr etilib, o'smirlar va yoshlarning sevimli kitobiga aylangan.

Mahkam MAHMUD,
Ortiqboy ABDULLAYEV,
filologiya fanlari nomzodlari.

MUNDARIJA

Birinchi qism	
LILIPUTIYAGA SAYOHAT	4
Ikkinchi qism	
BROBDINGNEGGA SAYOHAT	58
Uchinchi qism	
LAPUTU, BALNIBARBI, LAGGNEGG, GLABBDODDRIB VA YAPONIYAGA SAYOHAT	114
To'rtinchi qism	
GUIGNGNMLAR MAMLAKATIGA SAYOHAT	164
Izohlar	220
Kinoya va hajv ustasi	231

Jonatan Svift. Gulliverning sayohatlari. — Toshkent: SMI-ASIA, 2009.

Nashr etuvchi – A. Arapov

Muharrir – Sh. Salimov

Rassom – A. Mamadjanov

Dizayner – K. Abidjanov

Mentrapaj – A. Holmatov

Bosishga ruxsat etildi 25 dekabr 2009 y.

Adadi 4250 nusxa.

ISBN 978-9943-17-005-6

SMI-ASIA: 100000, Toshkent, C-1-15-25

www.smi-asia.uz

MEGA bosmaxonasida chop etilgan

ГУЛЛИВЕРНИНГ САЁҲАТЛАРИ

ЖОНАТАН СВИФТ

Азиз дўстлар!

XX аср ўрталаридан бошлаб мумтоз адабий меросимиз, ўзбек ва жаҳон адабиётининг энг сара дурдоналари илк маротаба нашриётимиз томонидан чоп этилиб, китобсеварларга армуғон этилган эди. 2016 йилдан қўп сонли китобхонлар талаб ва истакларини ҳисобга олган ҳолда, нашриётимиз хазинасидаги халқимиз маънавий мулкининг ажралмас қисмига айланган ушбу дурдоналарни янги кўринишда – замонавий дизайн ва матбаачиликнинг сўнгги ютуқлари асосида нашр этишга киришдик. Ўйлаймизки, ушбу тўхфамиз сизларга манзур бўлади.



ISBN 978-9943-03-660-4



9 789943 036604